Chekli elementlar usuli yordamida hosil qilingan ayirmali sxemaning turg‘unligini isbotlash qulay bo‘lishi uchun A matritsani birlik matritsa deb hisoblaymiz. Ω sohani chekli, ichki umumiy nuqtalarga ega bo‘lmagan elementlarga (kesmalarga) bo‘lamiz .Elementni (kesmani) K harfi bilan belgilaymiz. U holda $\Omega=\bigcup\limits_{K\subset\Omega} K$. $[0,T]$ kesmani N_t bo‘lakka bo‘lamiz.

$$t_k=\tau\cdot k,(k=0,\dots,N_t),\tau=\frac{T}{N_t}$$

Chekli elementlar usuli yordamida hosil qilingan ayirmali sxemaning turg‘unligini isbotlash uchun (1)-(3) aralash masala yagona yechimga ega va quyidagi shartlar

$$(Bu,u)\Big|_{x=\ell_2}-(Bu,u)\Big|_{x=\ell_1}\geq 0, \tag{11}$$

$$C+C^T\geq 0 \tag{12}$$

bajariladi deb faraz qilamiz.

Quyidagi sistemani ko‘rib chiqamiz.

$$Lu\equiv\tau B\frac{\partial u}{\partial x}(t,x)+(I+\tau\cdot C)u(t,x)=u(t-\tau,x)+\tau\cdot F(t,x). \tag{13}$$

Bu yerda I birlik matritsa.

Bichiziqli forma kiritamiz

$$a(u,v) \equiv (Lu,v)_K . \tag{14}$$

Bu yerda

$$(u,v)_K = \int_K u \cdot v dx. \tag{15}$$

Har bir element K da u yechimni $u_h \in (P_m(K))^M$ orqali approksimatsiya qilamiz. Bu yerda $(P_m(K))^M = P_m(K) \times P_m(K) \times \cdots \times P_m(K)$, $P_m(K)$ koeffitsiyentlari t ga bog‘liq bo‘lgan darajasi $\le m$, K da aniqlangan ko‘phadlar to‘plami.

U holda, har bir element K da, quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi.

$$\left(\tau B \frac{\partial u_h}{\partial x}(t_k,x) + (I + \tau \cdot C) u_h(t_k,x), v_h\right)_K = (u_h(t_{k-1},x) + \tau \cdot F_h(t_k,x), v_h)_K, \forall v_h \in (P_m(K))^M. \tag{16}$$

Agar $v_h(x) \in P_m(K)$ bazis funksiya[4] bo‘lsa (16) tenglikdan, element K da (1) sistemaning oshkormas ayirmali sxemasini hosil qilamiz.

Sxema turg‘unligini isbotlash uchun quyidagi operatorni kiritamiz

$$L^* v \equiv v - \tau B \frac{\partial v}{\partial x}(t,x) + \tau C^T v(t,x). \tag{17}$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

Agar $K = [\alpha, \beta]$ kesma bo‘lsa, u holda $\Gamma(K) = \{\alpha; \beta\}$ bo‘ladi.

$$(Du \cdot v)\big|_{\Gamma(K)} = (Du \cdot v)\big|_{x=\beta} + (Du \cdot v)\big|_{x=\alpha} = (Bu \cdot v)\big|_{x=\beta} - (Bu \cdot v)\big|_{x=\alpha}. \tag{18}$$

Bu yerda $D = nB$, n K kesmaga birlik tashqi normal.

Lemma-1

$$a(u,v) = \left(u, L^* v\right)_K + \tau (Du \cdot v)\big|_{\Gamma(K) - \Gamma^*(K)} + \tau (Du \cdot v)\big|_{\Gamma^*(K)}. \tag{19}$$

Bu yerda $\Gamma^*(K) = \Gamma(K) \cap \Gamma(\Omega)$.

Isbot.

$$a(u,v) \equiv (Lu,v)_K = \left(\tau B \frac{\partial u}{\partial x} + (I + \tau \cdot C) u, v\right)_K =$$

bo‘laklab integrallashni qo‘llaymiz.

$$= \tau \left((Du \cdot v)\big|_{\Gamma(K)} - \left(B \frac{\partial v}{\partial x}, u \right)_K \right) + \left((I + \tau \cdot C^T) v, u \right)_K =$$

$$= \left(v - \tau B \frac{\partial v}{\partial x} + \tau C^T v, u \right)_K + \tau (Du \cdot v)\big|_{\Gamma(K) - \Gamma^*(K)} + \tau (Du \cdot v)\big|_{\Gamma^*(K)}. \tag{20}$$

Lemma-1 isbot qilindi.

Lemma-2

$$a(u,u)\geq(u,u)_K+\frac{\tau}{2}(Du\cdot v)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+\frac{\tau}{2}(Du\cdot u)\big|_{\Gamma^*(K)}. \qquad (21)$$

Isbot.

Bir nechta sodda amallarni bajaramiz

$$\left(u,L^*u\right)_K=\left(u-\tau B\frac{\partial u}{\partial x}+\tau C^T u,u\right)_K=-\left(u+\tau B\frac{\partial u}{\partial x}+\tau Cu,u\right)_K+\left(2u+\tau Cu+\tau C^T u,u\right)_K=$$

$$=-a(u,u)+\left((2I+\tau(C+C^T))u,u\right)_K. \qquad (22)$$

(19) va (22) yordamida (12) shartni e'tiborga olib,quyidagini hosil qilamiz.

$$a(u,u)=\frac{1}{2}\left((2I+\tau(C+C^T))u,u\right)_K+\frac{\tau}{2}(Du\cdot u)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+$$
$$+\frac{\tau}{2}(Du\cdot u)\big|_{\Gamma^*(K)}\geq(u,u)_K+\frac{\tau}{2}(Du\cdot u)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+\frac{\tau}{2}(Du\cdot u)\big|_{\Gamma^*(K)}. \qquad (23)$$

Teorema.

Taqribiy yechim $u_h\in(P_m(K))^M$ K da bir qiymatli aniqlangan va barcha $k\leq\frac{T}{\tau}$ larda quyidagi tengsizlik o'rinli

$$\left\|u_h^k\right\|_\Omega^2\leq e^T\left\|\psi\right\|_\Omega^2+(T+1)(e^T-1)F \qquad (24)$$

Bu yerda norma $\|u\|_\Omega=\sqrt{\int_\Omega u\cdot udx}$, $F=\max_k\left\|F_h^k\right\|_\Omega^2$.

Isbot. Vaqt bo'yicha $t_{k-1}=\tau(k-1)$ qatlamgacha taqribiy yechim $u_h^{k-1}\in(P_m(K))^M$ qiymatlari topilgan va $v_h(x)\in P_m(K)$ bazis funksiya tanlangan, deb faraz qilsak $t_k=\tau k$ qatlamda, (16) tenglikdan, u_h^k ga nisbatan quyidagi chiziqli algebraik sistemani olamiz.

$$\left(\tau B\frac{\partial u_h}{\partial x}(t_k,x)+(I+\tau\cdot C)u_h(t_k,x),v_h\right)_K=(u_h(t_{k-1},x)+\tau\cdot F_h(t_k,x),v_h)_K. \qquad (25)$$

Oxirgi (25) chiziqli algebraik sistemani matritsa ko'rinishida yozamiz.

$$\overline{A}_h\overline{u}_h=\overline{b}_h. \qquad (26)$$

Agar $\overline{A}_h\overline{u}_h=0$ sistema trivial yechimga $\overline{u}_h\equiv0$ ega ekanligini ko'rsata olsak, u_h yechim bir qiymatli aniqlanganligi kelib chiqadi.Bu $\forall K$ da

$$\left(\tau B\frac{\partial u_h}{\partial x}(t_k,x)+(I+\tau\cdot C)u_h(t_k,x),v_h\right)_K=$$
$$=0,\forall v_h\in(P_m(K))^M \qquad (27)$$

bo'lsa $u_h=0$ ekanligini ko'rsatish bilan teng kuchli.

$v_h=u_h$ olib, (27) ning chap tomoni $a(u_h,v_h)$ ekanini e'tiborga olib 2-lemmadan quyidagi tengsizlikni olamiz.

$$\left(u_h,u_h\right)_K+\frac{\tau}{2}(D_hu_h\cdot u_h)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+\frac{\tau}{2}(D_hu_h\cdot u_h)\big|_{\Gamma^*(K)}\le 0. \qquad (28)$$

U holda $K\in\Omega_h$ ixtiyoriy element bo‘lgani uchun (28) tengsizlikdan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi.

$$\left(u_h,u_h\right)_\Omega+\frac{\tau}{2}\sum_{K\in\Omega}(D_hu_h\cdot u_h)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+\frac{\tau}{2}(D_hu_h\cdot u_h)\big|_{\Gamma(\Omega)}\le 0. \qquad (29)$$

Ko‘rinib turibdiki

$$\sum_{K\in\Omega}(D_hu_h\cdot u_h)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}\equiv 0. \qquad (30)$$

(30) ni va (11) shartni e’tiborga olib, (29) dan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi.

$$\left(u_h,u_h\right)_\Omega\le 0. \qquad (31)$$

Oxirgi tengsizlikdan $u_h\equiv 0$. 2-lemmaga ko‘ra (21) tengsizlikdan quyidagi tengsizlikni olamiz.

$$2\left(u_h^k,u_h^k\right)_K+\tau(D_hu_h^k\cdot u_h^k)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+\tau(D_hu_h^k\cdot u_h^k)\big|_{\Gamma^*(K)}\le 2(u_h^{k-1}+\tau\cdot F_h^k,u_h^k)_K. \qquad (32)$$

Bu yerda $u_h^k=u_h(t_k,x), u_h^{k-1}=u_h(t_{k-1},x), F_h^k=F_h(t_k,x)$. (32) tengsizlikni quyidagi ko‘rinishda yozamiz.

$$2\left\|u_h^k\right\|_K^2+\tau(D_hu_h^k\cdot u_h^k)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+\tau(D_hu_h^k\cdot u_h^k)\big|_{\Gamma^*(K)}\le 2(u_h^{k-1}+\tau\cdot F_h^k,u_h^k)_K\le$$
$$\left\|u_h^{k-1}+\tau\cdot F_h^k\right\|_K^2+\left\|u_h^k\right\|_K^2. \qquad (33)$$

Oxirgi tengsizlikdan quyidagi tengsizlikni olamiz:

$$\left\|u_h^k\right\|_K^2+\tau(D_hu_h^k\cdot u_h^k)\big|_{\Gamma(K)-\Gamma^*(K)}+\tau(D_hu_h^k\cdot u_h^k)\big|_{\Gamma^*(K)}\le\left\|u_h^{k-1}+\tau\cdot F_h^k\right\|_K^2\le$$
$$\le\left(\left\|u_h^{k-1}\right\|_K+\tau\left\|F_h^k\right\|_K\right)^2\le(\tau+1)\left\|u_h^{k-1}\right\|_K^2+(\tau^2+\tau)\left\|F_h^k\right\|_K^2. \qquad (34)$$

(30) ayniyatni va (11) shartni e’tiborga olib (34) tengsizlikdan quyidagi tengsizlik o‘rinli ekanligi kelib chiqadi.

$$\left\|u_h^k\right\|_\Omega^2\le(\tau+1)\left\|u_h^{k-1}\right\|_\Omega^2+(\tau^2+\tau)\left\|F_h^k\right\|_\Omega^2. \qquad (35)$$

Oxirgi tengsizlikdan

$$\left\|u_h^k\right\|_\Omega^2\le e^T\left\|\psi\right\|_\Omega^2+(T+1)(e^T-1)F \qquad (36)$$

kelib chiqadi. Bu yerda $F=\max_k\left\|F_h^k\right\|_\Omega^2$. Teorema isbot qilindi.

Ushbu teorema CHEU bilan olingan (1)-(3) masalaning oshkormas sxemasi (11) va (12) shartlar bajarilganda turg‘un ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu algoritm asosida, Delphi-7 dasturlash tilida, sxema turg‘unligining yetarli shartlari bo‘lgan (11) va (12) shartlarni tekshirib shartlar bajarilmagan holatda

bajarilmaganligi haqida ma'lumot beradigan, (1)-(3) masalani sonli yechadigan va yechim grafigini chizadigan dastur yaratilgan.

4. Olingan natijalar.

1-masala[2].

$\Omega=\{x:0<x<2\pi\}$ bo'lsin. $G=\{(t,x):t\in(0,T),\ x\in\Omega\}$ sohada

$$u_t+\begin{pmatrix}0&-1\\-1&0\end{pmatrix}u_x+\begin{pmatrix}0&0\\0&\beta\end{pmatrix}u=\begin{pmatrix}0\\\varphi\end{pmatrix}$$

sistemani

$x=0$ va $x=2\pi$ da

$$u_2=0$$

chegaraviy shartni va

$t=0$ da

$$u_1=0, u_2=\sqrt{2}\sin x$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi u vektor-funksiyani topish talab qilingan bo'lsin. Bu yerda $\beta=1$ va $\varphi=\sqrt{2}\sin x\cos\sqrt{2}t-\sin x\sin\sqrt{2}t$.

$t>0$ uchun bunday aralash masalaning aniq yechimi

$$u_1=\cos x\sin\sqrt{2}t, u_2=\sqrt{2}\sin x\cos\sqrt{2}t$$

bo'ladi.

Berilgan aralash masalada teorema shartlarining bajarilishini tekshirib ko'rish qiyin emas.

Pastdagi jadvalda $\|u\|_\Omega=\sqrt{\int_\Omega u\cdot u dx}$ normada, x va vaqt bo'yicha bo'laklar soni har xil bo'lganda, $T=5$ dagi aniq yechim bilan chekli elementlar usuli orqali olingan yechim farqi $\|u-v\|_\Omega$ qanday bo'lgani keltirilgan. Bu yerda $v=(v_1,v_2)^T$ chekli elementlar usuli orqali olingan yechim.

N_t	$N_x=10$	$N_x=20$	$N_x=40$	$N_x=80$	$N_x=160$
10	0.9454	0.9910	1.0025	1.0054	1.0061
20	0.5554	0.6071	0.6209	0.6244	0.6253
40	0.2851	0.3336	0.3489	0.3528	0.3538
80	0.1440	0.1683	0.1836	0.1878	0.1889
160	0.1114	0.0790	0.0922	0.0964	0.0975
320	0.1235	0.0378	0.0443	0.0483	0.0494
640	0.1166	0.0281	0.0202	0.0236	0.0247
1200	0.1039	0.0303	0.0101	0.0120	0.0130
2400	0.1014	0.0301	0.0070	0.0055	0.0063

$T=5$ da aniq yechim bilan taqribiy yechim farqi $\|u-v\|_{\Omega}$.

1 va 2 rasmlarda taqribiy yechim grafigi qizil rangda va aniq yechim grafigi yashil rangda tasvirlangan.



1-rasm. v_1 va u_1 yechim grafiklari. $T=5, N_t=640, N_x=40$.



2-rasm. v_2 va u_2 yechim grafiklari. $T=5,\ N_t=640, N_x=40$.

XULOSA

Simmetrik *t*-giperbolik sistemalar uchun qoyilgan aralash masala uchun oshkormas ayirmali sxema qurildi. Ma'lum bir shartlar bajarilganda simmetrik *t*-giperbolik sistema uchun chekli elementlar usuli turg'unligi isbotlandi.Simmetrik *t*-giperbolik sistema uchun qoyilgan aralash masalani chekli elementlar usuli bilan sonli yechish algoritmi yaratildi. Ushbu algoritm asosida simmetrik *t*-giperbolik sistema uchun qoyilgan aralash masalani chekli elementlar usuli bilan sonli yechadigan dastur yaratildi. Dasturning to'g'ri ishlashi modelli masalada tekshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. S. K. Godunov Uravneniya matematicheskoy fiziki. M.:Nauka,1979,372s.
2. R. S. Falk and G. R. Richter. Explicit finite element methods for symmetric hyperbolic equations. SIAM J. NUMER. ANAL.Vol.36,No.3 pp. 935-952
3. S.K.Godunov, A.V.Zabrodin i dr.Chislennoye resheniye mnogomernix zadach gazovoy dinamiki. M.:Nauka,1976. 75s.
4. L. J. Segerlind.Applied Finite Element Analysis. John Wiley & Sons, Inc. 1976. 289-308 s.

ЕР МОНИТОРИНГИНИ ЮРИТИШ УЧУН КАРТОГРАФИК МЕТОДЛАР АСОСИДА ЭЛЕКТРОН РАҚАМЛИ КАРТАЛАР ТУЗИШ

Бердиев Дилшод Фахриддин ўғли
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти “Геология ва кончилик иши” факультети ўқитувчиси.
dilshodberdiyev708@gmail.ru

Хазратқулов Сирожиддин Зойржон ўғли
Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш муҳандислари институти. Миллий тадқиқот унверситети, Қарши ирригатсия ва агротехнологиялар институти “Қишлоқ хўжалиги механизасиялаш” факультети талабаси
sirojiddinzomin1999@gmail.com

Ниёзов Қувончбек Холмирза ўғли
Мустақил тадқиқотчи “Ўздаверлойиҳа” ДИЛИ Фарғона бўлинмаси директори

АННОТАЦИЯ

Мақолада қишлоқ хўжалиги ерлари унумдорлигини ошириб бориш, ер мониторингини юритиш карталари маълумотлар базасини яратиш, карталар геодезик, математик ва географик асосларини ишлаб чиқиш, кадастр карталарини тузиш принциплари, усуллари ҳамда уларни такомиллаштириш ҳақида маълумотлар берилган. Соха ривожланиб, замонавий технологияларнинг кундан кунга ишлаш даражаси яхшиланмоқда. Охирги йилларида янги ва замонавий технологияларни қўллаш бўйича жуда катта ишлар амалга оширилди. Ишлаб чиқаришга фан - техника ютуқларини, янги техника ва илғор технологияларни жумладан, электрон карталарни жорий этиш ишлари йилдан - йилга жадаллашиб бормоқда. Шу ўринда айтиб ўтишимиз жоизки, электрон карта яратишгача бўлан жараёнда қўлланиладиган асбоб ускуналар ва дастурларнинг янгилари жорий этилиб соҳанинг юксалишига йўл очиб берилаётганлиги масаласи ёритиб берилган.

Калит сўзлар: электрон тахеометрлар, электрон теодолитлар ва GPS спутникли қабул қилгич (приёмник)лар, нивелир, PANORAMA, ArcGIS, координа, электрон рақамли карталар.

КИРИШ

Жаҳонда қишлоқ хўжалик ер майдонларидан самарали ва оқилона фойдаланишда, уларни миқдор ва сифат жиҳатдан таҳлил этишда ахборотлар базасини яратиш ва бунда замонавий ГАТ дастурларидан фойдаланиш асосида қишлоқ хўжалик ер майдонларининг янги электрон карталарни яратиш технологиясини ишлаб чиқишга қаратилган мақсадли тадқиқотлар алоҳида аҳамият касб этмоқда. Шу жиҳатдан қишлоқ хўжалиги ерлари унумдорлигини ошириш, ер кадастр ишларини замон технологияларига мувофиқ юритиш ва тезкор мониторинг олиб бориш ҳамда давлат ер кадастрини картографик тадқиқ қилишни замонавий технологиялар асосида такомиллаштириш муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

Республикамизда ҳам қишлоқ хўжалиги ер майдонларини рақамли электрон картларини яратиш муҳим масалалардан ҳисобланади. Шу сабабли геодезик-картографик ишларни тўғри йўлга қўйиш ва уни амалга оширишда замонавий геоахборот тизими технологияларидан фойдаланиш бугунги куннинг долзарб муммоларидан бири саналади.

Ер мониторингини юритиш учун рақамли карталарни тузишни такомиллаштиришда назарий, методологик ва амалий масалалари юзасидан мамлакатимизда кейинги йилларда бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борилган. Лекин соҳадаги мавжуд тизимли муаммоларни ҳал қилишнинг концептуал асослари, айниқса унинг ташкилий-иқтисодий механизмларини янада такомиллаштириш юзасидан алоҳида илмий-амалий тадқиқотлар ўтказишни тақозо қилмоқда.

Республикамизда қишлоқ хўжалиги ер майдонларини мониторинг қилиш ишлари Ўзбекистон Республикасининг “Ер кодекси”, “Ер мониторинги тўғрисида” ги Низом ҳамда бошқа бир қатор меъёрий ҳужжатлар асосида олиб борилади [1].

Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралда қабул қилинган ПФ 4947 сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармонинида ер ресурслари, манзил, йўл муҳандислик инфратузилмаси, туризм соҳаларида GPS технологияларидан фойдаланган ҳолда тезкор маълумот йиғиш ва электрон давлат хизматларини кўрсатишда фойдаланиш масалалари белгилаб берилган. Мазкур вазифаларни амалга ошириш, яъни суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш, қишлоқ хўжалик ер майдонларидан оқилона ва самарали фойдаланиш ҳамда шу асосида давлат ер кадастрини ГАТ технологияси ёрдамида картографик таъминлашнинг илмий асосларини яратиш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Республикамизда давлат ер кадастр ишларини ташкил этиш ва юритиш ҳамда замонавий методлар асосида кадастр карталарини яратиш масалалари И.А.Гиниятов, Т.П.Магазинщиков, А.Б.Борисов, А.Г.Юнусов, А.И.Иванов, В.П.Мазалов, А.А.Королев, С.А.Авезбоев, Э.Ю.Сафаров. И.Мусаев, С.Н.Волков, А.Р.Бобожонов, Қ.Р.Рахмонов, А.Ш.Ғофуров, Г.А Толиповлар илмий тадқиқот ишларида ёритилган. Лекин юқорида номлари зикр этилган олимларнинг илмий ишларида янги аср технологиялари даврида ер кадастри кўрсаткичлари, уларни тўплаш йўллари, ГАТ технологияларининг роли, кадастр карталарини тузиш принциплари, методикаси ҳамда уларни такомиллаштириш ва ривожлантириш билан боғлиқ бўлган муаммолар етарли даражада ўрганилмаган.

АСОСИЙ ҚИСМ

Барча карталарни геометрик жиҳатдан аниқ ва тасвирларнинг тўғри бўлиши математик асосга боғлиқ. Математик асос ўз навбатида бир қанча элементлардан ташкил топган. Ҳамма карталар картографик проекциялар асосида тузилади ва Ер эллипсоидини текис юзага ёки қоғозга тушириш йўлларини кўрсатиб беради. Картографик тўр (географик кенглик ва географик узоқлик) эса географик элементларнинг ер юзасидаги ўрнини тасвирлайди [3].

Ўзбекистон ҳудуди вилоятлар, иқтисодий ва табиий географик районларнинг ҳамда чет мамлакатларнинг карталари ҳам тўғри конусли проекцияларда тузилади. Бун проекцияда хатоликлар тасвирланаётган ҳудудлар майдонига боғлиқ бўлиб, умуман катта аниқлик талаб қилмайди.

Майда масштабли карталарда хатоликлар оддий усулларда аниқланади. Бунда картадаги географик тўр ҳамда глобусдаги географик тўрлар ўзаро таққосланади.

Табиий карталарни тузишда эса мажмуали ва тизимли картага олиш принципларига таянилади. Тизимли картага олишда мамлакатимизда мавжуд бўлган мажмуали картага олишнинг энг охирги ютуқларидан фойдаланилади. Унда ҳар бир ҳодиса табиатнинг ажралмас бир бўлаги деб қаралади, уни картада тасвирлаш шу ҳодисанинг кўрсаткичларига ва тавсифига қараб олиб борилади. Мажмуали картага олиш ўз вазифаси доирасида ҳодисаларни ўрганиш, уларни баҳолаш ва башоратлаш ҳақида маълумотлар берадиган карталарни тузишни ўз олдига мақсад қилиб қўяди.

Карталарни тузишнинг яна бир принципи – бу тизимли картага олишдир. Бунда объект ёки ҳодиса тизим сифатида қаралади. Агар тизим ҳудудга эга бўлса, у геотизим дейилади ва тадқиқотлар тизимли ёндашув асосида олиб борилади. Тизимли принципда ҳар бир ҳодиса бутуннинг бир бўлаги деб қаралади, бутунни ўрганишда турли, бир-бири билан боғлиқ бўлган ҳодисалар

тизим ёки геотизим деб ўрганилади. Геотизимлар ҳозирги адабиётларда турлича таърифланмоқда. Биз геотизимни турли табиий элементлардан ташкил топган, бир-бири билан маълум даражада алоқадор ва турли ўлчамга эга алоҳида ҳудуд деб тушунамиз. Геотизимларнинг асосий хусусиятлари қуйидагилар: тизим таркибга эга; ҳудудий жиҳатдан бутун; динамик ҳолатда; компонентлар орасида ўзаро алоқадорлик мавжуд ва ҳ.к.

Ер кадастр карталарини тузишда ҳам табиий крталарни асос сифатида олиш лозим. Кадастр объектларини картага олишни илмий жиҳатдан бир томонлама яъни фақат картография ёки кадастр фанлари нуқтаи-назардан ўрганиш мумкин эмас.

Кадастр тизимини юриштишда ва объектларини картага олишда фан соҳасининг услубий ва технологик хусусиятларини ҳисобга олинади. Белгиланган умумий ёки маълум бир вазифалар асосида кадастр карталари турларини яратиш уларни умумлаштириш орқали мавзули карталарга асос солинади.

Илмий жиҳатидан кадастр картографиясини яратиш - картография ва кадастр фанлари бирлашмасида кашф қилинади ва бу жараёнда мутахассис зарур илмий билимларга эга бўлиши ва карта яратишнинг усулларини тўғри танлай билиши зарур.

Мутахассислар соҳага тегишли карталарни яратишда кадастр ва картографияга тегишли ахборотлар билан таъминланиши зарур ва уларни таҳлил этиш жиҳатидан маълум тажриба ва билимга эга бўлиши талаб этилади.

Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ер мониторинги карталарини яратишнинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагиларга боғлиқ.

- кадастрга ташкилий жиҳатидан бўйсуниш ва унинг мақсади, вазифалари ва функцияларига қатъий риоя қилиш (карталарнинг тематик таркибида, уларнинг мазмуни, аниқлиги ва долзарблиги);

- ички мувофиқлаштириш ва уйғунликни таъминлаш (карталарни яратиш ва улардан фойдаланиш усулларини тўғри танлаш);

- намойиш қилинадиган объектнинг мураккаб тузилиши (ландшафт таркибий қисмларини, тегишли ижтимоий муносабатларни ва уларнинг иштирокчиларини, шу жумладан тартибга солиш муносабатларини бирлаштирадиган кадастр элементи);

- объектнинг мураккаблиги, кўп даражали, кўп қиррали кўриниши;

- вақтни (навбати), ҳудудни (ҳудудий бўлинмалар тармоғи) ва бошқарув тизимини
(таркибий даражаларни) намойиш қилишнинг узлуксизлиги;

Ушбу хусусиятларнинг ўзаро умумлаштирилиши маълум бир кадастр

тизими доирасида кадастр карталарини яратиш ва улардан функционал жиҳатидан фойдаланиш даражасини аниқлаш имкониятини яратади.

Ер мониторингини юритишда картографик таъминлаш зарур ахборотларнинг мавжудлигига боғлиқ. Ер мониторингини юритишда карталарни яратишдаги ахборотларнинг ўзига хос хусусиятларига тўхталадиган бўлсак, биринчи навбатда таркибий жиҳатдан келтирилган картанинг хусусияти ва бажарадиган функциялари нуқтаи назаридан изоҳлаш мумкин.

Ер мониторинги маълумотларини олишнинг статистик усуллари анъанавий равишда мавзуни таҳлилий тавсифи шаклида акс эттирилади.

Асосан ер мониторинги карталариинг асосини ер кадастри маълумотлари ташкил қилади бу карталар орқали барча кадастр план ва картографик материаллар тайёрланади.

План-картографик материаллар - бу ер майдонларининг фазовий жойлашиши, ҳолати ҳамда улардан фойдаланиш мақсадида коғозда маълум бир масштабда акс эттирилган материаллардир. Бунда жойлашиш шакли, томонларининг нисбатлари, ёнма-ён жойлашган қўшни ерлар билан чегараларини белгилаш орқали тавсифланади. Бу материаллар ер кадастри маълумотларини кўргазмалигини таъминлайди, майдонларни туширилиб қолдирилишидан ёки қайтарилишидан огоҳлантиради, зарур бўлган маълумотларни доимий равишда ва объектив тарзда олишга имкон беради.

Давлат ер кадастри карталари тўпланган маълумотлар асосида турли маштабларда тайёрланади. Картага олишнинг масштаби, унинг мақсадидан келиб чиқиб белигиланади:

1. Локал - йирик масштабли карталар (1:100 000 гача);
2. Регионал - ўрта масштабли (1:200 000 – 1:500 000);
3. Субглобал - майда масштабли (1:1 000 000 – 10 000 000);
4. Глобал - 1:10 000 000 ва ундан майда масштабли.

ГАТ даги математик – картографик моделлар. Геоахборот тизимлари тарихий жиҳатдан ахборот – қидирув тизими ва кейинроқ картографик маълумотлар баъзасида ривожланган. Ахборот тизимлари картани автоматлаштирилган даражада яратиш босқичи сифатида кўрилган. Кейинроқ ГАТ вазифаларига математик – картографик моделлаштириш блоклари киритила бошлаган Картага географик таҳлил инструменти сифатида қараб ва фойдаланувчи тизим ости тизимини ажратиб, ГАТ картадан фойдаланиш соҳасини ҳам қамраб ола бошлади. Ҳозир вақтда геоахборот вазифалари мажмуавий тизимли тадқиқотларда хусусий географик ва мавзуга оид фанлар интеграцияси учун уни асосий қилиш картографик ишлаб чиқариш доирасидан ҳам чиқмоқда.

Картографик ахборот билиш воситаси каби, ахборот узатиш усули сифатида ва картадан олинадиган маълумотлар сифатида қаралади. Картографик ахборотнинг билиш аспекти шундан иборатки, карта нафақат реал дунё объектлари ҳақидаги турли хил маълумотларни олиш, балки уларни ўрганиш ва янги конуниятларини топиш имкониятини ҳам беради. Картографик ахборот – атрофимиздаги дунё ҳақидаги билим модели. Билимни реализация қилиш ахборотни чиқариш билан содир бўлади, ахборотдан фойдаланиш янги билимлар ва иккаламчи (модель) ахборотни дунёга келтиради. Тикуков В. С (80) ўзининг "Картографияда моделлаштириш" китобида ҳолатларнинг кенглик ва мазмунан тавсифларининг математик – картографик моделларининг қуйидаги синфларини ажратиб кўрсатади:

ҳолатлар тузилиши моделлари:

ҳолатларнинг ўзаро алоқалари моделлар:

ҳолатларни тарқалиш (ривожланиш) динамикаси моделлари.

Ҳолатларнинг кенглик тавсифи тузилишини тасвирлаш учун нуқтали объектларни кенгликда жойлашуви модели, "гравитацион" модели, юза қисм кенглиги географик тақсимланиши аппроксимациясидан фойдаланилади. Ҳолатининг мазмунан тавсифи тузилиши моделлари кўрсаткичлар мажмуаси бўйича ҳудудий бирликларни гуруҳлаш алгоритмлари билан тақдим қилинган бўлиб, уларда омилли таҳлил ва асосий компонентлар методидан фойдаланилади (89).

Ҳодисаларнинг кенглик ва мазмунан тавсифларининг ўзаро алоқаларини тадқиқ қилиш аввало корреляцион моделлари (кенглик) ва таксономик моделлар (мазмун) бир мунча кам фойдаланилади.

Ҳодисаларни кенгликда тарқалиши диффузион, стохастик ва "гравитацион моделлар ёрдамида кузатилади ҳодисаларни мазмунан ривожланиши динамикаси моделларига рефессион модели ва Марковский занжир киради.

Рақамли карталарга ГАТ да ишлов бериш технология.

Рақамли топографик карталар мавзуга оид маълумотларни ягона ҳудудий боғлашни таъминловчи рақамли топографик асосларни яратиш учун асосий маълумотлар манбаи ҳисобланиб, географик ахборот тизимларига ишлов бериш туфайли катта аҳамиятга эга XX аср охирларида картографик ишлаб чиқаришни кенг миқиёсда автоматлаштириш ва компьютерлаштириш натижасида шундай катта ҳудуд бўлган Красноярск ўлкаси учун картографик моделларни яратиш имконияти туғилди.

Рақамли карталарни яратишда ГАТ дан фойдаланиш бир қатор устунликларни беради. Картага рақамли модель сифатида ёндашув лойиҳалаштириш ва ҳужжатларга ишлов беришнинг автоматлашган тизимидан

фойдаланиш имкониятини беради. ГАТ иловаларини яратиш тиллари, шунингдек maplnfo ва Arc View қатламлари билан ишлаш имкониятини берувчи кутубхоналарни яратиш топографик карта планшетлари серияларига ишлов беришни автоматлаштириш учун фойдаланиши мумкин (58). ГАТ рақамли карталарни тезкор тираж қилиш имкониятини беради. Ягона топографик асос баъзасида мавзуга оид карталарнинг бутун сериясини қуриш мумкин, кенглик маълумотларини қатлам – қатлам ташкил этиш турли хилдаги режа қатламларини камбинация қилиш йўли билан ҳолатлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни велзуал таҳлил қилиш имкониятини беради.

Бошқа тарафдан, ГАТ Давлат стандартлари ва Россия картографиясининг тармоқ стандартларининг ҳамма талабларини ҳисобга олиб, карталарни жиҳозлашнинг етарлича воситаларига эга эмас. Бу геоахборот тизимлари ва рақамли картография олдига бошиданоқ турли хил вазифалар қўйилиши билан изоҳланади. ГАТ биринчи навбатда кенглик ахборотларини автоматлашган тарзда таҳлил қилишга мўлжалланган, рақамли картография тизими эса босма маҳсулотни яратишга мўлжалланган. ГАТ маълумотлари ва рақамли карта моделлари ҳам бир – биридан фарқ қилади.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда қишлоқ хўжалиги ерлари унумдорлигини ошириб бориш, ер кадастр ишларини замон технологияларига мувофиқ юритиш ва тезкор мониторинг олиб бориш ҳамда давлат ер кадастрини картографик тадқиқ қилишнинг методологик асосларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш ишлари давр талаби хисобланади. Шу боиз, ер кадастри карталари маълумотлар базасини яратиш, карталар геодезик, математик ва географик асосларини ишлаб чиқиш, кадастр карталарини тузиш принциплари, усуллари ҳамда уларни такомиллаштириш кадастр ишларини тўғри ташкил қилишда катта ахамиятга эга.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Т. Мирзалиев, И Мусаев. Картография. Тошкент: “ИЛМ ЗИЁ”, 2007.
2. “Картография” илмий ишлаб чиқариш давлат корхонаси ташкил топганлигининг 80 йиллигига бағишланган илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 28 март 2014й. www.mapping.com.
3. Замонавий сувни тежайдиган технологияларни жорий қилиш тартиби. (Вазирлар Махкамасининг 2013 йил 21 июндаги 176-сон Қарори).
4. И.Мусаев. Ў.Мухторов. Эргашов М. Геоаборот тизим ва технологиялари. Тошкент 2015.59 б.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ КУЙЛАШ МАЛАКАЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Абдуллаева Айгул Махан қизи
Низомий номидаги Тошкент Давлат Педагогика Университети
Мусиқа таълими ва санъат йўналиши магистранти
www.abdullayeva.161920@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг мусиқий асарларнинг мазмуни, уларнинг суръати, ифода воситаларини аниқлашда ўз мустақил фикрини билдиришда, куйлаш малакаларини ташкил этиш жараёнлари муҳим омил сифатида кўрсатилган.

Калит сўзлар: Жанр, мазмун, шакл, вокал-хор, малака, суръат, ифода воситалари, овоз аппарати, нутқ, диафрагма.

PROCESSES OF ORGANIZING PEN SKILLS OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN

ABSTRACT

In this article, the process of organizing singing skills is an important factor in expressing the independent opinion of primary school students in determining the content of musical works, their tempo, means of expression.

Key words: Genre, content, form, vocal choir, skill, tempo, expressive means, sound apparatus, speech, diaphragm.

КИРИШ

МУСИҚА НАФОСАТ ТАРБИЯСИНИНГ ОМИЛИ. ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МУСИҚАНИ ИДРОК ҚИЛИБ ҚАБУЛ ҚИЛИШИДА КУЙЛАШ МАЛАКАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.

Мусиқа нафосат тарбиясининг омили.

Мусиқа инсонни ғаройиб куй ва оҳанглар дунёсига бошлайди, ҳис-туйғуларни нозиклаштирибгина қолмай дидини чархлайди, гўзалликни севишга ўргатади. Мусиқа санъати- ҳозирги кунда ёш авлоднинг камолотга етишишида нафосат тарбиясининг муҳим омили сифатида эътироф этилмоқда. Чунки бу жараён мактабдан бошлаб шаклланади ва ёш авлоднинг ички дунёсини бойитиш

билан бирга бутун ҳаёти давомида унга ҳамроҳлик қилади. Мусиқа илмининг назарияси ва амалиёти ўлчов, усул, суръат, тезлик, саноқ чизмалари, характери, урғу (акцент), кучли ва кучсиз ҳиссалари, гармонияси, товушлар оралиғи, интерваллар, товушқатор (звуковедение), овозлар мутаносиблиги, куй яратиш ва бошқа кўп жиҳатлари математик ҳисоб билан боғлиқдир. Мусиқий тарбиянинг пойдевори бошланғич синфларда шакллантирилади. Бошланғич синфларда куйланадиган қўшиқлар ўқувчиларни она Ватанга садоқат руҳида тарбиялайди. Бундан ташқари ушбу қўшиқлар бахтли болалик мавзуларини тараннум этади. Бошланғич синф ўқувчиларининг айниқса учинчи синф ўқувчиларининг психологик-физиологик характерига кўра, диққат эътибори турғун, овоз аппаратлари шаклланган, хотираси кучли, нутқи равон шаклланган бўлади. Айнан санаб ўтилган хусусиятларга кўра ўқувчилар ўқув жараёнида куйлаш ва вокал-хор малакаларига эга бўладилар. Бундан ташқари улар, мусиқанинг ҳаётийлиги, мазмуни ва жанрлари, тузилиши ва шакли, унинг бошқа санъат турлари билан алоқаси ҳақидаги билимларни, нотага қараб куйлаш, икки овозда куйлашнинг бошланғич малакаларини эгаллайдилар. Шу билан бир қаторда, мусиқа асарларининг ҳарактери, суръати, мазмуни, ифода воситаларини аниқлашда мустақил фикр билдира оладилар. Бугунги кунда мусиқа дарсларини илмий методик жиҳатдан такомиллаштириб, ҳозирги замон талабларига мослаштириб олиб бориш ҳам педагоглар олдига қўйилган катта вазифалардан биридир.

Ўқувчиларнинг мусиқани идрок қилиб қабул қилишида куйлаш малакаларининг аҳамияти.

Ўқувчиларнинг мусиқани идрок қилиб қабул қилишида куйлаш малакалари ҳам аҳамиятга эгадир. Чунки улар куйлаш жараёнида ўз овоз ижросини бошқаришни, устозлари ижросини эшитиб, ўзбек халқ қўшиқлари, жаҳон ва ўзбек композиторлари қўшиқларидан намуналарни куйлашни ўрганадилар. Куйлаш жараёни ҳам бир нечта қисмларга бўлинади. Куйлаш жараёнида ўқитувчи турли усуллардан фойдаланади. Биринчи ўринда вокал эшитишни тарбиялаш ва мукаммаллаштириб боришга назорат билан барча вокал сифатларини ривожлантириш туради. Ўқувчининг овоз жарангдорлигини тўғри ташкил этиш ҳақидаги тасаввурни ишлаб чиқиш зарур. Дарсда куйлаш жараёни мусиқий машқ, ўқувчи ёши ҳисобга олинган асарлар асосида ташкил қилинади. Тўғри танланган мусиқий манба товушни тарбиялайди. Машқ - бу билим олишнинг асосий воситасидир. Манбаларни мусиқий, вокал - техник ва ижро қийинчиликларини эътиборга олиб таҳлил этиш - ўқитувчининг зарурий сифати ҳисобланади. Мусиқа идроки орқали турли ҳарактердаги қўшиқларни ҳиссий сезишни ўқувчиларда тарбиялаш ҳам мураккаб жараёндир. Мусиқий эшитиш

(слух) ва мусиқий овозни ривожлантиришда ўқувчилардан турли баландликдаги товушларни ажрата олиш ва уларни соф оҳангда ушлаб туриш талаб этилади. Бундан ташқари ўқувчилар турли чўзимдаги товушларни эшитишларини ва ажрата олишларини, овозлар ҳаракати яъни юқоридан пастга, пастдан юқорига ҳаракатланаётган товушларни куйлай олишини ҳам тўғри ташкил қилиш керак. Куйлаш маҳоратини эгаллашда: қўшиқни ўз вақтида бошлаб, ўз вақтида тугатиш, куйлашни бошлашдан олдин ва мусиқий иборалар орасида нафас олиш, қўшиқни соф енгил овозда, ҳаракатлануччан темпда, маъноли, мусиқий ибораларга урғу берган ҳолда куйлаш, унли ва ундош товушларни аниқ талаффуз қилиш талаб этилади. Ўқувчилар ўтирган ҳолда куйлаганда тўғри ўтиришлари (ўриндиққа суянмаган ҳолда) зарур. Чунки бу ҳолатда уларнинг асосий нафас мускули яъни диафрагма тўғри ишлаши керак, оёқлар ерга мустаҳкам қўйилган, бошлари елкадан кўтарилмаган, оғиз эркин очилиши, лаблар эса эластик ҳаракат қилишига ўқитувчи эътибор қаратиши талаб этилади. Куйлашда тўғри нафас олиш, асарни тинглаш, қўшиқ оҳангини табиий ва аниқ ҳиргоя қилиш, сўзларни аниқ талафуз қилиш, ички эшитишни шакллантириш, мусиқий жанрларни ажрата олиш, асар мазмунини гапириб бериш, асар таҳлилига ижодий ёндашув, интонациянинг тозалиги, жамоани тинглашни , машқ ва қўшиқ куйлаганда ўқитувчининг дирижёрлик ишораларига қараб ансамбл бўлиб куйлай олиш, ижрочилик турларини ижро садоларидан фарқлаш каби кўникма ва малакаларни ўқувчилар куйлаш жараёнида эгалайдилар. Куйлашда қўшиқ репертуарини ўқувчиларнинг ёшини ҳисобга олган ҳолда тузиш мақсадга мувофиқдир. Куйлашга ўргатишда овоз аппарати аъзолари куйловчилик вазифаларига махсус мослаштирилиши, куйловчилик товуши, жаранг характери ҳақидаги тасаввурлар мусиқий - мазмунли ифодалилик билан белгиланиши ва овоз аппарати ишига таъсир этишини ҳамда ўқувчиларнинг овоз диапазонидан келиб чиққан ҳолда қўшиқ ўргатиш ва ўргатилаётган асар ҳақида тасаввурга эга бўлиш, яккахон ва жамоада куйлаганда тинглай олиш малакаларини шакллантириш жараёнларини тўғри ташкил қилиш муҳимдир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ушбу мақола юзасидан бир нечта мусиқий адабиётлардан фойдаланилди ҳамда уларда билдирилган фикр ва мулоҳазалар юзасидан ўз қарашларимни баён қилишга ҳаракат қилдим.

Бу борада ўқувчиларнинг мусиқани идрок қилиб қабул қилишида куйлаш малакалари ҳам аҳамиятга эгалигини ҳар бир ёш мутахассис билиши керак. Чунки ўқувчилар айнан куйлаш жараёнида ўз овоз ижросини бошқаришни, устозлари ижросини эшитиб, ўзбек халқ қўшиқлари, жаҳон ва

ўзбек композиторлари қўшиқларидан намуналарни куйлашни ўрганадилар. Т.М.Орлова ва С.И. Бекинанинг Учите детей петь номли китобида ҳам айнан ўқувчиларнинг куйлаш малакаларини ошириш учун жуда кўплаб методлардан фойдаланиш мумкинлиги келтирилган.

НАТИЖАЛАР

Куйлаш маҳоратини эгаллашда: қўшиқни ўз вақтида бошлаб, ўз вақтида тугатиш, куйлашни бошлашдан олдин ва мусиқий иборалар орасида нафас олиш, қўшиқни соф енгил овозда, ҳаракатланучан темпда, маъноли, мусиқий ибораларга урғу берган ҳолда куйлаш, унли ва ундош товушларни аниқ талаффуз қилиш талаб этилади. Ўқувчилар ўтирган ҳолда куйлаганда тўғри ўтиришлари (ўриндиққа суянмаган ҳолда) зарур. Чунки бу ҳолатда уларнинг асосий нафас мускули яъни диафрагма тўғри ишлаши керак, оёқлар ерга мустаҳкам қўйилган, бошлари елкадан кўтарилмаган, оғиз эркин очилиши, лаблар эса эластик ҳаракат қилишига ўқитувчи эътибор қаратиши талаб этилади. Куйлашда тўғри нафас олиш, асарни тинглаш, қўшиқ оҳангини табиий ва аниқ ҳиргоя қилиш, сўзларни аниқ талафуз қилиш, ички эшитишни шакллантириш, мусиқий жанрларни ажрата олиш, асар мазмунини гапириб бериш, асар таҳлилига ижодий ёндашув, интонациянинг тозалиги, жамоани тинглашни , машқ ва қўшиқ куйлаганда ўқитувчининг дирижёрлик ишораларига қараб ансамбл бўлиб куйлай олиш, ижрочилик турларини ижро садоларидан фарқлаш каби кўникма ва малакаларни ўқувчилар куйлаш жараёнида эгалайдилар.

МУҲОКАМА

Биринчи ўринда вокал эшитишни тарбиялаш ва мукаммаллаштириб боришга назорат билан барча вокал сифатларини ривожлантириш туради. Ўқувчининг овоз жарангдорлигини тўғри ташкил этиш ҳақидаги тасаввурни ишлаб чиқиш зарур. Дарсда куйлаш жараёни мусиқий машқ, ўқувчи ёши ҳисобга олинган асарлар асосида ташкил қилинади. Тўғри танланган мусиқий манба товушни тарбиялайди.

ХУЛОСА

Куйлашга ўргатишда овоз аппарати аъзолари куйловчилик вазифаларига махсус мослаштирилиши, куйловчилик товуши, жаранг характери ҳақидаги тасаввурлар мусиқий - мазмунли ифодалилик билан белгиланиши ва овоз аппарати ишига таъсир этишини ҳамда ўқувчиларнинг овоз диапазонидан келиб чиққан ҳолда қўшиқ ўргатиш ва ўргатилаётган асар ҳақида тасаввурга эга бўлиш,

яккахон ва жамоада куйлаганда тинглай олиш малакаларини шакллантириш жараёнларини тўғри ташкил қилиш муҳимдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. М.Абралова, Д.Галиева, А.Қўшаев- Мусиқа. Ўқитувчилар учун методик қўлланма.Тошкент 2008.
2. Н.Б.Қаҳҳаров Вокал асослари (Овоз ва фортепиано учун) Тошкент «Иқтисод-молия» 2008
3. Х.Нурматов, Н.Норхўжаев Мусиқа дарслиги 3-синф учун. Тошкент 2010.
4. Т.М.Орлова, С.И. Бекина. Учите детей петь. Моква 1987

УДК 532.546

МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ГИДРОДИНАМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В ГАЗОВОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ

Бурнашев Владимир Фитратович
д .ф.-м.н., старший научный сотрудник Самаркандского государственного университета
e-mail: vladimir.burnash@mail.ru

Ибрагимова Дилшода Анвар қизи
Магистрант Самаркандского государственного университета
e-mail: ibragimova_dilshoda@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Рассматривается задача моделирования гидродинамических процессов многофазной фильтрации в газоконденсатном пласте при его заводнении. Динамика многофазного течения в газоконденсатном пласте при его заводнении, включающем в качестве составных элементов газоконденсатный пласт и водонапорный пласт рассматривается в рамках β – модели трехфазной фильтрации. В рамках вычислительного эксперимента проведены исследования процессов, происходящих в нефтяном пласте при закачке воды под водогазовый контакт (ВГК), в газовый пласт и их комбинации. Установлены как положительные, так и отрицательные стороны исследуемых технологий.

Ключевые слова: вода, вычислительный эксперимент, газовый пласт, модель, конденсат, математическое моделирование, насыщенность, фаза, фильтрация, численный метод.

ANNOTATSIYA

Gaz kondensati kollektorini suv bosishi davrida ko‘p fazali filtirlashning Gidrodinamik jarayonlarini modellashtirish muammosi ko‘rib chiqilgan. Gaz kondensati rezervuaridagi ko‘p fazali oqimning dinamikasi uning suv bosishi, uning tarkibiga gaz kondensati ombori va tarkibiy elementlar sifatida suv ombori kiradi , b-uch fazali filtirlash modeli doirasida. Hisoblash eksperimenti doirasida suv-gaz kontakti (WGC) ostidagi suvni gaz omboriga quyish paytida neft qatlamida sodir bo‘ladigan jarayonlar va ularning birikmalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi. O‘rganilayotgan texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlandi.

Kalit so‘zlar: suv, hisoblash tajribasi, gaz kollektori, model, kondensat, matematik modellashtirish , to‘yinganlik, faza filtirlash, sonly usul.

ABSTRACT

The problem of modeling the hydrodynamic processes of multiphase filtration in a gas consensate reservoir during its flooding is considered. The dynamics of multiphase flow in a gas condensate reservoir during its flooding, which includes a gas condensate reservoir and a water reservoir as constituent elements, is considered within the framework of the β-three-phase filtration model. Within the framework of a computational experiment, studies f the processes occurring in the oil reservoir during the injection of water under the water-gas contact(WGC), into the gas reservoir and their combinations were carried out. Both positive and negative aspects of the studied thechnologies are established.

Keywords: water, computational experiment, gas reservoir, model, condensate, mathematical modeling, saturation, phase, filtration, numerical method.

1. ВВЕДЕНИЕ

Одним из способов добычи газа, обеспечивающим достаточно высокую эффективность, является заводнение газовых месторождений. От правильного выбора системы заводнения, определения его наилучших технологических параметров зависит эффективность разработки этих месторождений. Выбор оптимальной системы заводнения может быть основан на результатах наблюдений промышленной эксплуатации, проведении натурных экспериментов или проведении вычислительных экспериментов с использованием математического моделирования и средств вычислительной техники. Результатах наблюдений промышленной эксплуатации могут лишь констатировать изменения характеристик при применяемых системах заводнения. Проведение натурных экспериментов связано с большими затратами финансовых и временных ресурсов. Кроме того применение неправильной системы заводнения может привести к снижению нефтеотдачи и к не предсказуемым последствиям. Поэтому самым экономичным и безопасным способом повышения добычи по нашему мнению является проведение серии вычислительных эксперементов на ЭВМ и выбора на их основе оптимальной системы заводнения.

Модель фильтрации газированной жидкости, предложенная в [1] предполагала, что, во-первых, фильтрация изотермическая и происходит при локально термодинамическом равновесии, во-вторых, многокомпонентная углеводородная смесь является псевдобинарной, при этом многокомпонентная

смесь заменялась двухфазной, состоящей из нефтяной и газовой фазы. Математическая постановка задачи в поршневом вытеснении одной жидкости другой принадлежит [2]. В указанных работах исследовалась модель поршневого (фронтального) вытеснения, причем предполагалось, что пористая среда и жидкость несжимаемы. Унифицированный ряд математических моделей, описывающих процесс вытеснения, дан в [3[. Наиболее полное исследование стационарной фильтрации газированной нефти дано в работе [4]. Изучению фильтрации смешивающихся жидкостей и газов в пористой среде посвящены работы [5]. В работе [6] дан обзор основных моделей теории многофазной фильтрации. Математическую модель движения газоконденсатной смеси сформулировалана в [7]. В ней движение газоконденсатной смеси рассматривается по аналогии с движением газированной нефти, при этом в первом приближении предполагается, что газовая фаза подчиняется законам идеального газа и не меняет своей плотности с выпадением конденсата, относительная фазовая проницаемость для нее равна единице, выпадающий конденсат неподвижен, вязкость фаз не зависит от давления и т.д. Теория фильтрации газированной жидкости для описания особенностей установившейся фильтрации газоконденсатной смеси рассмотрена в работе [8]. В ней автор также принимает, что ретроградная конденсация приводит только к изменению эффективной проницаемости для газовой фазы, и пренебрегает изменением его состава. С использованием отмеченных выше результатов в [9] предложена модель фильтрации газоконденсатной смеси в трещиновато-пористой среде, в которой породу, насыщенную газоконденсатной смесью, представляют средой, состоящей из системы трещин и блоков, т.е. имеюей двойную пористость, и выписывает уравнение движения газоконденсатной смеси для трещин и блоков, а также соотношения, определяющие массообмен между ними. Разработка гидродинамической модели фильтрации газоконденсатной смеси, в которой рассматривается совместное течение взаиморастворимых жидкостей, с самого начала велась в двух направлениях. Первое направление охватывает разработку моделей течения двухфазной углеводородной жидкости с произвольным числом компонентов, второе связывает исследования в отмеченном направлении с идеей бинарной модели, т.е. движение газоконденсатной смеси (или любой многокомпонентной углеводородной системы) представляется как движение двухфазной и двухкомпонентной жидкости. В [10] выведена система уравнений движения для компонентов. При этом предполагалось, что движение подчиняется обобщенному закону Дарси, процесс изотермический, плотности жидкости и газовой фаз, а также вязкости фаз являются функциями давления и состава.

Приведенная ими система дифференциальных уравнений с соответствующими замыкающими соотношениями представляет собой замкнутую систему уравнений, определяющую течение многокомпонентной двухфазной жидкости в пористой среде при соблюдении локального термодинамического равновесия. В [11] продолжены начатые раннее исследования с учетом термодинамической неравновесности. Вывеяны дифференциальные уравнения движения двухфазной многокомпонентной углеводородной жидкости, учитывающие диффузионные потоки компонентов в фазах и перенос их через многофазную поверхность за счет разности химических потенциалов. К замыкающим соотношениям добавляются зависимости химических потенциалов от состава и давления. В работе [12] приведена замкнутая система уравнений, описывающих неизотермическую фильтрацию многокомпонентных жидкостей, и показано, что химические потенциалы, вязкости и плотности фаз зависят не только от состава фаз и давления, но и от температуры. Большое внимание уделено вопросам фильтрации многокомпонентной жидкости, где на основании численных расчетов равновесных процессов раз газирования (конденсации) установлена значительность движения состава смеси на изотермы раз газирования и предложен простой метод оценки необходимости использования фазовых соотношений при исследовании фильтрации реальных газожидкостных смесей. Кроме того, дано системное описание результатов исследований по стационарной фильтрации многокомпонентной углеводородной жидкости в условиях равновесного и неравновесного массообмена между фазами и оценено влияние предельной термодинамической неравновесности на показатели стационарной фильтрации. Комплекс вопросов по теории фильтрации многокомпонентных систем рассмотрен также в [12]. Авторы вывели уравнения изотермической фильтрации с фазовыми переходами и с учетом силы тяжести, а также уравнения, описывающие неизотермическую фильтрацию с учетом массообмена между фазами, пренебрегая диффузионным потоком в фазах. Вопросы, связанные с фильтрацией газоконденсатной смеси рассмотрены также в работах [13-15] В [16] исследуются вопросы построения моделей течения газоконденсатной смеси и на примере двухкомпонентной смеси определяет влияние ее состава на фактор конденсатонасыщенности, показывает, что при выводе уравнений неразрывности можно учитывать неравновесность процесса через диффузию компонентов в фазах, описывает систему уравнений фильтрации газоконденсатной смеси с учетом фазовых соотношений, предполагая, что смесь углеводородов можно рассматривать как двух или трехкомпонентную, обсуждается выбор системы параметров, характеризующих процесс нестационарной фильтрации газоконденсатной смеси. Бинарная модель

изотермической фильтрации в пористой среде газоконденсатной смеси была предложена в [17], в которой масса углеводородов делится на четыре группы со своими плотностями: часть пластовой газовой фазы, которая после сепаратора становится коммерческим газом и остальная часть газовой фазы - часть пластовой жидкой фазы, которая по выходу из сепаратора становится коммерческим газом и остальная часть жидкой фазы. В качестве закона фильтрации для жидкой фазы используется обобщенный закон Дарси. Окончательное описание этой модели дано в работе [18]. В работе [19] дана модель фильтрации многокомпонентных смесей с фазовыми переходами, в которой вводятся независимые переменные, представляющие собой суммарные мольные доли компонент смеси, позволяющие освободиться от задания сложных многопараметрических зависимостей фазовых составов, их плотностей, молекулярных весов и вязкостей, и т.д., значения которых рассчитываются внутри самой задачи. Подобный подход использовался также в работах [2, 3].

Представление газоконденсатной смеси в виде однофазной многокомпонентной среды не совсем корректно, так как физические характеристики конденсата довольно существенно отличаются от характеристик газа. Применение же бинарной модели для описания фильтрации нефтегазоконденсатной смеси невозможно ввиду существенного влияния нефти и воды на процесс фильтрации. Поэтому для описания процессов фильтрации нефтегазоконденсатной смеси предпочтительно использовать модели многофазной многокомпонентной фильтрации, что и делается в данной работе.

2. ПОСТАНОВКА ЗАДАЧИ

Для описания фильтрации газоконденсатной смеси используем следующий подход: газоконденсатную смесь представим как трехфазную систему, состоящую из водяной, конденсатной и газовой фаз. Причем воду и конденсат считаем нелетучими жидкостями, газ - растворимым в жидкостях, а конденсат может находиться как в жидком так и газообразном состоянии. При этом предполагается, что вода - смачивающая фаза, конденсат имеет промежуточную смачиваемость, а газ - не смачивающая фаза. Пластовые жидкости рассматриваются как раствор, состоящий из двух компонент: жидкости и газ при стандартных нормальных условиях. Предполагается так же, что флюиды в пласте находятся при постоянной температуре и в состоянии термодинамического равновесия. При таких условиях зависимость давление - объем - температура может быть представлена с помощью объемных коэффициентов:

$$B_1 = \frac{[V_1]_{ny}}{[V_1]_{cy}}, \quad (1)$$

$$B_2 = \frac{[V_2 + V_{21}]_{ny}}{[V_2]_{cy}}, \quad (2)$$

$$B_3 = \frac{[V_3 + V_{31}]_{ny}}{[V_3]_{cy}}, \quad (3)$$

где $[V_\alpha]_{ny}$ - объем занятый фиксированной массой фазой α (α =1,2,3 , индекс 1 соответствует газовой фазе, 2 - водяной фазе, 3 конденсатной фазе); $[V_\alpha]_{cy}$ - объем занятый фазой α при нормальных условиях; $[V_{21}]_{ny}$, $[V_{31}]_{ny}$- объемы растворенного газа соответственно в воде и нефти в пластовых условиях.

Массообмен между жидкостями и газом учтем с помощью коэффициентов растворимости газа в жидкостях

$$R_2 = \frac{[V_{21}]_{ny}}{[V_2]_{cy}}, \quad R_3 = \frac{[V_{31}]_{ny}}{[V_3]_{cy}}, \quad (4)$$

и конденсатосодержания в газовой фазе

$$C = \frac{[V_{31}]_{ny}}{[V_1]_{cy}}. \quad (5)$$

Плотности фаз в пластовых условиях отнесенные к плотностям в нормальных условиях представим в виде

$$\rho_1 = \frac{1}{B_1}\left[(1 - C\bar{\gamma})\rho_{1cy} + C\rho_{4cy}\right], \quad (6)$$

$$\rho_2 = \frac{1}{B_2}\left(\rho_{2cy} + R_2\rho_{1cy}\right), \quad (7)$$

$$\rho_3 = \frac{1}{B_3}\left(\rho_{3cy} + R_3\rho_{1cy}\right). \quad (8)$$

Тогда система дифференциальных уравнений описывающих фильтрацию газо-кондесатной смеси имеет вид [23]

$$\frac{\partial}{\partial t}\left[\frac{mS_1}{B_1}(1 - C\gamma) + \frac{mS_2R_2}{B_2} + \frac{mS_3R_3}{B_3}\right] +$$

$$+\nabla\cdot\left[\frac{W_1}{B_1}(1 - C\gamma) + \frac{W_2R_2}{B_2} + \frac{W_3R_3}{B_3}\right] = Q_1, \quad (9)$$

$$\frac{\partial}{\partial t}\left[\frac{mS_2}{B_2}\right]+\nabla\cdot\left[\frac{W_2}{B_2}\right]=Q_2, \qquad (10)$$

$$\frac{\partial}{\partial t}\left[\frac{mS_3}{B_3}+\frac{mS_1C}{B_1}\right]+\nabla\cdot\left[\frac{W_3}{B_3}+\frac{W_1C}{B_1}\right]=Q_3. \qquad (11)$$

где: индексы 1, 2, 3 - соответствуют газу, воде и конденсату; S_α , B_α , Q_α , ($\alpha=\overline{1,3}$) - насыщенности, объемные коэффициенты и суммарный дебит скважин, m - пористость пласта, R_2, R_3 - растворимость газа в воде и конденсате, C - содержание конденсата в газовой фазе $\bar{\gamma}=\frac{\gamma_4}{M_4}22.41\frac{293}{273}$ (отношение удельных весов конденсата в жидкой и газовой фазах), M_4 - молекулярная масса конденсата, t - время , W_α - вектор фазовых скоростей

$$W_\alpha=-\frac{Kf_\alpha}{\mu_\alpha}(\nabla p_\alpha-\gamma_\alpha\nabla Z), \qquad (12)$$

K - абсолютная проницаемость пласта; f_α - относительные фазовые проницаемости; μ_α - вязкость; γ_α - удельный вес; p_α - вектор фазовых давлений.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz echish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning ustivor vazifalaridandir" [11].

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida farzandlarimizning estetik idroki, hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish; tarbiyalanuvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish va takomillashtirish; estetik tarbiyada tarbiyalanuvchilar o'yin folklorining o'rni va ahamiyati, tarbiyalanuvchilar folklor-etnografik dastalari-estetik tarbiya markazi ekanligi, vorislik, ustoz-shogirdlik an'analarining pedagogik, axloqiy-estetik ahamiyati, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha san'ati - sirk, dorbozlik, askiya, baxshi-shoirchilik, dostonchilik, ertakchilik, qiziqchilik, taqlidgo'ylik, maddohlik, qiraotxonlik, qissaxonlik, otunlik, voizlik, bo'zaxo'rlik alyorlari kabi san'atlarining tutgan o'rni va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati, xalq an'anaviy sporti, fizkulturasi-farzandlar jismoniy baquvvatligi va etukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi, tarbiyalanuvchilar o'yin folklorining pedagogik tarbiyaviy ahamiyati, xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayohatning, savdo-sotiq va tijoratning o'rni, jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarida xalqning qiziqarli tomosha san'ati, ahloq-odob va ta'limning uyg'unligi va o'ziga xosligi, xalq sporti va jismoniy tarbiyasida jinsiy tafovutlarga ahamiyat berishning axloqiy-aqliy ahamiyati; xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uyg'unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov-daraxtlar, o'simliklar va giyohlarga ruxsat; suv, borliq-atrofga insoniy munosabat-xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asoslaridan biri ekanligi, odatlar, udumlar, rasm-rusumlar, marosimlar, irim-sirimlar, qarg'ish va olqish-duolar, tabiat, diniy bayramlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, xalq ommaviy bayram-sayllari "Navro'z", "Mehrjon", "Hayit-ro'za", "Hayit bayrami" va boshqalarning; bolaning dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, tish chiqishi, ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-

[11] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yangi yil arafasida – 2016 yil 30-dekabr kuni "Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muxim omili" mavzusida mamlakatimizning etakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashgandagi nutqi

bosh kiydirish, besh, etti kun, o‘n bir kunligi, bir yilligi, uch, to‘rt, besh yilligining alohida bayram qilinishi, o‘quv muassasasiga borishi, sunnat qilinishi, kokil qo‘yish, kokil oldirish, mo‘ylov oshi, uylanish-nikoh to‘yi, birinchi farzand ko‘rish, qirq, ellik, oltmish yoshlar tantanalari, payg‘ambar yoshi, etmish, sakson, to‘qson yillik yubileylari, kumush to‘y, oltin to‘y, marvarid to‘y va boshqa bayram-sayllar, to‘y-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an’analarning ta’lim-tarbiyaviy, pedagogik yo‘nalishi, ahamiyati va shu kabilar.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Farmonida[12] 41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish. 2022–2026 yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish bo‘yicha dasturni amalga oshirish, deb ta’kidlab o‘tilgan. Shunday ekan, ushbu dasturning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim muassasalari xodimlari o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etishlari lozim.

Qur’oni Karim, Hadis hamda Sharq mutafakkirlarining axloq-odobga oid qarashlariga doir parchalar ham mazkur qo‘llanmaning sahifalarini bezashi tabiiydir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga oid materiallarni bamisoli ummonga qiyos qilish mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining manbalarini asosan uch turga bo‘lib o‘rganish mumkin (2-rasm).

2-rasm



[12] 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq nazdida, inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo'lib tug'ilmaydi – u birday tug'iladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, mahalla-kuy, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat va tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros-oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi sa'y-harakatlari hal qiluvchi o'rin tutadi. Xalq ta'kidlashicha, bola boshdan to'g'ri, haqqoniy tarbiyalansa – u kelgusida yaxshi inson bo'lib etishadi, egri yo'lda tarbiyalansa – yomon kishiga aylanadi. Zero "ko'chat boshdan, bola yoshdan" maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bosh yo'nalishidir.

El-yurt uchun har tomonlama mukammal insonni tarbiyalashga qaratilgan "O'zbek xalq pedagogikasi" ham ayrim shaxslar yoxud bir-ikki jamoa – ular qanchalik iqtidorli-iste'dodli bo'lishmasin, uni xalqimiz asrlar bilan o'lchanuvchi hayotida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan udimlari, sa'y-harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aql-zakovatlari bilan yaratilgan.

Hamisha safarlarda bo'lib, o'zga yurt kishilari bilan muloqotlarda bo'lish, izlanishlar olib borishdan toliqmaslik kabi xislatlar o'zbek xalqi xarakteriga xos fazilatlardandir. Insonparvarlik, baynalmilallik, hushyorlik, zukkolik, topqirlik, bilimdonlik, uquvlikni o'ziga e'tiqod qilib olgan o'zbek xalq pedagogikasi ayni choqda SHarq odobnomasi, ibratnomasidan doimiy ravishda bahramand bo'lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go'zal namunalarini o'ziga qabul qilib olgan.

Endi biz shular xususida o'zimizning fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo'lmish Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari o'zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma'rifatni targ'ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Navoiyning mashhur "Xamsa" sini, Imom al-Buxoriyning "As-sahih" hadislar to'plamini, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi ko'plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo'lib, ular ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o'z navbatida yuqorida sanab o'tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga etkazgandir. SHunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni

izchil ravishda takomillashtirib borishdir[13].

Ma'lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog'langandir. SHuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarning aksariyati, mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan.

Shunday ekan, biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to'g'ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, doimo millatlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlikni va isoniyatga nisbatan qilinadigan har qanday zo'ravonlikka qarshi g'oyalarni targ'ib etib kelgan.

Xalk og'zaki ijodi – bu yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi bo'lib, do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat; yaxshilik va yomonlikning oqibati; halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi; adolat, insof va insofsizlik, do'st-birodarlik, og'a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati; botirlik va qo'rqoqlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoat va sabrsizlikning oqibati; qadr va qadrsizlik, muhabbat, vafo va bevafolik, tajribakorlik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylik va nosamimiylik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, reja va rejasizlik, me'yor va me'yorsizlik, mas'uliyat va mas'uliyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, tabiatni e'zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatlari: kattaga hurmat, yoshga mehr-shafqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, to'y va motam, farzand va farzandsizlik, kiyinish, so'zlash, yurish-turish, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati kabi udumlar, rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an'analardan iboratdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodining asosini bir qancha janrlarni o'z ichiga oladi. Shularning ayrimlari haqida quyida jikr yuritiladi: (3-rasm).

1. **Epik ijod namunasi** - Bu qahramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy dostonlar bo'lib, ular ishq-muhabbat vafo qanday bo'lishligi, o'zligini tanish, or-nomus, burchni anglash, iymon-e'tiqodli bo'lish, inson va hayvonot dunyosi, qiyinchiliklar va mushkul ahvollarni mardona enga olish, qat'iyatlik, iroda, matonat kabi xislatlardan iboratdir.

2. **Qo'shiqlar -** Lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari; "YOr-yorlar"; "Allalar", yig'i-yo'qlovlar; o'lim, yanchiq, bayram-sayllar qo'shiqlari; folklor namunalari va boshqalardan iborat bo'lib, ular go'zallik, samimiyat, mehr-shafqat, orzu-umid, quvonch-shodlik, g'am-g'ussa kabi tuyg'ularni tarannum etish orqali kishilarda chuqur insoniy tuyg'ularini o'stiradi. Insonlarda hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

[13] Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Moliya-iqtisod", 2019. – 388 b.

3-rasm



3. Ertaklar - Bu orqali kishilar sirli-sehrli olam bilan tanishadi hamda unga oid bilimi, tushunchalari boyiydi, yaxshi odamlardagi yaxshi xislatlar, yomonlardagi badxulqlardan xabardor bo‘lib, yaxshilikka mehri toblanadi, yomonlikka nafrati ortadi.

4. Maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so‘zlar, aforistik iboralar - Bular xalq donishmadchiligining yuksak badiiy timsoli bo‘lib, ular qisqa, sodda ammo, xar birining ma’nolari juda keng bo‘ladi.

5. Asotirlar, afsona va rivoyatlar - Bular donolar donoligi, ibrati, tabiatni asrab-avaylash, qadriga etish, saqlash, chiroyiga chiroy qo‘shishga bo‘lgan ishtiyoqni o‘stirish, ekologik tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va kamol toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda uzoq asrlar davomida ta’lim-tarbiya masalasi va vositasi bo‘lib kelgan xalqning pedagogik qarashlarini o‘rganish va yosh avlodga etkazish vazifasi turibdiki, bu vazifani bajarish yo‘qolish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz, axloqimiz, urf-odat, rasm-rusumlarimizni, udumlarimizni, an’analarimizni asrab qolish va tiklash uchun nihoyatda zarurdir.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ushbu mavzuda o‘zbek xalq pedagogikasi fani va uning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rni, barkamol insonni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati, o‘zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi hamda xalq og‘zaki ijodining janrlari xususida atroflicha fikrlar bayon qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Ta’lim to‘grisida”gi qonun O‘RQ-637-сон, 23.09.2020 yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 26-noyabrdagi “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-sonli qarori
3. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yangi yil arafasida – 2016 yil 30-dekabr kuni “Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili” mavzusida mamlakatimizning etakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashgandagi nutqi
5. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya-iqtisod”, 2019. – 388 b.

YARIM O‘QDA BERILGAN SHTURM-LIUVILL CHEGARAVIY MASALASI HAMDA VEYL-TITCHMARSH FUNKSIYASI VA SPEKTRAL FUNKSIYA ORASIDAGI BOG‘LANISH

Ne’matov Akbarjon Begimqulovich
Samarqand Davlat universiteti o‘qituvchisi, O‘zbekiston
akbar.1969@mail.ru

Eshtemirov Eshtemir Salim o‘g‘li
Samarqand Davlat universiteti 2-bosqich magistranti, O‘zbekiston
toshtemir9696@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yarim o‘qda berilgan SHturm-Liuvill chegaraviy masalasi hamda Veyl-Titchmarsh funksiyasi va spektral funksiya orasidagi bog‘lanish o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Yarim o‘qda berilgan SHturm – Liuvill chegaraviy masalasi, Veyl-Titchmarsh funksiya, Spektral funksiya, Xos qiymat.

ABSTRACT

This paper examines the Sturm-Liouville boundary value problem given in the semicircle and the relationship between the Weil-Titchmarsh function and the spectral function.

Key words: Sturm-Liouville boundary value problem, eigenvalue, spectral function, spectr, direct problem.

Teorema 1. Agar $m(\tau)$ – Veyl nuqtasi yoki veyl doirasiga tegishli bo‘lgan biror nuqta bo‘lsa, u holda ixtiyoriy $\tau \in C\backslash R$ kompleks son uchun ushbu $\begin{cases} -y'' + q(x)y = \tau(y), \\ y'(0) = hy(0), \end{cases}$ $(0 \leq x \leq \infty)$, (bu yerda $q(x) \in [0, \infty)$ haqiqiy funksiya, h ixtiyoriy haqiqiy son va τ kompleks parametr) tenglamaning

$$\varphi(x,\tau) = \theta(x,\tau) + m(\tau)\omega(x,\tau)$$

yechimi $L^2(0,\infty)$ fazoga tegishli bo‘ladi hamda quydagi tengsizlikni qanoatlantiradi:

$$\int_0^\infty |\varphi(x,\tau)|^2 dx \le -\frac{Imm(\tau)}{Im\tau}$$

Ta'rif 1. $\varphi(x,\tau) = \theta(x,\tau) + m(\tau)\omega(x,\tau)$ yechimga Veyl yechimi, m(τ) funksiyaga esa Veyl-Titchmarsh funksiyasi deyladi.

Teorema 2. *Agar* (a,b) *oraliqning chetki nuqtalari* $\rho(\lambda)$ *spektral funksiyaning uzluksizlik nuqtalaridan iborat bo'lsa, u holda*

$$\rho(b) - \rho(a) = -\frac{1}{\pi}\int_a^b \mathrm{Im}\{m(u+iv\}\,du \qquad (2)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

2-Natija. Spektral funksiyaning xos qiymatdagi sakrash uzunligi Veyl-Titchmarsh funksiyasining shu nuqtadagi chegirmasiga teng:

$$\rho(\lambda_0 + 0) - \rho(\lambda_0 - 0) = \operatorname*{res}_{\lambda=\lambda_0} m(\lambda). \qquad (2.1)$$

Ushbu

$$-y'' + q(x)y = \lambda y, \qquad (0 \le x \le b), \qquad (3.1)$$

$$y(0)\cos\alpha + y'(0)\sin\alpha = 0, \qquad (3.2)$$

chegaraviy masalani qaraymiz. Bu yerda $q(x) \in C[0,\infty)$ haqiqiy funksiya, $\alpha \in R^1$ haqiqiy son.

Agar $\sin\alpha \ne 0$ bo'lsa, u holda (3.2) chegaraviy shartni

$$y'(0) - hy(0) = 0, \qquad h = -ctg\,\alpha, \qquad (3.3)$$

ko'rinishda yozish mumkin. (3.1) formula (3.2) chegaraviy shart bajarilganda keltirib chiqarilgan edi. Shuning uchun

$m(z) = -\mathrm{ctg}\,\alpha + \int_{-\infty}^{\infty} \frac{d\rho(\lambda)}{z-\lambda}$, $(\sin\alpha \ne 0)$ formuladagi $m(z)$ va $\rho(\lambda)$ funksiyalarni mos ravishda $m_\alpha(z)$ va $\rho_\alpha(\lambda)$ orqali belgilaymiz. Agar (3.1)+(3.3) chegaraviy masalaning spektral funksiyasini $\rho_h(\lambda)$ orqali belgilasak, u holda $\rho_\alpha(\lambda)$ va $\rho_h(\lambda)$ funksiyalar o'zaro quyidagi formulalar bilan bog'langan:

$$\rho_\alpha(\lambda) = \frac{1}{sin^2\alpha} \cdot \rho_h(\lambda), \tag{3.4}$$

Shuning uchun (3.1) formulani quyidagicha ko‘rinishda yozish mumkin:

$$m_\alpha(z) = -ctg\alpha + \int_{-\infty}^{\infty} \frac{d\rho_\alpha(\lambda)}{z-\lambda} = h + \frac{1}{sin^2\alpha} \int_{-\infty}^{\infty} \frac{d\rho_h(\lambda)}{z-\lambda}. \tag{3.5}$$

Ikkinchi tomondan $\rho_h(\lambda)$ spektral funksiya uchun quyidagi asimptotik formula o‘rinli bo‘ladi:

$$\rho_h(\lambda) = \frac{2}{\pi}\sqrt{\lambda} - h + \rho_h(-\infty) + \bar{\bar{o}}(1), \tag{3.6}$$

Spektral funksiyaning bu asimptotik formulasidan va (3.5) formuladan Veyl-Titchmarshning $m_\alpha(z)$ funksiyasi uchun asimptotik formula topishimiz mumkin.

Teorema 3. (3.1) + (3.2) chegaraviy masalaning $m_\alpha(z)$ Veyl-Titchmarsh funksiyasi uchun ushbu $\delta < \arg z < \pi - z$ sohada quyidagi asimptotik formula o‘rinli:

$$m_\alpha(z) = -ctg\alpha - \frac{i}{\sqrt{z}sin^2\alpha} + \frac{ctg\alpha}{zsin^2\alpha} + \bar{\bar{o}}\left(\frac{1}{z}\right), \quad |z| \to \infty, \tag{3.7}$$

Bu yerda $\delta > 0$ - biror musbat son.

Misol: Ushbu

$$\begin{cases} -y'' - \dfrac{2a^2}{ch^2ax}y = \lambda y, & 0 \le x < \infty \\ y'(0) - hy(0) = 0, \end{cases}$$

Shturm-Liuvill masalasining spektral funksiyasini topamiz.

Ma’lumki masalada berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$y = C_1\left(\cos\sqrt{\lambda}x - athax\frac{\sin\sqrt{\lambda}x}{\sqrt{\lambda}}\right) + C_2\left(\sqrt{\lambda}\sin\sqrt{\lambda}x + athax\cos\sqrt{\lambda}x\right).$$

Quyidagi

$$\begin{cases}\theta(x,0)=0\,,\\ \theta'(x,0)=1,\end{cases}\qquad \begin{cases}\varphi(x,0)=1\,,\\ \varphi'(x,0)=h\end{cases}$$

boshlanich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlari quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\theta(x,\lambda)=\frac{1}{\lambda+a^2}\left(\sqrt{\lambda}\sin\sqrt{\lambda}x+athax\cos\sqrt{\lambda}x\right),$$

$$\varphi(x,\lambda)=\cos\sqrt{\lambda}x-ath(ax)\frac{\sin\sqrt{\lambda}x}{\sqrt{\lambda}}+\frac{h}{\lambda+a^2}\left(\sqrt{\lambda}\sin\sqrt{\lambda}x+athax\cos\sqrt{\lambda}x\right),$$

$q(x)\equiv 0$ koeffitsiyent quyidan chegaralanganligi uchun Veylning nuqta holi o‘rinli bo‘ladi.

Ushbu

$\psi(x,\lambda)=\theta(x,\lambda)+m(\lambda)\varphi(x,\lambda)$ funksiya $L^2(0,\infty)$ fazoga tegishli bo‘ladigan qilib, $m(\lambda)$ funksiyani tanlaymiz. Buning uchun quyidagicha ifodalashni bajaramiz:

$$\theta(x,\lambda)+m(\lambda)\varphi(x,\lambda)=\frac{1}{\lambda+a^2}\left(\sqrt{\lambda}\sin\sqrt{\lambda}x+athax\cos\sqrt{\lambda}x\right)+$$

$$+m(\lambda)\left(\cos\sqrt{\lambda}x-ath(ax)\frac{\sin\sqrt{\lambda}x}{\sqrt{\lambda}}+\frac{h}{\lambda+a^2}\left(\sqrt{\lambda}\sin\sqrt{\lambda}x+athax\cos\sqrt{\lambda}x\right)\right)=$$

$$=\frac{1}{2}\left\{\frac{athax}{\lambda+a^2}-\frac{i\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}+m(\lambda)+\frac{i}{\sqrt{\lambda}}m(\lambda)athax-\frac{ih\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}m(\lambda)\right.$$
$$\left.+\frac{h}{\lambda+a^2}m(\lambda)athax\right\}e^{i\sqrt{\lambda}x}+$$
$$+\frac{1}{2}\left\{\frac{athax}{\lambda+a^2}+\frac{i\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}+m(\lambda)-\frac{i}{\sqrt{\lambda}}m(\lambda)athax+\frac{ih\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}m(\lambda)\right.$$
$$\left.+\frac{h}{\lambda+a^2}m(\lambda)athax\right\}e^{-i\sqrt{\lambda}x},\qquad(4)$$

Kompleks ildizning ushbu

$$\sqrt{u+iv}=\sqrt{\frac{u+\sqrt{u^2+v^2}}{2}}+i\sqrt{\frac{-u+\sqrt{u^2+v^2}}{2}}\,,\quad v>0,$$

shoxchasini tanlash qabul qilinganligi uchun $\operatorname{Im}\lambda>0$ bo‘lganda

$e^{i\sqrt{\lambda}x}\in L^2(0,\infty)$ va $e^{-i\sqrt{\lambda}x}\notin L^2(0,\infty)$,

bo‘ladi. Demak, (4) tenglikda ikkinchi qavs ichidagi ifodani nolga tenglaymiz:

$$\frac{athax}{\lambda+a^2}+\frac{i\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}+m(\lambda)-\frac{i}{\sqrt{\lambda}}m(\lambda)athax+\frac{ih\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}m(\lambda)+$$

$$+\frac{h}{\lambda+a^2}m(\lambda)athax=0\,,$$

$$\frac{a}{\lambda+a^2}+\frac{i\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}+m(\lambda)-\frac{ia}{\sqrt{\lambda}}m(\lambda)+\frac{ih\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}m(\lambda)+\frac{h}{\lambda+a^2}m(\lambda)a=0,$$

$$\frac{i\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}+m(\lambda)+\frac{ih\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}m(\lambda)=0$$

$$m(\lambda)=\left(-\frac{i\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}\right)\cdot\frac{1}{1+\frac{ih\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2}}=-\frac{i\sqrt{\lambda}}{\lambda+a^2+ih\sqrt{\lambda}}=$$

$$=-\frac{i\sqrt{\lambda}(\lambda+a^2)+h\lambda}{(\lambda+a^2)^2+h^2\lambda};$$

Demak,

$$\mathrm{Im}\{m(\lambda)\}=-\frac{(\lambda+a^2)\sqrt{\lambda}}{(\lambda+a^2)^2+h^2\lambda}\,,\qquad \lambda>0,$$

bo‘ladi.

Natija. Ushbu $m(\mathrm{z})=-\mathrm{ctg}\,\alpha+\int_{-\infty}^{\infty}\frac{d\rho(\lambda)}{z-\lambda}$, $(\sin\alpha\neq 0)$ tenglikga asosan quyidagi ifodaga kelamiz:

$$\rho'(\lambda)=\begin{cases}\dfrac{(\lambda+a^2)\sqrt{\lambda}}{\pi(\lambda+a^2)^2+h^2\lambda}, & \lambda>0,\\ 0, & \lambda\leq 0,\end{cases}$$

$$\rho(\lambda)=\begin{cases}\dfrac{1}{\pi}\displaystyle\int_0^{\lambda}\frac{(t+a^2)\sqrt{t}}{(t+a^2)^2+h^2t}dt\,, & \lambda>0,\\ 0, & \lambda\leq 0.\end{cases}$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Марченко В.А. “Восстановление потенциальной энергии по фазам рассеянных волн”, - ДАН СССР, 1955, 104, с. 695-698.

2. Салохиддинов М.С., Насриддинов Ғ.Н. “Оддий дифференциал тенгламалар”, Тошкент, 2009-йил.

3. Титчмарш Э.Ч., “Разложение по собственным функциям, связанные с дифференциальными уравнениями второго порядка” : В 2-х т. - М.: ИЛ, 1961, т. 2.

4. Шабат Б.П. “Введение в комплексный анализ”, М.: «Наука», 1969.

5. Hasanov A.B., “Shturm – Liuvill chegaraviy masalalari nazariyasiga kirish”, I-qism, «Fan» nashriyoti, Toshkent - 2011.

KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA OMONIMLIK HODISASI TADQIQI

Alijonova Fayruza
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
I bosqich magistratura talabasi
Email: fayruzaalijonova@gmail.com

Abduvahobov G‘iyosiddin
Farg‘ona Davlat universiteti o‘qituvchisi
Email: abduvaxobov2018@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek tili elektron korpusida omonimlar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammo va kamchiliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini o‘rganish, jahon va o‘zbek kompyuter lingvistikasida omonimlar bilan bog‘liq tadqiqotlar va ularning tahlili yoritilgan. O‘zbek tili elektron korpus menejeri uchun omonimlar bilan bog‘liq masalalarni o‘rgangan holda ularning dasturiy bazasini ishlab chiqish korpus menejeri uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi. Korpus uchun omonimlarning dasturiy ta’minotini ishlab chiqish jarayonida amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalar va ularning yechimlari maqolada keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Korpus, baza, model, token, lug‘at, modellashtirish, algoritm, qidiruv interfeysi

STUDY OF THE PHENOMENON OF HOMONYMY IN COMPUTATIONAL LINGUISTICS

ABSRACT

The article describes the problems and shortcomings in the process of working with homonyms in the electronic corpus of the Uzbek language, the study of their causes, research and analysis of homonyms in world and Uzbek computer linguistics. One of the most important issues for the Uzbek language electronic corpus manager is to develop their software base by studying the issues related to homonyms. The tasks to be performed in the process of developing homonymous software for the corpus and their solutions are given in the article.

Keywords. Corpus, base, model, token, dictionary, modeling, algorithm, search interface

ИССЛЕДОВАНИЕ ЯВЛЕНИЯ ОМОНИМИИ В КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

АННОТАЦИЯ

В статье описаны проблемы и недостатки в процессе работы с омонимами в электронном корпусе узбекского языка, изучения их причин, исследования и анализа омонимов в мировой и узбекской компьютерной лингвистике. Одним из наиболее важных вопросов для руководителей электронных корпусов узбекского языка является развитие их программной базы путем изучения вопросов, связанных с омонимами. В статье приведены задачи, которые предстоит решать в процессе разработки одноименного программного обеспечения для корпуса, и пути их решения.

Ключевые слова. Корпус, база, модель, токен, словарь, моделирование, алгоритм, поисковый интерфейс

Matnlar korpusi («corpus» – lotincha «tana» degan ma’noni anglatadi) – elektron holda saqlanadigan ma’lum til birliklari bo‘lib, ular tilshunoslar uchun turli xil muammolarni hal etish uchun tatbiq etishda va turli yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun zaruriyatga qarab turli shakllarda tuziladi. Til birliklarining qay tarzda saqlanishiga qarab maxsus dasturlar yordamida har bir kerakli so‘z yoki so‘z birikmasi uchun darhol uning qo‘llanishi bo‘yicha misollar topilishi, imlo bo‘yicha variantlari, sinonimik qatorlari topilishi mumkin. Matnlar korpusiga oid ilmiy tadqiqotlar salmog‘ining ko‘payishi natijasida tilshunoslikda korpus lingvistikasi yo‘nalishi shakllandi. Kompyuterda yaratilgan birinchi matnlar korpusi Braun korpusi (БК, inglizcha Brown Corpus, BC) hisoblanadi, u 1961-yilda Braun universitetida yaratilgan, har biri 2000 so‘zli 500 ta matn fragmentini o‘z ichiga oladi. 1970-yillarda 1 mln so‘zni o‘z ichiga olgan matnlar korpusi asosida rus tilining chastotali lug‘ati yaratildi. 1980-yillarda Shvetsiyaning Upsala universitetida ham rus tilida matnlar korpusi yaratildi. Buyuk Britaniyada Ingliz tili Banki (Bank of English) hamda Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus, BNC), Rossiyada Rus tilining mashina fondi (Машинный фонд русского языка) hamda Rus tilining Milliy korpusi (Национальный корпус русского языка) loyihalari ishlab chiqildi. Masalan, Rus tilining Milliy korpusi hajmi hozirgi kunda 149 mln so‘zdan iborat. Keyingi yillarda internet tizimining rivojlanishi virtual matnlar korpusining yuzaga kelishiga olib keldi. Ya’ni internetdagi qidiriv saytlari, elektron kutubxonalar, virtual ensiklopediyalar korpus vazifasini bajarmoqda. Korpusning janri va tematik rangbarangligi internetdan foydalanuvchining

qiziqishlariga bog‘liq. Masalan, ilm-fan doirasida Wikipedia katta hajmdagi matnlar korpusi sifatida ishlatilmoqda[14]

Tilshunoslikning ilk va o‘rta bosqichlarida omonimiya hodisasining paydo bo‘lishi, taraqqiyoti va yondosh hodisalarga munosabatlari o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistikada uning korpusda berilishi masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Bu vazifani bajarish uchun mavjud lug‘atlar axborot banki vazifasini o‘taydi. Korpus lingvistikasida omonimlik muammosini yechish, omonim birliklarni teglash va matnni avtomatik o‘qish jarayonida omonimiyani bartaraf etish masalasi (“snyatiye omonimii”) ga oid qator tadqiqotlar vujudga kelgan. Jumladan, G. I. Kustova, O. N. Lyashevskaya, Y. V. Paducheva, Ye. V. Raxilina, B. P. Kobritsov, T. I. Reznikova, V. V. Kukanova, A.A. Kretovlar shu masalalar yechimiga bag‘ishlangan qator ishlarni e’lon qilishgan[15].

Hozirda 50 milliondan ortiq so‘zni o‘zida jamlagan, Nilufar Abduraxmonova va uning ilmiy jamoasi tomonidan tadqiqot ishlari olib borilayotgan http://uzbekcorpus.uz/ o‘zbek tili uchun nisbatan mukammal korpus hisoblanadi. 2018-yildan buyon ushbu korpus ustida tadqiqot ishlari amalga oshirib borilmoqda. Korpus lingvistikasiga doir tadqiqot ishlariga qaramay korpus hali ham o‘zining kamchiliklariga ega, xususan, interfeysda omonimlar bog‘liq muammolar hali to’laligicha o‘z yechimini topmadi. Ushbu maqolada ayrim kamchiliklar va ularning yechimlari yuzasidan fikr yuritiladi.

Lug‘atlar bilan ishlash, so‘zlarni morfoanaliz qilish, tokenlarga ajratish jarayonida omonimlar bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Masalan, qidiruv jarayonida foydalanuvchi qidiruv interfeysiga *tur* so‘zini kiritsa, asosi *tur* bo‘lgan barcha so‘zlar topiladi. Ammo, ushbu so‘z turli xil ma’nolarni ifodalishini hisobga olsak, foydalanuvchi uchun bu holatda qiyinchilik tug‘iladi.

Shularni hisobga oladigan bo‘lsak, korpus menejeri uchun omonimlarning mukammal bazasini va to‘g‘ri ishlash algoritmini yaratish to‘g‘risida yechimlar xususida fikr yuritamiz.

Kompyuter intellektual sistemasidagi omonimiya masalasini tadqiq etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

– o‘zbek tilidagi badiiy asarlardan, izohli lug‘atlardan va omonimlar lug‘atidagi omonim so‘zlarni ajratib olish;
– omonimlarning tarqalish darajasini aniqlash;
– omonimiyaning sistem xarakterini ochib berish;
– omonimlarning simmetriya/asimmetriya (disimmetriya) jihatlarini ko‘rsatib berish;
– omonimlarni so‘z turkumlariga ko‘ra tasniflash;

[14] Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2011,. –B 86.
[15] Gulyamova Sh. O‘zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari. Aftoref. Fil.f.d..., Farg‘ona 2022. – B. 21.

– matnlarni qayta ishlashda omonimlarni saralash;
– omonimlar matritsasini tuzish;
– omonimlarni modellashtirish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish orqali, birinchidan, o‘zbek tilshunosligidagi omonimiyaning ilmiy-nazariy masalasiga aniqlik kiritiladi, ikkinchidan, o‘zbek tilining kompyuter sistemasidagi omonimiya bazasi yaratiladi. Uchinchidan, o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish, lug‘atlar tuzishda metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Avval barcha omonim so‘zlar, keyin ularning izohi ro‘yxatga kiritiladi. Anglatayotgan ma’nolari bo‘yicha so‘zlar tartiblab chiqiladi. Masalan: ot

1) *ot (hayvon) –tulpor – horse;*
2) ot (kishining nomi) – ism – name;
3) ot (ish-harakat) – uloqtirmoq – throw;
4) ot (so‘z turkumi) – so‘z turkumi – noun[16].

Matnlar bilan ishlaganda omonimlar izohli lug‘atida qayd etilmagan ba’zi omonimlik hodisasi bilan bog‘liq so‘zlar ham muammoli holatlarni keltirib chiqaradi. So‘zlarga morfemalarning qo‘shiluvi bilan yuzaga chiqadigan omonimlik bu jihatdan fikrimizga isbot bo‘ladi. Masalan,

qor + tushum kelishigi = qorni // qorin + egalik qo‘shimchasi = qorni;
yaralmoq + sifatdosh = yaralar// yara + ko‘plik qo‘shimchasi = yaralar.

Bu holatda asosga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida omonimlik yuzaga kelmoqda. Ushbu holatda so‘zlarning turkumlarini va grammatik shakllarini aniqlash orqali omonimlar bir-biridan farqlanadi. Omonimlar bilan bog‘liq keyingi holatni ko‘rib chiqamiz:

o‘qi(fe’l) 0 grammmatik shaklda;
o‘qi=o‘q(ot) +i (egalik qo‘shimchasi).

Bu holatda omonimlik asos va qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yuzaga kelmoqda.

Matnning bosh harflar masalasi ham muayyan muammoni yuzaga keltiradi.

Sen bilmaysan, Asal judayam ajoyib. (1) *Biznikiga karimalar kelishdi (2). Bizga ma’lumki, Yer o‘z o‘qi atrofida aylanadi. Uyga kelib qarasam,dadam yerga bosh qo‘yib yotgan ekan (3)*

1-misolda asal so‘zi ismni anglatyaptimi yoki shirinliknimi? 2-misoldagi karimalar so‘zi Karima ismli qiz bilan birgalikdagi shaxslarni anglatyapti, ammo avtomatik tahrir dasturi ism kichik harf bilan yozilgan deya so‘zni xato hisoblaydi. 3-misolning 1-gapida Yer sayyorasi, 2-gapda esa ona zamin haqida fikr yuritilgan. Lekin sintaktikoldi tahrir jarayonida 1-gapdagi Yer so‘zi Yer sayyorasi tarzida

[16] Po‘latov A. Q. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. –B. 21 –22

yozilmagani uchun ushbu so‘zni ona zamin haqida fikr yuritilayotganini inobatga olib, xato sifatida ko‘rsatadi. Bu holda dasturning ma’lumotlar bazasiga quyidagi qoidalarni kiritish talab etiladi:

1. Turdosh otlar atoqli otlar vazifasida ham keladi yoki aksincha: turdosh ot atoqli ot. Ushbu qoidani muqim bo‘lishi uchun morfologik tahrir modullarida o‘zbek adabiy tilidagi turdosh va atoqli otlar guruhlari to‘liq va aniq ko‘rsatilishi lozim.
2. Atoqli otlarda shakl yasovchi qo‘shimchasi -lar qo‘shilganda atoqli otlar bosh harf bilan emas, kichik harf bilan yoziladi. Atoqli ot+lar= turdosh ot.
3. Har bir uslubning o‘ziga xos xususiyatlari dastur ta’minotiga kiritiladi. Kiritilayotgan ma’lumotlar asosida yozilayotgan gap qaysi uslubga xosligi avtomatik tarzda aniqlanadi, natijada gapda qatnashayotgan so‘zlar imlosi tekshiriladi. [17]

Parallel korpus bilan ishlash jarayonida tarjimada omonimlar bilan bog‘liq birmuncha xato va kamchiliklar ham kuzatiladi. Birgina rus tilida ko‘plab so‘z shakllari grammatik omonimlardir. Masalan, *bake* shakli infinitivda ham fe’l (*bake pies*) va nominative holatdagi ism (*Russian bake*). Omonimlarning qaysi biri ma’lum bir misolda ifodalanganini aniqlash uchun konteksni tahlil qilish kerak. Korpus so‘z shakllarini grammatik belgilash avtomatik ravishda grammatik omonimiyani ajrata olmaydigan dastur yordamida amalga oshiriladi. Pechka shakllari dastur tomonidan omonim sifatida tavsiflanadi, ya’ni ularga bir vaqtning o‘zida bir nechta grammatik xususiyatlar beriladi.

Pech shaklidan har qanday foydalanish bunday korpusda fe’l sifatida ham, ism sifatida ham ko‘rib chiqiladi va ushbu so‘rovda ham, boshqasida ham nashrga joylashtiriladi. Shunday qilib avtomatik ravishda etiketlangan korpusda ishlayotganda faqat so‘zsiz so‘zlarni o‘z ichiga olgan pechka so‘zi bilan misollar ro‘yxatini olishning imkoni yo‘q, garchi siz grammatik xarakteristikasini “fe’l” ni o‘rnatgan bo‘lsangiz ham. Foydalanuvchi misollar qatoridan infinitive bilan kerakli konteksni qo‘lda tanlashi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, chiqarilmagan omonimiyaga ega korpusda lug‘atda bo‘lmagan so‘zlar uchun grammatik farazlar avtomatik ravishda hosil bo‘ladi. Shu sababli, RNC omonimiyasi olib tashlangan matnlardan misollarni izlash imkoniyatini beradi. Asosiy korpusning ushbu qismida har bir omonim shakl uchun tilshunos dasturiy tahlilga tegishli xususiyatlar to‘plamidan faqat bittasini tanlaydi, ya’ni berilgan konteks uchun to‘g‘risini.

O‘zbek tilidagi matnlarda omonimlarni farqlashda kodlardan, simvollardan, turkumni bildiruvchi teglardan foydalanish talab etiladi. Buning uchun izohli

[17] Po‘latov A. Q. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011

lug‘atlarda foydalaniladigan rim raqamlaridan teg sifatida foydalanish mumkin. Faqat rim raqamlarini qat’iy tarzda belgilab olish kerak bo‘ladi:

I – ot, II – f’el, III – sifat, IV – ravish.

O‘zbek tilida ot-fe’l omonimligi ko‘pligi darajasidaga ko‘ra birinchi o‘rinda turadi(tut I- daraxt, tut II – harakat). Ot-sifat omonimligi (chanqoq I “tashnalik” – chanqoq III “tashna”) yoki fe’l-sifat omonimligi (yot II – harakat, yot III –“begona”) keying o‘rinta turadi. Ot-ravish omonimligi uchramaydi. Sifat-ravish-fe’l omonimligi kam uchraydi:tik II harakat, tik III “qiya”, tik IV “to‘ppa-to‘g‘ri)

oshiq I - “ishq sohibi “;
oshiq I – “tana qismi”;
oshiq I – “o‘yin nomi”:
oshiq II – “shoshmoq”;
oshiq III – “ortiq”.

Oshiq omonimlari ishtirok etgan matnlarni kompyuter dasturi (google translater) da tarjima qilib ko‘ramiz:

1. *Oyqiz bu qizga uzoq tikilgach, uni ashula va dutor oshig‘i deb o‘yladi.*

Долгое время уставившись на девушку, медведь подумал, что она ***влюблена*** *в пение и дутар.*

Bu misolda “*yoqtirmoq*” ma’nosidagi oshiq bo‘lmoq qo‘shma fe’li tarjimon dasturning omonimni farqlamasligi natijasida “sevmoq” ma’nosidagi so‘zga o‘zgartirilgan.

2. *Endi hovlilarning eshiklari ochilgan, bolalar cho‘ntaklarini yong‘oq, oshiqlarga to‘ldirib, ko‘chaga chiqa boshlagan edi.*

Теперь двери дворов были открыты, и дети стали выходить на улицы, наполняя карманы орехами и ***любовниками*** [18]**.**

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, avtomatik tarjima jarayonida ham omonimlar bilan bog‘liq muammolar talaygina. Omonimlar modelini ishlab chiqish va uni tarjima jarayoniga o‘zlashtirish hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalarni birmuncha kamaytiradi. Bu holatda omonimlar oladigan valentliklarni bazasini yig‘ish bu masalani yechishga yordam beradi, ya’ni oshiq so‘zi misolida ko‘radigan bo‘lsak, o‘yin ma’nosida kelayotgan “oshiq” so‘zi “o‘yin” so‘zini valentlik sifatida qabul qiladi, yoki tana a’zosi sifatidagi “oshiq” so‘zi tana a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni valentlik sifatida qabul qiladi. Albatta, bu muammoni hal qilish hali ham asosiy vazifalar qatorida turmoqda.

Oldin ta’kidlanganidek, semantik analizatorning omonimlarni farqlashi uchun dastlab ularning lingvistik filtri va modellari ishlab chiqilishi lozim. Bu esa lingvistik bilimni, yondashuvni talab etadi. Zotan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sun’iy aql

[18] A. Rahmanova. O‘zbek tili milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari. Avtoreferat. Andijon 2022. B - 18

sintezi va matematik tilshunoslikning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Bu o‘rinda asosiy harakat insonning tabiiy tilida ifodalangan matnni tahlil qilishi va kompyuterning ushbu ma’lumotni “idrok etish”, qayta ishlash qobiliyatini topish hamda takomillashtirishga qaratilgan. Tabiiy tilni qayta ishlash – bu sun’iy intellekt bilan bog‘liq vazifa, chunki u atrofdagi dunyo va inson hissiyotlarini yuqori darajada tushunishni o‘z ichiga oladi. Shubhasiz, ushbu muammolarni hal qilish tadqiqotchidan tilshunoslik hamda sun’iy intellekt sohasida yetarlicha bilimni talab qiladi. Tadqiqot uchun Sh. Rahmatullayevning “Omonimlarning izohli lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (5 jildli) da mavjud omonimlar lingvistik baza bo‘lib xizmat qildi. Ularni turkumiga asoslanib, quyidagicha guruhlab chiqdik: 1) bir so‘z turkumi doirasidagi omonimlar; 2) ot // fe’l hamda sifat // fe’l turkumi orasida kuzatiladigan omonimlar; 3) turli turkum doirasida vujudga keladigan omonimlar. Ot // fe’l hamda sifat // fe’l turkumi doirasida uchraydigan omonim so‘zlar, asosan, morfologik omil asosida farqlanadi. MO bir qator morfologik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Omonim so‘zni farqlashda morfologik va sintaktik omillar muhim o‘rin tutadi. Ot va fe’l orasidagi omonimlikda morfologik; sifat va fe’l orasidagi omonimlikda morfologik-sintaktik; faqat ot va faqat fe’l turkumi doirasidagi omonimlikda sintaktik-morfologik; faqat sifat turkumi doirasidagi omonimlikda sintaktik; turli turkum doirasidagi omonimlikda esa morfologik, sintaktik, morfologik-sintaktik va sintaktik-morfologik omil yetakchilik qilishi aniqlandi. [19]

Yuqoridagi muammoli holatlarni hal etish uchun omonimlarning grammmatik bazasi va modeli ishlab chiqiladi, ya’ni omonimlarning turkumiga ko‘ra ular oladigan grammmatik qo‘shimlar bazasi yig‘iladi. Yig‘ilgan baza va model asosida algoritm tuziladi.

Ushbu algoritm quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

- foydalanuvchi qidirilayotgan so‘zni interfeysga kiritadi;
- oynada maxsus so‘rovlar chiqadi, ya’ni so‘zning turkumi, agar so‘z ot turkumida bo‘lsa , sanaladigan yoki sanalmaydigan; fe’l bo‘lsa, o‘timli yoki o‘timsiz; tub yoki yasama(bog‘lama-bog‘lama)

So‘rovlar asosida qidirilganda foydalanuvchi aynan o‘ziga kerakli bo‘lgan so‘zni topish va ajratib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Access dasturi yordamida yig‘ilgan omonimlar bazasi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan. Jadvalda omonimlarning turkumi, izohi, badiiy asar va ilmiy matnlardan olingan misollari ko‘rsatilgan (Ushbu jadval SH. Rahmatullayevning “Omonimlarning izohli lug‘ati” asosida yig‘ildi).

[19] Sh. Gulyamova. O‘zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari. Avtoreferat. Farg‘ona 2022. B - 22

Код	Suz_uzbek	suz_turkum	izohi	misol
233	devon	Noun	[arabcha >ko'pligi	Devonda yonboshlab yotgan Abbosxon Saidiyning hurmat
234	devon	Noun	eski. Xon (amir) s	Devond a hech kim yo'q.[Majdiddin] Abusaid Mirzo davric
235	dim	Noun	[<dam I3] ot. Suku	Og'zingizni parshion qilmay sabr qilib tursangiz, shu hafta
236	dim	Adj.	Sernam va issiq (h	Dimlamoq, dimikmoq.Bugun havo ertalabdan dim (dam).
237	dim	Adv.	folk. Mutlaqo, but	Dim ularga qaray ko'rma, chirog'im.«Ravshan».
238	differensial	Noun	[latyncha differen	1.
239	differensial	Noun	Matematika term	
240	differensial	Noun	Texnika termini. A	
241	differensial	Adj.	[< ruscha differen	Differensial geometriya. Differensial tenglama.
242	dov	Noun	Qimorda katta tik	Dov ketmoq (Qiyoslang: katta ketmok,).dov
243	dov	Adj.	[<dov I] sifat.Qo'r	Dov yurak.Ey qahramon, dov yurak, jasur ulug' xalq, Qudra
244	dov	Noun	[<dov II] ot.Dadilli	Yuragim dov bermadi.[Hojiya]anchagacha yuragi dov: ber
245	dov	Noun	Talab, da'vo	(sh)moq.Unga hechqanday dovim yo'q. Menga nima dovi
246	dov	Adj.	Bo'ychan, katta	Dov yigit bo'lib qolibsan.[Yo'lchi]sersoqol, dov askar bilar
247	dov	Noun	dov-daraxt(o'siml	Hamroqul naridan-beri d o v-d astgohini yig'ishtirib jo'nac
248	dovul	Noun	Kuchli bo'ron	Dovulda qolmoq. Dovul ko'pchilik imoratlarningtomini uc
249	dovul	Noun	[<tojikcha davl< a	Dovulchi (dovul chaluvchi shaxs). Dov ul har vaqt mirshab
250	doira	Noun	arabcha —«aylana	Doira chizmoq. Yarim doyra.Doirasini hisoblab chiqmoq.C
251	doira	Noun	Dumaloq gardishg	Doirachi.Doira chalmoq. Doira chertmoq.Boloxonaning to
252	dol	Noun	Bolalarning o'yini	.«Kim do l?»—«Men dol».
253	dol	Noun	[arabcha a harfi]o	Bu so'z dol bilan e mae, zol bilan yozida-di. Qaddim dol b
254	dol	Adv.	ravish; eskirgan; s	Nishonning dol o'rtasiga tegizmoq. Dol vaqtida kelmos.Ol

Access dasturi asosida yaratilgan so'rovlar yordamida omonimlarni turkumlari bo'yicha ajratib olib, ularning modellari tuziladi.

Yuqoridagi vazifalar bajarilganda korpusda omonimlar bilan bog'liq muammolarning asosiy qismi bartaraf etiladi. Muammolar to'laqonli bartaraf etilishi uchun tilshunoslar va dasturchilar o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiq. Omonimlar bilan bog'liq masalalarni hal qilish kelajakda korpusning kamchiliklar va xatolarsiz ishlashini ta'minlaydi. Bu korpus, umuman kompyuter linvistikasi, sun'iy intellekt rivoji uchun qo'yilgan eng muhim qadamlardan bo'lishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Po'latov A. Q. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, (2011).
2. Rahimov. A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. «Akademnashr» nashriyoti, (2011).
3. Gulyamova. Sh. O'zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari. Avtoreferat. Farg'ona, (2022).
4. Rahmanova. A. O'zbek tili milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari. Avtoreferat. Andijon, (2022).
5. N. Abdurakhmonova, U. Tuliyev and A. Gatiatullin, "Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus. uz," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4, doi:

10. 1109/ICISCT52966. 2021. 9670043. Aripov, M. , Sharipbay, A. , Abdurakhmonova, N. , Razakhova B. : Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In: Abstract of the VI International Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology - Al-Khorezmiy 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018)

6. Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref. " (2018).

7. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7.

8. Abdurakhmonova N, Tuliyev U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68.

9. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL). 2019;6(1-2019):131-7.

10. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.

11. Kubedinova L. Khusainov A. , Suleymanov D. , Gilmullin R. , Abdurakhmonova N. First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. Proceedings of the Computational Models in Language and Speech Workshop (CMLS 2020) co-located with 16th International Conference on Computational and Cognitive Linguistics (TEL 2020). 2020/11: 90-101

12. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.

ZULFIYA MO‘MINOVANING “AYOLGA BAXT BERING” SHE’RINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Sadoqat Hamzayevna

Buxoro davlat universiteti, lingvistika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Email: sadoqathojiyeva1988@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Zulfiya Mo‘minova ijodi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berilib, ayniqsa, shoiraning “Ayolga baxt bering” she’ri keng miqyosda tadqiq qilindi. Ta’kidlash lozimi, “Ayolga baxt bering” she’riga lingvopoetik jihatdan yondashish asar mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borishga yordam beradi. She’rda qo‘llanilgan ba’zi uslubiy vositalar, adabiy omillar asar ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Zulfiya Mo‘minova, “Ayolga baxt bering”, “lingvopoetik tahlil, lingvistik yondashuv, o‘xshatish, badiiy unsur.

LINGUOPOETICAL ANALYSIS OF ZULFIYA MUMINOVA'S POEM “GIVE HAPPINESS TO A WOMAN”

ABSTRACT

This article provides information about the work of Zulfiya Muminova and its peculiarities, in particular, the poet's poem "Give Happiness to a Woman" was widely studied. It should be noted that the linguopoetic approach to the poem "Give Happiness to a Woman" helps to penetrate deeper into the essence of the work. Some methodological tools and literary factors used in the poem served to increase the effectiveness of the work.

Keywords: Zulfiya Muminova, “Give a woman happiness”, “Linguopoetic analysis, linguistic approach, analogy, artistic element.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТИХОТВОРЕНИЯ ЗУЛЬФИИ МУМИНОВОЙ “ДАРИТЕ СЧАСТЬЕ ЖЕНЩИНЕ”

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о творчестве Зульфии Муминовой и его особенностях, в частности широко исследовано стихотворение

поэтессы «Подари женщине счастье». Следует отметить, что лингвопоэтический подход к стихотворению «Подари счастье женщине» помогает глубже проникнуть в суть произведения. Некоторые методические средства и литературные факторы, использованные в поэме, послужили повышению эффективности работы.

Ключевые слова: Зульфия Муминова, «Подари женщине счастье», «Лингвопоэтический анализ, лингвистический подход, аналогия, художественный элемент.

Inson yaralibdiki, uning ijtimoiy hayotida moddiy voqelikdan ko‘ra ma’naviy voqelik har doim ustun bolib kelgan. Ma’naviy voqelik inson dunyoqarashining ,ma’naviyatining, fikrlashining, tafakkurining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bunda esa adabiyot fani ruhiyat tarbiyachisi sifatida yordamga keladi. Adabiyot doirasida yaratilgan barcha asarlar , xoh u nasrda bolsin, xoh nazmda yoinki dramatik asarlar ham – bular inson ma’naviyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ana shunday shaxs ma’naviy dunyosiga ta’sir o‘tkazgan, uning hislarini junbushga keltirishga sabab bo‘lgan adabiyotning yirik darg‘alaridan biri Zulfiya Mo‘minovadir.

Zulfiya Mo‘minova “Vatan tashlab ketmaydi”, “Yonayotgan ayol”, “Azizim, baxtiyorman” kabi qator she’riy to‘plamlar muallifi hisoblanadi[11]. O‘z sherlarida insoniy muhabbat, bashar turmushida tabiatning o‘rni, qalb xotirjamligi-yu, onaning farzandga bolgan muhabbatini madh aylagan shoira barchamizning ko‘nglimizdan chuqur joy olgan. Ayniqsa, shoira qalamiga mansub “Ayolga baxt bering” she’ri bugungi kunda barcha kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo‘lgan ushbu maqolada Zulfiya Mo‘minovaning “Ayolga baxt bering” she’rining lingvopoetik tahlili haqida so‘z yuritamiz.

Bugungi kunda tilshunoslikda badiiy matnlarga lingvopoetik jihatdan yondashuv asar mohiyatini ochib berishda, ijod namunalarini shakllantiruvchi asosiy unsurlarni aniqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. “Ayolga baxt bering” she’rining lingvopoetik tadqiqida biz siz bilan ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan asosiy jihatlar bu badiiy tasvir vositalarining salmog‘i, she’rda ifodalangan dennotativ va konnotativ ma’noli birliklar va hokazolardan iboratdir[2].

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib[14].

Yuqorida keltirilgan she’riy bandda qo‘llanilgan badiiy tasviriy vositalar she’rning emotsional-ekspressiv holatini yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynagan. Bandning murojaat shaklida ifodalanishi (II shaxs, buyruq mayli) she’r ta’sirchanligini

oshirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, bandda aks etgan graduonomik vosita ham asardagi satrlar izchilligini ta'minlashga yordam bergan: Kulib turmoq – jilmaymoq. Aslida, sinonimik qator sifatida e'tirof etiluvchi ushbu ikki so'z mohiyatan darajalanish xususiyatini o'zida aks ettirgan, ya'ni kulmoq – ma'noviy jihatdan kuchlilikni ifodalasa, jilmaymoq kulmoqqa nisbatan kuchsizroq semantik vosita bo'lib kelgan.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Gar ko'zlari kulib tursa-da,
Bo'g'zining ostida necha ming hasrat,
Oy yuzlari kulib tursa-da...[14]

,- tarzida davom etgan ikkinchi bandda adabiy tasvir vositalaridan biri takror san'ati qo'llangan, ikkinchi va to'rtinchi misradagi "kulib tursa-da" takrori she'riy misralar uyg'unligini ta'minlagan. Bundan tashqari, mubolag'a san'ati ham ijodkor tomonidan mohirona qo'llangan, ya'ni "Bo'g'zining ostida necha ming hasrat" misrasi orqali ifodalangan mubolag'aviy misra xalqimiz orasida keng uchraydigan "Ichi dardga to'la" birligining yaqqol ifodasi sifatida o'z tasdig'ini topgan.

Ko'nglini ko'taring hech bo'lmaganda,
Qo'lini silashga shafoat toping.
Yig'lab turganida hech bo'lmaganda,
Yoshini artishga muruvvat toping[14]

Uchinchi bandga lingvopoetik jihatdan yondashadigan bo'lsak, unda badiiy nutqning go'zal namunasiga guvoh bo'lishimiz mumkin, ya'ni shoirona ifodalardan iborat birliklar she'riy bandda o'zaro assosiatsiya hosil qilgan: ko'nglini ko'tarmoq, qo'lini silamoq, shafoat topmoq, muruvvat topmoq – bularning barchasi ijobiy bo'yoqdorlikka ega so'zlar hisoblanib, semantik jihatdan umuman boshqa ma'nolar kasb etsa-da, biroq ijobiylik ottenkasi nuqtayi nazaridan bir guruhga mansub , deya bemalol ayta olamiz. Bundan tashqari, yuqoridagi satrda frazeologik birlik ham (ko'nglini ko'tarmoq) qatnashgan bo'lib, uni paremik vosita sifatida tahlil qilish aynan badiiy asarga lingvopoetik jihatdan yondashuvning asl ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Nogoh yerga tushsa oppoq ro'moli,
Bosib o'tmaslikka shafoat toping.
Chaqaloq yalagan etaklarini
Toza deb aytishga adolat toping.[14]

Shoira she'rlarining ajoyib xususiyati shundan iboratki, ijodkor sifatlash badiiy san'atini mohirlik ila satrlarga "singdirib yuboradi", ya'ni sifatlashning go'zal namunalarini ijodkor qalami ila yoritib beradi. Yuqoridagi satrlarda qo'llanilgan sifatlashlar she'rning yanada ta'sirchan, yanada go'zal bo'lishiga yordam bergan. Xususan, birinchi misradagi oppoq ro'mol birikmasidagi oppoq sifatlashi aynan ro'molning ramzi sifatida emas, balki ayolning pokligi, pokizaligi razmi sifatida

keltirilgan. Buni biz bevosita ramz deb ham ta'kidlashimiz mumkin. Ya'ni shoira ayolning pokizaligini toptamaslik uchun shijoat toping deya undamoqda. Keyingi sifatlash esa "chaqaloq yalagan etaklar" birligi asosida yuzaga kelib, bu orqali ijodkor ayolning farzandni ulg'aytirishdagi boshidan o'tkazadigan mashaqqatlari aks ettirilgan.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Illohi nur toping, hidoyat toping.
Illohi baxt bergan ayol yonidan
Baxtiyor o'tmoqqa inoyat toping,- [14]

deya yakunlanadigan misralarda ham xuddi oldingi satrdagi kabi assotsiativ so'zlar guruhiga duch kelishimiz mumkin: baxt, baxtiyor, nur, hidoyat, inoyat – e'tibor bergan bo'lsangiz, ushbu assotsiativ so'zlar guruhi Islom dini asosida yuzaga kelganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Illohi qalqonsiz, illoh qo'rg'onsiz
G'iybatlar yirtmasin ko'ylakkinasin.
Illohi hushyorsiz, illoh bedorsiz,
Itlar tishlamasin yurakkinasin.[14]

Keltirilgan misralarga lingvopoetik jihatdan yondashadigan bo'lsak, bilishimiz mumkinki, she'rda takror holda sintaktik jihatdan so'z-gaplar qo'llangan, takroriy qo'llangan so'z-gaplar she'rdagi ohangdorlikni oshirgan: illohi, illoh. Yoki bo'lmasa bir-biriga yaqin ma'noda qo'llanilgan so'zlardan foydalanish she'r mazmunini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan: hushyor –bedor. Ushbu parchada dennotativ ma'noli so'z ham qo'llanilgan(it). It so'zi orqali ifodalangan ko'chma ma'noda shoira ayol yuragiga og'riq beruvchi, unga zulm qiluvchi barchani nazarda tutmoqda.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Tog' qimirlab, toshlar so'zga kirsa-da,
Ayolga baxt bering, saodat bering, -
Oltmishga kirsa-da, yuzga kirsa-da.[14]

She'rning yakuniy qismida she'r boshlangan misra yana bir bor takrorlanadi: "Ayolga baxt bering, saodat bering". Bundan tashqari, parchada qo'llanilgan partonim munosabat (tosh-tog') asar mazmuniga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita vazifasini bajargan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Zulfiya Mo'minovaning "Ayolga baxt bering" she'ri o'ziga xos ohangga , o'ziga xos mazmunga ega. Ushbu she'rga lingvopoetik jihatdan yondashish asarning ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan anglashilishiga, ham adabiyot nuqtayi nazaridan anglashishiliga yordam beradi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, she'rda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari, avvalgi bandlarga qo'llanilgan bandlarning keyingi bandda yana bir bor takrorlanishi, nutq

birliklarining o‘ziga xos foydalanilishi, konnotativ va denontativ birliklarga xos jihatlar she’r mohiyatining oson tushunilishiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So‘z estetikasi.—T.:«0‘qituvchi», 1981.
2. Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: «0‘qituvchi», 1992.
3. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Doktorlik dissertatsiyasi. — T.: 1991.
4. Pardayev A., Ro‘ziyev F., Mahamadaliyev X. Jurnalistikada til va ifoda. — T.: «lstiqlol», 2006.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. —T.: **«Universitet», 2006.**
6. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari (til qurilishini tizim sifatida o'rganish masalalari). — T.: «Universitet», 2007.
7. Toshaliyeva S. 0‘zbek tilida okkazionalizmlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. — T.: 1998.
8. To‘xtasinova O. 0‘zbek tilida leksik okkazionalizmlar va ulaming badiiy-estetik xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsivasi avtoreferati. — T.: 2007.
9. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov **H.** 0‘zbek tili stilistikasi. — T.: «0‘qituvchi», 1983.
10. Qilichev E. 0‘zbek tilining amaliy stilistikasi. — T.: 1999.
11. Qo‘ng‘urov R., Karimov S. 0‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati: bibliografik ko‘rsatkich. - Samarqand, SamDU nashri, 1984.
12. www.wikipedia.org
13. www.hozir.org
14. www.google.com

ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA PRESUPPOZITSIYA HODISASI

Turobova Nargiza Aralovna
O‘zbekiston Milliy universiteti
Lingvistika/o‘zbek tili (o‘zbek) mutaxassisligi 1-kurs magistranti
nargizaturobova0696@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Antroposentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri Pragmalingvistikaning o‘zbek tilshunosligiga yangi sohasi sifatida kirib kelishiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Pragmatikada nutq vaziyati, kontekstda kommunikativ maqsadning voqealanishi kabi pragmalingvistik xususiyatlarga e’tibor qaratilgan. Pragmatikaning tarkibiga kiruvchi presuppozitsiya termini Ulug‘bek Hamdam asarlari misolida tahlil qilgan. Maqolada presuppozitsiyaning pragmatik roli va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Til, pragmatika, pragmalingvistika, til birliklari, munosabat, yashirin ifoda, presuppozitsiya, kommunikatsiya, nutqiy vaziyat.

THE EVENT OF PRESUPPATION IN THE WORKS OF ULUGBEK HAMDAM

ABSTRACT

This article focuses on the introduction of Pragmalinguistics, one of the leading branches of Anthropocentric Linguistics, into Uzbek linguistics as a new field. Pragmatics focuses on pragmalinguistic features such as the state of speech and the occurrence of a communicative goal in context. The term presupposition, which is part of pragmatics, was analyzed on the example of the works of Ulugbek Hamdam. The article discusses the pragmatic role and importance of presupposition.

Keywords: Language, pragmatics, pragmalinguistics, language units, attitude, covert expression, presupposition, communication, speech situation.

СОБЫТИЕ ПРЕДСУППАПАЦИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УЛУГБЕКА ХАМДАМА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена введению прагмалингвистики, одной из ведущих ветвей антропоцентрической лингвистики, в узбекское языкознание как новой

области. Прагматика фокусируется на прагмалингвистических характеристиках, таких как состояние речи и возникновение коммуникативной цели в контексте. На примере произведений Улугбека Хамдама проанализирован термин пресуппозиция, входящий в состав прагматики. В статье рассматривается прагматическая роль и значение пресуппозиции.

Ключевые слова: Язык, прагматика, прагмалингвистика, языковые единицы, установка, скрытое выражение, пресуппозиция, общение, речевая ситуация

KIRISH

Insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlari uning nutqiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun inson nutqini o‘rganish uning ma’naviy olami bilan tanishish imkonini beradi. Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog‘idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta’siri bilan aloqador masalalarni o‘rganadi. Pragmatika grekcha pragmos so‘zidan olingan bo‘lib, «ish», «harakat» ma’nolarini beradi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo‘llanishini o‘rganadi. Shuning uchun tilshunoslikning bu yo‘nalishi semiotika tarmoqlaridan biri sanaladi. Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch.I.Morris tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan.[1] ,,Pragmatikaning manbasi Ch. Pirs, U. Jems, Ch. Morris kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan bog‘liqdir. Chunki ularning ishlarida belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g‘oyalar o‘rtaga tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o‘rtasidagi o‘zaro farqlar ko‘rsatiladi’’[2] Pragmatikaning tilshunoslik fanining yangi tarmog‘i sifatida shakllanishi va tan olinishi 70-yillarning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda lingvistik pragmatika bilan aloqador maqolalar to‘plam holida nashr qilindi.To‘plam shu yo‘nalishning yangi tarmoq sifatida shakllanish uchun boshlang‘ich amaliy va nazariy manba bo‘lib xizmat qildi. Lingvistik pragmatika falsafiy g‘oyalar ta’sirida shakllana boshlandi. 1977-yildan Amsterdamda lingvistik pragmatikaga bag‘ishlangan maxsus jurnal nashr qilina boshlandi. Jurnal ,,Nutqshunoslik” va ,,Tekstologiya” ning turli yo‘nalishlari bilan bog‘liq masalalarni yoritishga bag‘ishlangan maqolalarni to‘plam sifatida e’lon qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi” [3]

Til birliklarining pragmatik jihatdan o‘rganish o‘zbek tilshunosligida yigirmanchi asrning 80-yillaridan boshlangan. Tilshunos olim N.Mahmudovning Presuppozitsiya va gap munosabatiga oid, A.Nurmonovning ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasiga oid, D.Lutfullayevaning O‘zbek tilidagi sodda

gaplarda zidlanuvchi uzvlar presuppozitsiyasi haqidagi ilmiy maqolalari e'lon qilindi. Keyinchalik esa o'zbek tilshunosligida til birliklarining pragmatik xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar yuzaga keldi. M.Hakimovning O'zbek tilida matnning pragmatik talqiniga doir filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi, U.Rahimovning Yuklamalar presuppozitsiyasiga doir, Z. Tohirovning O'zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo'lishi va ularda subyektiv munosabatning yuzaga chiqishi, Z.Burxonovning O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasiga doir nomzodlik dissertatsiyalari, A.Pardayevning yordamchi so'z turkumlarining, xususan, bog'lovchilarning so'z turkumlarining lisoniy tizimdagi o'rni va lingvopragmatik tadqiqiga doir doktorlik dissertatsiyalari, M.Qurbonovaning O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlariga doir Filologiya fanlari bo'yicha doktorlik ishlari shular jumlasidandir.

ASOSIY QISM

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, u doim inson hayoti, uning aqliy faoliyati bilan bevosita bog'langan. Nutq jarayonida insonlar bir-birlariga axborot uzatadilar va qabul qiladilar. Biroq bu jarayonda muloqot ishtirokchilari faqat axborot almashinib qolmay, nutq sohibining qolgan ishtirokchilarga ta'sir o'tkazishi, ishora qilishi, biror voqelikka ishontirishi, o'z munosabatini aks ettirishi kabi maqsadlari ham amalga oshiriladi. Bunday holatlarda lisoniy birliklariga axborot berishdan tashqari yana bir necha vazifa yuklanadi, ularga pragmatik tus beriladi.

Istiqlol davri adabiyotining zabardast yozuvchilaridan biri Ulug'bek Hamdamdir. Uning ijodini atroflicha va keng aspektda o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi ijodining pragmalingvistik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi tilshunoslikda yangilik hisoblanadi. Chunki pragmatika yo'nalishi o'zbek tilshunosligida to'liq tadqiq qilinmagan sohalardan bo'lib, bu yo'nalishda hali ilmiy izohini topmagan muammolar talaygina. Ulug'bek Hamdam asarlarida zamonamiz kishilarining ma'naviy-axloqiy qarashlari, inson va uning taqdiriga bo'lgan munosabatlar, shaxsning ichki ruhiyatining tasvirlanishi pragmalingvistik nuqtayi nazardan ham ahamiyatlidir.

Presuppozitsiya til birligining „ichki imkoniyati"ni namoyish etadigan hodisa hisoblanadi. Presuppozitsiyada til birligining bevosita kuzatishda berilmagan semantik xususiyati yuzaga chiqadi. Presuppozitsiya ixsham shakl orqali ko'p ma'lumot berishga xizmat qiladi. Shu tariqa gaplarda semantik sintaktik assimetriya paydo bo'ladi. Presuppozitsiyada nutq ishtirokchilari voqelik haqidagi qo'shimcha ma'lumot yashirin ifodasini anglab yetishlari lozim. Bu ma'lumot ba'zan gapda aks etgan propozitsiyaga zid xarakterda bo'lsa, ba'zan mazkur propozitsiyani semantik jihatdan to'ldiradi.

M.Hakimov presuppozitsiya gap orqali bayon qilingan asosiy propozitsiyaning aks mazmunidan iborat, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, presuppozitsiyaning asosiy belgisi matn orqali bayon qilingan propozitsiyaga –hukmga zid tarzda mazmuniy munosabatning anglanishidir.[4] ,,Yana shu kunlarni esga oldi'' (,,Sabo va Samandar" U.Hamdam) gapi presuppozitsiyasi gapning propozitiv strukturasini semantik jihatdan to'ldiradi, voqelikning avval ham sodir bo'lganligini ifodalaydi. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutqiy obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni yashirin yo'l bilan namoyish etuvchi lingvistik hodisadir.

U.Rahimov presuppozitsiyani ,,Tagma'no va presuppozitsiya'' maqolasida gapda ishtirok etayotgan bo'laklar orqali ifodalangan ma'no emas, balki zohiriy ma'no ostidagi qo'shimcha-botiniy ma'no deb hisoblaydi. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapda muayyan til birligining ishorasi asosida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So'zlovchi obyektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda presuppozitsiyaga yo'l ochiladi.

Lingvistik presuppozitsiyaning shakllanishida unga ishora qiluvchi til vositalarining lisoniy-belgi xususiyatlari muhim o'rin tutadi. Masalan, *faqat* ayiruv-chegaralov yuklamasi gapda o'z qurshovidagi bo'laklarni ajratib ko'rsatish bilan birga, ularning ma'nosiga zid xarakterdagi presuppozitsiyani shakllantiradi.[5] Shu sababli nutqda *faqat* yuklamali sintaktik o'ramlardan doimo zid mazmundagi axborotlar anglashiladi.

Masalan, **„Voqealar…voqealar yuz beraverdi, beraverdi. Ularning har ikkisi ham o'zlari istagan o'qishga kirdi. Faqat biri Andijonga, boshqasi Toshkentga. (U.Hamdam „Sabo va Samandar'' asari)** jumlasida presuppozitsiya orqali ,,boshqa joyga emas'' axboroti ifodalangan. Demak, presuppozitsiya gap semantikasining yashirin uzvi sifatida bevosita ifodalanadi.

Presuppozitsiya barcha tillarda kuzatiladi. U har bir tilda shu tilning ichki imkoniyati, ifoda vositalarining o'ziga xos xususiyati asosida belgilanadi. Bu holat presuppozitsiyaning ifodalanishi masalasiga turli yondashuvni yuzaga keltirishi tabiiy..

„ Ha-ya, atrof yangi chiqayotgan maysalar-u kurtaklarning xush bo'yiga, ko'k yuzi ertakelar qushlarning raqslariga endi-endi to'layotgan esa-da, hali havo ko'ylakda yuradigan darajada isigan emas, keng-mo'l xonadagi talabalarning ayrimlari hatto qish kiyimida o'tirishmadi. Lekin negadir bizning Samandar isib ketayotgandi, bu ham yetmaganday, nutqi favqulodda noravon. Nega? Nima bo'ldi unga? Ushbu jumlada ,, Ilgari bunday bo'lmagandi'' presuppozitsiyasi borligini bilib olamiz. Gapning semantik tuzilishi presuppozitsion poydevorga ega ekanini hech kim inkor etmaydi.

Shuning uchun ham ***„…Sabo ham boshi muhabbatning ilk xush bo‘ylaridan aylana boshlaganda, qalbi ayriliqning birinchi zarbalariga uchrab ozor chekkanda, Xudoyimga iltijolar qildi: „Men ishq uyida so‘ngi nafasimgacha qolmoq istayman! Ishq bilan ko‘z ochib, ishq bilan ko‘z yumsam deyman!’’*** gapi “Sabo degan qizning borligi” (ekzistensional presuppozitsiya) va „Unda ishq tuyg‘usi kechayotganligi” (faktiv presuppozitsiya) haqida xulosaviy hukmlarning yuzaga kelishi tabiiydir. Bular oddiy mantiqiy xulosaga ega.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, til birliklarining ichki imkoniyatlari faqatgina nutq jarayonida boshqa birliklar bilan munosabati natijasida namoyon bo‘ladi. Til birliklarining jumlada ochiq qo‘llanmagan holatida ularning o‘rni presuppozitsiya orqali to‘ldiriladi. Presuppozitsiya til birligining pragmatik jihatini namoyish qiladi va nutq vaziyati, matn, so‘zlovchi va tinglovchilarning nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari, ularning til ko‘nikmalari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.. Ulug‘bek Hamdamning „Sabo va Samandar’’ romanida muhabbat yangicha talqinda namoyon bo‘lgan. Ushbu asarda obrazlarning ruhiy holati lingvistik vositalar yordamida mahorat bilan ochib berilgan va ular orqali axborotning yashirin imkoniyati pragmalingvistik nuqtayi nazardan aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ахманова О., Магидова И.М. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика// Вопросы языкознания. -М .,1978. №3.
2. A. Ko‘chiboyev. Matn pragmatikasi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Samarqand, 2015.
3. A. Nurmonov, M. Hakimov . Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. O‘TA.4-son . Toshkent – 2001.
4. Hakimov M. O‘zbek Pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filol.fanlari. d-ri…dis.avtoref. – Toshkent, 2001.
6. N.Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. O‘TA. 6-son. Toshkent- 1986.
7. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика //Новое в зарубежной лингвистике. Вып.XVI.-М.,1985.
8. Qarang: Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar pressupozitsiyasi: Filol. Fan. Nom. Dis.avtoref.- Samarqand, 1994.
9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya.-Toshkent, 2008.
10. Rahimov U. Tagma’no va presuppozitsiya. O‘TA.5-son, 2005.
11. Ulug‘bek Hamdam. „Sabo va Samandar’’. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2011.

TERMINOLOGIK MA'LUMOTLAR BAZASINI LOYIHALASHDA ONTOLOGIK MODELLASHTIRISH

Qodirova Zebo Gulboyevna,
O'zbekiston milliy universiteti, Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi
1-kurs magistranti,
qodirovazebo5450@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ontologik modellashtirishga doir Markaziy Osiyoda va Jahonda qilingan ilmiy tadqiqotlar o'rganilgan. Tibbiy terminologik ma'lumotlar bazasini loyihalashtirishda DO(Disease Ontology) andozalariga tayanilib, ontologik modellashtirishni amalga oshirish bosqichlari o'z ifodasini topgan.

Jumladan, maqolada modellashtirishda tur va tasnif, butun-qism munosabatlari iyerarxik, semantik aspektlarda o'rganilgan va ontologik tizimlashtirish jarayonlari ifodasini topgan o'rinlar uchraydi.

Kalit so'zlar: Ontologiya, NLP, semantik veb, individlar, aksioma, munosabatlar, ma'lumotlar bazasi, OWL, konseptlar, atributlar, iyerarxiya, taksonomiya.

ONTOLOGICAL MODELING IN TERMINOLOGICAL DATABASE DESIGN

ABSTRACT

The article examines research in ontological modeling in Central Asia and around the world. The design of the medical terminology database is based on the DO (Disease Ontology) templates and reflects the stages of ontological modeling.

In particular, the article explores the types and classifications in modeling, the hierarchical, semantic aspects of whole-part relationships, and the ontological systematization processes.

Keywords: Ontology, NLP, semantic web, individuals, axioms, relationships, databases, OWL, concepts, attributes, hierarchy, taxonomy.

ОНТОЛОГИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИХ БАЗ ДАННЫХ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются исследования в области онтологического моделирования в Центральной Азии и мире. Дизайн БД медицинской терминологии основан на шаблонах ДО (Онтология болезней) и отражает этапы онтологического моделирования.

В частности, в статье исследуются типы и классификации в моделировании, иерархические, семантические аспекты отношений целое-часть и процессы онтологической систематизации.

Ключевые слова: онтология, NLP, семантическая сеть, индивидуумы, аксиомы, отношения, базы данных, OWL, понятия, атрибуты, иерархия, таксономия.

Sun’iy intellekt tadqiqotiga oid asarlarda ontologiyani tushunish bo‘yicha ko‘plab izohlar keltirilgan. Ontologiyalar bu – sohadagi tushunchalarning rasmiy aniq tavsifini, har bir konseptsiyaning turli xil xususiyatlari va atributlarini tavsiflovchi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lgan semantik vebning tarkibiy resursi hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida lug‘aviy birliklarni tizimli asosda tadqiq etish, terminlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni paradigmatik va sintagmatik jihatdan yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotlar talaygina. Lingvistik resurslar – lug‘atlar, tezauruslar, ontologiyalar shaklida ifodalanadi. Ontologiyalar bilimlarni avtomatik qayta ishlash imkoni bilan birgalikda, bilim haqida yangi xulosalar chiqarish imkoniyati bilan farqlidir.

Ontologiya bo‘yicha Markaziy Osiyoda qilingan tadqiqotlar sirasiga quyidagilarni keltirish mumkin: A. Sharipbay, B. Yergesh, G. Yelibayeva, L. Zhetkenbay[20]; N. Israilova, P. Bakasova, A.Sharipbay, R.Niyazova, S.Kudubayeva, R.Turebayeva, A.Aktayeva, L.Davletkireeva[21]; А. А. Шарипбай, Г. К. Елибаева, А. С. Муканова, Л. Жеткенбай[22]; Nilufar Abdurakhmonova, Mirsaid Aripov[23].

---

[20] *А. А. Шарипбай, Б. Ж. Ергеш, Г. К. Елибаева, Л. Жеткенбай,* Сравнение онтологических моделей существительных казахского и кыргызского языков. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.

[21] *A.Sharipbay, R.Niyazova, S.Kudubayeva, R.Turebayeva, A.Aktayeva, L.Davletkireeva,* Ontological model of the educational program computational linguistics. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.

[22] *А. А. Шарипбай, Г. К. Елибаева, А. С. Муканова, Л. Жеткенбай,* Онтологическое моделирование имени прилагательного казахского языка. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.

[23] *Nilufar Abdurakhmonova,* Uzbek ontology of Uzbek language as example of adjective. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.

Ontologiya bo‘yicha tadqiqotlar kompyuter fanlari hamjamiyatida tobora kengayib bormoqda va uning ahamiyati ko‘plab sohalarda e’tirof etilmoqda. Barry Smith, Vaslav Kusniercyk, Daniel Schober, **Werner Ceusters[24],** A.N. Mozolevskaya, E.I. Molchanova, N.F. Gusarova, V.V. Sysoevaa, Ivashenko V.P, O.A. Nevzorova, V.N. Nevzorov kabi tadqiqotchilarning ishida ontologik madellashtirish, ontologik tuzilmalar, sistema strukturasi, iyerarxik munosabatlar, asotsatsiyaviy bog‘liqlik, konseptlar va boshqa masalalari o‘z aksini topgan. Qolaversa, Stenford biotibbiyot informatika tadqiqotlari markazidagi (BMIR) 15 yildan ortiq vaqt davomida BioPortal dasturiy ta’minotini (jumladan, uning joylashtiriladigan varianti, OntoPortal Virtual Appliance) ustida ish olib borilgan. Doktor Mark Musen boshchiligidagi ishlab chiqish va tizim operatsiyalari guruhlari BioPortal uchun barcha o‘zgartirishlar, tizim operatsiyalari, foydalanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilgan[25]**, jumladan, rak kasalliklari (canser ontology) ontologiyasi**[26] turli atamalarni, lug‘atlarni va kasalliklarning identifikatsiya raqamlarini bitta atama va identifikatsiya raqamiga bog‘laydi va birlashtiradi. DO(Disease Ontology) kasallik atamalari va tushunchalari o‘rtasida aniq ierarxik va strukturaviy munosabatlarni o‘rnatadi va u MeSH, OMIM, ICD-9-CM, ICD-10, NCI tezaurus, Orphanet, UMLS va SNOMED CT atamalari va identifikatorlarini DO o‘zaro moslashtiradi.

Ontologiyalarni yaratish jarayoni dastlab semantik munosabatlarga asos bo‘ladigan sinflarni aniqlashdan boshlanadi.

Ontologiyada sinf iyererxiyasi *yuqori-past qiymatli, teng qiymatli sinf qo‘shish* hamda *sinf qiymatlarini o‘chirish* kabi funksiyalardan iborat. Dastlabki bosqichda ontologiyalarni qurish semantik munosabatlarga asos bo‘luvchi sinflarni aniqlashdan iborat. Ontologiyaning bu funksiyasi uning tuzilishini asoslaydi, chunki ontologiya ma’lumot sohasining rasmiy tavsifi sifatida ***sinflarga*** tayanadi, ba’zan tushunchalar deb ham ataladi.

[24] Barry Smith, Ph.D., 2Waclaw Kusnierczyk, M.D., 3Daniel Schober, Ph.D.,Werner Ceusters, M.D.Towards a Reference Terminology for Ontology Research and Development in the Biomedical Domain. KR-MED 2006 "Biomedical Ontology in Action" November 8, 2006, Baltimore, MD, CEUR, Vol. 222, 57-65

[25] Whetzel PL, Noy NF, Shah NH, Alexander PR, Nyulas C, Tudorache T, Musen MA. BioPortal: enhanced functionality via new Web services from the National Center for Biomedical Ontology to access and use ontologies in software applications. Nucleic Acids Res. 2011 Jul;39(Web Server issue):W541-5. Epub 2011 Jun 14.

[26] Lucas M. Serra, , William D. Duncan and Alexander D. Diehl An ontology for representing hematologic malignancies: the cancer cell ontology. From Second International Workshop on Cells in ExperimentaL Life Sciences (2018) Corvallis, OR, USA. 7 August 2018.



1-rasm. Tibbiyotning sohalar bo‘yicha ontologik tavsifi.

Ontologiya rasmiy tavsif tillari turlicha bo‘lib, ular imkoniyatlari jihatidan bir-biridan farqlanadi. OWL (*Web Ontology Language)* Semantik Web (*World Wide Web Consortium* (W3C))ga ontologiyalarni taqdim etish uchun yaratilgan. OWL shaklida taqdim etilgan malumotlar ontologiyada to‘planadi. Ushbu ma’lumotlar global tarmoqqa saqlanadi va uzatiladi. OWL foramatidagi fayllar ustida tuzatish, qayta ishlashni amalga oshirish mumkin. Qolaversa, OWL o‘tish, birlashma va rad etish kabi mantiqiy operatorlarga ega.[27] Ushbu operatsiyalar orqali murakkab tushunchalar oddiy tushunchalar orqali aniqlanadi. Bundan tashqari, mantiqiy model chiqish mashinasi(*reasoner*)ni ishlatishga imkon beradi, shuningdek, qaysi tushunchalar qaysi ta’riflarga mos kelishini bilib oladi. Rezonator tomonidan amalga oshiriladigan avtomatik fikrlash iyerarxiyani izchil holatda saqlashga yordam beradi.

Asosiy sinflar aniqlangandan so‘ng, ontologiyada sinf tarkiblari *individuals*da ifodalanadi. *Description*da esa *individual*larning qaysi sinflar tarkibida bo‘lishi aksiomasi belgilab olinadi.

[27] **Цуканова Н. И. Онтологическая модель представления и организации знаний. Учебное пособие для вузов. – М.: Горячая линия – Телеком, – 2015.**



2-rasm. Tibbiyotning ayrim sohalari ontologik tavsifi.

Yuqorida (2-rasm) tibbiyotning asosiy sohalari keltirilgan va sohalar tarkibida ayrim individuallari sanab o‘tilgan.

Ontologiya semantik veb-saytning muhim tarkibiy qismidir. Ontologiyalar (NLP) – sun’iy intellekt, kompyuter fanlari va tilshunoslik sohasi bilan chambarchas bog‘liq. Ontologiyalar tabiiy (inson) tilni tushunishga yordam beradigan ma’lumotlarni talqin qilish, integratsiya qilish va almashish uchun aniq va rasmiy usulni taqdim etadi. Tabiiy tilni tushunish o‘z-o‘zidan turli sohalarda foydalidir, masalan: ma’lumot olish (IE), mashina tarjimasi (MT), savollarga javob berish (QA) va boshqalar.[28] Shu sababli ontologiya va Semantik internetni qo‘llab-quvvatlash uchun dasturiy vositalarni ishlab chiqarish tezlashdi.

[28] Emhimed Salem Alatrish, Dusan Tosic and Nikola Milenkovic Building ontologies for different natural languages, - Computer Science and Information Systems. – on 15 January 2016. 11(2):623-644.



3-rasm. Ontologiyada sinflarning grafik ifodasi.

Ma'lumotlarning ko'pligi tadqiqotchilar va dastur uchun uni boshqarish va qayta ishlashda bir muncha qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Ma'lumotlarni iyerarxiyalarga ajratish va rasmiylashtirish, ma'lumotlar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish mashinada samarali ishlov berishni qulayroq qiladi. Shunga qaramay, murakkab sohalarda, masalan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) jarayonida, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar oddiy iyerarxiyalardan tashqariga chiqadi va tezaurusga o'xshash tarmoqlarni hosil qiladi. Bunday hollarda tadqiqotchilar ontologiyalarni domenda ma'lumot almashishi kerak bo'lgan mutaxassislar uchun umumiy lug'at sifatida ishlatadilar. Foydalanish uchun ontologiyalar inson va mashina o'rtasidagi aloqani - ontologiyada ko'rsatilgan terminologik ma'lumotlar bazasiga ishora qilib - hatto mashinalararo va insonlar o'rtasidagi aloqani osonlashtirishi kerak (Guarino 2009).

XULOSA

Xulosa sifatida keltirish o'rinliki, ontologik lug'atlarning sohalarda yaratilishi va rivojlanishi kelgusida barcha sohalarning o'zaro munosabatlarini aniqlashda qo'l keladi. Kompyuter texnologiyalarining asosiy resursi bu – bilimlar bazasidir. Ontologiya taqdim etilgan bilimlar bazasini OWL(***Web Ontology Language)***

yordamida semantik jihatdan analiz qilish imkonini yaratadigan zamonaviy lug‘at turidir. Sohaviy ontologiyaning yaratilishi kompyuter dasturiy ta’minot tizimlarida istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, tabiiy tilda taqdim etiladigan ma’lumotlarni zamonaviy usullar orqali qayta ishlash, boyitib borish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *А. А. Шарипбай, Б. Ж. Ергеш, Г. К. Елибаева, Л. Жеткенбай,* Сравнение онтологических моделей существительных казахского и кыргызского языков. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.
2. *A.Sharipbay, R.Niyazova, S.Kudubayeva, R.Turebayeva, A.Aktayeva, L.Davletkireeva,* Ontological model of the educational program computational linguistics. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.
3. *А. А. Шарипбай, Г. К. Елибаева, А. С. Муканова, Л. Жеткенбай,* Онтологическое моделирование имени прилагательного казахского языка. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.
4. *Nilufar Abdurakhmonova,* Uzbek ontology of Uzbek language as example of adjective. Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2018». (Труды конференции) –Ташкент: Издательско-полиграфический дом «NAVOIY UNIVERSITETI», 2018. – 390 с.
5. Natalya F. Noy and Deborah L. McGuinness, Stanford University, Stanford, CA, 94305. Ontology Development 101: A Guide to Creating Your First Ontology.
6. Whetzel PL, Noy NF, Shah NH, Alexander PR, Nyulas C, Tudorache T, Musen MA. BioPortal: enhanced functionality via new Web services from the National Center for Biomedical Ontology to access and use ontologies in software applications. Nucleic Acids Res. 2011 Jul;39(Web Server issue):W541-5. Epub 2011 Jun 14.
7. Lucas M. Serra, , William D. Duncan and Alexander D. Diehl An ontology for representing hematologic malignancies: the cancer cell ontology. From Second International Workshop on Cells in ExperimentaL Life Sciences (2018) Corvallis, OR, USA. 7 August 2018.

САЧРАТҚИ ЎСИМЛИГИ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ ВА БИОЛОГИК ФАОЛ БИРИКМАЛАРИ

Нафиса Тажидиновна Йўлчиева
Андижон давлат университети эркин тадқиқотчиси
nafisa.yulchiyeva@bk.ru

Фарход Султонахмадалиевич Абдугаппоров
Андижон давлат университети кимё кафедраси ўқитувчиси,PhD.
farhodabdugaffarov@mail.ru

Муслимахон Авазбек кизи Тожиддинова
Андижон давлат университети
Кимё таьлим йуналиши 2-босқич талабаси
tojiddinovamuslimaxon@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада сачратқи ўсимлигининг таркибидаги айрим биологик фаол моддалар, каротиноидлар ва уларнинг касалликларни даволашдаги аҳамияти, каротиноидларни анализ натижалари тўғрисида маьлумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: сачратқи, каротиноид, спектрофотометр, экстракт, оптик анализ, витаминлар.

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫЕ СОЕДИНЕНИЯ РАСТЕНИЯ ЦИКОРЫЙ ОБЫКНОВЕННЫЙ

АННОТАЦИЯ

В статье приведены сведения о некоторых биологически активных веществах каротиноидов, каротиноиды и их роль в лечении заболеваний, результаты анализа каротиноидов.

Ключевые слова: сикорий обыкновенный, каротиноиды, спектрофотометр, экстракт, оптический анализ, витамины.

CHEMICAL COMPOSITION AND BIOLOGICAL ACTIVE COMPOUNDS OF SACHRATKI PLANT

ABSTRACT

The article provides information on some of the biologically active substances in carotenoids, carotenoids and their role in the treatment of diseases, the results of the analysis of carotenoids.

Keywords: sachratki, carotenoids, spectrophotometer, extract, optical analysis, vitamins.

Мамлакатимизда аҳоли саломатлигини сақлашда экологик тоза озиқ-овқат маҳсулотлари билан таьминлаш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Юртимизга четдан кириб келаётган аксарият озиқ-овқат маҳсулотларининг таркибида синтетик кимёвий бирикмаларнинг борлиги аҳоли саломатлигига жиддий хавф туғдиради.

Аҳоли саломатлигини сақлашда таркиби жихатдан озуқавий қиймати юқори ва биологик фаол бирикмаларга бой бўлган озиқ овқат қўшилмаларидан фойдаланиш ушбу муаммоларни бартараф этишда муҳум омилдир.

Бундай таркибга эга бўлган ўсимликларни маданийлаштириш ва мавжуд навларини интродукция қилиш эса озиқ-овқат ва дори дармонга бўлган эхтиёжларини қондиришда муҳум аҳамият касб этади [1]. Шундай фойдали ҳусусиятларга эга бўлган ўсимликлардан бири бу- сачратқи ўсимлиги ҳисобланади.

Сачратқининг илдизи таркибида инулин, интибин, аччиқ гликозидлар, витамин В1, қандлар бор. Барги таркибида инулин, витамин С, органик кислоталар, каротиноидлар, гули таркибида цикорин гликозиди, витамин С ва бошқа моддалар бор. Халқ табобатида ўсимликнинг хамма қисми ишлатилади. Таркибида иссиқ сувда эрувчан углеводлардан инулин анча қисмини ташкил етади.

Ибн Сино бу ўсимлик баргларини яллиғланиш, ярали темираткини даволаш билан бошқа аьзо касалликларини ҳам шунингдек, бўғим оғриғи, кўз шамолланишини даволагани кадимдан маьлум. Юрак ҳасталигида ва унинг мушакларини мустаҳкамлашда, ҳалқумдаги шишларни, меьда- ичак ҳасталиклари, кўнгил айниши, меьда ва ўн икки бармоқли ичак яраси, жигар ва ўт ҳалтаси, ўт йўллари ҳасталиклари ва ўт хайдашда кенг кўллаган [2].

Биз бу ўсимликни янада яхшироқ ва чуқурроқ ўрганиш ва у асосида фаол озиқ- овқат кўшимчалар олиш мақсадида ўсимлик устида бир неча

амалиёт бажардик. Яъни, сачратқи барги ва пояси таркибидаги β-каротиноидлар миқдорини қуйидаги амалиёт ёрдамида аниқладик.

Каротиноидлар-табиий бўёқлар орасида кенг тарқалган озуқавий бўёқ ҳисобланади. Каротиноидларнинг асосий табиий манбааси бўлиб, сабзи, ошқовоқ, шафтоли, апелсин, булғор қалампири, помидор ва гилос каби маҳсулотлар ҳизмат қилади. Лютеин, алфа-, бета-каротин, зеаксантин ва ликопинлар кенг қўлланилувчи каротиноидлардир [3].



Lyutein



Likopin



β-karotin



Zeaksantin



Анализни бажариш оптик усулда амалга ощирилди.

Сачратқи ўсимлиги таркибидаги β- каротиноид миқдорини спектрофотометрия усулда аниклаш:

β-каротиноид миқдори эритмаларнинг оптик зичликлари ЕМС-30ПS (Германия)спектрофотометрида ўлчанди. Ўрганиш объекти сифатида қуритилган, майдаланган сачратқи ўсимлиги олинди. Тажрибаларда ГФ ХИВда тавсия этилган усулдан фойдаланилди [4].

Бунинг учун қуритилган сачратқи ўсимлигидан 1 г (аниқ тортма, майдалиги 1 мм катталикдаги) тортиб олиниб 100 мл ҳажмли конуссимон колбага солинади, устига 25 мл гексан (х.ч., ТУ 2631-003-05807999-98) қуйилди. Аралашма ҳона ҳароратида 30 минут давомида магнитли аралаштиргичда доимий аралаштириб турилди. Ҳосил бўлган эритма фильтрланди (А-эритма), фильтратдан 2 мл олиб 25 мл ўлчов колбасига ўтказилди, сўнгра ҳажми гексан билан ўлчов белгисигача етказилди (Б эритма) [5]. Б эритмадан олиб спектрофотометрда 450 нм тўлқин узунлигида оптик зичлиги аниқланди ва қуйидаги формула бўйича маҳсулот таркибидаги β-каротиннинг миқдори аниқланади.

$$x = \frac{D_1 \cdot 0{,}00208 \cdot 25 \cdot 25 \cdot 100 \cdot 100}{D_0 \cdot m \cdot 1 \cdot (100 - W)}$$

Бу ерда, $Д_1$-текширилаётган моддани оптик зичлиги;

$Д_0$ -калий бихромат стандарт эритмасини оптик зичлиги;

0,00208-калий бихромат стандарт еритмаси рангига мос келувчи β-каротинни миқдори;

м – маҳсулот массаси, г

W-маҳсулотни намлиги, г.

ХУЛОСА

1.Олиб борилган тадқиқотлар натижасида сачратқи ўсимлиги таркибидаги каротиноид гексан, 70 ва 96 % ли этил спиртида экстраксия қилиниб спектрофотометрия методи ёрдамида миқдори ўрганилганда энг юқори кўрсаткич 96 % этил спиртида кузатилди.

2. Экстраксия 96% ли этил спирти билан ўтказилганда ҳомашё экстрагент нисбати хом ашёнинг майдаланганлик даражаси экстраксия вақти мин бўлганда оптимал шароит эканлиги аниқланди.
3. Олинган натижалар асосида сачратқи ўсимлигининг инсон саломатлигини сақлашда ва касалликлар профилактикасида каротиноидларга бой табиий манбаа сифатида тавсия этиш мумкин. Ушбу ўсимликнинг таркибий қисмлари асосида озиқ овқат қўшилмалари ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш сохасидаги муаммоларни бартараф этишда мухум омил бўлиб ҳизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Асқаров И.Р. Табобат Қомуси. "Мумтоз сўз". Тошкент 2019. 760-761 б.
2. Н.Т.Йўлчиева, С.А.Алимбоев Амарантнинг шифобахшлик хусусиятлари. Халқ табобати плюс - Тошкент, 2021. Нº3.(8) Б.20.
3. Шашкина М.Я., Шашкин П.Н., Сергеев А.В. Роль каротиноидов в профилактике наиболее распространенных заболеваний. Российский биотерапевтический журнал. 2010., 9 (2) стр 77-86
4. Государсвенная фармакопея Российской Федерации.XIV изд. – М., 2018. – Т. 4 . – С. 6622-6633.
5. Takashi M., Naoshige A. Structures of minor carotenoids from the Japanese common catfish Silurusasotus // Chem. and Pharm. Bull., 2011, N1, P.140–145.

ШЕЪРИЯТГА АЙЛАНГАН КЎНГИЛ

Бердиева Дилнавоз
Қарши давлат университети
Филология факультети 2 курс магистранти
Email: berdiyevadilnavoz92@gmail.com

АННОТАТСИЯ

Ушбу мақолада Муҳаммад Юсуф ҳаётининг мазмунига айланган шеърият, шеъриятга бўлган муҳаббати, кўнгил кечмишлари ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Шеър, кўнгил, шоир, шеърият, халқ, ватан, ўзбек.

ANNOTATION

In this article, it is mentioned about the love of Muhammad Yusuf for poetry, poetry, which became the meaning of his life, about his past experiences about poetry.

Keywords: Poetry, entertainment, poet, poetry, people, vatan, Uzbek.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о поэзии Мухаммеда Юсуфа, его любви к поэзии, его веселых переживаниях, которые стали смыслом его жизни.

Ключевые слова: Поэзия, сердце, поэт, поэзия, народ, Родина, ўзбек.

Муҳаммад Юсуф она юртнинг кўҳна ва азим томирларига оридай оппоқ жон ришталарини боғлаб яшаган шоир эди. У ўзбекнинг ўтмиши-ю бугуни, истиқлоли-ю истиқболини, саҳроси-ю боғлари, Улуғтоғдек тоғларини ифтихор ила қаламга олди.

Шоир улғайган замин Андижон, болам деб елкасига меҳр қўлларини қоқиб қўйган юрт Ўзбекистон бўлди. У қуёшли диёрини заҳматкаш, содда халқини онасидек севиб ардоқлади. Изҳорини шеърларида мадҳ этди:

Ватан!
Қандай сеҳрли куйсан,
Пойингга жон тиксам арзийди.
Сенинг учун ўтларда куйсам,
Дарёларда чўксам арзийди!

Биласизми, шоир ҳақида ўйлай бошлаган заҳотим руҳиятимни ўзгача бир енгиллик, баҳор ҳавосидек майинлик эгаллай бошлайди. Кўнгил қушим самоларга шунақанги чарх уради-ки, у ҳолатнинг ташбеҳини тополмайман. Гўё шоир билан учрашадигандек, шеъриятнинг нафосатли, соҳир ва ҳадсиз олами тўғрисида устоз ва шогирддек дилкаш давра суҳбати қурадигандек бўламан.

Мен Муҳаммад Юсуфни ўзимга Устоз деб биламан. Китобларини варақлар эканман, саҳифаларга қалб бўлиб муҳрланган шеърларнинг рангин, сержилва, фусункор бўстонига қандай кириб қолганимни билмай ҳам қоламан. Юрагимда шоирга бўлган эҳтиром-у муҳаббатим ғоятда чексиз ва самимийдир.

Муҳаммад Юсуфнинг кўнгли шеъриятга айланди. Бу шеърият боди сабодек эркаловчи, оҳанграбодек майин, кўкда етмиш хил жилоланган камалакдек рангин ва шабнамдек шаффофдир. У бирда баҳор ёмғиридек ифорли бўлса, бирда қизғалдоқдек маъсума, капалакдек беозор; чўққидаги қорлардек соф, тоғлардек улуғвор. Шунинг билан бирга, Ватандек ўхшаши йўқ, она меҳридек суюмли, ўзидек танти ва тўпори шеъриятдир.

Уни бежизга такрор-такрор “Шеъри ўзига, ўзи шеърига ўхшаган шоир”, деб айтишмайди. Ҳақиқатан ҳам, Муҳаммад Юсуф шеърлари ўз юрагининг акси, туйғуларининг жаранги, умидларининг жилоси, армонларининг мунгли, меҳр-у муҳаббати, вафосининг баланд ва мағрур байроғидир.

Уни ўқиган китобхон лирик қаҳрамон дунёсининг меҳмонигина бўлиб қолмай, балки мезбонига ҳам айланади. Мисраларга кўчган дард, ҳиссиёт, руҳият тасвири ёки ҳаётни куйлаган фараҳбахш туйғулар сизни мусиқадек сўз остонасидан дилнинг ҳадсиз кенгликларига бошлаб кетади. Сатрдан-сатрга, шеърдан-шеърга кўчиб бораркансиз, қалб водийларида кўз очган булоқлардан сув ичасиз –ҳаловат топгандек гўё; жайронлар ила “Жайрон, нега кўзинг тўла ёш?” – дея диллашиб, эрка кийикларни эркалайсиз. Капалакдек учиб, ёрнинг қошларига қўнганча дил ёрмоқ бўласиз:

Капалакдай келиб,
Қошингга қўниб,
Кўзингга термулиб умрим ўтсайди…
Нима ҳам кўрибман мен йигит бўлиб –
Сочингни силашга қўлим етмайди.

Қирларда ўксиб-ўксиб турган қизғалдоқлар ёнидан бесўз ва жим ўтиб кета олмай, бахмал кўрпачаларга чўкка тушганча :

Қизғалдоғим, қирдан бўлак кошонанг йўқ,

Кокил ёйсанг, ердан бўлак тошойнанг йўқ.
Ўксиб-ўксиб турганингда ўзим бориб,
Пешонангдан ўпай десам, пешонанг йўқ.

-дея кўклам қизининг қулоқларига шоирнинг ўзи бўлиб шивирлайсиз.

Бу каби шеърхонни ром этиб қўядиган дилбар ва юқумли шеърият соҳиби бўлиш барча шоирларга ҳам насиб этавермайди. Айниқса, устознинг она Ватан мавзуларида ёниб, яшнаб ёзганларини ўқир экансиз, беихтиёр "Муҳаммад Юсуф -Ватанни севишни ўргатган шоир" ,- деб юборасиз. Зеро, ўзи ёзганидек:

Кўҳна тол бешикдан
Бошланган олам,
Сенга иддаолар
Қилмай севаман.
Бир уни синглим,деб,
Бир куни онам –
Ватан, кимлигингни
Билмай севаман.

Ёки:

Ўпинг, кўзингизга суринг тупроғин,
Ҳар сўзин муқаддас дуодек севинг.
Қаданг юракларга миллат байроғин,
Ватанни Нажмиддин Кубродек севинг.

Бутун Ўзбекистон, бутун эл, ҳатто қардош халқлар ҳам шоирни ардоқлайди. Бугун ҳеч бир хонадон йўқки, шоир шеърлари қўшиқ бўлиб кириб бормаган бўлса. Ҳеч бир китобжавон йўқки, унинг бадиий тўпламлари билан тўлмаган бўлса. Ва яна ҳеч бир кўнгил йўқки, шоирнинг сатрлардаги армуғонини ўз қалбига жо қилмаган бўлса.

Ҳа, ҳақиқатан ҳам, Муҳаммад Юсуфнинг шеърга кўчган сурати-ю сийрати адабиётга ошно,ишққа ташна, садоқатни шиор этиб, юртим,деб ёниб яшаётган миллатдошлари қонида фахр бўлиб оқмоқда", Миллат сардоридан тортиб, яктагининг енгларидан тер югуриб тинмайдиган бободеҳқонигача шоирни улуғлайди. Бу ўлкада Ватанини, халқини қадрлаганлар қадри ҳеч қачон ўлмайди, ёди ҳеч қачон сўнмайди. Гўё шоир:

Ўзи ўлса ўлар, сўзи ўлмайди,
Ҳамиша барҳаёт насл шоирлар.
Ҳақиқий шоирнинг қабри бўлмайди,
Юракка кўмилар асл шоирлар.

Мисраларини ўзи учун абадий қўшиқ каби ёзиб кетгандек.

Муҳаммад Юсуф яқин ва олис ўтмиш қаърига назар ташлар экан, мустамлакачилик зулми остида эзилган, хўрланган, куни билан тунининг фарқи бўлмай қолган халқнинг бошдан кечирганлари унинг юрагини тирнайди, ачиштиради. “Айбин билмай кетган Акмал Икромлар”, “Файзуллодек мард-у майдонлар ёди”, “Жайрондек термулган Чўлпонлар ”- Қодирийларнинг ноҳақ тўкилган қонидан ранги бўздек оқарган қаро тун чеҳраси, безовта руҳидан қалбга чўккан армонлар шоир кўксини ўртайди. Шунда устоз бир чин фарзанд бўлиб, она Ватанининг дардманд кўнглига сўзи билан таскин беради, руҳ бағишлайди:

Қурбонинг бўлайин, эй онажоним,
Сенинг фарёдларинг менинг фиғоним.
Ўтмишингни ўйлаб ўртанар жоним,
Тошларни йиғлатган достонларинг бор.

Инсон бу фоний дунёни тарк этгандан сўнг яқинлари уни зиёрат қилгани қабрига боришади. Лек Туркистонни озод кўрмоқ, обод қилмоқ йўлида жонлари беайб қурбон қилинган миллат фидойиларининг ҳатто қабрлари йўқлигидан шоир озорланади:

...Йўқлаб борай десак, мозорингиз йўқ,
Ўзингиз қайдасиз, Файзулло бобо!

Ёки яна бир шеърида:

...Эртак сўйламакни тўхтатинг менга,
Чўлпоннинг гўрини кўрсатинг менга.

-дея ”ўз чорбоғидан ўзи юлқилаб, гулханга гул кўмган маҳмадонлар”га ҳақли равишда даъво қилади.

Истиқлолнинг истиқболини кутиб, кўзда ёш-у юракда армон билан ўтганлар қанча... Муҳаммад Юсуф ана шу армонли элнинг умидли шоири бўлиб, ёруғ кунларга кўз тикиб, шу элнинг оғриқларини, дардларини куйлади.

Устоз "Тўплар адирларда буғдой ўрад", "Танклар далаларда пахта теради"-деганида нечоғли ҳақ эди. Иншооллоҳ, шоир айтганидек нурли лаҳзалар кўз ёшлардан зада бўлган замин бағрига эрк қуёшининг нурларидек ёғилиб, она юртнинг қучоғида ҳурлик насимлари эса бошлади. Ўзбекистон самоларга бўй берди, ўзбек деган қутлуғ ном жаҳон минбарларидан янгради. Шоир ушбу муаззам дақиқаларни қалбда ҳаяжон, фахр билан севинч-у бахтга тўлиб шундай ёзади:

Бир тўкилиб тағин қомат тикладик,
Елкаларга миллат юкин юкладик.
Озод вужудларда руҳ бўлди бино,
Бинолар ўрнида давлат тикладик.
Қай кун тилдан учди қадрдон калом –
Дунёларни қучди ўзбек деган ном.

Муҳаммад Юсуф мустақиллик йилларида анча сермаҳсул ижод қилди. Ўзбек адабиётини миллий ғурур, ўзликни англаш ғоялари сингдирилган, қадимий қадриятларимиз, Ватан мадҳи улуғланган, ифтихор туйғуларига йўғрилган бетакрор, жозибали, содда ва равон шеърлари билан бойитди.

Содда дейишга деймиз-у лек мана шу содда сўзларга вазмин ва маънодор юкни юклай билиш маҳорати, хаёлнинг бир чеккасига ҳам қўнмаган ташбеҳларни топа олиш қобилияти манаман деган шоирларнинг ҳам қаламидан тўкилавермайди.

У Ватан ҳақида тўлиб ёзар экан, уни севишини баландпарвоз сўзларда изоҳламайди, балки камтарлик билан "Мен таъзим қиламан буғдой пойига" ёки "Парижнинг энг гўзал ресторанларин битта тандирингга алишмасман мен",– дея самимий-у чин қалб туғёни ила сездириб ўтади. "Арслонлар туққан шерлар ўлкаси"ни "Осмонга туташган оқ терак ўлкам",-деб кўкларга кўтариб, "Жилғаси жаранги тонгда уйғотиб, юрагимга кириб келган баҳорим", -дея шеърларида эркалайди. Унинг учун бу юртнинг "Тунлари зар,тонгги маржон", боболари от чопган ҳар қарич ери "олтин тупроқ"дир. "Ялангтўшим" деб кўксига бош қўйган "зарчопон қалб" эл уники.

Шоирдан Ватан ҳақида сўрашганда шундай деган экан: "Менинг Ватаним-менинг онам! Дунёда ундан гўзали йўқ. Ундан ҳалоли йўқ. Ундан кечирувчан йўқ. Ундан меҳрибон йўқ. Мени онамдай зотни яхши кўрганлар менинг дўстим

– ҳаммаси. Мени онам ҳақида кимдир ёмон гапирса, мени онамга тош отса, қўлини синдираман. Уни ҳеч кимга ишонмайман, ҳеч кимга бермайман, ҳеч кимга ҳақарот ҳам қилдириб қўймайман”. Ҳа, шоирнинг Ватанга бўлган муҳаббати онага бўлган муҳаббатдек улуғ, ёрга бўлган ишқдан ҳам юксакроқдир:

Чорласа Сиз қўрғон бўлинг, тош бўлинг,
Суянг бир-бирингизга, елкадош бўлинг.
Қани ким ботиниб бир сўз айтолгай,
Битта жон, битта тан, битта бош бўлинг.
Севсангиз, аввал шу Ватанни севинг,
Сўнг шаҳло кўз-у гулбаданни севинг.

Унга бу заминнинг нони азиз, суви азиз; болажон-у бола феъллиги, қалдирғоч ин қурган айвонлари суюмли. Бу ўлканинг ҳар нуқтасида унинг нигоҳлари чақнаб турса, байрам-у сайлларида қўшиққа айланган овози янграб туради.

Баҳорда ота қишлоғимга борган кезларим заминнинг юрагидек дупурлаб, баланд тоғлар сари мағрур чопаётган тулпорларни кузатганимда, ё бўлмаса, адирларда мени хушҳол қарши олаётган қизғалдоқларнинг олов юзларига термулганимда шоирни учратгандек бўламан. Гўёки унинг нафаси кезиб юргандек. Уйнинг баланд айвонларига ин қураётган қалдирғочларни кўриб шоирнинг:

...Кузда кетган қушлар ҳам,
Баҳор қумсаб қайтган айвон –
Ўзбекистон, Ўзбекистон!

мисраларини қўшиқ қилиб айтиб юборгим келади.

Муҳаммад Юсуфнинг севимлилиги, барча ёш-у кексага бирдай манзур бўлиши ўзбекни, унинг турмуши-ю ширин ташвишларини қандай бўлса, шундайлигича шеър қилганида бўлса керак.

Шоир ўзбеклигини “олий унвоним”,-деб “Ўзбекмомо” юртнинг ёруғ кунларини кўриб, “Бахтинг бошга гултож энди”, –дея шодланади.

Муҳаммад Юсуфдек ҳали ҳеч ким бу юртнинг мард, паҳлавон ботирларига “Булутларга тегиб турган қояни қозиқ қилиб от боғлаган ўғлони”, “Барчинойдек сулувлари”га эса “Қизлари ҳам қилич билан дўст бўлган”, -дея таъриф тополмаган.

Ўзбекистон халқ шоири Сирожиддин Саййид шоир ҳақида шундай ёзади: “Шоир ҳаётнинг ҳақиқий ошиғи, тирикликнинг чин волаю шайдоси эди. Шеърлари ҳам шу шайдолик ва ошуфталикнинг маҳсули бўлиб дунёга келди”. Дарҳақиқат, устозни яшашга бўлган чанқоқлик, табиатнинг ажиб гўзаллигига бўлган нафис муҳаббат, сўзсеварлик-у халқпарварлик элсевар шоирга айлантирди. Миллатдошларимиз шоирга меҳр-у муҳаббатдан ҳайкал ўрнатди, десам ҳақ гапни айтган бўламан. Муҳаммад Юсуф Ватани унинг гиёҳи-ю гули, бўстони-ю чўлини “Ўхшаши йўқ, чаманистоним, Қуёшистоним”, -дея ўзбекона орият “буюкларга хос тантилик ва валламатлик, анжанча бир чапанилик” хислатлари ила севди.

Устознинг ўлмас шеърияти дардманд дилларга мадор, вужудларга руҳ, бахтга шерик, дунё ташвишларидан толган жонларга ором бўлиб кириб борди. Чунки одамийлик, эзгулик, яхшиликни улуғлаган инсон ёди “гул ўпиб, гул ёпиниб” ҳар авлод қалбида мангу яшайверади:

Ол, дея бир Эгам осмонга учса руҳларим,
Бир ажиб мовий диёр бўйнини қучса руҳларим,
Кўк менинг кўксим эрур,юлдулари-андуҳларим,
Гул ўпиб, гул ёпиниб ҳар дилда мозорим қолур,
Мен кетарман, бир куни қўшиқларим,зорим қолур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. С. Мирвалиев, Р. Шокирова Ўзбек адиблари”. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2016.
2. www.зиё.уз
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма, Тошкент, Шарқ, 2019.

G‘O‘ZA EKINIDAN ERTAKI VA MO‘L HOSIL YETISHTIRISHDA MIKROBIOLOGIK STIMULYATORINING ROLI

Ibragimov Xamza Aminbayevich,
TTA UF mikrobiologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, b.f.n.
Email: 4240661@mail.ru

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
UrDU Biologiya kafedrasi dotsenti q/x.f.n.
Email: yulduz.abdulaziz@gmail.com

Soparboeva Shalola Abdullayevna
UrDU Biologiya kafedrasi magistri
Email: Bobur.Kadirov.1202@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tuproq va organik qoldiqlarni Baykal EM1 mikrobiologik stimulyatorlari bilan qayta ishlashda gumus qatlamidagi foydali floraning tabiiy muvozanatiga ta’siri o‘rganilgan. “Baykal EM-1” mikrobiologik stimulyatoridagi mikrofloraning hayotiy faolligi tufayli tuproq unumdorligi oshadi, zararli mikroorganizmlarning ko‘payishi to‘xtatiladi, sabzavot, meva va rezavorlar, gul va manzarali ekinlarning hosildorliklari yaxshilanadi.

Kalit so‘zlar: Aspergillus terreus, azotfiksatsiyalovchi preparatlar, mikrobiologik stimulyatoridan, ildiz tizimi, vegetativ massa, g‘o‘za.

ABSTRACT:

The effect of tillage of soil and organic residues with Baikal EM1 microbiological stimulants on the natural balance of beneficial flora in the humus layer was studied. Due to the vital activity of microflora in the composition of the microbiological stimulator "Baikal EM-1", soil fertility increases, the growth of harmful microorganisms stops, the yield of vegetables, fruit and berry, flower and ornamental crops increases.

Key words: Aspergillus terreus, nitrogen-fixing drugs, microbiological stimulants, root system, vegetative mass, cotton.

O‘simliklarning to‘la me’yorlardagi o‘sishi va sog‘lomligi ularning yerusti vegetativ organlari, ildizlari, urug‘lari va ularni qoplagan mikroorganizmlar o‘rtasidagi

murakkab raqobatli munosabatlari bilan belgilanadi. O‘z navbatida mikroorganizmlar tegishli o‘simliklar bilan munosabatga kirishadi. O‘simlik ildizlari bilan boyitilgan tuproq murakkab ekologik nisha bo‘lib xizmat qiladi, uning tarkibida foydali, zararli va neytral mikroorganizmlar mavjud.

O‘simlik ildiz tizimi tomonidan sintezlanadigan ozuqa moddalar ildiz tizimi hujayralari bilan sekretsiyalanadi, bu o‘z navbatida bu yerda bakteriya, aktinomitset, zamburug‘, suv o‘tlari, nematoda va sodda hayvonlarni to‘planishiga sabab bo‘ladi. O‘simlik rizosferasida zamburug‘lar ko‘p uchraydi, ular asosan R. putida, R. fluorescens, R. aureofaciens (chloraraphys), R. corrugata va boshqalar bilan namoyondir. Bakteriyalarning ayrim shtammlari o‘simliklarning yaxshi o‘sishi va rivojlanishini yaxshilaydi. Bunday biologik ob’ektlar biopreparatlar olish uchun ishlatiladi.

Aspergillus terreus avlodiga mansub zambrug‘larlar tuproq qatlamida, o‘simliklar ildiz atrofida (rizosfera) keng tarqalgan zambrug‘lar hisoblanadi. Aspergillus terreus populyatsiyasi termofil va termotolerant tavsifga ega zambrug‘lar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda biotexnologik sanoat miqyosida Aspergillus avlodi zambrug‘lari asosida α-amilaza, lipaza, β-glyukozidaza, laktaza fermentlari sintezlanadi.

G‘arbiy Yevropa davlatlari va AQShda Pseudomonas avlodiga mansub bakteriyalardan olingan biopreparatlar himoya vositasi sifatida qayd etilgan va amaliyotda qo‘llashga ruxsat etilgan. Preparatni simbiotik va assotsiativ azotfiksatsiyalovchi preparatlar bilan birgalikda qo‘llashda atmosfera azotini biologik fiksatsiyasi yaxshilanadi. Vegetatsiyalanayotgan o‘simliklarni preparat bilan qayta ishlash, o‘simliklarning xususiy immunitetini oshiradi. Turli iqlimli zonalarda, hamda issiqxonalarda o‘tkazilgan preparatning sinovi uning gelmintosporiozli, ofio kasalligi va ildizning (ildizoldi) fuzariozli chirindi, hamda boshoq fuzariozi, muchnistaya rosa, septorioz, qorli mog‘or va boshqa bir qator donli o‘simliklarning kasalliklariga bo‘lgan biologik faolliklarni namoyon qildi. O‘simlik va tuproq, jumladan, rizosfera mikroorganizmlari o‘rtasida mustahkam munosabatlar mavjud bo‘lib, ular strukturasi o‘xshash yoki bir xil bo‘lgan birikmalar tomonidan boshqariladi. Bunday evolyutsion jixatdan konservativ modda sifatida o‘simlikni o‘sishi va rivojlanishini ta’minlovchi birikmalarni kiritish mumkin. Mikroorganizmlarning bunday o‘simlik fitogormonlarini sintezlash xususiyati o‘simlikshunoslik uchun biopreparatlar olishda keng qo‘llanadi.

Mikrobiologik stimulyatorlarning kimyoviy o‘g‘itlardan tubdan farqi shundaki, ular nafaqat o‘simliklarni zarur oziq moddalar bilan ta’minlaydi, balki ularning immunitetini oshiradi va zararli mikroorganizmlardan himoya qiladi.

O‘g‘itlar va bakteriyalardan foydalanish ko‘pchilik ekinlarning hosildorligini 15-35 foizga oshiradi. Biologik mahsulotlar zararli kimyoviy moddalarni o‘z ichiga olmaydi va tuproqning tabiiy biologik faolligini tiklash orqali harakat qiladi - ular tuproqning organik moddalarini o‘simliklar tomonidan oson so‘riladigan mineral eritmalar holatiga qadar parchalaydi. Bundan tashqari, mikroorganizmlar tuproqning g‘ovakligini oshiradi va moxning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi - bu o‘simlikning sog‘lom va kuchli ildiz tizimining rivojlanishiga yordam beradi.

Shu kabi mikrobiologik stimulyatorlardan Rossiyada ishlab chiqariladigan Baykal EM1 preparati hisoblanib juda ko‘pchilik o‘simliklardan mo‘l hosil yetishtirishda qo‘llanilmoqda. Baykal EM1 - tuproq unumdorligini tiklash va yaxshilash, ekinlarni etishtirish va kompostning pishishini tezlashtirish uchun mikrobiologik stimulyator.

Preparatning tarkibiga quyidagilar kiradi: sut kislotasi bakteriyalari, fotosintez qiluvchi bakteriyalar, saxaromitslar, azotni biriktiruvchi bakteriyalar va boshqalar.

Tuproq va organik qoldiqlarni Baykal EM1 mikrobiologik stimulyatorlari bilan qayta ishlashda gumus qatlamidagi foydali floraning tabiiy muvozanatiga erishiladi. Bu tuproqdagi kasalliklarga qarshi himoya to‘siqni hosil qiladi, o‘simliklarni to‘yintirish uchun mavjud ozuqa moddalarini saqlaydi va oshiradi.

Ushbu "mikrobiologik stimulyator" ta’sirining quyidagi xususiyatlarini ta’kidlash kerak:

-Tuproq unumdorligini barqarorlashtiradi va faollashtiradi;

-Tuproqning ozuqaviy tarkibini yangilaydi va saqlaydi;

-Raqobat tufayli zararli floraning ko‘payishini bloklaydi;

-Tuproq qatlamining siqilishini oldini oladi;

-Mineral va organik o‘g‘itlar iste’molini kamaytiradi;

-Ekinlarning unib chiqishi, o‘sishi va meva berishini tezlashtiradi;

-O‘simliklarning himoya to‘sig‘ini mustahkamlaydi.

Baykal EM1 mikrobiologik stimulyatoridan doimiy foydalanish bilan ekologik toza, boy va sog‘lom hosil olish oson. Preparat mevaning ta’mini va tashqi sifatlarini oshiradi. Ekinlar hajmi 2 yoki undan ko‘p marta oshadi.

Baykal EM1 mikrobiologik stimulyatorining imkoniyatlari raqamlarda:

-Urug‘larni unib chiqqanda hosilni 30-50% ga oshiradi.

-Tuproqni va o‘simlik sirtini sug‘orish natijasida u qo‘sh o‘sishni hosil qiladi.

-Baykal EM1 yordamida tayyorlangan kompostdan foydalanilganda, hosil 3-4 barobar ortadi.

-Asbob murakkab harakatni o‘z ichiga oladi. O‘simliklar salbiy ob-havo sharoitlariga chidamli ildiz tizimi va vegetativ massaga ega.

Tayyorlash tartibi: Preparatning asosi EM kontsentratidir. Undagi foydali mikroorganizmlarning aralashmasi tuproq va o‘simliklar uchun samaradorlik va foydali xususiyatlar uchun tanlanadi. Suv va melas bilan faollashtirilgan.

"Baykal EM-1" mikrobiologik stimulyatoridagi mikrofloraning hayotiy faolligi tufayli tuproq unumdorligi oshadi, zararli mikroorganizmlarning ko‘payishi to‘xtatiladi, sabzavot, meva va rezavorlar, gul va manzarali ekinlarning hosildorliklari yaxshilanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olib biz 2021 yil qishloq xo‘jaligi mavsumida ishlab chiqarish tadqiqotlarimizda Xorazm viloyati, Xiva tumani, “Beruniy Elita” fermer xo‘jaligida 4 gektar paxta maydoniga “Baykal EM1” mikrobiologik stimulyatorini qo‘lladik. Ekilgan g‘o‘za navi “Xorazm-127" bo‘lib, ushbu mikrobiologik stimulyatorni 3 marta g‘o‘zaning vegetatsiya davrida suspenziya holida bargidan oziqlantirilib yuqori samaradorlikka erishildi.

“Baykal EM1” mikrobiologik stimulyatorini PSUEAITI tomonidan berilgan tavsiya va qo‘llash me’yorlariga amal qilgan holda preparatni paxta maydonida qo‘lladik, ya’ni 4-5 chin barg bo‘lganda 300 litr suvga 3 l preparat, gullash paytida 300 l suvga 3,5 l preparat, 1-2 ta ko‘saklash paytida 300 l suvga 3,5 l preparat qo‘shib ishlatildi. Jami, 1 ga ekin maydoniga 10 l preparat ishlatildi.

“Baykal EM1” mikrobiologik stimulyatori ta’siri natijasida mavsum davomida paxta dalalarimiz zararkunanda hasharotlar bilan deyarli zararlanmadi. Shuningdek, kunning issiq paytida g‘o‘zaning shona va gullari to‘kilmadi, yerimiz mayin va donador bo‘lib suv hamda havo o‘tkazishi yaxshilandi, suvga bo‘lgan talabi yuqori bo‘lmadi. Bulardan tashqari fermer xo‘jaligi paxtasi tuman bo‘yicha eng ertaki bo‘lib, mo‘l va sifatli hosil olishga erishildi, yillik rejani o‘z vaqtida 100 foiz qilib bajarildi hamda hosilimiz yuqori navlarga qabul qilindi. Bu preparatning yana bir yaxshi xususiyati, ular qo‘llanilganda g‘o‘zaning ildiz sistemasini yaxshi rivojlantirishi va chuqur ketishi natijasida tuproqdagi mavjud oziq moddalardan va suvdan samarali foydalanishini ta’minlashi bilan ahamyatlidir.

Yuqorida keltirilgan tajribalarga va yutuqlarga tayanib xulosa qilish mumkinki, ushbu “Baykal EM1” mikrobiologik stimulyatorini qishloq xo‘jaligida ommaviy qo‘llash joriy etilsa, paxtachilikka juda katta foyda keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pattaeva M.A. and Rasulov B.A. Growth and Phytohormones Production by Thermophilic *Aspergillus fumigatus* 2 and Thermotolerant *Aspergillus terreus* 8 Strains in Salt Stress // British J Applied Science & Technol., ISSN:2231-0843,V. 8(3). 2014. [Электрон ресурс].
2. Abdualimov Sh. G‘o‘za va kuzgi bug‘doyda o‘sishni sozlovchi moddalarni qo‘llashning samaradorligini baholash // Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2015 yil. –B. 26.
3. Karimov R., Ibragimov X. Xorazm viloyati sharoitida g‘o‘zani parvarishlashda talab etiladigan agrotexnik tadbirlar bo‘yicha tavsiyalar // Tavsiyanoma, “Xorazm nashriyoti”, Urganch, 2019 yil.

CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Boymatov Said Boboqulovich
Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi
Rejabov Muxriddin Yuldosh o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Chorvachilik O‘zbekiston qigshloq xo‘jaligining obikor dehqonchilikdan keyingi muhim tarmog‘idir. Respublikamizda qorako‘lchilik xalqaro ahamiyat kasb etgan. Uning chorvachiligi tabiiy va iqtisodiy omillar hamda ozuqa resurslariga bog‘liq holda mintaqalar bo‘yicha ixtisoslashib, rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston hukumatining jamoa va shaxsiy chorvachilikni rivojlantirish borasidagi g‘amxo‘rligi tufayli chorva mollarining soni ortib, mahsulot ko‘payib bormoqda. Chorvachilikda fermer xo‘jaliklari tashkil etilgan. Iqtisodiyotning barqaror rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi, xususan chorvachilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Geografiya, Qishloq xo‘jaligi geografiyasi, rel’ef va iqlim, resurslar, er, suv, hayvon va o‘simliklari, Chorvachilik, dehqonchilik, Fermer xo‘jaligi va boshqalar.

АННОТАЦИЯ

Животноводство является важной отраслью сельского хозяйства Узбекистана после натурального хозяйства. Каракольское хозяйство имеет международное значение в нашей стране. Его животноводство специализировано и развито по регионам в зависимости от природных и экономических факторов, а также кормовых ресурсов. Благодаря приверженности правительства Узбекистана развитию общинного и частного животноводства поголовье скота растет, а производство увеличивается. Созданы животноводческие фермы. Сельское хозяйство, особенно животноводство, играет важную роль в устойчивом развитии экономики.

Ключевые слова: география, аграрная география, рельеф и климат, ресурсы, земля, вода, животные и растения, животноводство, сельское хозяйство, земледелие и др.

ABSTRACT

Livestock is an important branch of agriculture in Uzbekistan after subsistence farming. Karakol farming is of international importance in our country. Its livestock is

specialized and developed by region, depending on natural and economic factors as well as food resources. Thanks to the Uzbek government's commitment to the development of community and private livestock, the number of livestock is growing and production is increasing. Livestock farms have been established. Agriculture, especially livestock, plays an important role in the sustainable development of the economy.

Keywords: Geography, Agricultural Geography, Relief and Climate, Resources, Land, Water, Animals and Plants, Livestock, Agriculture, Farming and more.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi geografiyasi — qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan sohasi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarmog‘i. Turli mamlakat va rayonlar qishloq xo‘jaligini majmuali o‘rganish va bashorat kilish, tabiiy sharoit va resurslarni qishloq xo‘jaligi nuqtai nazaridan baholashga doir tadqiqotlar olib boradi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning tarmog‘i sifatida aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, sanoatning xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farq kilib, qishloq xo‘jaligi joyning agroiqlimiy resurslari bilan chambarchas bog‘liq, shuningdek, er qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat vositasi hamda predmeti hamdir. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanishiga joyning tabiiy sharoiti (asosan, rel’efi va iqlimi), resurslari (er, suv, hayvon va o‘simliklari), ijtimoiy-iqtisodiy, transport, ekologik va b. omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi olib boradigan tadqiqotlar er fondi va undan foydalanish hamda xaritalashtirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarining tarqalishi, agroiqtisodiy tarmoqlari va ularning korxonalarini hududiy tashkil etish, rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini rayonlashtirish masalalarini o‘z ichiga oladi. Qishloq xo‘jaligi yerlari -xo‘jaliklar tomonidan ishlab chiqarish vositasi sifatida rejali va uzluksiz foydalaniladigan er uchastkalari va massivlari, ekinzorlar (haydalma erlar), ko‘p yillik ekinzorlar (bog‘lar, rezavor meva maydonlari), pichanzorlar, yaylovlar hamda qo‘riq-bo‘z erlar. Sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida qishloq xo‘jaligi erlariga haydalma erlar, qo‘riq erlar, tomorqa erlari, ihota o‘rmon mintaqalari, ko‘p yillik ekinzorlar, pichanzorlar, yaylovlar kiradi. Ko‘p yillik ekinzorlar — ekilgan daraxtzorlar, butazorlar va o‘tsimon o‘simliklar (bog‘lar, uzumzorlar, rezavor mevali maydonlar) bilan band bo‘lgan er uchastkalari. Pichanzor-lar — o‘t-o‘lani pichan uchun o‘riladigan er maydonlari. Pichanzorlar ko‘lob, kuruq va botqoklangan turlarga bo‘linadi. Xo‘jaliklar erlari doirasida pichanzorlarning bo‘lishi va ularning turlari hududning tuzilishi va tabiiy sharoitlari bilan belgilanadi. Yaylovlar — mollar o‘tlatib boqiladigan er maydonlari; shuningdek, pichani o‘rib olinmaydigan va qo‘riq hisoblanmaydigan erlar ham yaylovga kiradi. Ishlab

chiqarishni intensivlash va xo‘jalikning ichki er rezervlari o‘zlashtirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi erlarining tuzilmasi takomillashadi, foydalaniladigan er hissasi oshadi. Sho‘rlangan yerlar meliorasiyasi, tuproq eroziyasiga qarshi kurash tadbirlari, sug‘oriladigan madaniy yaylovlar barpo etish va boshqa qishloq xo‘jaligi erlaridan foydalanishning yaxshilanishiga yordam beradi. O‘zbekistonda jami qishloq xo‘jaligi erlari 26,7 mln. ga, shundan asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining umumiy maydoni 3785,1 ming ga ni tashkil qildi. CHorvachilik - qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoklaridan biri. CHorvachilik mahsulotlari etishtirish uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug‘ullanadi; aholini ish hayvonlari (ot, ho‘kiz, tuya, bug‘u), oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go‘sht, yog‘, tuxum va b.), engil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo‘yna va h.k.), dehqonchilikni organik o‘g‘it bilan ta’minlaydi. CHorvachilik mahsulotlari va chiqindilaridan ayrim ozuqalar (yog‘i olingan sut, go‘sht-suyak uni, suyak uni va b.), shuningdek, har xil dori-darmonlar (shifobaxsh zardoblar, gormonal preparatlar va b.) olinadi. CHorvachilikning taraqqiy etishi va mahsuldorligi dehqonchilikning rivojlanishi, erdan intensiv foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. CHorvachilikning asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, asalarichlik, cho‘chqachilik, quyonchilik, darrandachilik, bug‘uchilik, itchiliklan iborat. Jahon mamlakatlarida tabiiy-iqlim sharoitlari va ozuqa bazasiga ko‘ra chorvachilik rivoji o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jahon chorvachiligida (mln. bosh) qoramol - 1338,2; qo‘y - 1068,6; echki - 709,8; buyvol — 158,6; ot — 61,095; xachir — 14,1; eshak — 43,4; tuya — 19,1; cho‘chqa — 912,7; tovuq — 14139; kurka — 244 va b. boqiladi va ulardan turli mahsulotlar etishtirish muhim o‘rinda turadi (1999). Go‘sht etishtirish hajmi 225,9 mln. t ni, sigir suti etishtirish 480,6 mln. t ni (yoki har bir sigirdan o‘rtacha 2071 kg ni) tashkil etdi. CHorvachilik inson tomonidan yovvoyi hayvonlarni ovlash va ularni xonakilashtirish maqsadida qo‘lga o‘rgatishdan boshlangan. Arxeologik dalillar hayvonlarni xonakilashtirish yangi tosh davrida — neolitda bundan 15—10 ming yil avval boshlanganini ko‘rsatadi. Bu davrda odam takomillashgan tosh qurollarga ega bo‘lgan, olovni bilgan va sopol idishlardan foydalangan. Eng avval it, so‘ngra cho‘chqa, qo‘y va keyinchalik qoramollar va otlar (7—8 ming yillar ilgari) xonakilashtirilgan. Osiyoning janubi-g‘arbiy qismi va O‘rta dengiz atroflari hayvonlarni xonakilashtirishning asosiy markazlari hisoblanadi. Evropada qoramollar, ot, qo‘y, echki, cho‘chqa, quyon, it, parrandalardan o‘rdak va g‘ozlar, Osiyoda buyvol, qo‘tos, o‘rkachli va o‘rkachsiz tuyalar, qoramol, echki, qo‘y, cho‘chqa, ot, it, quyon, tovuq, o‘rdak, g‘oz va tovuslar xonakilashtirilgan. Afrikada qoramollar, bir o‘rkachli tuya, eshak, cho‘chqa, mushuk, it, sesarka tovuqlar, qo‘y va echkilar qo‘lga o‘rgatilgan. Amerikada o‘rkachsiz tuyaning ikki turi — lama va al’paka, dengiz cho‘chqasi, kurka va muskus o‘rdaklar xonakilashtirilgan. Natijada inson tomonidan ularning sifat va son

ko‘rsatkichlariga ahamiyat berilib, hayvonlardan nasl olish, sekin-asta mahsulot yo‘nalishlari bo‘yicha zotlari chiqarilgan. O‘rta Osiyo hududi ham chorvachilik dastlab shakllangan hududlar qatoriga kiradi. CHorvachilik ko‘chmanchilik hayot tarzini vujudga keltirdi. Daryo bo‘yi, cho‘l va tog‘ oldi, ko‘l atroflarida ovchilik, balikchilik bilan shug‘ullangan jamoalarning madaniyatlari rivojlanib borgan sayin chorvachilik ham rivojlanib bordi. Jumladan, Xorazm hududida Amudaryoning quyi havzasida topilgan Kaltaminor madaniyati mil. av. 4-3-ming yillikda yashagan ovchilar va baliqchilar jamoasi madaniyatlaridan biri hisoblanadi. Mil. av. 2-1-asrlarda Davan (Farg‘ona)da dehqonchilik madaniyati va yilqichilik yuksak darajada rivojlangan. Aeecmojxa keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sut va go‘sht beradigan qoramolchilik, qo‘ychilik, yilqichilik, sut va go‘sht mahsulotlarini qayta ishlash ixtisoslashgan soha sifatida bundan 3000 yil oldin shakllangan. 20-asr boshlariga qadar O‘zbekistonda ko‘chmanchilik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qo‘ychilik, echkichilik, tuyachilik, otchilik, shuningdek, vohalarda qoramolchilik ko‘proq rivojlandi. 20-asrning 20-yillaridan boshlab chorvachilikning ilmiy bazasini yaratish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy sharoiti va ozuqa bazasi resurslariga qarab mintaqalar bo‘yicha rivojlantirish ishlari boshlandi. Sug‘orma dehqonchilik hududlaridagi xo‘jaliklarda sut, sut va go‘sht yo‘nalishidagi qoramolchilik, parrandachilik va cho‘chqachilik, tog‘ oldi mintaqalari, Amudaryoning quyi oqimi va Orol bo‘yi qamishzor va to‘qayli hududlarida go‘shtdor qoramolchilik, go‘sht-yog‘ qo‘ychiligi, yilqichilik, cho‘l yaylovlarida qorako‘lchilik rivojlantirildi. Kammahsul mollarni chatishtirish va respublikaga ko‘plab nasldor mollarni olib kelish natijasida qoramollarning qora-ola, qizil cho‘l, shvis, bushuev zotlari soni ko‘payib mahsuldor podalar guruhi shakllantirildi. Zotlarning rayonlashtirilgan hududlari belgilandi. Qorako‘lchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ixtisoslashtirilgan yirik qorako‘lchilik xo‘jaliklari katta iqtisodiy samara keltirdi. 1930-33 yillardan boshlab chorvachilikning naslchilik zavodlari, xo‘jaliklari, fermalari, stansiyalari va korxonalarining tashkil etilishi naslchilik tizimining shakllanishida muhim burilish bo‘ldi. 1932-yil chorvachilik tajriba stansiyasi va 1935-39 yillarda Butunittifoq qorako‘lchilik, O‘zbekiston chorvachilik va O‘zbekiston veterinariya i.t. institutlarining tashkil etilishi chorvachilikda ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish, chorvachilik fanini rivojlantirish hamda uning istiqbolini belgilash, xo‘jaliklarda yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim omil bo‘ldi. CHorva mollarining sermahsul podalari guruhi kengaytirildi va rayonlashtirilgan zotlari takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qishloq xo‘jaligida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xo‘jaliklari jamoa, shirkat xo‘jaliklariga aylantirildi, chorvachilik, aksariyat xo‘jaliklarning qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi, dehqon va chorvachilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklari tashkil etila boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 1993-yil 15 martda «Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 1994-yil 23 fevralda «CHorvachilikda iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo‘jaliklari va xususiylashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish choralari to‘g‘risida», 1995 yil 24 martdagi «CHorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlariga ko‘ra, jamoa xo‘jaliklarining zarar bilan ishlayotgan 1499 qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi (1995). Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go‘sht va sutning 75% ni xususiy sektor bera boshladi. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 25 dekabrda qabul qilingan «Naslchilik to‘g‘risida» qonuni chorvachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23 martda qabul qilingan “SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarni ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 308-qarori chorvachilikni rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi. Ushbu hujjatda davlat tomonidan fermerlarga zotdor mollarni sotib olish va naslchilik ishini jadallashtirishda yordam berish, veterinariya xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, aholining mahsuldor chorva mollarini sotib olishi uchun mikrokreditlar ajratish, qishloq aholisining chorva mollarini parvarish qilishdan manfaatdorligini oshirish orqali ularning bandligini, daromadini, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Qarorda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda, qoramol boqish va etishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani, chorva mollarini boqayotgan shaxslarni ish bilan band aholi toifasiga kiritish va ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hal etilmagani, xo‘jaliklarni zotdor, sermahsul chorva mollari bilan, omuxta em va shirali ozuqa bilan ta’minlash borasidagi ishlar qoniqarsiz ahvolda, zooveterinariya va boshqa servis xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha infratuzilma tarmog‘i, shuningdek, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishni mikrokreditlash tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagani qayd etilgan.

XULOSA

Mamlakatimizda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, bozorlarda go‘sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar ko‘payishini ta’minlashga ustivor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23 martda qabul qilingan “SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2008-yil 21 apreldagi “SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollar ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish

hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Aholiga qulay bo‘lgan joylarda zooveterinariya, em sotish va boshqa servis xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha infratuzilmalar tarmog‘i yangidan tashkil qilindi. Eng asosiysi shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va tijorat banklari tomonidan qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish masalasi hal etildi. Qishloq xo‘jaligi - O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i hisoblanadi. 2012-yilda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 21,7 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligida mamlakat iqtisodiy faol aholisining 26,5 foizi mehnat qiladi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining taxminan 45 foizi chorvachilik ulushiga to‘g‘ri keladi. 1991-yildan buyon qoramollar soni qariyb 1,5 baravar ko‘paydi va bu go‘sht va sut ishlab chiqarish hajmini oshirishda, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotida chorva mahsulotlari ulushining o‘sishida muhim omil bo‘ldi. CHorvachilik muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Sohada asosan go‘sht va sut ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlar muhim oziq-ovqat mahsulotlari guruhiga kiradi va qishloq aholisi daromadining muhim qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: "O‘zbekiston", 1999-y.

2 Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish-barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir.T. «O‘zbekiston», 2007-y.

3 Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.-T.: "O‘zbekiston", 2009-y. 56 b.

4 Avezbaev S.A. Quyi Amudaryo tekisliklarida yerlardan unumli foydalanish (rus tilida). – Toshkent: Mehnat, 1990. - 156 c.

5 Tahliliy tavsiyanoma «Agrosug‘urta: xalqaro tajriba, O‘zbekistondagi hozirgi holat va taraqqiyot imkoniyatlari», (rus tilida) 2008. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi nashri.

O‘ZBEKISTON BULOQLARI

Boymatov Said Boboqulovich
Chirchiq Davlat pedagogika instituti talabasi
Rejabov Muxriddin Yuldosh o‘g‘li
Chirchiq Davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Dunyoda chuchuk suvni saqlashning har xil turlari mavjud. Ulardan biri bahor. Ularning ko‘plari ma’lum qadimiy madaniyatlarda muqaddas joylar hisoblangan. Dunyo bo‘ylab tarqatilgan buloqlar mavjud va ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning aksariyati umumiy xususiyatga ega va bu ularning suvlarining yuqori darajadagi tozaligiga ega bo‘lishidir. Erning 70% suvdan iborat. Hayot uchun zarur bo‘lgan bu element turli davlatlarda paydo bo‘ladi va turli geografik xususiyatlarda taqsimlanadi. Ushbu suvni okeanlarda, ko‘llarda, daryolarda topish mumkin va u muzliklarda ham muzlashi mumkin. Biroq, suv, shuningdek, er osti qatlamlarida yoki er osti hovuzlarida yashirinadi. Ushbu turdagi manbalarni tushunish buloq suvi nima ekanligini va undan oqib chiqadigan suv qaerdan kelib chiqqanligini tushunishga yordam beradi. Buloq suvi er ostidan yoki toshlar orasidagi suv oqimidan kelib chiqib, yuzaga ko‘tariladi. Buloq suvining kelib chiqishi bizni har xil turlarini yaratishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: Geografiya, Buloqlar, Obigarm, Issiqbuloq Sho‘rsuv, Jalolobod, Garmchashma, Xo‘jaobigarm, Shohimardon, Mingbuloq, O‘n ikki buloq, Qo‘shbuloq va boshqalar.

АННОТАЦИЯ

В мире существуют разные виды охраны пресной воды. Один из них весенний. Многие из них считались священными местами в определенных древних культурах. Есть источники, распространенные по всему миру, и каждый из них имеет свои особенности. У большинства из них есть общая черта и это то, что их вода имеет высокий уровень чистоты. 70% земли составляет вода. Этот элемент, необходимый для жизни, встречается в разных странах и распространяется по разным географическим объектам. Эту воду можно найти в океанах, озерах, реках, а также она может замерзать в ледниках. Однако вода также скрыта в подземных слоях или подземных бассейнах. Понимание этих типов источников поможет вам понять, что такое родниковая вода и откуда берется вода, вытекающая из нее. Родниковая вода поднимается на поверхность

из-под земли или из струи воды между скал. Происхождение родниковой воды позволяет нам создавать разные типы.

Ключевые слова: География, Родники, Обигарм, Иссык-Куль, Шорсув, Джалал-Абад, Гармчашма, Ходжаобигарм, Шохимардон, Мингбулак, Двенадцать родников, Кошбулак и др.

ABSTARCT

There are different types of freshwater storage in the world. One of them is spring. Many of them were considered sacred places in certain ancient cultures. There are springs distributed all over the world and each of them has its own characteristics. Most of them have a common feature and this is that their water has a high level of purity. 70% of the earth is water. This element, which is necessary for life, occurs in different countries and is distributed in different geographical features. This water can be found in oceans, lakes, rivers, and it can also freeze in glaciers. However, water is also hidden in underground layers or underground pools. Understanding these types of sources will help you understand what spring water is and where the water that flows from it comes from. Spring water rises from the ground or from a stream of water between rocks and rises to the surface. The origin of spring water allows us to create different types.

Keywords: Geography, Springs, Obigarm, Issyk-Kul Shorsuv, Jalal-Abad, Garmchashma, Khojaobigarm, Shohimardon, Mingbulak, Twelve springs, Koshbulak and others.

KIRISH

Buloqlar, chashmalar — yer osti suvlarining tabiiy holatda yer yuzasiga chiqishi (quruqlikda yoki suv ostida). B. suvli qatlamlarni daryo vodiylari, jarliklar, ko‘l cho‘kmalari kesib o‘tishidan, tektonik yoriklar, otqindi va cho‘kindi jinslar kontakt zonalari mavjudligidan, suvli jinslar filtratsiya xossasining bir xil emasligidan paydo bo‘ladi. B. 2 ga bo‘linadi: 1) qaynar B.— yer ostidan gidrostatik bosim, gaz va bug‘lar ta’sirida yer yuzasiga chiqadi. Farg‘ona vodiysida (Sho‘rsuv, Jalolobod), Tojikistonda (Obigarm, Issiqbuloq) ko‘p. Qaynar B. paydo bo‘lish sharoitiga qarab erozion va gaz bosimliga bo‘linadi. Bu B. artezian suvli qatlamlarning erozion kesilishi, tektonik yoriklardan otilib chiqishi hamda jarlik, soy va daryo vodiylarining suvli qatlamlarni kesib o‘tishi natijasida paydo bo‘ladi. Bunday B. Buxoro va Qoraqum neftgazli r-nlarida uchraydi; 2) sokin B.— sizot suvli katamlarning oldini suv o‘tkazmaydigan jinslar to‘sib qolishi yoki ochilib qolishi, karst buloklarining yer yuzasiga chiqishidan hosil bo‘ladi. Karst B.ning kattalari ko‘p suvli (voklyuz). Ayrim karst B.dan sek. iga 200—250 l suv chiqadi. Bunday B. Farg‘ona vodiysi jan. da, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida ko‘p, ulardan aholi keng foydalanadi. Bulardan tashqari

sek.iga 1000—1100 l suv beradigan yirik B. ham bor. O‘zbekistonda bunday B.lardan Qorabuloq (Qashqadaryo), Nurota va Deytbaland (Samarqand viloyati)da mavjud. B.dan chiqayotgan suvning o‘zgarishiga kura doimiy, davriy va o‘zgaruvchan, temperaturasi bo‘yicha sovuq (0°—20°), issiq (20°—42°), qaynoq (40°—100°), juda qaynoq (100° dan ortiq) B.lar bo‘ladi. B.dan ekinlarni sug‘orishda, sanoatda, aholini suv bilan ta’minlash va davolanishda (Xo‘jaipok bulog‘i, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida) foydalaniladi. Suvi ichiladigan va sug‘orishda foydalaniladigan B. Farg‘ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Nurota, Toshkent vohalarining tog‘ oldi joylarida ko‘p. Bu yerlarda ayrim B.ning byoradigan suvi sek.iga 10—15 l ga yetadi. Shifobaxsh B. Tojikiston (Garmchashma, Xo‘jaobigarm), Qirg‘iziston (Jalolobod, Issiqota, Jetio‘g‘uz, Oqsuv), O‘zbekiston (Shohimardon) va boshqa yerlarda bor. Toshkent shahri Chorsu maydonida ham 1960- yillar oxirlarigacha "Chorsu" mehmonxonasi o‘rnida Ukkosha bulog‘i mashhur bo‘lgan. Sanoat ahamiyatiga ega sho‘r (tarkibida yod, bor, brom va boshqa elementlar bo‘lgan) B. tog‘ oldi, tog‘ orasidagi botiq, artezian xavzalar (Farg‘ona, Buxoro, Qarshi, Qoraqum)da uchraydi. O‘zbekistonda B.dan to‘g‘ri foydalanish maqsadida buloqli joylarning gidrogeologiya sharoitlari, B.lar paydo bo‘lishi jarayoni, suv temperaturasi, tarkibi va chiqadigan miqsori o‘rganiladi. Surxondaryo Hisor, Bobotog‘, Ko‘hitang, Boysun kabi purviqor tog‘ tizmalari bag‘rida joylashgan bo‘lib, tabiat mo‘jizalariga boy, so‘lim go‘shalari, betakror tabiat manzaralari va tanga davo shifobaxsh buloq suvlari bilan ham tanilgan, sayyohlarni maftun etgan. O‘zbekistonning Boysun tumanidagi Xo‘jamayxona bulog‘i azaldan mahalliy aholi o‘rtasida shifobaxshligi bilan mashhur bo‘lgan. Maftunkor tabiat manzaralari qo‘ynidan sizib chiqayotgan obi-hayot o‘ta tiniq va yilning to‘rt faslida ham birdek salqin bo‘lib turadi. Uni iste’mol qilgan yoshu-keksaga quvvat ulashib, qalbiga xushnudlik bag‘ishlaydi. Shu bois buloqning siru-sinoati bu suvdan iste’mol qiladigan Darband qishlog‘i ahlini qiziqtirib kelgan. Juda ko‘p yillardan buyon Rossiyada ishlaydigan shifokor hamqishlog‘imiz bor,– deydi darbandlik Ravshan Amanqulov.– O‘zi zo‘r kardiolog. Shu kishi bir yili mehmonga kelganlarida gapdan-gap chiqib, qishlog‘imiz odamlari Xo‘jamayxona buloq suvining xususiyatini o‘rganib berishni iltimos qilgan. Shu bahona suvning tarkibini tahlil qilgan mehmonimiz uni “Kavkazdagi eng shifobaxsh suvlardan ham shifobaxshiroq ekan”, deya ta’rif bergani, ayniqsa, yurak-qon, tomir kasalliklariga davo, deb aytganini eshitgan edim. Shundan buyon bu suvni kanda qilmay ichamiz va ruhan tetik bo‘lib yuramiz. Mutaxassislarning aytishicha, buloqdan sekundiga uch kub suv otilib chiqadi. Suvda bir metrgacha uzunlikdagi baliqlar suzib yuradi. Lekin, ularni hech kim ovlamaydi. Tepadan pastga qarab, torayib boradigan suv g‘orining chuqurligi ham o‘rganilmagan. Mo‘jizalarga boy Xo‘jamayxona atroflari yoz faslida odamlar, sayyohlar bilan gavjum bo‘ladi. Yer ostida to‘plangan suvning tabiiy holatda yer

yuzasiga chiqib turadigan joylari buloqlar deyiladi. Buloqlarni Markaziy Osiyoda va ba'zi Yaqin Sharq mamlakatlarida chashma deb ham ataydilar, arablar esa ayn deyishadi. Lotin tilida fontan atamasi ham dastlab buloqni anglatgan. Ularni dunyoning barcha qit'alarida, hatto dengiz va okean tublarida ham ko'plab uchratish mumkin. Ayniqsa, O'zbekistonning Farg'ona, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylaridagi tog' oldi tumanlarini buloqlarsiz tasavvur qilish qiyin. Buloqlarni o'rganuvchi mutaxassislar ularning kelib chiqish sharoitiga qarab qaynarbuloqlar va sokin buloqlar deb ikki turga ajratadilar. Buloq suvlari yil davomida mavsumga qarab ba'zan ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Buloq suvi nega hech tugamaydi, ular suvni mudom qayerdan oladi? Tog' yonbag'riga yog'gan qor va yomg'ir suvlarining bir qismi yerga shimilib, tog' jinslarining suv o'tkazmaydigan qatlamlari orasida to'planadi va relyefning pastroq joylaridan o'ziga yo'l topib, tog' yonbag'ri, adirlar, jarlik va soy yonbag'irlaridan yer yuzasiga chiqadi. Buloqlarning paydo bo'lish yo'llarini bundan qariyb 1000 yil avval buyuk olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida yozib qoldirgan. Odamlar juda qadim zamonlardan, ya'ni ibtidoiy jamoa davridan boshlab buloq suvidan foydalanib kelganlar. Buloqlar yonida qishloq, karvonsaroy, yom (jom), davolanish maskanlari (Chortoq, Jeleznovodsk va boshqalar) va sardobalar, hashamatli maqbaralar qurilgan. Ba'zan buloq suvi ancha naridan sopol quvurlar orqali keltirilib masjid ichidagi, hovuzlarga quyilgan. Asrlar o'tishi bilan ko'pgina buloqlar muqaddaslashtirilgan va ular haqida turli afsonalar to'qilgan. Ayrim buloqlarni payg'ambarlar nomi bilan ataganlar. Masalan, Buxorodagi Chashmai Ayyub me'moriy majmuasi o'rnida qadimda buloq bo'lganligi uning nomidan ham ko'rinib turibdi. Nurota tog'idagi buloq mahalliy aholi orasida muqaddas hisoblanadi. Buloq suvi kattagina havzada to'plangan. Hovuzda yuzlab baliqlar g'ujg'on o'ynaydi. Baliqlarga hech kim qo'l tekkizmaydi. Buloqlardan ko'pincha jilg'a, soy va hatto daryolar ham boshlanadi. Ulardan suv olgan daryolar ko'pincha Qorasuv (Qoradaryo) deb ataladi. Sababi, suvi tiniq bo'ladi, o'zan tubi sayoz joylarda ko'rinib turadi. Bir-biriga yaqin joylashgan buloqlar o'sha joyning nomiga aylanib ketgan hollar ham uchraydi. Masalan, Mingbuloq (Namanganviloyatida, Qoraqalpog'istonda va boshqa joylarda), O'n ikki buloq, Qo'shbuloq va hokazo. Yakka buloqlar ham ko'plab qishloq va shaharlarga nom bo'lib qolgan. Andijon viloyatida Buloqboshi aholi punkti va tumani, Toshkent viloyatida Arashonbuloq, Surxondaryo viloyatida Qamchibuloq, Mongoliyada Oltinbuloq (shahar), Oqbuloq, Dog'istonda Arnabuloq degan joylar bor. Mashhur tarixiy shahar Ardabil ham buloq yonida vujudga kelgan. Poytaxt Toshkent shahrida ham 20-asr boshlarida jarliklar yonbag'rida ko'plab buloq bo'lgan. Shulardan biri hozirgi «Chorsu» mehmonxonasi o'rnida, jar yoqasidagi «Ukkosha» bulog'i juda mashhur edi. Uzoq-yaqindan «Chorsu» bozoriga kelganlar yozning saratonida o'sha buloq suvidan zarang kosada olib ichardilar. Qishloq joylarda buloq suvidan hozir ham

ichimlik suvi sifatida va chorva mollarini, ba'zan esa ekinzorlarni ham sug'orishda foydalanib kelinmoqda. Buloqlar haroratiga ko'ra issiq suvli (Tojikistondagi mashhur Obigarm bulog'i, Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi buloq) va sovuq suvli, suv tarkibiga ko'ra minerallashgan va oddiy chuchuk suvli bo'ladi. Mineral buloqlar shifobaxsh hisoblanadi. Shunday buloqlar yoniga shifoxonalar qurilgan. "Qaynar buloq" ziyoratgohi O'zbekistonning ko'rkam maskanlardan biri. Bu yerlar qadimdan suvga serob bo'lib, zamin bag'rini yorib chiqqan oltita buloq o'zidan nafis jilo taratib, kishilarni hayratga solib kelgan. Yer ostidagi ma'lum bir chuqurlikdan qaynab, toshib chiqadigan buloqning soflik darajasi, shifobaxsh xususiyatlari ta'rifini eshitib, hattoki, o'zga yurtlardan kelgan bemorlar ham o'z dardlariga shifo topmoqdalar, deyiladi. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, Qaynarbuloqning orombaxsh suvi nafaqat inson kayfiyatini ko'taradi, balki uning salomatligi uchun ham yaxshi ta'sir ko'rsatib, ichak yo'llarining shamollashi, oshqozon yarasi, jigar, buyrak, yurak qon tomirlari hamda toshma kasalliklarini davolashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Ba'zida Qaynar buloqning suvi 500 metr chuqurlikdan qaynab otilgandagi shiddatli ovozi uzoq-uzoqlarga eshitilib, kishilarni hayratga solardi", – deydi mahalliy aholi vakillari. – "Bundan hech kim cho'chimaydi, balki ana shunday ilohiy mo'jiza bizning atrofimizda yuz berayotganidan faxrlanamiz. Axir, kichik bir buloq shaklida ko'z ochib, jilosidan ko'z qamashadigan bu buloq suvining tiniq va shaffofligi har insonga zavq beradi. Kayfiyatini ko'taradi". Buloq haqidagi afsonagako'ra, bir vaqtlar buloq atrofidan shahar markaziga eltuvchi yo'l o'tgan. Shoshgan yo'lovchilar tezroq manzilga yetish uchun buloq yaqinidagi tor yo'lakchadan sakrab o'tgan. Bir kuni shaharga yo'l olgan shoshqoloq yo'lovchilardan biri buloq yaqiniga kelib, endi o'tmoqchi bo'lganda yonida otliq bir mo'ysafid paydo bo'lganini ko'rib qoladi. Mo'ysafid buloq atrofini uch bor aylanib yana ko'zdan g'oyib bo'lgan. Shundan buyon bu yerlik odamlar shahar markaziga borish uchun buloqqa yaqin yo'ldan o'tishga cho'chib qolishgan. Uzoq bo'lsada boshqa yo'ldan xotirjam manzilga yetib olishga harakat qilishadi. O'sha davrdan buyon ko'pchilik ot ustida paydo bo'lgan mo'ysafidni "Qaynar buva"ning ruhi deb, bu joyni muqaddas ziyoratgoh sifatida qadrlab kelmoqda. Bugungi kunda bu joylar obodonlashtirilib, Qaynar buva mozori muqaddas ziyoratgohga aylantirildi. Ana shu jarayonda uning yonidagi oltita buloq atrofi yanada kengaytirildi.

XULOSA

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'ining etarlicha rivojlanmagani bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun choralar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1047-Qarori buni tasdiqlaydi. Ushbu

hujjatga ko‘ra, sut va go‘shtni qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan ishlab chiqaruvchilarga qo‘shimcha imtiyozlar berish, jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovini 50 foizga kamaytirish ko‘zda tutilgan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati chorvachilikni rivojlantirish, ayniqsa, qoramol parvarish qilishga alohida e’tibor qaratmoqda va mavjud muammolarni hal etish yo‘llarini topishga tayyor. Sohani rivojlantirish shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir rejalashtirilayotgan choralar bundan yaqqol dalolat beradi. Jumladan, bu borada zotdor mollarni xarid qilish va naslchilik ishini jadallashtirish, veterinariya xizmati ko‘rsatishni tashkil etishga davlat tomonidan yordam berish, mahsuldor mollarni sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish, ozuqa ekinlari uchun ajratilgan erlardan maqsadsiz foydalanishga barham berish, qishloq aholisining chorva mollari parvarish qilishdan manfaatdorligini oshirishga oid choralarni O‘zbekistonda chorvachilik yanada kuchaytirish rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Iqtisodiy nazariya kursi: oliy ta’lim o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanmasi (rus tilida). Mualliflik jamoasi rahbari va muharrir – A.V.Sidorovich; M.V. Lomonosov nomli Moskva davlat universiteti. - Moskva: «Delo i servis» nashriyoti, 2007. – 1040 s.

2 O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent, 2008.

3 O‘zbekiston Respublikasi er zahiralari holati va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Milliy hisobot (1991-2008 yillar).

4 Sosiologik so‘rov natijalari bo‘yicha hisobot (BMTTDning “O‘zbekistonda chorvachilik sohasining barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash” loyihasi buyurtmasiga muvofiq fermer va dehqon xo‘jaliklari so‘rovi), Toshkent, 2007. Ijro etuvchi idora: “TAHLIL”Ijtimoiy tadqiqotlar markazi.

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 matidagi “SHaxsiy tomorqa, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva bosh sonini oshirishni rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 306- sonli Farmoyishi.

АРМАТУРА И ДЕТАЛИ КОНТАКТНОЙ СЕТИ ПРИ СКОРОСТНОМ ДВИЖЕНИИ ЭЛЕКТРОПОДВИЖНОГО СОСТАВА

Баянов Илдар Назипович
Доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент кафедры «Электроснабжение», Ташкентский государственный транспортный университет.
e-mail: ildar-lili@yandex.ru

Салиев Элёр Нигматович
Ассистент кафедры «Электроснабжение», Ташкентский государственный транспортный университет.
e-mail: elyorsaliyev431@gmail.com

Сайдивалиев Саидазиз Сайдианварович
Ассистент кафедры «Электроснабжение», Ташкентский государственный транспортный университет.
e-mail: saidaziz.saydivaliev@gmail.com

АННОТАЦИЯ

При скоростном движения электроподвижного состава к деталям и арматуре контактной сети предъявляется особые требования. Это объясняется увеличение динамических нагрузок при прохождении поезда на высоких скоростях. Контактная подвеска подвергается усиленной вибрации и большим колебательным воздействиям. Влияние контактной подвески на токоприемники электроподвижного состава тоже должны баить минимизированы.

Ключевые слова: Арматура, струна, соединитель, бугель, сопрягаемость, электрподвижной состав (ЭПС).

ABSTRACT

With high-speed movement of electric rolling stock, special requirements are imposed on the parts and fittings of the contact network. This is due to the increase in dynamic loads when the train passes at high speeds. The contact suspension is subjected to increased vibration and large oscillatory effects. The influence of the contact suspension on the current collectors of the electric rolling stock should also be minimized.

Keywords: Fittings, string, connector, yoke, connectivity, electric rolling stock (EPS).

Как известно, арматура контактной сети работает на открытом воздухе в условиях интенсивной коррозии, особенно в местах повышенной загрязненности. В условиях движения высокоскоростного электроподвижного состава к этому добавляются высокие динамические воздействия от ЭПС. В этом случае для уменьшения этих воздействий к отдельным деталям арматуры предъявляется требования их минимальной массы.

Арматура работает на открытом воздухе в условиях интенсивной коррозии, особенно в местах повышенной загрязненности воздуха от промышленных предприятий, химических удобрений, морских солей, а также от тепловозов. Кроме того, она подвергается постоянным вибрациям при проходе электроподвижного состава, воздействию ветровых и гололедных нагрузок и изменений температуры.Поэтому к арматурепредъявляются повышенные требованиям по надежности: достаточная механическая прочность с учетом возможных перегрузок и усталостных явлений в металле при долговременной работе под переменной нагрузкой, хорошаясопрягаемость, обеспечивающая свободное скольжение в шарнирах, достаточная прочность в узлах жесткого крепления, высокая коррозионная стойкость.

Деталирассчитаны на чисто механические нагрузки и совмещенные механические и электрические нагрузки. Обе группы деталей обеспечивают высокую механическую прочность, а детали второй группы еще и плотный и надежный статический контакт, и достаточную электропроводность. Это определяет требования к материалампри их изготовления. Для изготовления арматуры контактной сети в зависимости от места крепления используют различные материалы: ковкий и серый чугун, сталь, цветное литье — латунное, бронзовое, алюминиевое, а также из сплавов и меди.

Механические испытания основных деталей проводят в соответствии со схемами приложения нагрузок, соответствующих рабочим нагрузкам и приведенных в приложении 4. Все отобранные образцы испытывают двухкратной нагрузкой по отношению к допускаемой (для стыковых зажимов контактного провода — полуторакратной) и выдерживают в течение 5 мин. При этих нагрузках не должно быть выкрашивания металла при затяжке болтов, остаточных деформаций в материале детали, трещин и нарушений целостности антикоррозионных покрытий, проскальзывания или срыва проводов.

При испытаниях, проводимых до разрушения арматуры, обращают внимание на то, чтобы оно происходило при нагрузках не менее 3-кратной допускаемой (для стыковых зажимов контактно-то провода — 2,5-кратной) и чтобы остаточная деформация не наступила раньше достижения разрушающей

нагрузки. Кроме испытаний на механическую прочность для некоторых деталей определяют нагрузку, при которой закрепленный в них провод начинает проскальзывать.

Для крепления изоляторов и проводов контактной сети в узлах, не предназначенных для пропуска тока, широкое распространение получили детали из чугуна. В зависимости от назначения они имеют различную конфигурацию и рассчитаны на определенную нагрузку.

При изготовлении этих деталей качество отливок проверяются на изгиб, сжатие, растяжение и твердость. При проверке поверхности отливок обращают внимание, чтобы не было трещин, заусенцев, наплывов, пригара, окалины, отколотых частей и других дефектов

Арматуру из чугуна оцинковывают или защищают другим влагоустойчивым покрытием, предотвращающим атмосферную коррозию.

Для крепления и стыковки контактных проводов и тросов во всех узлах, предназначенных для пропуска тока, применяют детали из цветного литья: латунного, бронзового и медного — для медных, сталемедных, бронзовых проводов и тросов; алюминиевого — для алюминиевых и сталеалюминиевых проводов.

При изготовлении деталей из цветных металлов методом литья или штамповки обращают внимание на соответствие химического состава материала требованиям стандартов. Поверхность деталей должна быть гладкой с плавными переходами и не иметь трещин, заусенцев, намывов, пригара и окалины, отколотых частей, раковин и других дефектов, снижающих качество изделий

При приемке стальных деталей обращают внимание, чтобы не было трещин, заусенцев, отколотых частей и пережогов металла; переход от одного сечения к другому должен быть плавным, без подрезов.

Все сварные швы и прилегающие к ним поверхности должны быть очищены от шлака, окалин, наплывов и брызг металла. Сварное соединение должно иметь прочность не менее прочности основного металла; наплавленный металл должен быть плотным, не иметь трещин, пор и не заваренных кратеров. Для защиты от коррозии детали из стали также покрывают антикоррозионным покрытием, как правило, цинковым толщиной 70—150 мкм (горячим цинкованием) или термодиффузионным цинковым покрытием. Допускается защита лакокрасочными материалами.

Цепную подвеску контактной сети и отдельные провода крепят различными деталями, тип которых выбирают в зависимости от конструкции опорного устройства. На консолях крепление осуществляется с помощью бугелей различных конструкций: на изогнутых консолях применяют бугель,

выполненный из прутка, нанаклонных — пластинчатый. Для жестких поперечин используют треугольный подвес. На станциях, кроме того, провода подвешивают на траверсах. На гибкой поперечине используют комплект деталей для крепления проводов к поперечному несущему тросу с закреплением их к верхнему фиксирующему тросу. Несущий трос укладывают в седлах и фиксируют двусторонними плашками, у которых одна сторона рассчитана на крепление проводов меньших сечений, а другая — больших. На переходных опорах полукомпенсированных цепных подвесок, на которых к одному изолятору подвешивают два несущих троса, устанавливают двойные седла.

Для сочленения изоляторов и седел различных конструкций служат переходные детали: ушко одно- и двухлапчатое, серьга и т.п.

Концевую заделку контактных проводов и сталемедных тросов выполняют клиновыми или цанговыми зажимами. Концевая заделка многопроволочных проводов может быть также выполнена через вилочный коуш с обжатым трубчатым соединителем или соединительными зажимами.

- Material – texnik ta’minotga ketadigan sarf-xarajatning 40 % ga kamaytirilishi, chiqindini qisman qayta ishlash imkoniyati;
- Shlakdagi FeO ulushining va po‘lat tarkibidagi vodorod, fosfor, azot kabi gazlar erishining kamayishi.
- Shovqin darajasining kamayishi va ekologik ishlab chiqarish tizimining yangi bosqichga ko‘tarilishi [2].

Ikki korpusli (vannali) pech. Ikki korpusli pechlarning asosiy ko‘rsatkichi bu uning ishlab chiqarish unumdorligi hisoblanadi. Bunday pechlar 2 ta korpus (vanna) dan iborat bo‘lib, Birinchi tok bilan ta’minlash tizimi bitta (o‘zgarmas tokdagi pech) ya’ni 3 ta (o‘zgaruvchan tokdagi pech) elektrod bilan birinchi vannadan ikkinchi vannaga o‘tqazilib turiladi. 3 – rasmda o‘zgarmas tokda ishlovchi 2 korpusli pechning joylashish sxemasi keltirilgan.

Pechning birinchi vannasida elektrodlar yordamida erish olib borilsa ikkinchi vannada birinchi vannadan chiqqan shixta chiqindi gazlar yoki gaz gorelkasi

yordamida qizdiriladi. Bu texnologiyada shixtani qizdirish hisobiga erish davomiyligi 40 % gacha, elektr energiya esa 40 – 60 kVt·soat/t gacha qisqaradi. Shuningdek 2 ta vannaga ham elektrodlar o‘rnatilgan agregatlar mavjud bu holda pech loyihasi uchun qo‘shimcha sarf xarajat talab etiladi.[3]

Ikki korpusli pechlarning yana bir varianti **CONARC (CONverter + electric ARC furnace)** agregati hisoblanadi. Ushbu agregat ham 2 ta korpusdan iborat bo‘lib, bitta komplektda elektrod va kislorod purkash uchun (konverter kabi furma bilan jihozlangan). Bu agregatning yutug’i suyuq cho‘yan va metallomning yoki DRI (Direct Reduced Iron – temirni rudadan bevosita ajratib olingan mahsuloti) har xil proporsiyalarda eritib amalda po‘lat olish imkoniyatining mavjudligidir.

Po‘lat eritish jarayoni ikki davrga bo‘lingan 6 – rasm. Dastlab birinchi korpus (vanna) ga suyuq hodagi cho‘yan quyiladi so‘ng pechga furma tushirilib kislorod purkaladi. Bu bosqichda metallning uglerodsizlanishi olib boriladi.

Kislorod purkash davrida kechadigan C, Si, Mn va P oksidlanishi hisobiga vannani kuyishini oldini olish maqsadida pechga sovitgichlar metallom yoki DRI (Direct Reduced Iron) ko‘rinishida yuklanadi. Kislorod purkash tugagach furma ikkinchi korpusga o‘rnatiladi yoki ko‘tarilib yonboshga surib qo‘yiladi, birinchi korpusga esa elektrodlar o‘rnatiladi. Bu bosqichda pechga qoldiq qattiq holdagi shixta yuklanib elektrodlar yordamida eritiladi.[4]



3 – rasm. Ikki korpusli elektr po‘lat eritish pechining sxemasi.

1.Shixtani qizishi sodir bo‘ladigan korpus (vanna). 2.Po‘lat eritish sodir bo‘ladigan korpus (vanna). 3.Chiqindi gazlar uchun kanal 4.Gaz tozalash tizimiga yo‘naltirilgan

kanal 5. Elektrod ushlagichi bilan 6. Ikkinchi bosqichda elektrodning joylashuvi 7. Yuqoridagi elekrod uchun elektr kabel 8.Pastdagi elektrod uchun elektr kabel.

Belgilangan haroratga yetgach metall kovshlarga quyiladi. So‘ngra jarayon siklik (davriy) ravishda takrorlanadi. Shunday ekan po‘latni eritish bir vaqtning o‘zida pechning ikkita korpusida ham amalga oshiriladi, elektrod va furma esa korpuslarga navbatma navbat yushiriladi bu o‘z navbatida pech vannasini alohida alohida qilingan vannasida eritishga qaraganda ishlab chiqarish unumdorligini 30 % gacha oshirish imkonini beradi. Eritish davomiyligi 40-60 minutni tashkil qiladi.

«Concast Standard AG» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan **«Arcon-jarayoni»** ham CONARC agregatining analogi hisoblanadi. Asosiy farqi agregat o‘zgarmas tok bilan ishlaydigan korpusi esa konverter korpusining o‘ziday qilib



tayyorlangan. Pech o‘zgaruvchan tokda ishlaganligi sababli endi pechdagi elektrodlar soni 3 ta emas 2 ta elektrod birinchisi yuqoridan grafitli va ikkinchisi pech tubidagi plastinkali misli elektrod hisoblanadi 3 – rasm.

6 – rasm. CONARC agregatining sxemasi [5]

1,2 – pech korpuslari (vannalari). 3 – kislorod furmasi. 4 – elektrodlar. 5 – gaz chiqish tizimi

Arcon agregatining yillik ishlab chiqarish unumdorligi 1,6 mln.t ni tashkil qiladi. Metalloshixta sifatida suyuq cho‘yan (40 %), granulalangan cho‘yan (5 %) va HBI (55 %) ishlatiladi. Eritish mahsulotining massasi – 170 t.

Agregat korpuslarining har birini ishlash sikl davomiyligi 92 minutni tashkil qiladi. Konverter va elektr yoyli pechni kombinatsiyalashgan agregati oddiy turdagi elektr yoyli pechlarga qaraganda quyidagi yutuqlarga ega:

- Metalloshixta tanlash imkoniyatining kengligi (xilma - xilligi)

- Yuqori ishlab chiqarish unumdorligi
- Metalloshixta tgarkibidagi qo‘shimchlalarni kimyoviy oksidlanishidan hosil bo‘lgan energiya hisobiga elektr energiya sarfi kamligi.
- Talab etiladigan elektr quvvatning kamligi
- Solishtirma elektrod sarfining kamayishi
- Kam quvvatli elektrosetda ham ishlash imkoniyati
- Elektr dastgohlarga ketadigan sarf xarajatning kamligi [6].

Shaxtali elektr po‘lat eritish pechlar. Shaxtali elektr po‘lat eritish pech konstruksiyasining o‘ziga xosligi shundaki bunda shixta pechga yuklanishidan oldin shaxtada qizdiriladi. Bu shaxtalar pechning yuqori qismi svodning ustidan o‘rnatiladi va odatda 1 va 2 ta shaxtadan iborat bo‘ladi. Metallomni maksimal 800 ^{o}C haroratgacha qizdirish mumkin. Metallomni dastlabki qizdirish hisobiga jarayonga sarflanadigan elektr – energiyani 70 – 100 kVt·soat/t iqtisod qilish imkonini beradi. Shaxta orqali umumiy shixta massasining 60 % ini beriladi qolgan 40 % i qismi esa to‘g’ridan to‘g’ri pech vannasiga yuklanadi.[9]

Eritish davomiyligi 35 – 50 minutni tashkil qiladi. Elektroenergiya iqtisod qilinishi bilan bir qatorda elektrod sarfi ham 30 % ga qisqarib, ishlab chiqarish unumdorligi 40 % gacha oshadi.

Bu jarayon yaratilganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lmaganligi sababli (XX - asr 80 yillarining oxirida) bu pechlarning optimal konstruksiyalari ustida ishlar olib borilmoqda. Quyida esa 2 xil variantini ko‘rib chiqamiz.

SIMETALL EAF Quantom – Metallomni qizdirishga ega zamonaviy konstruktorlik g’oyasiga ega pech hisoblanadi. Ayni vaqtda faqatgina bitta shu turdagi pech Meksikadagi Talleres y Aceros S.A de C.V. (Tiasa shahri) kompaniyasining po‘lat quyish kompaniyasiga o‘rnatilgan [7].

Metallom kran yordamida badyaga yuklanadi va bu metall massasi bo‘yicha 100 tonnaga yetguncha olib boriladi, pechdan metallni chiqarib olgandan so‘ng botqoqlik massasi 70 tonnani tashkil etishini ham hisobga olish kerak. Pechning sxemasi 7 – rasmda keltirilgan.



7 – rasm. SIMETALL EAF Quantom pechini va dastgohlarning joylashish sxemasi.

1. Metallom solingan badya 2. Yuklash lotogi 3. Qiyalik bo‘ylab ko‘tarish mexanizmi 4. Gaz tozalash tizimi 5. Yuklash qurilmasi 6. Shixtani qizdirish uchun shaxta 7. Elektr yoyli po‘lat eritish pechi. 8. Po‘lat quyish uchun kovsh 9. Elektrod ushlagich 10. Transformator.

Metallom kran yordamida badyaga solinib u yerdan shaxtaga podyomnik yordamida ko‘tariladi so‘ng lyulka ochiladi va shixtani qizishi kichadi. Bu pechga suv bilan sovitiladigan shaxta konstruksiyasidan foydalanildi.

Qizigan shixta pechga yuklanadi. Yuklash uch portsiyada amalga oshirilib erish sikli 33 minutni tashkil qiladi. Har bir portsiyani qizishi uchun esa 9 minut sarflanadi. Pech 4° qiyalikka burilib, metall sifon ko‘rinishidagi kanaldan chiqarib olinadi.[9]

Yana bir shaxtali pechga to‘xtovsiz xomashyo yuklash jarayonini birlashtirish bo‘yicha innovatsion yechim EPC (Environmental Preheating and Continuous Charging) bo‘lib bu Turkiyaning CVS MAKINA va KR Tec GmbH kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan.

EPC tizimi ishlash prinsipi 8 – rasmda ko‘rsatilgan. Korzina yordamida shixta ochiq qopqoq orqali zavalkali kameraga yuklanadi (8 - a rasm).

Mana shu pozitsiyada zavalkali kamerani oldingi devori shaxtani berkitadi (dastlabki qizdirish kamerasi) va birinchi portsiya shixta qizdiriladi. Shixtani zavalkali kameraga yuklash vaqtida Elektr pechda erish va shixtani dastlabki qizish jarayonlari to‘xtamasdan ishlaydi.[10]

Korzinadan shixta zavalkali kameraga yuklangandan so‘ng kamera qopqog’i gidravlik silindr qurilmasi bilan yopiladi (8 – b rasm)



8 – rasm. EPC qurilmasining ishlash sxemasi.

a) shixta yuklash b) qizdirish v) shaxtadagi shixtani pechga olish g) qizdirilgan shixtani to‘liq shaxtadan chiqarib olish va yangio portsiya shixtani qizdirish uchun shaxtaga solish [8].

XULOSA

O‘zbekistonda elektr yoyli pechlarda po‘lat eritish O‘zmetkombinat AJ da boshlangan. Unda 13-fevral 1978-yilda birinchi nomerli e.p.e. pechni ishga tushurilgan. O‘sha yili dekabr oyda 2 e.p.e. pech ishga tushdi. 1979- yil sentabr oyda 3 e/p/e pech ishga tushdi. Va nihoyat 2002-yil avgust oyida AJ “O‘zmetkombinat” eng zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan DSP100-UMZ ishga tushurildi.

Yildan yilga po‘lat va undan tayyorlangan mahsulotlar assortimentlariga talab O‘zbekiston sharoitida ortib bormoqda buni hisobga olgan holda Samarqand va Namangan viloyatlarida SMZ va NMZ (Samarqand va Namangan metallurgiya zavodlari) qurildi va yaqin yillarda eritish pechi qurilishi ham rejalashtirilgan.

Bundan tashqari Toshkent viloyati Ohangaronda ham Uzmetkombinat AJ ga qarashli zavodlarda ham po‘lat eritish va AKOC ham mavjud. Yildan yilga texnologiyalarni rivojlanib borishi esa o‘z navbatida amaldagi pechlarni

almashtirtishni talab eta boshlaydi. Xulosa sifatida biz amaliyotga Consteel texnologiyasini tadbiq etishni ma'qullaymiz chunki

Consteel texnologiyasining yutuqlariga:

- Shixtani qizdirish va jarayonni barqarorligini oshirish hisobiga elektr energiya sarfini 80-120 kVt·soat/t iqtisod qilinishi;
- Jarayonni to'xtovsiz ishlashini ta'minlash orqali pechning ishlab chiqarish unum dorligini oshishi;
- Shlak hosil bo'lishi uchun qulay sharoit va pechdagi atmosferani yaxshilanishi;
- Pech futerovkasining bardoshliligini oshishi;
- Material – texnik ta'minotga ketadigan sarf-xarajatning 40 % ga kamaytirilishi, chiqindini qisman qayta ishlash imkoniyati;
- Shlakdagi FeO ulushining va po'lat tarkibidagi vodorod, fosfor, azot kabi gazlar erishining kamayishi.
- Shovqin darajasining kamayishi va ekologik ishlab chiqarish tizimining yangi bosqichga ko'tarilishlari kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov, S., Mamaraximov, S., Xaydaraliyev, X., & Shaxobov, T. (2022). Olmaliq sharoitida konvertor changlarini qayta ishlashning zamonaviy usuli. *Science and Education*, *3*(4), 315-319.

2. Abdurahmonov, S. A., Komilovich, Q. H., & Abdakim o'g'li, N. M. (2021). Polimetall sulfidli konsentratlarni qayta ishlashning samarali texnologiyalari. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, *1*(01), 33-42.

3. Schmale K. CONARC® - All purpose Steelmaking by SMS Demag / K. Schmale; D. Kersten // Metal 2003 20- 22.05.2003, Hradec nad Moravici, Czech Republic. – 2003.

4. Храпко С.А. Производство стали в ДСП [Електронний ресурс]: конспект лекцій / С.А. Храпко, Е.Л. Корзун, Ю.В. Костецкий. - Донецкий Национальный Технический Университет./ -2011 / – Режим доступу: http://uas.su/books/2011/minizavod/
15/razdel15.php . - Дата доступа: 15.06.2014. – Название с экрана.

5. SIMETAL EAF Quantum The future of efficient steelmaking Metals Technologies [Электронный ресурс] / -2014 / -Режим доступа: www.siemens-vai.com - Дата доступа: 19.07.2014. – Название с экрана.

6. Sunnatov, J. B., & Qarshiyev, X. K. (2021). QORA METALLURGIYADA HOSIL BO'LGAN CHANGLARDAN RANGLI METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(4), 1414-1427.

7. Турсунов, Б. Д., & Суннатов, Ж. Б. (2017). Совершенствование технологии вторичного дробления безвзрывным методом. *Молодой ученый*, (13), 97-100.
8. EPC system EAF [Электронный ресурс] / -2014 / - Режим доступа: http://www.cvs.com.tr/ru/epc-system-eaf.php - Дата доступа: 23.07.2014. – Название с экрана.
9. Masidiqov, E. M., & Karshiboev, S. POSSIBILITIES OF INCREASING THE EFFICIENCY OF THE TECHNOLOGY OF HYDROMETALLURGICAL PROCESSING OF LEAD CONCENTRATES.
10. Н.М Аскарова, Р.Э Тошкодирова РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ ПЕРЕРАБОТКИ МЕДНОГО ШЛАКА И КЛИНКЕРА ЦИНКОВОГО ПРОИЗВОДСТВА- Universum: технические науки, 2022

ECONOMIC VITALIZATION AND BUDGET SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND SOUTH KOREA

Tirkashev Elzod Mahmarejab o‘g‘li

Bachelor degree student, Budget and Treasury,

Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan.

e-mail elzodtirkashev@gmail.com

ABSTRACT

This article describes the specifics of fiscal management and soundness which define ways and means of enhancing economic recovery, job creation, quality of life and safety and security strategy between Uzbek and south Korean government.

Keywords: Vitalization, Resource Allocation, investment, job creation, health and welfare, National defense, Foreign Affairs, General Public Administration, potential growth.

INTRODUCTION

Recovery of the real economy in both countries through the investment and export stimulation. Stimulation of the local economy through the expansion of local finance, and investments in Local Operation Security are a major commercial multi-stage process that earlier started in the South Korea. Job creation trough customized employment support, improvement of the working conditions and employee-oriented job training provide improvement of stability of Citizen’s lives as well as communications between the People and the Government and within the Government Sectors in the cyclic period of time for both nations.

MATERIALS AND METHODS

The main objective of the research is to analyze and compare homogeneous and differential aspects of budget allocation projects, employment reform, fiscal managements and soundness, develop scientific and practical proposals and recommendations among the Republic of Uzbekistan and South Korea. The theoretical and methodological basis of this article is an analysis of economic factors effecting budgetary policies and reforms on public sectors of two different countries. The article uses grouping methods, structural, comparative, factor analysis and financial ratios.

ANALYSING MAIN POINTS OF TWO COUNTRY'S BUDGET

In the beginning of the detailed factors and aspects of cyclic reforms, programs and strategies as well as formulation of resource allocation by sectors under the consideration of budgetary and financial policies.

In February 2017, Uzbek government formulated Strategy of Actions in five priority areas for the Development of Uzbekistan for 2017-2021, which set out a comprehensive program of reform, including socio-economic, political and administrative aspects, which has begun from a low base and phase. The fundamental renewal reforms require a wisely allocation of budget. In turns of economic reforms, the government took a major step introducing the convertibility of Uzbek currency Sum into foreign currencies which deprives a giant black market. Numerous governmental fees and taxes reduced and adjusted. Deeply rooted cotton economy was almost abolished. Furthermore, Uzbek migrants had made an important contribution to socio-economic stability. Uzbek Authorities pursue a wiser migration polices, for example by diversifying destination countries of migration in order to reduce dependency on Russia. Next strategic plan was all investments in education, including modernization of universities, comprehensive renewal of early childhood education. Moreover, one of the fundamental goals was a service-oriented administration, improved internal management and internal control and combating corruption. Next step was accelerating introduction of e-government system relying in all on long-term cooperation with South Korea. [1] However, authority and folk underwent challenges with the inviolability of the proprietary, high tariffs on motors and its spares, substantially rising product price, relatively, low level of minimum wage and high-level of unemployment and poverty. The statistics shows the global rate of unemployment amounted to 6.57% in 2020. This index was estimated to 9.6% in Uzbekistan, 2.7% in South Korea. [3]

In the meantime, South Korean fundamental development strategy and reforms were imposed much earlier in 20cetury revolution. In 2017, government formulated a new form of strategic reform in order to deeply strengthen socio-economic, political sectors and macroeconomic scope. That year's budget demonstrated strong will and efforts to promote future growth engine, pave the way of continued growth and strengthen security in the society while placing an investment focus on creating jobs and boosting economic activity. The Korean Government launched the Presidential Committee on Job Creation to operate state affairs focusing on job creation, and is looking for ways to add more jobs in public sector. Moreover, Korea put efforts to build a fair economic ecosystem, involving establishment of the Ministry of small and Medium Venture Business to enhance the support policies for micro, small and medium-sized enterprises as well as ventures and start-ups. The Government introduced the new tax credit up to

10 percent of the investment on infrastructure for commercializing new technologies in the new industries. [2]



TABLE 1. Distribution of Resource Allocation by Sectors

In both countries, investments in development of social and environmental spheres, economic liberalization, creative foreign policy, good governance and rule of low sectors were focused on improving people's quality of life and spending efficiency. Korea budget allocation strategy made noticeable projects in comparison with Budget expenditure of Uzbekistan, including research and development, Security Operation System, industry which are determined in consideration of the economic conditions, while activation of investment in the private sector and increased policy funds are to increase the actual size of investment. Creating jobs, especially for young people in regions; enhancing the role of women, including promotion of entrepreneurship, introducing waste and waste water management; increasing electricity efficiency, including by energy saving technology and renewable energy sources. Reducing the role of the state in the economy and promoting privatization; promoting development of of private entrepreneurship and small businesses; improving the investment climate and attracting foreign investment; enhancing efficiency of bank sector; restructuring the agricultural sector;;investment in modern technology were objective projects of economic vitalization in Uzbekistan.[1] In the meantime, Korean Government established a control tower in order to systematically respond to the 4th industrial revolution. Furthermore, state come up with measures step by step for each sector including developing key technologies, laying foundation for the market infrastructure

and industrial structure innovation, fostering human resources and reforming the employment structure. [2]

Analyses shows that more percentage of budget expenditure financed for social sectors both counties including slight above half of the allocation only in Uzbekistan. Comparatively, Education, Defense and Agricultural sectors represented noticeably upward in South Korea. Additionally, investment in Research and Development scope faced considerable down trend. Undoubtedly, countries allocated budget expenditure projects due to requirements of state macroeconomic, political, social condition and cyclic strategic development proposal.

CONCLUSION

As a result of the factors affecting budgetary allocation by sectors, firstly, the level of investments for Research and and Development and Local Operation Security are slightly low. Second of all, over the average rate of unemployment rate. Then proprietary rights related problems and corruptible procedures.

Acknowledgements

Some proposals have been considered to recover proper allocation of fiscal and macroeconomic investments for whole sectors.

-By adequately increasing investment on R&D and LOS, achieving highly development in each sector.

-Formulating modern security sphere by legislating benchmarking of proprietary rights from developed countries.

-Multiplying of Job vacancies by introduction of advanced methods includes supporting unemployed to find virtual jobs, subsidizing their start-ups and sticking to empty sectors in both private and government sectors as well as organizing job trainings around whole provinces of Uzbekistan.

REFERENCES

1. a)" The National Development strategy on Five Priority Areas 2017-2021"

b) The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 18,2017 №RP-2847.

2. Korea Growth Strategy 2017 "The 3-year Plan for Economic Innovation''.

3. World Bank: http://databank.org/date/home.Central Bank of Uzbekistan**:** www.cbu.uz

HOMILA TUSHISH XAVFI YUQORI BO‘LGAN HOMILADOR AYOLLARDA PROGESTERONNI TA’SIRI

Sodiqova Dilfuza Ravshanbekovna, t.f.n dotsent
Toshkent tibbiyot Akademiyasi 2-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi

Kazaxbayeva Xolida Ziyatbayevna, I kurs magistri
Toshkent tibbiyot Akademiyasi 2-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi
Email: kazaxbayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Homilaning tushishi yoki yo`qotilishi 20 haftasidan oldin o‘z-o‘zidan homiladorlikning yo‘qolishi sifatida tavsiflanadi. Xromosoma anomaliyalari, implantatsiyaning noto‘g‘ri ishlashi va klinik tushishlar homiladorlikning eng keng tarqalgan sabablaridan biridir. So‘nggi o‘n yilliklarda homiladorlikning dastlabki bosqichida klinik tushish xavfi ostida bo‘lgan ayollarning oldini olish va boshqarish bo‘yicha ko‘plab yutuqlar kuzatildi, ammo bu hali ham sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislarini tashvishga solmoqda[1].

Progesteron odatda "homiladorlik gormoni" deb ataladi, erta homiladorlik davrida ko‘proq improvizatsiyalangan rolga ega, chunki u implantatsiya uchun endometriumni tayyorlash, shuningdek, bachadonda homiladorlik qopini saqlash uchun javobgardir. Boshqa tomondan, qon zardobidagi progesteronning past darajasi homiladorlik xavfini keltirib chiqarishi aniqlangan. Progesteron ko‘pincha butun dunyo bo‘ylab xavf ostida bo‘lgan homiladorlikni davolash uchun standart tanlov sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotchilar progesteronning bachadonda mushak oqsili sintezini rag‘batlantirishga yordam berishini, prostaglandin va estrogenning sezgirligini oshirishga yordam berishini, shuningdek miyometriumning erta qisqarishini oldini olishda katta rol o‘ynashini ta’kidladilar[2].

Kalit so‘zlar: Homilaning tushishi, Progesteron, bachadon, homiladorlik, gormon, abort, suppozitorium.

ВЛИЯНИЕ ПРОГЕСТЕРОНА НА БЕРЕМЕННЫХ С ВЫСОКИМ РИСКОМ АБОРТА

АННОТАЦИЯ

Выкидыш плода или выкидыш определяют как самопроизвольный выкидыш до 20 недель. Хромосомные аномалии, нарушение работы

имплантатов и клинические выкидыши являются одной из наиболее частых причин беременности. В последние десятилетия было достигнуто много успехов в профилактике и ведении женщин с риском клинического выкидыша на ранних сроках беременности, но это все еще вызывает озабоченность у медицинских работников [1].

Прогестерон, обычно называемый «гормоном беременности», играет более импровизированную роль на ранних сроках беременности, поскольку он отвечает за подготовку эндометрия к имплантации, а также за поддержание плодного яйца в матке. С другой стороны, было обнаружено, что низкий уровень прогестерона в сыворотке крови увеличивает риск беременности. Прогестерон часто принимается во всем мире в качестве стандартного выбора для лечения беременностей с повышенным риском. Исследователи отметили, что прогестерон способствует стимуляции синтеза мышечных белков в матке, способствует повышению чувствительности к простагландинам и эстрогенам и играет важную роль в предотвращении преждевременных сокращений миометрия [2].

Ключевые слова: невынашивание плода, прогестерон, матка, беременность, гормон, аборт, суппозиторий.

IMPACT OF PROGESTERONE IN PREGNANT WOMEN WITH A HIGH RISK OF ABORTION

ABSTRACT

Fetal miscarriage or miscarriage is defined as spontaneous miscarriage up to 20 weeks. Chromosomal abnormalities, implant failure and clinical miscarriages are among the most common causes of pregnancy. Much progress has been made in the past decades in the prevention and management of women at risk of clinical miscarriage in early pregnancy, but this is still a concern for healthcare professionals [1].

Progesterone, commonly referred to as the "pregnancy hormone," plays a more impromptu role in early pregnancy as it is responsible for preparing the endometrium for implantation as well as maintaining the fertilized egg in the uterus. On the other hand, low serum progesterone has been found to increase the risk of pregnancy. Progesterone is often accepted worldwide as the standard choice for the treatment of high-risk pregnancies. Researchers have noted that progesterone stimulates the synthesis of muscle proteins in the uterus, increases sensitivity to prostaglandins and estrogens, and plays an important role in preventing premature contractions of the myometrium [2].

Key words: miscarriage, progesterone, uterus, pregnancy, hormone, abortion, suppository.

Tadqiqot maqsadi: homila tushish xavfi yuqori bolgan homilador ayollarda progesteronni ta`siri o`rganilgan masalalarini qamrab oluvchi zamonaviy ilmiy adabiyot manbalarini tahliliy ko‘rib chiqish.

Materiallar va uslublar. Ushbu mavzu bo‘yicha 20 ta xorijiy adabiyot manbalari tahlili o‘tkazildi.

Dolzarbligi: Homila tushishi homiladorlikning umumiy asoratlari bo‘lib, klinik jihatdan tan olingan barcha homiladorlikning 15% dan 20% gacha sodir bo‘ladi. Homilador homila va embrionlarning 50% ga yaqini normal xromosomalarga ega. Ko‘p hollarda abortning sababini aniqlab bo‘lmaydi, ammo homilador bo‘lishning e’tirof etilgan xavf omillari orasida onaning yoshi 34 yoshdan oshgan va otaning yoshi 40 yoshdan oshgan, oldingi ikki yoki undan ortiq abort va onaning otoimmun omillari, masalan, fosfolipidlar antitelalari. Bundan tashqari, ko‘plab o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omillari e’tirof etildi, shu jumladan onaning semirish, onaning infektsiyasi, masalan, genital herpes simplex, OIV-1 va B guruhi streptokokklarining vaginal kolonizatsiyasi, polikistik tuxumdon sindromi va progesteronning etarli darajada ishlab chiqarilmasligi kabi onaning endokrin anomaliyalari boshqa ma’lum xavf omillari hisoblanadi[3]. Progesteron etishmovchiligi tuxum hujayrasi chiqqandan keyin hosil bo‘lgan tuxumdondagi hujayralar guruhi bo‘lgan corpus luteum (CL) etishmovchiligi bilan bog‘liq. CL ning asosiy vazifasi bachadon shilliq qavatini tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash va tuxumdonni implantatsiya qilishni osonlashtirish uchun etarli progesteron ishlab chiqarishdir. Erta homiladorlik davrida progesteron etishmovchiligi abortning etiologik omili bo‘lishi mumkin, shuning uchun progesteron bilan davolash homiladorlikning oldini olishi mumkin[4].

Progestogenlar - progesteron retseptorlari bilan bog‘langan gormonlar guruhi; ular tabiiy ayol jinsiy gormoni progesteronni ham, sintetik shakllarni ham o‘z ichiga oladi. Progesteron ta’sirini taqlid qiluvchi dorilar progestasyon agentlari deb nomlanadi. Progesteron va progestasyon agentlari progestogenlar deb nomlanadi. Progesteron CL tomonidan tuxumdondan erta homiladorlik davrida chiqariladi. Bu homiladorlikni o‘rnatish va saqlash uchun muhim gormon. Progestogenlar homilador bo‘lish xavfi bo‘lgan ayollarga og‘iz orqali, mushak ichiga in’ektsiya yoki vaginal süpozituar shaklida berilishi mumkin[5]. Dozalar, preparatlar va progestogenlarning turlarining keng doirasi tufayli homiladorlik xavfini davolashda foydalaniladi, xavf ostida bo‘lgan abortni davolash uchun eng yaxshi turi, dozasi va qabul qilish yo‘lini aniqlashtirish lozim[6].

Homilani yo`qotish er-xotinlar uchun psixologik asoratlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan travmatik hodisa[7]. Vaginal qon ketish bilan kuzatilishi homilani

yo`qotilishida keng tarqalgan belgilardan biri xisoblanadi. Erta homilador bo`lgan ayollarning 20 foizida uchraydi va bu homiladorlikning taxminan yarmida homilani yo`qotilishi bilan yakunlanadi[8]. Agar homilani yo`qotilishi erta qon ketishidan keyin bo‘lmasa ham, bu homila erta tug‘ilishi, kam vaznli va tug‘ilishdan oldingi o‘lim uchun yuqori xavf hisoblanadi. Bir qator so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, progesteron homilani yo`qotilishi xavfi bo‘lgan ayollarda homiladorlikning yo‘qolishini kamaytirishi mumkin[9]. Homiladorlikning rivojlanishi bilan progesteron darajasining kamayishi gormonal etishmovchilikda, Bunday hollarda, ba’zi yondashuvlar tibbiy aralashuvlari samaraliroq bo‘lishi mumkinligi isbotlangan.

Progesteron homiladorlikni saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Homiladorlik davrida etarli miqdorda progesteron darajasi mavjud bo‘lganda, limfotsitlar sichqonlarda abortga qarshi bo‘lgan progesteron induced blokirovka omili (PIBF) deb ataladigan modda sintez qiladi[10]. Endometritdagi sekretor o‘zgarishlarni qo‘zg‘atish va erta homiladorlikni qo‘llab-quvvatlashdan tashqari, u homilaning rad etilishini oldini olish uchun onaning immunitet reaktsiyasini modulyatsiya qiladi va bachadon silliq mushaklarini bo‘shashtiradi. Ko‘p yillar davomida gestagenlarni tahdid ostidagi abortni boshqarishda qo‘llanilishiga olib kelgan ushbu fiziologik dalillarga qaramasdan, bu masalada ulardan muntazam foydalanishni qo‘llab-quvvatlash uchun juda kam ma’lumotlar mavjud[11].

Progesteron og‘iz orqali, mushak ichiga yoki vaginal suppozitorium sifatida kiritilishi mumkin. Progesteronni og‘iz orqali yuborish yo‘li maksimal muvofiqlikni ta’minlaydi, ammo og‘iz orqali qabul qilingan progesteronning samaradorligi turli xil natijalarga ega ekanligi aniqlandi. 2018 yilda Cochrane tekshiruvi bir necha davolanish bilan solishtirganda og‘iz orqali qabul qilingan progesteronini "ehtimoli, homilani yo`qotilishi darajasini minimallashtirishi" mumkinligini aniqladi (nisbiy xavf 0,57, 95% ishonch oralig‘i 0,38-0,85), ammo kiritilgan barcha sinovlar o‘rtacha sifatli dalillarga ega ekanligi qayd etildi. [12] Mahalliy tadqiqotda Abrar S va boshqalar og‘iz orqali qabul qilingan progesteronning samaradorligi, vaginal suppozitorium progesteronga nisbatan samaradorligini vaginadan qon ketishining yo‘qligi va homiladorlikning 20-haftasidan o`tib olishini qayd etdilar . Ular og‘iz qabul qilingan progesteronning guruhi vaginal qabul qilingan progesteronni guruhidagi 71% ga nisbatan 90% samaradorlikka ega ekanligini ta’kidladilar.[13]

Homiladorlikni saqlab qolishda progesteronning fiziologik roli tufayli u homiladorlikning davom etishi uchun homila tushish hafida va taxmin qilingan progesteron etishmovchiligi bo‘lgan ayollarni davolash uchun ishlatilgan. Homila tushish hafining oldini olish yoki davolashda progesteronning terapevtik qiymati aniqlanmagan garchi so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, u noaniq etiologiyali takroriy

homila tushish kuzatilgan ayollarda homiladorlikning oldini olishda samarali bo‘lishi mumkin[14].

Homila tushishi jiddiy jismoniy va ruhiy kasalliklar bilan bog‘liq. Homila tushish hafi bo`lgan ayollarda xavfi bo‘lmagan ayollar bilan solishtirganda tug‘ruqdan oldingi qon ketish, tug‘ruqdan oldingi membranalarning yorilishi, erta tug‘ilish va o‘sishning cheklanishi ko‘payganligi aniqlandi. Homila tushishiga hissiy munosabat chuqur bo‘lishi mumkin; depressiya, uyqu buzilishi, g‘azab va nikoh buzilishini o‘z ichiga oladi. Homiladorlikning dastlabki bosqichlarida qon ketishini boshqarishda ultratovush tekshiruvining joriy etilishi hayotiylikni tezda tasdiqlash orqali tashxisni yaxshilashga yordam berdi va homila bradikardiyasi va homiladorlik yoshi kabi prognostik omillarni kiritish orqali davolashni yaxshilanadi. Bu xavf ostida bo‘lgan abortni boshqarishni ratsionalizatsiya qiladi, chunki homiladorlikni saqlab qolishga urinishlar faqat homila hayotiy bo‘lsa va xromosoma anomaliyalari bo‘lmasa samarali bo‘lishi mumkin[15].

Homiladorlikni saqlab qolishda progesteronning ahamiyati abortning tanlovli induktsiyasida mifepriston (RU 486) kabi progesteron antagonistlarini muvaffaqiyatli qo‘llash orqali ko‘rsatildi. Yaqinda nashr etilgan tizimli sharhda vaginal yuborilgan progesteron in’ektsion progesteronga nisbatan erta tug‘ilishning oldini olishda samaraliroq bo‘lganligi aniqlangan[16].

Ma’lumki, yallig‘lanishga qarshi sitokinlar abort bilan bog‘liq bo‘lib, progesteron tomonidan qo‘zg‘atilgan blokirovka qiluvchi omil (PIBF) immunitet reaktsiyasiga va sitokinlarning 1-toifadan 2-toifaga o‘tishiga ingibitor ta’sir ko‘rsatadi[16]. Homiladorlik odatda immunologik omillar, lutein va neyroendokrin etishmovchiligi, shuningdek, miyometriyal giperkontraktiliya tufayli to‘xtatiladi[17]. Bularning barchasi profilaktik progesteron berilgan ayollarda abort qilishning past ko‘rsatkichlarini tushuntirishda yordam berishi mumkin[18].

Ayub.M va boshqalar tomonidan Karachining oddiy hududlarida o‘tkazilgan mahalliy so‘rovda ta’kidlaganidek, progesteron bilan davolangan ayollarda homila tushish holatlari kamaygan[19]. Vang XX va boshqalar 845 nafar ayolni o‘z ichiga olgan tadqiqodlari tahlil qilish bo‘yicha yig‘ilgan ma’lumotlarda homila tushish xavfini kamaytirish uchun og‘iz orqali qabul qilingan progesteronni sinab ko`rildi. Tadqiqotlar, shuningdek, progesteron darajasi past (35 mmol / L dan kam) bo‘lgan ayollarda homila tushish xavfi progesteronning yuqori darajasi (teng yoki 35 mmol / L dan yuqori)ga nisbatan 24 baravar ko‘proq ekanligini ko‘rsatdi[20].

XULOSA

Ushbu ko‘rib chiqish natijalari shuni ko‘rsatadiki, progestogenlar, homila tushish xavf ostida bo‘lganlarni davolashda samarali bo‘ladi, ammo erta tug‘ilishga juda kam

yoki umuman ta'sir ko'rsatmaydi. Tug'ma anomaliyalar bo'yicha dalillar va aniq malumotlar juda kamligi aniqlangan.

Adabiyotlarda, shuningdek, ba'zi tadqiqodlarda homila tushish xavfini davolashda progestogenlarning foydalari to'g'risidagi aniq natijalariga e'tibor qaratuvchi samarali metodologiyaga ega bo'lgan ko'proq sinovlar homila tushish xavfini davolashda progesteronning jihatlari haqida ko'proq ma'lumot beradigan tadqiqodlar otkazilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Macklon NS, Geraedts JP, Fauser BC. Conception to ongoing pregnancy:the 'black box'of early pregnancy loss. *Hum Reprod Update.* 2002;8(4):333–343. doi:10.1093/humupd.

2. Taraborrelli S. Physiology, production and action of progesterone. *Acta obstetricia et gynecologica Scandinavica.* 2015;94(161):8–16. doi:10.1111/aogs.12771.

3. Di Renzo GC, Giardina I, Clerici G, Brillo E, Gerli S. Progesterone in normal and pathological pregnancy. *Horm Mol Biol Clin Investig.* 2016;27(1):35–48. doi:10.1515/hmbci-2016.

4. Taraborrelli S. Physiology, production and action of progesterone. *Acta obstetricia et gynecologica Scandinavica.* 2015;94(161):8–16. doi:10.1111/aogs.12771.

5. Vahobi HA, Fayed AA, Esmaeil SA, Bahkali KH. Tahdid qilingan abortni davolash uchun progestogen. *Cochrane ma'lumotlar bazasi tizimi Rev.* 2018; 8 : CD005943. doi: 10.1002/14651858.CD005943.pub5.

6. Abrar S, Abrar T, Tohir M, Sayyed E. Birinchi trimestrda tahdidli abortni davolashda vaginal progesteron bilan og'iz orqali qabul qilish samaradorligi. *J Med Sci.* 2017; 25 (4):

7. Lok IH, Neugebauer R. Psychological morbidity following miscarriage. *Best Pract Res Clin Obstet Gynaecol.* 2007;21(2):229–47.

8. Siriwachirachai T, Piriyasupong T. Effect of Dydro-gesterone on Treatment of Threatened Miscarriage: A Systematic Review and Meta-Analyses. *Thai J Obstet Gynaecol.* 2011;

9. Qureshi NS. Treatment options for threatened miscarriage. *Maturitas.* 2009;65(Suppl 1):

10. Kalinka J, Szekeres-Bartho J. The impact of dydrogesterone supplementation on hormonal profile and progesterone-induced blocking factor concentrations in women with threatened abortion. *Am J Reprod Immunol.* 2005;53(4):166–71.

11. Wahabi HA, Abed Althagafi NF, Elawad M. Pro-gestogen for treating threatened miscarriage. *Cochrane Database Syst Rev.* 2007;3:CD005943.

12. Wahabi HA, Fayed AA, Esmaeil SA, Bahkali KH. Progestogen for treating threatened miscarriage. *Cochrane Database Syst Rev.* 2018;

13. Abrar S, Abrar T, Tahir M, Sayyed E. Efficacy of oral with vaginal progesterone in the treatment of threatened miscarriage in first trimester. *J Med Sci.* 2017;25(4):407–410.

14. Haas DM, Hathaway TJ, Ramsey PS. Progestogen for preventing miscarriage in women with recurrent miscarriage of unclear etiology. *Cochrane Database of Systematic Reviews* 2018.

15. Marcinko VM, Marcinko D, Dordevic V, Oreskovic S. Anxiety and depression in pregnant women with previous history of spontaneous abortion. *Collegium Antropologicum* 2011;

16. Kasap E, Karaarslan S, Gen M, Gur EB, Sahin N, Guclu S. Xomilaning xromosoma anomaliyasi bilan homiladorlikning birinchi trimestridagi yo‘qotishlarda sitokinlarning roli. *Ginekol Pol.* 2015; 86 (11): 827–832. doi: 10.17772/gp/57827.

17. Kaur R, Gupta K. Endokrin disfunktsiya va takroriy spontan abort: Umumiy ko‘rinish. *Int J Appl Basic Med Res.* 2016; 6 (2): 79–83. doi: 10.4103/2229-516X.179024.

18. Coomarasamy A, Truchanowicz EG, Rai R. Birinchi trimestr progesteron profilaktikasi sababsiz takroriy abortlar bo‘lgan ayollarda tirik tug‘ilish darajasini oshiradimi? *BMJ.* 2011; 342 :d1914. doi: 10.1136/bmj.d1914.

19. Ayub M, Ibrohim AK, Kausar A, Fahad M. Sog‘liqni saqlash sohalarida abortni tahdid qilishda isbotlangan dalillar bilan progesteronning samarali roli. *J Med Res.* 2015; 1 (4):

20. Vang XX, Luo Q, Bai WP. Progesteronning xavf ostida bo‘lgan abortga ta’siri: dori turlarining farqi. *J Obstet Gynaecol Res.* 2019; 45 (4):

MULOHAZALAR VA PREDIKATLAR USTIDA AMALLAR MAVZUSI BO‘YICHA BA’ZI MASALALARNI YECHISHNING SODDA YO‘LLARI

Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Usmonova Sabohatxon Isroiljon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mulohazalar va predikatlar ustida amallar mavzusi haqida dastlabki tushunchalar va ularning bir biriga o‘xshash tomonlari, shuning bilan o‘quvchilarga qay usulda tushuntirish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mulohaza, predikat, tushuntirish, o‘xshashlik

SIMPLE WAYS OF SOLVING SOME PROBLEMS ON THE SUBJECT OF ACTIONS ON CONSIDERATIONS AND PREDICATES

ABSTRACT

This article explains the basic concepts of the subject of actions on considerations and predicates and their similarities, as well as ways.

Keys words: Considerations, predicate, explanation, similarity

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bugungi kunda yosh avlodni barkamol ruhda tarbiyalash, ularning yuqori salohiyatga ega bo‘lishini ta’minlashda umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim tizimiga bir qator muhim vazifalar qo‘yilib, hukumat qarorlari va prezident farmonlari qabul qilindi. Shu munosabat bilan prezident maktablari tashkil etilib, iqtidorli yoshlarni o‘qitish, ularga yuqori tezlikda bilim berish maqsadida xalqaro toifadagi mutahassislar jalb qilindi. Bunga yaqqol misol qilib, prezidentning 2020-yil 7-mayda "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tatqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi" qarori qabul qilindi.

Bunga ko‘ra: 2020-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tatqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli dasturi tasdiqlandi. Ya’ni har bir tuman (shaharda) matematika fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni bosqichma-bosqich tashkil etish nazarda tutilgan. Yurtboshimiz bizga shunday

imkoniyatlar yaratib beradigan bir paytda nega bu sharoitlardan foydalanmasligimiz kerak. Iqtidorli yoshlarga eng so‘ngi nomdor stipendiyalardan biri prezidentning "Muhammad al-Xorazmiy" nomidagi xalqaro mukofoti ta’sis etildi. Matematika sohasidagi fundamental va amaliy ilmy izlanishlari natijalariga ko‘ra amaliyotdagi muayyan muammoning yechimini taklif etgan olimlar u bilan mukofotlanadi.

Mantiq jarayoni turli matematik belgilar bilan ifodalashga intilish Arastu asarlaridayoq ko‘zga tashlanadi. XVl-XVll asrlarga kelib, mexanika va matematika fani rivojlanishi bilan matematik metodni mantiqqa tadbiq etish imkoniyati kengaya bordi. Nemis faylasufi Leybnits har xil masalalarni yechishga imkon beruvchi mantiqiy matematik metod yaratishga intilib, mantiqni matematiklashtirishga asos soldi. Mantiqiy jarayonni matematik usullar yordamida ifodalash asosan XlX asrlarga kelib rivojlana boshladi. Matematik mantiqning boshlang‘ich tushunchalaridan biri mulohaza tushunchasidir. Rost yoki yolg‘onligi bir qiymatli aniqlanadigan darak gaplar mulohazalar deyiladi. Har qanday mulohaza yo rost yoki yolg‘on bo‘ladi. Hech bir mulohaza bir vaqtning o‘zida ham rost, ham yolg‘on bo‘la olmaydi. So‘roq yoki his hayajon gaplar mulohaza bo‘la olmaydi. Rost yoki yolg‘onligi bir qiymatli aniqlanmaydigan noma’lum qatnashgan gaplar, ta’riflar ham mulohaza bo‘la olmaydi. Masalan: "2 soniga bo‘linuvchi son juft son deyiladi" degan ta’rif mulohaza bo‘la olmaydi. Ammo "agar butun son 2 ga bo‘linsa, u holda bu son juft son bo‘ladi" degan darak gap mulohaza bo‘ladi. Bu mulohaza—Rost

Masalan:"5>3"–rost mulohaza, "2×2=5"–yolg‘on mulohaza. Matematik mantiq fanini mulohazani bayon qilish emas, faqat rost yoki yolg‘onligi qiziqtiradi.

Rost mulohaza–"R" yoki "1", yolg‘on mulohaza "Y" yoki "0" bilan belgilanadi.

Predikatlar–o‘zgaruvchi qatnashgan va o‘zgaruvchi o‘rniga qiymatlar qo‘yilgandagina rost yoki yolg‘on mulohazaga aylanadigan darak gapga aytiladi. Predikatlar tarkibiga kirgan o‘zgaruvchi qabul qilishi mumkin bo‘lgan barcha qiymatlar to‘plami predikatning aniqlanish sohasi deyiladi. O‘zgaruvchi o‘rniga qo‘yilganda predikatni rost mulohazaga aylantiruvchi qiymatlar predikatning rostlik to‘plami deyiladi.

Masalan: A(x) predikatning aniqlanish sohasi X to‘plam bo‘lsa, rostlik to‘plami T(A) bilan belgilanadi. Misol uchun: A(x):"haftaning x kunidan keyin juma kun keladi". Bunda X ya’ni predikatning aniqlanish sohasi: X={dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, shanba, yakshanba} bo‘lsa, bu yerda rostlik to‘plami, ya’ni T(A)={payshanba} bo‘ladi. 4-sinf matematika darsligida mulohazalar mavzusiga quyidagi mulohazalarni keltirib o‘tgan.

•Toshkent–O‘zbekistonning poytaxti

•9+6=15 ekani noto‘g‘ri

•11 eng kichik ikki xonali son

Mulohazalarga x noma'lum qo'shsak predikatga aylanadi. Masalan:"Toshkent shahri–O'zbekistonning poytaxti" bu rost mulohaza. Buni predikatga aylantirsak A(x): "x shahar–O'zbekistonning poytaxti", bunda predikatning aniqlanish sohasi X={Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva} bo'lsa, rostlik to'plami T(A)={Toshkent} bo'ladi.

Mulohazalar ustida amallarga doir misollar.

1°.Mulohazalar inkori: A mulohaza inkori deb, A rost bo'lganda yolg'on, yolg'on bo'lganda rost bo'luvchi mulohazaga aytiladi.

Masalan:1°.A=eng kichik tub son ikki.

Uning inkori quyidagicha: Ā=eng kichik tub son 2 emas yoki eng kichik tub son 2 ekanligi yolg'on.

2°.A=hozir bahor fasli.

Ā= {hozir bahor fasli emas yoki hozir bahor fasli ekanligi yolg'on}

2°.Mulohazalar konyunksiyasi: Uning tarkibiga kirgan mulohazalar rost bo'lgandagina rost qolgan hollarda yolg'on bo'ladi. A/\B ko'rinishida yoziladi, "A va B" deb o'qiladi.

Masalan: 1°.A: "3^2=9 bo'ladi". Rost mulohaza (R)

B:"9 soni 15 sonining bo'luvchisi". Yolg'on mulohaza(Y)

A/\B:" 3^2=9 bo'ladi va 9 soni 15 sonining bo'luvchisi"–yolg'on mulohaza bo'ladi.

2°.A: " 2– tub son"—(R) B: "2<5"—(R)

A/\B: "2 tub son va u 5 dan kichik"—rost mulohaza (R).

3°. Mulohazalar dizyunksiyasi: Uning tarkibiga kirgan mulohazalarning hech bo'lmaganda bittasi rost bo'lganda, rost bo'ladi."AvB" ko'rinishida yoziladi,"A yoki B" tarzida o'qiladi.

Masalan: 1°. A:"Farg'ona davlat universiteti Farg'ona shahrida joylashgan"–Rost (R)

B:"Farg'ona davlat universiteti Toshkent shahrida joylashgan"–Yolg'on (Y)

AVB="Farg'ona davlat universiteti Farg'ona yoki Toshkent shahrida joylashgan"—Rost (R)

2°.A:"7 juft son–Yolg'on (Y) B:"2,5 butun son"–Yolg'on (Y)

AVB="7 juft son yoki 2,5 butun son emas"–Yolg'on (Y)

4°. Mulohazalar implikatsiyasi: Implikatsiya A rost B yolg'on bo'lgandagina yolg'on qolga hollarda rost bo'ladi. "A–>B" ko'rinishida yoziladi "Agar A bo'lsa, u holda B bo'ladi" deb o'qiladi.

Masalan:1° A:"yoz faslidan keyin kuz keladi"–rost **(R)**

B:"kuz fasli sentabr, aprel, noyabr oylaridan iborat"–yolg'on **(Y)**

A–>B :"Agar yoz faslidan keyin kuz kelsa, u holda kuz fasli sentabr, aprel, noyabr oylaridan iborat bo'ladi"–yolg'on **(Y)**

2°.A:"oxirgi raqami 0 yoki 2 bilan tugagan son 5 ga bo'linadi"–Y. B:"5 toq son"–R

A–>B: "Agar oxirgi raqami 0 yoki 2 bilan tugagan son 5 ga bo‘linsa,u holda 5 toq son bo‘ladi"–Rost **(R)**

5°.Mulohazalar ekvivalensiyasi: Ekvivalensiya A va B mulohazalarning qiymati bir xil bo‘lgandagina bo‘ladi. **A<–>B** ko‘rinishida yoziladi,"A faqat va faqat B bo‘lgandagina bo‘ladi "deb o‘qiladi.

Masalan:1°A:"5×5=20"–Y. B:"5+5=15"–Y.

A<–>B:"5×5=20 faqat va faqat 5+5=15 bo‘ladi"–Rost (R)

2°.A:"9 butun son "-R. B:"49 ni 9 ga bo‘lganda 3 qoldiq qoladi"–Y

A<–>B:"9 butun son faqat va faqat 49 ni 9 ga bo‘lganda 3 qoldiq qoladi"–Yolg‘on (Y)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi" qarori.

2. 4-sinf matematika darsligi N.U.Bikbayeva, E.Yangabayeva, K.M.Girfanova—O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi-2017

3. N.Hamedova, T.Tasetov “ Matematika kursi nazariyasining asoslari”

4. Toshboyeva, S. R., & Turg‘unova, N. M. (2021). THE ROLE OF MATHEMATICAL OLYMPIADS IN THE DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL CONSCIOUSNESS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 247-251.

5. Raxmonberdiyevna, T. S., & Shavkatjonqizi, S. M. (2021). Methods for the development of stochastic competence in mathematics lessons at school. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(5), 863-866.

6. Rahmonberdiyevna, T. S., & Soxibovna, A. M. (2021). Techniques for Teaching Elementary Students Rational Numbers and Convenient ways to Perform Operations on Them. *International Journal of Culture and Modernity*, *11*, 283-287.

7. Toshboyeva, S. R., & Shavkatjonqizi, S. M. (2021). Specific ways to improve mathematical literacy in the process of sending students to hinger education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(10), 234-240.

8. S.R.Toshboyeva “Competent approach in teaching probability theory and mathematical statistics” EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) November 2020.

9. Toshboyeva, S.R. (2020). “Competent approach in teaching probability theory and mathematical statistics” EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), November 2020.

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ «МАҲБУБ УЛ-ҚУЛУБ» (ҚАЛБЛАР СЕВГИЛИСИ) АСАРИДА УМУМПСИХОЛОГИК МУАММОЛАР

Мухтасам Вайдуллаевич Сулаймонов
Самарқанд давлат университети
Психология назарияси ва амалиёти кафедраси катта ўқитувчиси
e-mail: madatov.93@inbox.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асари асосида шахснинг умумий психологик талқини муаммолари кўриб чиқилади. Бундан ташқари, мақолада шахснинг ички дунёси ва унинг хатти-ҳаракатлари, шунингдек, унинг ҳаракатларининг олдини олиш ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Навоий, нафс, установка, вафо, қўрқув, май, этнопсихологик, регулятор.

ABSTRACT

In this article deal with about problems of general psychology and explane man by novel Alisher Navoi “Maxbub ul-kulub”. And else, in this article tat king about inside worlce the individ, and his discipline, also about analyzed his.

Key words: Navoi, nafs, ustanovka, fidelity, fear, may, ethnopsychological, regulator.

КИРИШ

Инсон руҳияти, шахс психологияси ва кишининг ботиний тафаккури ўзи бир олам. Бу оламни кашф этишга жамики зиёлилар асрлар оша интилиб келишмоқда. Ана шундай инсоният руҳий дунёсини адабиётда ўз талқинлари, тасвирлари ва эстетик ҳамда психологик образлари бўлиб, шундан келиб чиққан ҳолда, бадиий ижод психологияси тўғрисида фикр-мулоҳаза юритилганда, буюк сиймо, мутафаккир, маърифатпарвар инсон, давлат, жамоат арбоби Алишер Навоийнинг ижодига тўхталиш лозим. Зеро, Навоийни «…шу замонда – янги асрда ҳам замонавий шоир сифатида ёдга олинаётганлиги беҳикмат бўлмаса керак»[29].

[29] Ҳаққул Иброҳим. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007, 3-бет.

Алишер Навоий «Маҳбуб ул-қулуб» асарида ўша даврдаги барча ижтимоий гуруҳ ва табақаларга, касб эгаларига тасниф берар экан, хулқ-атворнинг яхши-ёмонлиги инсонийликка хос, халққа, мамлакатга фойдали ёки номақбул фазилатлар ҳақида батафсил тўхталиб ўтади. Ҳозирги кун инсонлари қиёфасини миллий(этно)психологик жиҳатларини теран идрок этган ҳолда сизу бизнинг «Мен»имизни монизм[30] тамойиллари асосида тасниф беради. Умумпсихологик, умуминсоний фазилатлар, характер белгилари, қалб, дил, кайфият ва бошқа руҳий жараёнлар тўғрисида чуқур мушоҳада юритиб, ўқувчини янада теранроқ англашга инсон қалбининг чексиз имкониятларини тушунишга ундайди.

«Инсон қалбининг қувончу қайғусини эзгулик ва ҳаёт мазмунини Навоийдек теран ифода этган шоир жаҳон адабиёти тарихида камдан кам топилади»[31] - дея таъкидлайди биринчи Призидентимиз И.А. Каримов. Биз тадқиқот мулоҳазаларимизга асосланган ҳолда Алишер Навоийни психология илмининг зукко вакили, назарий ва амалий тажрибалар умумлашмасини яратувчи, хаёл феноменлари тўғрисидаги ғояларни янги босқичга кўтарувчи шахслараро муносабатлар негизи ва манбасининг билимдони, чин маънодаги психолог олим деб аташ мақсадга мувофиқ.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

«Маҳбуб ул-қулуб» асарининг учинчи қисми «Турли фойдали маслаҳатлар ва мақолалар» деб номланиб, унда инсон, айниқса ҳозирги замон шахси учун ниҳоятда зарур бўлган меҳр–мурувват, поклик, яхши хулқ, эзгулик, илмга ташналик, зукколик, онглилик, донолик, дилкашлик, нафислик, иффатлилик, хушмуомалалик, назокатлилик, беғаразлик сингари кўплаб юксак инсоний умумпсихологик фазилатларини улуғлаб, айни вақтда ёмон, хунук инсонийликка хилоф хислатларни, инсон деб аталмиш олий зотга ярашиқсиз хулқ–атвор сифатларини ўз фикрлари билан чуқур ва пурмаъно сатрларда баён этиб психология фанининг обеъкти бўлган инсон муаммоси ҳақида чуқур ўйлашга мажбур қиладиган битиклар психология фанининг тезкор ўрганиши лозим бўлган долзарб муаммосидир.

Алишер Навоий мазкур асарида «Илм (мулойим табиатлилик)»[32] номли ҳикоятида «Илм – инсон вужудининг хушманзара мевалик боғидир ва одамийлик оламининг жавоҳирга бой тоғидир. Юмшоқ кўнгиллилик–ҳодисалар тўла денгиздаги кишилик кемасининг лангари деса бўлади ва инсоният қадрини

[30] Бетакрор, қайтарилмас
[31] А.И.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент: «Маънавият» нашриёти, 2008 й. 47 – бет.
[32] Алишер Навоий. «Махбуб ул- љулуб». Тошкент: Ђ.Ђулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1983 й. 65-бет.

ўлчайдиган тарозининг тошига тенглаштирса ҳам бўлади. Илм–ахлоқли одамнинг қимматбаҳо либоси ва кийим турларининг энг чидамли матосидир. У – ёмон нафсни дайди шамол учиришидан асрагувчи ва иккиюзлама мунофиқларнинг беҳуда ҳаракатидан ҳимоя қилувчи. Илм натижасида одам халойиқнинг иззат-ҳурматига сазовор бўлади; илм туфайли катталардан кичикларга илтифот ва марҳамат етишади. Катта кишилар ёшларни масхара ва кулги қилса улар қошида ўзи шунча обрўсиз ва бачкана туйилади; ёшлар ҳам катталарга нисбатан ҳазил ва енгилтаклик қилса унинг қошида уятсиз ва эътиборсиз бўлади. Бу давр боғининг хас-хашак сингари одамлари, шамолдек бетайин, енгилтак кишилар олдида илм аҳли гўё оғир табиатли ва ёмон феълли деб камситиладилар…

Оғирлик вазнидиндур сайлдан ғамсиз Ҳири тоғи
Енгиллик фартидин барбод эрур қамғоқ яфроғи

Ел – агар кўкка етса ҳам, барибир енгил қадрсиз; тоғ – агар тупроққа ботса ҳам салобатлидир. Елнинг орасида ўтга ёқиладиган хас хашаклар бор; илм мазмунида эса шоҳ тожига қадалгудай чўқ каби қизил лаъл бор.

Маълумки инсон фазилатларининг шаклланишида муайян психик фаолиятда яхлит объектив ва субеъктив мойиллик тарзидаги кўрсатма бериш психологик механизм негизида юзага келган автоматлашиш учун муҳим ахамият касб этади. Установка(йўналганлик) одатлардан фарқли ўлароқ муайян ҳаракатларга тайёр туришгина бўлмай, балки билиш жараёнларига ҳиссий ва иродавий реакцияларда ҳам тайёр туришдир.

Алишер Навоийнинг юқоридаги танбиҳи(ҳикояти)да инсон ички олами, мотивлари хулқ атворнинг нозик томонларини жуда усталик билан очиб берганлар катталарга ҳурмат кичикларга иззат ҳисси установка(йўналганлик)сини яратади ҳар бир жамиятда мавжуд бўлганидек шамолдек енгилтак одамлар ҳарактер хусусиятларини оғир табиатли ва ёмон феълли кишилар эканлиги хусусида ўз хулосаларини айтиш баробарида илм (мулойим табиат)ли одам-ларнинг ҳурматли, дидли, фаросатли, ўйлаб иш тутишларини кўрсатиб беради.

Характер хусусиятларининг ҳосил бўлишида низоли вазиятлар, айрим қарама-қаршиликлар ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Инсон характери хулқ–атвор шакллари фақат мураккаб ва кескин вазиятларда аниқ номоён бўлиб қолмай балки у мазкур холатларда ҳам таркиб топади. Одатда характер хислатларининг ўзгаришидаги индивидуал фарқлар шахснинг низоли вазиятдан чиқиши учун қандай йўл топишига, бинобарин, инсон шароитидан келиб чиқиб,

қандай хатти-харакатни амалга оширишга қарор қилишига боғлиқ. Шахс ўзининг бутун ҳаёти ва фаолияти давомида ўз хатти –харакатлари одатлари билан ўз ҳарактер хислатларини ўзи яратади ва уларни бошқаришга одатланади. Алишер Навоий «Маҳбуб ул-қулуб» асарида шу ҳодисотларни шамолнинг бетайинлиги тоғнинг виқори билан шамолга қарши туриши орқали ўт (олов)нинг хас-хашакни куйдириши мумкинлиги, лекин қуёш нурига тенг келолмаслиги юқоридаги танбиҳда қайд этади.

Аллома шу аснода инсон ҳарактердаги яхши фазилат белги-лари устун бўлса ёмон иллатлар ўз таъсирини йўқотишни таъкид-лайди. «Мақсадга номувофиқ, лекин шахс учун ўзига хос ҳаракат усулларини танлашда мойиллик кучли иродавий зўр бериш шароитида, жиддийлик вазиятларида ёрқин акс этади»[33]. Бу характернинг белгиларидан хисобланади. Адиб ўша замон ва маконда яшаб ҳозирги кун инсон психологиясини аниқ деталларда кўрсата олган.

Профессор С.Ғаниева фикрича, Алишер Навоий вафони таърифлар экан, сўзни унинг ўз замонида йўқолиб кетган бир мавҳум эканлигидан бошлайди. Вафо инсоният тожини безаб турувчи қимматбаҳо дур, одамийлик бошидаги ловуллаб турган гавҳарли тошдир. Вафо аҳлининг кўнгли пок, табиати покиза бўлади. Навоий вафо билан ҳаёни узвий боғлиқликда олади: «Ҳар кўнгилниким, - деб ёзади Навоий – вафо маскан қилур, ҳаё ҳам қилур ва ҳар маскандаким, ул топилур, бу ҳам топилур. Вафосизда ҳаё йўқ, ҳаёсизда вафо йўқ». Навоийнинг вафо ва ҳаё ҳақидаги қайта-қайта фикр юритиши уларни алоҳида турли масалалар билан боғлиқ ҳолда талқин этишидан кўринадики, булар шунчаки инсоний хислатлар бўлмасдан муаллиф тушунчасида ижтимоий – ахлоқий категориялар ҳамдир.

НАТИЖАЛАР

Шахс руҳий оламида, уни қуршаб турган теварак-атрофда содир бўлаётган ўзгаришлар кечинмалар субъекти инсон учун қанча қадр-қимматли ва юксак аҳамият касб этса, ҳиссий ҳолатларнинг мазмуни шунча пурмано бўлади. Бунинг таъсирида эса юзага келадиган муваққат боғланишлар тизимининг қайта қурилиши қўзғалиш жараёнини ҳосил қилади.

Маълумотларга қараганда, мия катта ярим шарлари шикастланса, ташқи оламдан ҳамда ички органлардан келадиган қўзғовчиларнинг нозик таҳлил қилиниши заифлашса ҳам эмоционал ҳолатлар сақланиб қолаверар экан. Психолог олимларнинг маълумотларига кўра миянинг муайян жойларида

[33] Э. Ғозиев. Психология. Тошкент: «Ўқитувчи» нашриёт-матбаа уйи, 2008 й. 169-бет

электрод ёрдамида биотокларни ёзиб олган маълумотларидан кўриниб турибдики тирик организмлар қаторида инсонда ҳам «роҳатланиш» маркази мавжуд. Шу марказда аксинча таъсир этиш жараёнида «ғазабланиш», «азобланиш», «қўрқув» ҳислари пайдо бўлади, демоқчи бўлган фикримиз шундан иборатки, масалан сурункасига спиртли ичимлик истеъмол қилувчи ёки наркотик моддаларни қабул қилувчи одамлар аввалига «роҳатланиш», «ҳузур топиш», «ердан узилиш» ҳисларини ўзларида пайдо қилишадида кўп ҳолларда инсонга номақбул бўлган жирканч ҳатти ҳаракатларни ҳатто жиноий ишларни содир этиб «азобланиш» ҳолатига тушадилар.

Бундай ҳолни ҳазрат Навоий «Маҳбуб ул-қулуб» асарининг учинчи қисми эллик олтинчи ҳикоятида қуйидагича келтирадилар. «Май ичиш-ҳақ ҳукми билан ман этилган, ҳар ҳолда уни тарк қилиш яхши.Ошкора ва кўп ичмоқ нотўғри: шарти –махфий ва оз ичмоқдир. Оз ичиш ҳикматга мувофиқ: махфий ичиш-ақлли кишилар ҳислати. Меъёрда ичиш-тани соғ одамларга жўшқинлик бахш этади: муттасил ичиш саломатликни кемиради. Ичкилик «ярамасликлар онасидир» (бунда аллома вафосизлик, кибрҳаволилик, ёлғончилик, жиззакилик, ҳудбинлик, ялқовлик, тажанглик, қатъиятсизлик, қўполлик, лоқайдлик, сурбетлик умидсизлик, бераҳмлик, иродасизлик, бадгумонлик, ёвузлик, золимлик, майдагаплик, ҳасадгўйлик, ҳиссиётга берилувчанликларини ҳисобга олган деб ўйлаймиз. С.М.) унга берилишга шу ҳислати боисдир. Қаттиқ ичувчи ичкиликка мағлуброқ: унинг ҳар қанча ёмонлиги кўриниб турса ҳам ичувчига севимлироқ (маълумотлардан миянинг тепалик ости қисмида(гипоталамус)ги марказлар роҳатланиш ёки азобланиш вазиятлари кўп марта такрорланса ҳам ҳеч ўзгармаслиги, лекин мия катта ярим шарлари пўстлоқ ости нерв тугунчалари бўйлаб ёйилган марказлар қўзғалиши натижасида эмоционал реакциялар кучланиши, ҳатто сўниши кузатилган. Бу воқелик шу билан изоҳланадики ақлий фаолият ва ахлоқий кечинмалар эмоционаллиги ва ўзининг ўзгарувчанлиги билан ажралиб туради. С.М.)

Бадмаст одам учун суринкали ичишдан не фойда? Одамийлик (андишалилик, беғаразлик, вафодорлик, виждонлилик, донишмандлик, дилкашлик, жозибадорлик, зеҳнлилик зеболик ижодкорлик ишчанлик, кечиримлилик, меҳрибонлик, назокатлилик, нафислик, олийҳимматлик, покизалик, сахийлик, содиқлик, фаоллик, шукр қила билишлик, эзгулик, қувноқлик ҳаётни сева билишлик, ҳушёрлик, ўз қадрини билишлик ва ҳ.к.С.М.)ни йўқотиш учун қадаҳ-қадаҳ заҳар ичиш қандай қоида? Ҳар қултумдан сўнг бадмастларнинг қиладиган ҳиргойилари телба итлар аккиллашидан (ҳайвонлар лимбик тизимга дўнг ости(гипоталамус) қисмига, кўриш дўнгларига йўналтирилган электр қўзғатувчиларга ретикуляр формациянинг

қўзғалишларига хурсандлик ёки диққинафаслик, дарғазаблик ёки қўрқоқлик, лаззатланиш ёки азобланиш, роҳатланиш ёки кўнгилхижиллик сифатида жавоб реакцияси ҳосил бўлади. С.М) нишона. Мастлар орасида бўлган ҳушёр – ҳушёрлар орасидаги маст билан баробар. Ҳаммага кўрсатиб ошкора ибодат қилиш ман этилган, модомики шундай экан ошкора гуноҳ қилиш мутлақо ярамайди.

Кимгаким, Ҳақ рўзи айлабдур тариқи офият,
Ошкора айламас не тоату не маъсиат.

Маъноси:
(Кимгаким Ҳақ саломатлик тариқини насиб қилган экан
ошкора тоат ҳам гуноҳ ҳам қилмаслиги керак)»[34]

МУҲОКАМА

Навоий ҳикоятларидан ниҳоятда нозик масалани англаган олим М.Муҳиддинов «Навоий назарида майга ружуъ қилиш жаҳолат ва нодонликнинг нишонаси инсоний фазилатлардан маҳрум.Ўз қадр-қимматини билмаган одамгина бу йўлга кириши мумкин. Одатда, манман, кибру ҳаво димоғини шиширган нодон кишилар кўпроқ шаробга ўч бўладилар. Уларнинг табиати май кўпигига қиёс этгулик: кўпик бир кўтарилиб, дарров йўқолгани каби сархуш кишининг ҳовлиқишлари, шердил бўлиб хезланиши бир дам хуруж қилиб, кейин сўниб қолади (ретикуяр формациянинг қўзғалиши С.М). Мастлик пайтида одамдаги ҳайвоний кучлар бош кўтаради, киши ўзини идора қилолмай, ношаъний қилиқлар кўрсатади. Шунинг учун А.Навоий майни барча ярамасликларнинг онаси-«уммул ҳабоис» деб эълон қилган «Жамъи ёмонлик андин мутавваллид бўлур» деб ёзади у Ҳусайн Бойқарога ёзган мактубларидан бирида»[35].

Навоий «Ани ичмак-жигар қонини ичмакдир ва мундин кечмак-бир жигар гўшасидан кечмакдир. Ул бирин ютмоқдин заҳр ютма, бу бирин сочмоқдин наслинг тухумни қурутма»[36] деб башорат қилади. Бу улуғ башоратнинг мисоли сифатида қавмимиздаги ичкиликка мойилликлари устун бўлган одамларни кўз олдингизга келтиринг. Ичкилик туфайли наслнинг бузилиши оқибатида ногирон фарзанднинг дунёга келиши, ёш оилаларнинг бузилиши, ҳар хил касалликларга

[34] А. Навоий «Махбуб ул-қулуб». Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги абадиёт ва санъат нашриёти, 1983 й. 79-80 бетлар
[35] М.Мухиддинов. Комил инсон – адабиёт идеали. Тошкент: «Маънавият» нашриёти, 2005 й. 109-бет
[36] А. Навоий. Асарлар. 15 томлик. 13-том. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги абадиёт ва санъат нашриёти, 1968 й. 79-бет

гирифтор бўлиш, эрта қариб қолиш, ака-укалар ўртасидаги нифоқ, фарзанднинг юзсизларча отага қўл кўтариши, онага ҳурматсизлик, аҳли аёли ёки шаърий эрига хиёнат, жамият нормал ижтимоий-психологик ҳаётига раҳна солиш, миллатимизга хос дилбандлик, бағрикенглик, саховатпешалик, закийлик, зийраклик, олийҳимматлилик сингари кўплаб этнопсихологик хулқ-атворларимиз дарз кетишишни келтириб ўтиш бугунги кунинг муаммосидир.

ХУЛОСА

Алишер Навоийнинг даҳо руҳшунос олимлигини ҳар бир мисра ва асарларида кузатиш мумкин, юқорида таҳлил қилишга ҳаракат қилган ҳикоят асносида Навоийнинг улуғворлигини яна бир бор ҳис этамиз, чунки ўша даврдаёқ бизнинг ҳозирги айрим жамиятга ёт ишларимизни кўриб тургандек (телепатия) инсонларни ичкилик–бу қотиллик, миллатнинг бадном бўлиши, касаллик, руҳиятнинг синиши, маънавиятнинг йўқолиши, маърифатнинг издан чиқиши, тўлақонли ижтимоий-психологик муҳитнинг ҳамда соғлом турмуш тарзининг бузилиши хулқ-атворининг ёмон томонга оғишини қайта-қайта таъкидлашни англаймиз.

Хулоса қилиб айтганда, юксак инсоний, умумбашарий ҳис-туйғулар фуқаролар ҳатти-ҳаракатларнинг, феъл-атворларнинг регулятори (бошқарувчиси) вазифасини бажара бошлаган дақиқалардан эътиборан умумий, ижтимоий-психологик негизларга асосланувчи оммавий ҳаракатлар, қарашлар, ғоялар, мотивациялар намоён бўлади ва ҳар бир инсонда шу умумият ишига ўзининг шахсий улушини қўшиш истаги, майли, хоҳиши вужудга келади.

Алишер Навоийнинг «Маҳбуб ул-қулуб» асарининг ҳар бир қисмида, ҳикоятларида инсонга хос умумпсихологик ҳолатларнинг ва шахс муаммоси, комил инсон муаммоси тўласинча мужассамлашган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Каримов, А. (2008) «Юксак маънавият-енгилмас куч». -Тошкент: Маънавият.
2. Навоий, А. (1983)«Маҳбуб ул-қулуб». -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
3. Ғозиев, Э. (2008) Психология. -Тошкент: Ўқитувчи нашриёт-матбаа уйи.
4. Муҳиддинов М, (2005). Комил инсон – адабиёт идеали. -Тошкент: «Маънавият».
5. Навоий, А. (1968) Асарлар. 15 томлик, 13-том. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
6. Ҳаққул, И. (2007) Навоийга қайтиш. -Тошкент: Фан.

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA SHAMOL MAROSIMLARI

Abduvahob Qayumov
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston
Email: abduvahob19810305@gmail.com

Dilobar Gafurova
Farg‘ona davlat universtiteti 1-bosqich magistri
Email: goldteacher.87@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada folklordagi shamol chaqirish va shamol to‘xtatish bilan bog‘liq marosimlar va ularning kelib chiqishiga oid qarashlar, turkiy xalqlarning shamol haqidagi mifologik tasavvurlari natijasida vujudga kelgan urf-odatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: folklor, marosim qo‘shiqlari, mifologik qarashlar, Choy momo, Haydar, Yalli momo, Ayyom ajuz.

WIND RITUALS IN FOLK ORAL CREATIVITY

ABSTRACT

In this article, we will talk about the rituals associated with the calling of the wind and the stopping of the wind in folklore and the views on their origin, the traditions that have arisen as a result of the mythological imagination of the Turkic peoples about the wind.

Keywords: folklore, ritual songs, mythological views, tea momo, Haydar, Yummy momo, Ayyam ajuz.

ОБРЯДЫ ВЕТРА В НАРОДНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье будут рассмотрены обряды,связанные с призывом ветра и остановкой ветра в фольклоре, и взгляды на их происхождение, а также обычаи, возникшие в результате мифологических представлений тюркских народов о ветре.

Ключевые слова: фольклор, обрядовые песни, мифологические воззрения, Чай Момо, Хайдар, Джалли Момо, Айям аджуз.

Xalq og‘zaki ijodi ma‘lum bir xalqning badiiy-ijodiy faoliyati natijasi bo‘lib, xalqning turmush tarzi va ijtimoiy hayotini o‘zida aks ettiradi. Xalq ijodiyoti doimiy ravishda soddalikdan mukammallikka qarab rivojlanib boradi. Xalq og‘zaki ijodi xalq qo‘shiqlari, tomosha san’ati, xalq o‘yinlari kabi ijodning ko‘pgina turlarini qamrab oladi va professional san’atning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. “O‘zbek folklorining so‘z san’atiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og‘zaki drama, maqol va hikmatli so‘zlar, avrash, olqish va qarg‘ishlardan iboratdir”.[37]

Xalq qo‘shiqlari - lapar, o‘lan, alla, mehnat, marosim va mavsum qo‘shiqlarini o‘zida jamlaydi. Bunday qo‘shiqlar turli an’ana va urf-odatlar, shuningdek, yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liq mehnat jarayonlari silsilasida yuzaga kelgan. Ya’ni, yozda qurg‘oqchilik bo‘lsa, yomg‘ir chaqirish marosimi o‘tkazilib, “Sust xotin” qo’shig‘i ijro etilgan. Bahorda “Laylak keldi”, “Boychechak” qo‘shig‘i; kuzda “Oblo baraka”, “O‘rim” kabilar kuylab kelingan. Bunday qo‘shiqlar, asosan, sodda, ixcham, xalqona til bilan yozilib, ularda uy-ro‘zg‘or ashyolari, tabiat hodisalaridan detal sifatida foydalanilgan. Masalan, shamol bilan bog‘liq bir qator marosimlar mavjud.

Dehqonchilikda shamol muhim amaliy ahamiyatga ega tabiat hodisasi sanalgan bo‘lib, dehqonga donni somondan ajratish uchun shamolning esishi zarur edi. Shamolning “egasi” borligi haqida qadimdan xalq orasida turli afsona va rivoyatlar bo‘lgan. Shu tufayli dehqonlar ota-bobosidan o‘rgangan marosimni bajarib “shamol egasi”dan najot so‘raganlar. Zero, o‘z vaqtida esgan shamol g‘allani somondan ajratishda dehqonga yordam bergan:

“Shamolingni qo‘yvor,
Somoni sendan,
Bug‘doyi mendan,
Haydaro, Haydar”.[38]

Marosimda shamol egasi Haydardan shamolni qo‘yib yuborishi so‘raladi. Afsonalarga ko‘ra Haydarning uzun sochlari Shamol somonni uchirishi shamolning ulushi, bug‘doyi dehqonga nasiba. Shu tarzda go‘yo shamol bilan bitim tuzadilar. Uning shiddatini kuchaytirish, shoshiltirish uchun “ bolang suvga oqdi, yugur ushlab

[37] M.Jo‘rayev,J.Eshonqulov.Folklorshunoslikka kirish.Toshkent,2008.3-bet
[38] M.Jo‘rayev. O‘zbek mavsumiy marosim folklori.Toshkent.2008.119-bet

ol”, yoki “o‘g‘ling kerak bo‘lsa, arqon olib yugur, qizing kerak bo‘lsa, ketmon olib yugur”[39] singari aytimlar ijro etilgan.

Dovul, quyun kabi kuchli shamolning vayronkor xususiyati esa turli mifologik qarashlarni yuzaga keltirgan. Garmselning ayni pishiqchilik vaqtida ekinlarni qovjiratib ketishi yoki dovul bog‘-rog‘larni payhon qilishini ana shu shamol egasining kayfiyatiga bog‘liq deb o‘ylab, muttasil esgan shamolni to‘xtatishni egasidan iltijo qilib so‘rashgan. Tabiat kul’tlariga sig‘inishning bunday ko‘rinishlaridan shamol chaqirish va shamol to‘xtatish marosimlari folklori kelib chiqqan. Mazkur marosimlar folklori B.Sarimsoqov tamonidan o‘rganilgan bo‘lib, bunda asosan, Haydar, Yalli momo bilan bog‘liq xalqona qarashlar tahlilga tortilgan. B.Sarimsoqovning fikriga ko‘ra, turkiy xalqlarda shamol egasini tasavvur qilishda ikki xil qarash mavjud. Farg‘ona vodiysida shamol homiysi keksa ayol ko‘rinishida tasvirlansa, voha taraflarda shamol homiysi sifatida Hazrat Aliga nisbat berilgan. Mulohaza qiladigan bo‘lsak, shamol homiysi singari mifologik personajlar islom dinidan avval ham mavjud bo‘lganini hisobga olib, turkiy xalqlarga islom dini kirib kelgachgina Hazrat Ali shamol egasi maqomida ko‘rila boshlagan deyish to‘g‘ri bo‘ladi.

Umuman, o‘zbek folklorida shamolning kelib chiqishi bilan bog‘liq bir qator afsonalar borki, bular tabiat unsurlari haqidagi mifologik tasavvurlarning in’ikosidir. Xususan , yerning osmon bilan o‘ralishi, osmonning to‘rt tarafi to‘rt xil rangda bo‘lishi, to‘rtta xudoning shamolga aylanib yer yuzini kezib yurishi haqidagi afsona fikrimizga dalilidir.

Ajdodlarimizning qadimgi mifologiyasida shamol tangrisi – “Vata” obrazi bo‘lib, u zardushtiylarning muqaddas kitobi Avestodagi shamol xudosi nomi bilan bog‘liq. Kushon davridagi Baqtriya tangalariga Vata(Vada)ning yopinchiqlari shamolda shishib, sochlari hilpirab turgan tasviri tushirilgan. Yana bir toshlavhada esa qo‘lida shamol to‘la qopni tutib turgan holda tasvirlanadi. Afsonaga ko‘ra, Vata o‘zining uzun sochlari yordamida shamolni boshqara olgan. Keyinchalik “Vata” atamasining tadrijiy davomi o‘laroq “Haydar” obrazi shakllandi. Haydarga shamol piri sifatida qaralib , undan shamol so‘rab iltijo qilingan:

“Haydar, ota-onang o‘libdir,
Moli senga qolibdir,
Bolang suvga oqibdir,
Shamolingni qo‘yivor.”[40]

[39] Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. 17-bet

[40] Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. 17-bet

Demak, Haydarni “shamol piri” sifatida ko‘rish “Avesto”dagi mifologik qarashlar borib taqaladi. aydar kul’ti bilan bog‘liq qo‘shiqlar orasida folklor yig‘uvchi Yo‘ldosh Sultonov tomonidan yozib olingan matn o‘zining badiiy jihatdan boshqalariga qaraganda mukammalroq ekani bilan ahamiyatli:

“G‘aramlarni yayratib, uvotga bosib qo‘ydim
Yelkasiga igna sanchib, qurbaqa osib qo‘ydim
Haydar, shamolingni olib kel!
Hovuzlar sasib ketdi, baqato‘n bosib ketdi
Boq, buva soqolidan bir tutam osib ketdi,
Haydar, shamolingni olib kel!”[41]

Qurbaqaga igna sanchib osib qo‘yilishi qurbaqaning an’anaviy quduq motiviga aloqadorligi, suv va xosildorlikka daxldor deb o‘ylanganligidadir. Ya’ni, qurbaqa shamol va suvni olib kela olishiga ishonish, jonivorni bunga majbur qilish va shamolni esishiga erishishdir. Shamolni chaqirish, chorlash bilan bog‘liq marosimlarda turli xil irimlar, iboralar ham ishlatilgan. Masalan, Buxoroning ayrim tumanlarida dehqonlar panshaxa bilan xirmon sovurayotganda shamol esmasa, hushtak chalib ,“Olala gajak kelaver”, deganlar. Shamol chaqirish marosimlari asosan, xosil yig‘imi vaqtida o‘tkazilgan. Shuningdek, shamolni qaytarish, to‘xtatish marosimlari ham borki, bunday udumlar daraxtlarning hosilini to‘kib yuboradigan, ekinlarga zarar yetkazadigan, chang-to‘zon ko‘tarib odamlarni bezdiradigan shiddatli shamolni to‘xtatish maqsadida o‘tkazilgan. Shunday marosimlardan biri “Choy momo” kul’ti bilan bog‘liq. Turli hududlarda “Chor momo”, “Chang momo” deb ham yuritilgan.

Xalqimizning shamol to‘xtatish bilan bog‘liq urf-odatlari zamirida ularning “Choy momo”ni “shamolga ta’sir etuvchi kuch, shamol egasi” degan mifologik e’tiqodlari o‘z aksini topgan. Bunday marosim folklori muayyan so‘z va harakatlar orqali tabiat kuchlarini boshqarish mumkinligi haqidagi qarashlarning natijasi o‘laroq vujudga kelgan. Bu qarashlar o‘z navbatida turli odatlarni paydo qiladi. Masalan, shamol yo‘ki dovulni to‘xtatish uchun yostiqqa igna sanchish, ko‘chaga uch bor sovuq suv sepish, yo‘l yuziga tuz sochish, shamol esayotgan tarafga qarab, “ajina shamol ket” kabi jumlalarni aytish odatlari bo‘lgan. Shamolni to‘xtatishini so‘rab, aytimlar aytib, “Choy momo”ga murojjat qilingan. Marosim turli viloyatlarda turli shakllarda tashkil etiladi. Masalan, ba’zi joylarda yettita qiz boshiga yopinchiq yopib bir kampir boshchilida “Choy momo” qo‘shig‘ini aytib uyma-uy yurishadi:

[41] M.Jo‘rayev. O‘zbek mavsumiy marosim folklori.Toshkent.2008.224-bet

“Choy moma, choy, choy, choy,
Chayilib qolsin bu shamol.
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol.
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin bu shamol.”[42]

Qo‘shiqda bu shamolning quv shamol, ya‘ni ayyor shamol ekani aytilmoqda. “Uga-uga beringlar, ugilib qolsin bu shamol”, ya‘ni ugilib qolsin-ovunib qolsin ma‘nosida tushuniladi. Go‘yo shamol g‘azabga mingan, shundan hammayoqni vayron, ostin-ustin qiladi. Uni ovutish,yupatib, jahlidan tushirish, tinchlantirish kerak. Qo‘shiqlardagi ritm va ohang shamolning shiddatiga mos ravishda aytilgan.

“Choymomolar o‘libdi,
O‘g‘li yetim qolibdi,
Choymomoning onasi
Amakimga boribdi”.[43]

Marosim davomida qizlarning yopinchig‘i ochilmasligi shart bo‘lib, agar yuzlari ko‘rinib qolsa, shamol kuchayib ketadi, degan aqida mavjud bo‘lgan. Bu o‘rinda “Yetti qiz” detali ahamiyatlidir. Marosimning genetik ildizlari “Yetti momo” kul’ti bilan bog‘lanib, bu bog‘lanishni yetti raqamining an’anaviyligi (yetti mo’jiza, yetti hazina, yetti vodiy) jihatidan qadimgi turkiy xalqlarning asotirlariga asoslanadi deyish mumkin. Shuningdek, marosimni bunday ko‘rinishini kampirning yetti qizi haqidagi qadimgi Tatar afsonasiga bog‘liq degan qarashlar ham bor. Afsonaga ko‘ra, kampirning oqsoq qizi tarbiyasiz bo‘lib, uning olti opasi oqsoq qizdan doim qochib yuradilar. Ular qochganda ro‘mollarining hilpirashi shamol bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Ayrim manbalarda “Choy momo” obrazi “Chuy momo” (shamol momo), “Yalli momo” (yelli momo), obrazlarining aynan o‘zi deb talqin qilinadi. Ammo “Yalli momo” ni yovuz kuch, ofat keltiruvchi sifatida tasavvur qilinishi kuchli bo‘lgan. Qattiq shamolni to‘xtatish maqsadida o‘tkaziladigan “Yalli momo” marosimi ham “Choy momo”dan farq qiladi. Garchi marosimlarning o‘tkazilishidan ko‘zlangan maqsad bir bo‘lsada, ularni o‘tkazish tartibi turlicha. “Yalli momo” marosimida kuchli dovul yoki quyunni tindirish maqsadida kampirlar eski-tuskilardan qo’g’irchoq yasaganlar. Uni oq matoga o‘rab uylarga kirib qo‘shiq aytganlar:

[42] B.Sarimsoqov,O‘zbek marosim folklori.Toshkent,1986.16-bet
[43] B.Sarimsoqov,O‘zbek marosim folklori.Toshkent,1986.16-bet

“Yalli momo, yalli-yo,
Yalli momo o‘ldiyo,
Quduq suvi topolmay,
Sirka bilan yuvdigo
Bo‘zdan kafan topolmay
Bo‘yra bilan ko‘mdigo!”

Uy egalaridan yig‘ilgan un,yog‘ga bo‘g‘irsoq, qatlama, chalpak kabilarni pishirib, “shamol oshi” qilib, bolalarga tarqatganlar. Marosim so‘nggida latta qo‘g‘irchoqni oxurga ko‘mganlar. Bunday xatti-harakatlar zamirida inson hayotiga havf soluvchi yovuz ruhlar haqidagi mifik tasavvurlar yotadi. Ya’ni, molxona, otxonalar qora kuchlarning makoni hisoblanib, oxur esa ular yashirinadigan joy deb qaralgan. Qo‘g‘irchoqni ko‘milishi bilan bog‘liq xalq orasida afsona ham bor. Unda aytilishicha, qattiq shamol hamma narsani uchirib keta boshlagach, bir ayol bolasining qo‘g‘irchog‘ini shamol olib ketmasin deb yerga ko‘mib qo‘yadi. Shunda birdan shamol tinib qolgan emish.

Shamolning yana bir nomi “Ayyom ajuz”dir. Afsonaga ko‘ra, Ayyom ajuz g‘orda yashagan va shamolni g‘ordagi qopiga qamab qo‘yarkan. U uxlagan paytda o‘g‘illari Axman bilan Daxman shamol qamalgan qop og‘zini ochib yuborishar, shundan qattiq shamol boshlanarkan.

Bunday afsonalar qadimgi turkiy xalqlar orasida mashhur bo‘lgan. Ular inson hayotiga xavf soluvchi tabiiy ofatlar haqidagi mifik tasavvurlar natijasida vujudga kelgan va hozirgacha ba’zi shakllarda saqlanib qolgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Haydar, Choy momo, Yalli momo, Ayyom ajuz kabi mifologik personajlarga qadimda ajdodlarimiz tamonidan shamol egasi, shamol homiysi sifatida qaralgan. Ular haqida turli afsona va asotirlar to‘qilib, ularda tabiat unsurlari muayyan magik kuch egasi darajasiga ko‘tarilgan.. Bu xildagi qarashlar, albatta , qadimda tabiat bilan bog‘liq bilimlarning bo‘lmagani, insonlar shamol, dovul, yomg‘ir, toshqin kabi hodisalarni anglay olmaganliklari, ularga yovuz yoki ezgu kuch deb qarashlari natijasida vujudga kelgan. Bunday tasavvurlar davomiy ravishda ular bilan bog‘liq marosimlarning o‘tkazilishida muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi davrga kelib zamonaviy adabiyotda yaratilayotgan lirik va epik asarlarda ham shamolning detal va obraz sifatida turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov.Folklorshunoslikka kirish.Toshkent,2008
2. M.Jo‘rayev. O‘zbek mavsumiy marosim folklori.Toshkent.2008
3. B.Sarimsoqov,O‘zbek marosim folklori.Toshkent,1986

ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Халбаева Гулноза Аршидиновна
Докторант Самаркандского государственного университета
xolboyevagulnoza@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена психологическим проблемам подготовки детей дошкольного возраста к школьному образованию, в статье представлена информация о роли дошкольных образовательных учреждений в формировании здорового, всестороннего развития ребенка, повышении его интереса и мотивации к получению знаний. Кроме того, в статье были рассмотрены вопросы игровой деятельности, рисования, изготовления предметов и повседневного общения, возникающие в различных видах деятельности, а также пути расширения знаний и навыков ребенка, развития детского мышления посредством различных интерактивных упражнений и возникающие в этом проблемы.

Ключевые слова: дошкольное образование, ребёнок, личность, интеллект, инновация, мотивация, знания, умения

ABSTRACT

This article is devoted to the psychological problems of preparing preschool children for school education.the article provides information about the role of preschool educational institutions in the formation of a healthy, comprehensive development of a child, increasing his interest and motivation to acquire knowledge. In addition, the article discussed the issues of play activities, drawing, making objects and everyday communication that arise in various activities, as well as ways to expand the knowledge and skills of the child, the development of children's thinking through various interactive exercises, and the problems that arise in this regard.

Keywords: preschool education, child, personality, intelligence, innovation, motivation, knowledge, skills

ВВЕДЕНИЕ. Важнейшей задачей системы дошкольного образования является всестороннее развитие личности ребенка и подготовка детей к школе. Подготовка детей к школе - проблема сама по себе не новая, и на сегодняшний день, в дошкольных учреждениях есть все условия для решения педагогических

и воспитательных задач. Однако решение вопроса подготовки детей к школе связано с переходом начальной школы на четырехлетний период обучения, что требует согласованных изменений в организации преемственности в детском саду и школьной работе.

Здесь естественно возникает вопрос, какие компоненты входят в комплекс «подготовки к школе». Это в первую очередь мотивационная, личная подготовка, включающая «внутреннее состояние» учеников, сильную интеллектуальную подготовку, а также координацию с наглядными пособиями, достаточный уровень физической подготовленности. Неотъемлемой частью является всестороннее образование, включая умственное, духовное, эстетическое и трудовое. Таким образом, ребенок, поступающий в школу, должен иметь определенный уровень развития познавательных интересов, желание и умение общения социуме и изменяться, а так же желание учиться. Кроме того, он должен быть готовым к сотрудничеству, владеть техникой саморегуляции, и иметь личностную позицию. Сочетание этих психологических особенностей и качеств, по мнению ученых, способствует психологической подготовке к школе.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ. В работах ряда зарубежных ученых исследованы многие вопросы, связанные с проблемами развития психологической готовности детей к школьному образованию. В частности, общие аспекты особенностей психического развития детей старшего дошкольного возраста (П.П.Блонский, 1997; Л.С.Выготский, 1983; В.В.Давыдов, 1986; Э.Эриксон, 1993; Дж.Пиаже, 1969; и др.); содержательные и структурные аспекты психологической подготовки детей к школьному обучению (М.Р.Битянова, 1998; А.Л.Венгер, 1988; Н.И.Гуткина, 1996; И.В.Дубровина, 1991 и др.), структурно-практические основы формирования психологической готовности старших дошкольников к школьному образованию. (М.Дональдсон, 1985; А.Н.Леонтьев, 1975; С.Л.Новоселова, 1978; С.Л.Рубинштейн, 1989; и др.); гуманистические основы развивающего обучения ребенка (Е.Н.Волкова, 1992; Н.Ф.Виноградова, 2000; М.Монтессори, 1997; К. Роджерс, 1995; и др.) [1].

Как показывает нам анализ научной литературы, несмотря на множество исследований, многие вопросы, касающиеся проблемы готовности детей к школьному обучению, остаются без научно исследовательского внимания.

Подготовка детей к школе, во-первых, воспитательная работа в детском саду, обеспечивающая высокий уровень общего, всестороннего развития дошкольников, во-вторых, специальная подготовка детей к усвоению предметов, которые необходимо освоить в начальной школе, подразумевает соответствие

современной психолого-педагогической литературе (А.Б.Запарожец, А.А.Венгер, Г.М.Лямина, Г.Г.Петрогенко, Ю.В.Тарунтаева и др.) Понятие подготовки определяется, как развитие личности ребенка и делится на два взаимосвязанных аспекта: «Общая психологическая подготовка к школе» и «Специальная подготовка».

Так, исследовательница Н.Гуткина подчеркивает огромную роль в подготовке детей к школе. Особое внимание автор уделяет дисциплине, несоблюдение которой является предпосылкой трудностей, встречающихся в школьном образовании. Первоклассники, готовящиеся к школе, должны иметь образовательную мотивацию, состоящую из образовательных и социальных причин для обучения. Цель обучения, по мнению автора, это умственное развитие дошкольника, а потому подразумевает, что в самом широком смысле для обучения существует необходимый и достаточный уровень интеллекта [2]. С точки зрения А.Л.Венгера, готовность к школе характеризуется не простой суммой интеллектуальных, мотивационных, эмоциональных и других достижений, а регулирование конкретных видов деятельности, которые следует рассматривать как целостное образование, в котором компоненты могут быть условно разделены. К ним относятся: реагирование ребенка на замечание взрослых и выполнение определенных задач, развитие механизмов анализа конкретной ситуации и разработки плана действий в чрезвычайных ситуациях, механизм саморегуляций и т.д. [3]. Однако, как уже отмечалось, нет единого и однозначного мнения по рассматриваемому вопросу, несмотря на множество существующих определенных подходов в изучении современной психологии при рассмотрении психологической подготовки к школьному образованию.

Формы обучения детей дошкольного возраста направлены не на достижение результатов, а на формирование знаний, навыков и умений. Эта цель определяет его главную особенность.

Однако любопытство еще не гарантирует, что ребенок готов читать и систематически учиться. Интерес к тому или иному событию у ребенка возникает быстро и тоже быстро исчезает, либо переходит в другой интерес. Из приведенного выше списка вопросов ясно, что ребенка интересуют события, относящиеся к разным областям действительности. Согласно разработанному стилю, образование требует постоянного интереса к конкретным видам и аспектам мероприятий. Такие явления составляют содержание таких образовательных наук, как математика, родной язык, биология и других.

Наблюдения показывают, что дидактические игры (лотерея, умение рисовать разные фигуры из кубиков с картинками, чисел, мозаики, шашек, пазлов и т.д.) более эффективны в обучении в дошкольном возрасте, чем простой

метод домашнего задания. Лидерские, дидактические игры часто помогают развить навыки и мышление, связанные с разными задачами. В этом смысле дидактические игры являются одним из инструментов подготовки большой группы детей к школьным занятиям. Однако следует отметить, что чтение детей не является прямым результатом дидактических игр. Но в то время как дидактическая игра преобладает в младшем и старшем школьном возрасте, эта разница значительно сокращается в старшем детском возрасте. Это показатель того, что способность детей принимать учебные задания увеличивается. Это означает, что дети начинают обращать внимание на способы выполнения действий, и они начинают понимать содержание учебных заданий. Они сознательно пытаются освоить эти методы. Дошкольники учатся проводить целенаправленные наблюдения, описывать предметы, сравнивать и группировать их, рассказывать истории и картинки, связывая содержание, находить арифметические задачи, находить решения и т.д. Важно, чтобы задания выполнялись правильно и выполнялись требования взрослых. В таких случаях дети часто просят взрослых оценить правильность того или иного учебного задания. Например, дети школьного возраста в процессе обучения точному описанию дистанционной связи неоднократно спрашивают воспитателя: «Извините, то, что я рисую, похоже на это?»; «Действительно ли, угол должен совпадать с углом, который должен быть на другой стороне треугольника?»

В дошкольном возрасте у ребенка расширяется область его свободного передвижения. Это очень важно для развития мышления. Дошкольники также начинают интересоваться внутренними свойствами вещей по мере того, как они узнают больше на своем опыте. Так что у них возникает много вопросов: что это? почему это? кто это сделал? откуда это взялось? кто это делает? Это так же закладывает основу для активного и быстрого развития мышления детей.

Есть несколько причин, по которым дети задают очень интересные вопросы:

1) дети отражают вещи и события вокруг себя такими, какие они есть, то есть в целом, как на картинке;

2) не способны глубоко анализировать и синтезировать связь и причинность между вещами и событиями;

3) они не имеют и не содержат научных представлений о различных природных и социальных явлениях;

4) у детей очень мало жизненного опыта.

Наиболее частые проблемы детей детсадовского возраста сегодня следующие:

1. Уровень умственного развития ребенка не соответствует возрастной норме, т.е. трудности развития: память, плохое внимание и т. д.

2. Подготовка к школе. Проблема здесь в том, что родитель решил отдать ребенка в школу с 6 лет, и в связи с этим ребенок может хорошо учиться в школе, а может и не успевать.

3. Проблемы межличностного взаимодействия на негативное развитие личности ребенка.

4. Неспособность ребенка планировать, управлять и оценивать собственные действия. Конфликт между родителем и ребенком.

5. Адаптация ребенка к детскому учреждению.

Если мы хотим решить перечисленные выше общие проблемы, то нам нужно в совершенстве изучить личность детсадовского возраста. Потому что коррекция умственного развития детей детсадовского возраста включает в себя задачи по развитию интуиции и познавательных способностей. Рисование, изготовление различных вещей из тарелки, аппликации и конструирование широко используются у всех детей. Развитие познавательных мотивов в коррекции мышления детей дошкольного возраста, а также развитие образного мышления играют важную роль в сюжетных и ролевых играх, играх по правилам.

Главной целью констатирующей части нашего исследования, заключается в изучении особенностей психологической готовности детей к обучению в «Школе будущего первоклассника» (ШБП). Цель конкретизирована в следующих задачах:

1. Систематизировать основные современные методики диагностики психологической готовности детей к обучению.
2. Изучить особенности состояния здоровья детей на момент поступления в ШБП, а также индивидуальные особенности развития их психики при переходе от старшего дошкольного к младшему школьному возрасту.
3. Исследовать основные характеристики семейных групп (состав семьи, количество детей в семье, и т.д.) детей, участвующих в эксперименте, особенности психолого-педагогических условий среды воспитания и развития дошкольников.
4. Экспериментально определить критерии, определяющие уровень модели развития психологической готовности детей к обучению в старшем дошкольном возрасте.

В настоящее время существует множество методик, позволяющих зафиксировать или количественно оценить отдельные показатели психофизиологической и функциональной зрелости организма ребенка. Имеет

смысл рассмотреть те варианты психодиагностики, которые существуют в сегодняшней практике школьных психологов. Все это многообразие столь же велико, как и программы по подготовке детей к обучению в школе. В результате нами проведенного анализа, можно выделить:

а) поверхностное тестирование, которое имеет цель отбора наиболее «перспективных» и талантливых детей в первый класс;

б) углубленное психодиагностическое обследование с целью изучения особенностей психического развития каждого ребенка к моменту начала обучения в школе и выработки индивидуального подхода в подготовке его к школьному учебному процессу, разработки совместно с родителями и педагогами начальной школы программы работы с ребенком.

Нужно отметить, что при этом практически отсутствуют комплексные критерии, позволяющие дать оценку индивидуальных особенностей функционального развития детей и прогнозировать школьные трудности.

Существующие методики диагностики готовности к обучению классифицируют преимущественно внешние проявления и отдельные симптомы без учета индивидуального развития ребенка, его здоровья, функционального состояния и т.п. Авторы почти не выделяют глубинных причин, а так же не разделяются первичные и вторичные дефициты развития. Основное внимание уделяется тем симптомам, которые доминируют при оценке степени готовности или неготовности конкретного ребенка к обучению. Однако при одних и тех же симптомах глубинные причины могут быть различными. Практически сложно сделать даже ближайший прогноз успешности обучения.

Существуют разные виды прогнозирующих методик, выделяющих факторы риска в развитии ребенка. На наш взгляд наиболее удачным вариантом следует считать вариант, включающий:

-анализ раннего развития и состояния здоровья по результатам анкетирования и индивидуальной беседы с родителями;

-анализ показателей произвольности детской деятельности, уровня развития волевой сферы ребенка, включающего самоконтроль или саморегуляцию;

-анализ школьно-значимых показателей психического развития (развитие мотивационной сферы ребенка, наличие комплекса познавательных действий, развитие социальных действий ребенка и т.д.).

Л.С.Выготский не считал диагностику развития ребенка самоцелью: «диагностическое исследование в целом описывает как бы круг, который начинается с установления симптомов к процессу, лежащему в их основе» [6]. Такой «диагноз» должен быть основой прогноза, т.е. умения предсказывать путь и характер детского развития, что необходимо педагогу для построения

эффективной системы обучения.

Разрабатывая диагностику психического развития детей, Д.Б.Эльконин (1989) указывал, что необходима специальная диагностика, направленная не на отбор детей, а на контроль за ходом их психического развития с целью коррекции обнаруживаемых отклонений. Взяв за основу эту мысль ученого, мы построили собственный диагностический, включающий в себя несколько этапов: входную диагностику, наблюдение и сбор информации о ребенке в процессе работы на развивающих занятиях, беседы с ребенком и родителями, выходную диагностику при выпуске детей из «Школы будущего первоклассника».

РЕЗУЛЬТАТЫ. Диагностический комплекс для изучения особенностей психологической готовности детей к учению, представленный набором адаптированных целям нашего исследования методик, осуществлялся в двух формах:

а) в виде индивидуальных занятий психолога и педагогов начальных классов с ребенком;

б) в форме групповых игровых занятий.

Кроме того, активно использовался метод наблюдения различных проявлений детской психики, а также метод беседы с родителями и детьми.

В констатирующей части нашего исследования принимали участие дети дошкольного возраста в количестве 58 человек, родители детей - 53 человека, а также медицинский персонал школы. Состояние здоровья детей на момент начала экспериментальной работы изучалось по результатам анализа медицинских документов (карты развития ребенка) и на основании обобщения материалов, полученных в беседах с медперсоналом ШБП, родителями.

Таблица № 1

Сведения о состоянии здоровья детей, участвовавших в экспериментальной работе (данные представлены на начало работы «Школы будущего первоклассника»)

Характеристика детей	Абс.	%
Дети с нарушениями нервной деятельности	**20**	**34**
Дети с хроническими заболеваниями	**5**	**8**
Дети, часто болеющие	**21**	**36**
Дети редко болеющие	**7**	**12**
Практически здоровые дети	**5**	**10**

Анализируя данные, представленные в таблице № 1, можно отметить

следующее. Состояние физического здоровья детей на достаточно низком уровне: детей, болеющих часто и хронически больных составляет в общей сложности 70 %. Характер заболеваний таков: ОРВИ, болезни легких, дефицит веса, избыток веса (нарушения процессов обмена), психосоматические заболевания и др. Особую группу составляют дети с нарушениями нервной деятельности (8%). Среди них: дети с последствиями родовых травм («быстрые роды», роды с хирургическим вмешательством, «медленные роды»), дети с нарушениями нервной деятельности вследствие перенесенных заболеваний на первом году жизни и др. Нарушения нервной деятельности выражены: повышенной возбудимостью, особенно в ситуация, характеризующейся новизной, сложностью, в любых произвольных актах поведения, малая выносливость (низкая работоспособность). Это отражает ту ситуацию, которая сложилась в нашем обществе со здоровьем детей на сегодняшний день. Эту тенденцию необходимо учитывать при разработке содержания школьного педагогического процесса.

Таблица № 2

Особенности семейной среды.

Характеристики семейной среды		**Абс.**	**%**
Неполные семьи	**С мамой**	**25**	**43**
	С папой		
Полные семьи		**33**	**57**
Всего семей		**58**	**100**

Таблица № 3

Сведения о количестве детей в семье.

Характеристики семьи	**Абс.**	**%**
Семьи с одним ребенком	**36**	**62**
Семьи с двумя, тремя детьми, из них	**22**	**38**
семьи с "поздними" детьми	**13**	**22**
Общее количество семей	**58**	**100**

Информация о семейной ситуации у детей, участвовавших в эксперименте, показана в таблице 2, 3. Как видно из таблицы, очень высок процент детей из неполных семей - 43 %. Дети в этих семьях, в основном, живут с мамой и бабушкой. Некоторые иногда встречаются с папой, у большинства детей (87 %) нет сестер и братьев. Всего семьи с одним ребенком составляют 62 %. Данные наших наблюдений, бесед с родителями, детьми позволяет высказать

суждение о том, что характер семейных отношений, в целом, позитивный. Дети хорошо отзываются о родителях. Родители знают детские потребности, заинтересованы в разрешении насущных детских проблем, выражают желание помочь учителю и психологу в работе с детьми Кроме этого, была собрана информация о посещении нашими дошкольниками дошкольных учебных заведений до начала занятий в ШБП. Результаты представлены в таблице 4.

Таблица № 4

Сведения о посещении детьми дошкольных учебных заведений до начала занятий в «Школе будущего первоклассника».

Характеристики детей	Абс.	%
Дети, посещающие детский сад	**41**	**72**
Дети, не посещающие детский сад	**17**	**28**
Общее количество детей:	**58**	**100**

Данные таблицы свидетельствуют о том, что 28 % детей не посещали детский сад до прихода в «Школу будущего первоклассника», этот факт необходимо было учитывать как практическому психологу, так и педагогам при проведении индивидуальных и групповых занятий с детьми.

Вся собранная нами информация о детях в «Школе будущего первоклассника» легла в основу карты развития ребенка, которая заполнялась как психологом, так и учителями начальных классов в процессе работы с детьми в ШБП. Сведения об индивидуальных особенностях воспитания и развития ребенка до поступления в ШБП необходимы для разработки содержания учебно-воспитательного процесса как в период, предшествующий систематическому обучению, так и в период дальнейшего обучения в начальной к школе.

ОБСУЖДЕНИЕ. Для развития дошкольного образования необходимо реализовать:

- приоритетную подготовку квалифицированных воспитателей и учителей;
- поиск и внедрение эффективных психолого-педагогических методов дошкольного образования;
- организационное, психологическое, педагогическое и методическое обеспечение семейного воспитания детей;
- разработка и производство современных учебных пособий, оборудования, игрушек и игр;
- создание условий для духовно-нравственного воспитания дошкольников на основе богатого культурно-исторического наследия народа и общечеловеческих ценностей;

- подбор программ в разных вариантах для разных типов дошкольных учреждений, возможность оказания квалифицированных консультационных услуг по всем вопросам дошкольного образования;

- разработка механизма поддержки и развития сети дошкольных образовательных и медицинских учреждений.

Подготовка к школе предполагает определенный уровень умственного развития, а также формирование необходимых характеристик личности дошкольника. В этом контексте, ученые проводят различие между интеллектуальной и личной подготовкой ребенка к школе. Так же, ребенку необходим определенный уровень развития социальных мотивов личности и нравственных особенностей личности этого возраста. По мнению многих исследователей и экспертов, психологическая подготовка к школе отражается на формировании базового менталитета детей: мотивационного, духовного, сильного, интеллектуального, обеспечивает успешное преподавание учебных материалов в целом. Модернизация образования - это не решение проблемы формирования знаний, навыков и умений в учебно-воспитательном процессе. Спектр подготовки ребенка к школе должен быть намного шире и новаторски.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Формирование следующих тенденций в этом диапазоне и построенных на них позитивных процессов гарантирует, что ребенок успешно преодолеет не только педагогические, но и психологические проблемы в начальной школе:

- новаторский подход родителей;

- системный учебный процесс по ДО в инновационной системе:

Конечно, психологу ДО следует использовать социальные навыки, направляя свою деятельность на маленького человека.

Новаторский подход родителей заключается в том, чтобы:

- познакомить родителей с интернет - материалами при подготовке ребенка к школе;

- углубленное знакомство и использование специальной литературы;

- консультация психолога;

- создание здорового образа жизни в семье и др.

Систематический (постоянный) образовательный процесс в ДО в инновационной системе подразумевает следующие педагогические формы:

- Рассмотрение лучших и инновационных сценариев подготовки детей к школе в ДО и стимул;

- конкурс среди сотрудников ДО на самые полезные и инновационные технологии;

- частое знакомство с мнением родителей;
- обогащение внутренней концепции родителей, психологов, педагогов, администрации на инновационной основе;
- тренинги с родителями и др.

Для изучения психологической готовности ребенка необходимо определить различные ее аспекты: мотивационную, интеллектуальную и психологическую готовность, отношение ребенка к учителю, как взрослого с особыми социальными функциями, а так же необходимые формы общения со сверстниками.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Алферов, А.Д. Психология развития школьник . Изд-во: Феникс, 2001. 384 с.
2. Гуткина Н.И. Психологическая подготовка к школе. - М. НПО "Образование", 1996. 67 с.
3. Венгер, А.Л., Поливанова, К.Н. Особенности принятия учебных заданий детьми шести лет // Вопросы психологии: науч.жур.- М.: 2003.- №4. 46-48 с.
4. Богданова Т.Г. Диагностика когнитивной сферы ребенка. - М.: рос педагенство, 1994. 54 с.
5. Выготский Л.С. Вопросы детской психология // СПб., - М., 1997. 5 с.
6. Бабкина, Н.В. Оценка психологической готовности детей к школе: учебное пособие для психологов и специалистов коррекционно-развивающего обучения / Н.В. Бабкина. — М.: Айрис-пресс, 2005.-144с.

ОСОБЕННОСТИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Номозова Розия Омоновна
Магистрант 2 курса Московского института психоанализа
nomozovarozia@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье речь идет о динамике психике у подростков и их уровне выносливости к стрессу.

Ключевые слова: стресс, стессоустойчивость, соматика, дистресс, организм, антистресс, подростковом возраст.

ABSTRACT

In this article we will talk about the dynamics of mood swings in adolescents and their level of endurance to stress.

Key words: stress resistance, somatics, distress, body, anti-stress, adolescence.

ВВЕДЕНИЕ. В первой половине XX столетия в одном из европейских журналов от 4 июля 1936 года в разделе «Письма к редактору» появилась небольшая заметка молодого ученого Ганса Селье. Заметка состояла всего из 74 строчек и называлась «Синдром, вызываемый разными повреждающими агентами». Именно эта статья означает начало концепции стресса. Чуть позже американец Уолтер Кэннон в своих классических работах по универсальной реакции «бороться или бежать» ввел термин «стресс» в физиологию и психологию.

Стресс (от англ. stress - нагрузка, давление, напряжение) - неспецифическая (общая) реакция организма на воздействие (физическое или психологическое), нарушающее его гомеостаз, а так же соответствующее состояние нервной системы организма (или организма в целом.

Подростковый возраст характеризуется бурным психофизиологическим развитием и перестройкой социальной практики ребенка, что необходимо учитывать при рассмотрении проблемы стрессоустойчивости. Эта проблема связана со стратегиями, предполагающими активные формы совладания со стрессом, которые могут быть найдены в анализе психических и социальных механизмов реагирования на стрессор.

Психодинамическая характеристика реагирования на стрессор. Одна из

главных функций психики - уравновешивание процессов организма и постоянно изменяющихся условий внешней среды. Рассматривая взаимосвязь динамических характеристик подростка и стрессоустойчивость, важно отметить, что любые преобразования одновременно затрагивают соматику и психику человека. Динамический отклик на стрессор у подростка может иметь стенические и астенические черты, являясь индикатором низкой стессоустойчивости. Подростки с подвижностью нервных процессов и переключаемостью отличаются быстрым реагированием на стрессор, высокой работоспособностью, что в целом является индикатором высокой стрессоустойчивости. Такой тип реагирования условно можно назвать «динамическим». Именно данный тип реагирования, осуществляющий качественно приспособительный эффект, создает такую систему, подчеркивал П.К.Анохин, все части которой вступают в динамическое экстренно складывающееся функциональное объединение на основе непрерывной обратной информации о приспособительном результате, и которую можно назвать «функциональной системой». Важно учитывать мнение Б.Г.Ананьева, который подчеркивал, что на основе различных типов нервной системы может быть сформирован один и тот же тип характера, равно как контрастные характеристические свойства могут обнаружиться у людей с одним и тем же типом нервной системы. Каждое свойство темперамента целесообразно рассматривать в совокупности, как динамические характеристики, которые отражаются на степени устойчивости к стрессу через личностные характеристики, сочетающие социальные и субъективные компоненты.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ. В своей книге «Стресс без дистресса» Ганс Селье рассматривал стресс как физиологическую реакцию на физические, химические и органические факторы. Эти реакции доказывают, что:

1. Все биологические организмы имеют врожденные механизмы поддержания состояния внутреннего баланса или равновесия функционирования своих систем. Сохранение внутреннего равновесия обеспечивается процессами гомеостазиса. Поддержание гомеостазиса является жизненно необходимой задачей организма.

2. Стрессоры, то есть сильные внешние раздражители, нарушают внутреннее равновесие. Организм реагирует на любой стрессор, приятный или неприятный, неспецифическим физиологическим возбуждением. Эта реакция является защитно-приспособительной.

3. Развитие стресса и приспособление к нему проходит несколько стадий. Время течения и перехода на каждую стадию зависит от уровня резистентности

организма, интенсивности и длительности воздействия стрессора. Сопротивляемость организма по отношению к повреждающим факторам

4. Организм имеет ограниченные резервы адаптационных возможностей по предупреждению и купированию стресса - их истощение может привести к заболеванию и смерти. Г.Селье обобщил все результаты своих исследований и пришел к выводу, что развитие стрессовой ситуации проходит три стадии, который он назвал общим адаптационным синдромом.

Психологический стресс обусловлен субъективными и объективными причинами. К субъективным причинам можно отнести:

- несоответствие ожидаемых и реальных событий;
- стрессовые напряжения, развивающиеся от навязывания родительских программ, усложняющих жизнь ребенку и делая его поведение неадекватным;
- стрессовые ситуации, вызванные эмоциями, провоцирующими на спонтанные действия;
- несоответствие виртуального и реального миров;
- стрессовые ситуации, связанные с убеждениями личности и неадекватными установками (на пессимизм или оптимизм, религиозными или политическими);
- невозможность реализации собственной актуальной потребности (сюда можно отнести физиологические потребности, потребности в безопасности, принадлежности, уважении, самореализации);
- неправильная коммуникация (в т.ч. критика, негативные предубеждения, неправомерные требования и т.д.);
- неадекватная реализация условных сигналов.

К объективным причинам развития стрессовых ситуаций можно отнести:

- условия жизни и работы (домашние проблемы, тяжелая работа и т.д.);
- взаимоотношения с другими людьми (близкими, коллегами по работе и незнакомыми людьми);
- экономические факторы;
- политические факторы;
- чрезвычайные ситуации и обстоятельства (серьезные заболевания, криминал, природные и социальные чрезвычайные обстоятельства).

Методы оптимизации психического состояния.

Наиболее действенными средствами управления состоянием являются различные методы оптимизации психического состояния. Существует много методов коррекции психоэмоционального стресса и задача состоит в том, чтобы выбрать те из них, которые отвечали бы с одной стороны индивидуальным особенностям конкретной личности, а с другой - реальным условиям,

существующим в данном месте и в данное время. Множество людей обладают знаниями о методах уменьшения стресса, но при этом испытывают стрессы в своей жизни. Знания применяются спонтанно, с низкой эффективностью. Кто-то отдаст предпочтение аутогенной тренировке, другие мышечной релаксации. Кто-то предпочтет дыхательные практики, а кто-то медитацию. Рассмотрим одну из классификаций антистрессового воздействия, предложенной в психологической литературе.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Определение уровня стрессоустойчивости учащихся подросткового возраста.

Задачи:

1) подобрать методику диагностики стрессоустойчивости для учащихся подросткового возраста;
2) определить уровень стрессоустойчивости подростков;
3) проанализировать результаты диагностики.

Для проведения диагностики использована «Методика определения вероятности развития стресса» Дж.Тейлора в модификации Т.А. Немчина.

Данная методика позволяет определить три уровня стрессоустойчивости подростков: низкий, средний и высокий.

Перед началом тестирования учащимся раздаются бланки методики, содержащие 50 утверждений, на которые можно ответить «да», «нет». Подросткам объясняют, что нужно отметить те утверждения, с которыми они согласны.

При обработке результатов подсчитывается общее количество утверждений, как “нет”, так и “да”, с которыми испытуемый согласен.



Если количество таких утверждений достигает 40-50 - человек пребывает в состоянии стресса, резервы его организма близки к истощению - высокавероятность развития третьей стадии стресса.

До 25 - средняя стрессоустойчивость, при отсутствии адекватных мер (использование приемов саморегуляции и других “антистресстехнологий”) существует вероятность развития негативных последствийстресса.

Не более 5-15 - прогнозируется высокая стрессоустойчивость. Результаты тестирования по методике Дж. Тейлора в модификации

Т.А.Немчина для определения вероятности развития стресса в контрольной группе испытуемых представлены в таблице 1.

Таблица № 1.

Результаты определения уровня стрессоустойчивости подростков контрольной группы на констатирующем этапе эксперимента

Уровень стрессоустойчивости	Количество учащихся, чел.	Доля испытуемых в группе, %
высокий	7	47%
средний	6	40%
низкий	2	13%
ИТОГО	15	100%



Рис.1. Результаты определения уровня стрессоустойчивости подростков контрольной группы на констатирующем этапе эксперимента (в %)

Результаты исследования в контрольной группе на констатирующем этапе экспериментальной работы показали, что высокий уровень стрессоустойчивости характерен для 47 % испытуемых, что составляет большую часть подростков

контрольной группы. Эти подростки способны противостоять стрессу и его последствиям.

Практически такая часть подростков (40%) имеют средний уровень стрессоустойчивости, что означает умение противостоять стрессовым ситуациям, но в то же время они более эмоционально переживают неудачи.

Низкая стрессоустойчивость диагностирована у 13 % подростков контрольной группы. Подростки с низким уровнем стрессоустойчивости в меньшей степени защищены от негативного воздействия стрессоров и,как следствие, «выгорают» значительно быстрее и интенсивнее.

Результаты диагностики стрессоустойчивости в экспериментальной группе на констатирующем этапе эксперимента представлены в таблице 2.

Таблица № 2

Результаты определения уровня стрессоустойчивости подростков экспериментальной группы на констатирующем этапе эксперимента

Уровень стрессоустойчивости	Количество учащихся, чел.	Доля испытуемых в группе, %
высокий	3	20%
средний	6	40%
низкий	6	40%
ИТОГО	15	100%
ИТОГО	15	100%

Результаты диагностики в экспериментальной группе свидетельствуют о том, что 40 % подростков, также как и в контрольной группе, имеют средний уровень стрессоустойчивости.

Однако, высокий уровень стрессоустойчивости присущ лишь 20 % подростков, а низкий - 40 %.



Рис.2. Результаты определения уровня стрессоустойчивости подростков экспериментальной группы на констатирующем этапе эксперимента (в%)

Результаты исследования в экспериментальной группе говорят о присутствии значительной части подростков с низким уровнем стрессоустойчивости (40%). Это обуславливает необходимость разработки и реализации социально-педагогического тренинга направленного на формирование стрессоустойчивости ребят подросткового возраста.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Формирование стрессоустойчивости в подростковом возрасте является значимым процессом, в ходе ее формирования происходит осознание самого себя, своих ценностей, самореализация и самосовершенствование, что в дальнейшем влияет на достижение благополучия в деятельности. При формировании стрессоустойчивости необходимо учитывать личные особенности, которые позволяют личности управлять стрессом используя его позитивные возможности, это позволяет сохранить здоровье.

ЛИТЕРАТУРА

1. Андреева И.А Стресс в подростковом возрасте: / И.А. Андреева, С.А.Анохина.//Вестник Санкт-Петербургского университете МВД России -2006. - №4. - С. 8-15.
2. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: / Л.И. Божович Избранные труды: //Под ред. Д.И. Фельдштейна. - М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: НПО «МОДЭК», 2011. - 324 с
3. Селье Г. Стресс без дистресса]: / Г. Селье.- М.: Книга по требованию, 2012. - 66 с
4. Формирование стрессоустойчивости в подростковом возрасте [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://www.scienceforum.ru/2015/pdf/14786.pdf

BOYITILGAN ANGREN KO‘MIR KONI KAOLINIDAN ALYUMINIY VA KREMNIY OKSIDLARINI OLISH IMKONIYATLARI

Nilufar Musurmonovna Askarova
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq Filiali
nilu_shas@mail.ru

Nigora Erkin qizi Ahmedova
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq Filiali
nigora071118@gmail.com

ANNOTATSIYA

Angren konining asl kaolin xomashyosi sifatsiz bo‘lib, tarkibida kvars qumi, temir va titan oksidlari, oltingugurt, fosfor, organik moddalar va boshqa ko‘plab zararli aralashmalar mavjud. Ushbu maqolada Angren koni kaolini tarkibidan zararli aralashmalarni tozalash va sof Al_2O_3 olish uchun usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kaolin, Ko‘mir, Ammoniy ftorid, Kremniysizlantirish, Kuydirish, Filtrlash, Eritma, Shixta, Cho‘kma.

OPTIONS FOR OBTAINING ALUMINUM AND SILICON OXIDES FROM ENRICHED ANGREN COAL MINE KAOLIN

ABSTRACT

The initial kaolin raw material of the Angren deposit is of low quality and contains many harmful impurities, such as quartz sand, iron and titanium oxides, sulfur, phosphorus, organic substances, and others. This article provides methods for purifying harmful impurities to obtain pure Al_2O_3, and this raw material is a material for producing aluminum.

Keywords: Kaolin, Coal, Ammonium fluoride, Decontamination, Burning, Filtration, Solution, Charge, Precipitate.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi hududida kaolinlarning 77 ta konlari mavjud. SHundan 23 ta kon istiqbolli kon hisoblanadi. Angren kaolin koni, SultonUvaysiy, Karnabsoy, Zaxquduq, O‘rozali, Oltintau va Alyans konlari katta zahiralari va etarlicha barqaror kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi. Eng yirik va eng ko‘p o‘rganilgan kon

Angren shahri hududida joylashgan kaolin koni bo‘lib, Markaziy Osiyoda kaolinni boyitish bo‘yicha yagona zavod xisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Angren ko‘mir konining unumdorligi yiliga 4 mln tonnaga etgan, mutanosib ravishda 32 mln tonnaga yaqin tog‘ jinslari qazib olinib, tashqariga tashlanayapti. SHundan 5 mln tonnasi ahamiyatga molik, xalq xo‘jaligiga kerak bo‘lgan xomashyo - kaolindir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kaolin xomashyosi silindrda suv bilan aralashtirilib, so‘ng tindirilsa, kaolin ma’lum muddat oralig‘ida cho‘kmasdan suvda suzib yuradi, kaolin mineraliga bog‘lanmagan erkin kremnezem (SiO_2) cho‘kmaga tushadi. Kaolin oddiy suv bilan yuvilsa erkin krenezem bilan birga kaolin ham cho‘kmaga tushadi, “o‘lik” suv bilan yuvilsa erkin kremnezyom to‘liq ajralmaydi; “tirik” suv bilan yuvilsa kremnezyom to‘liqroq cho‘kmaga tushadi. Kaolin bilan kremnezemning ajralish vaqti, oddiy suv bilan yuvilsa 5 soniya, “tirik” suv bilan yuvilsa 15 soniya, “o‘lik” suv bilan yuvilsa 4 soniyani tashkil qilar ekan. Har xil suvlar bilan yuvilgan kaolin massasining kamayishi jadval.1 da keltirilgan.

Jadval.1

Har xil suvlar bilan yuvilgan kaolin massasining kamayishi, %

Namuna t/r	Fraksiyani yirikligi, mm	Oddiy suv ajralish vaqti, 5 sek	“tirik” suv ajralish vaqti 15 sek	“o‘lik” suv ajralish vaqti 4 sek
№1	+0,315 -0,315+0,14 -0,14+0,0	10,15 8,48 5,42	28,52 26,41 20,80	15,35 12,22 10,15
№2	+0,315 -0,315+0,14 -0,14+0,0	8,13 7,21 4,58	12,30 10,69 8,33	16,13 13,15 9,85
№3	+0,315 -0,315+0,14 -0,14+0,0	8,52 7,62 5,67	12,55 10,71 9,25	17,82 14,21 20,32
№4	+0,315 -0,315+0,14 -0,14+0,0	10,24 9,21 6,83	29,31 27,05 21,55	16,25 13,15 12,13

Suspenziyani dekantatsiya usuli bilan cho‘kmadan ajratib filtrlaganda kaolin olinadi. Kaolin xomashyosi “o‘lik” suv bilan yuvilganda olingan mahsulotda Al_2O_3

ning miqdori (namuna va fraksiyaga qarab) 2-7 % ga ko‘payadi, temir miqdori 0,1-0,8 % ga, SiO_2-esa 5-12 % gacha kamaymoqda. Yuvish jarayoni takomillashtirilsa bundan ham yaxshiroq natija olish mumkin [1].

Angren ko‘mir konida ko‘mir qatlamining ustki qismida ikkilamchi, ko‘mir qatlamining ostida esa birlamchi kaolin qatlami joylashgan. Ikkilamchi kaolinning zaxirasi 1,4 mlrd tonna, birlamchi kaolinning zaxirasi esa 45,6 mln tonnani umuman, Angren hududida kaolin zaxirasi 3,25 mlrd tonnani tashkil qiladi. Bu miqdordagi kaolin hisobiga O‘zbekistonda alyuminiy ishlab chiqarish sanoatini barpo qilsa bo‘ladi.

Odatda, kaolin oqlik va olovbardoshligini kamaytiradigan zararli aralashmalarni (Fe va Ti gidroksidlari va sulfidlarini) olib tashlash orqali boyitiladi. Boyitilgan kaolindan chinni, fayans, keramika ishlab chiqarishda, bundan tashqari ultramarin, $Al_2(SO_4)_3$ va $AlCl_3$ olish, qog‘oz, kauchuk, plastmassa, tom yopish materiallari uchun asoslar ishlab chiqishda asosiy xom ashyo sifatida foydalaniladi.

“Angren ko‘mir” koni kaolinining kimyoviy va mineralogik tarkibi hamda fizik-mexanik xususiyatlari to‘liq o‘rganilib, pirometallurgik usul yordamida kuydirish va kuyindini gidrometallurgik usullar bilan tarkibidan metallarni eritmaga o‘tkazish hamda eritmalardan metallarni ajratib olish usullari sinovdan o‘tkazildi. Kaolin xomashyosini keyinchalik alyuminiy ishlab chiqarish uchun maqsadli boyitish texnolgiyasini ishlab chiqarishga qaratilgan bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Angren ko‘mir koni ikkilamchi kaolinini boyitish va undan qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olish uchun tajribalar o‘tkazildi. Kaolin mineraliga ammoniy ftorid qo‘shish bilan shixta tayyorlanib, maxsus laboratoriya kremniysizlantirish pechida erkin dioksid kremniysidan tozalash va kaolinni sifatini oshirishning kombinirlashgan usullari (kremniysizlantirish, maxsus selektiv cho‘ktirish, maxsus eritmalar yordamida tanlab eritish va b.) yordamida yuqori tozalikdagi alyuminiy va kremniy oksidlarini erkin ajratib olish (Al_2O_3 va SiO_2), ulardan esa alyuminiy va kremniy olishning usullari o‘rganildi.

NATIJALAR

Kremniysizlantirish usulidan foydalanib [2], maxsus kremniysizlantirish pechiga amoniy ftorid qo‘shilgan shixta tayyorlandi. 130-150 ^{0}S haroratda 25-30 minut davomida qizdirilgan pechga tayyorlangan shixta yuklanadi. SHixtaning pechda qizish harorati 200-250 ^{0}S ni tashkil qiladi, davomiyligi 30 minut. Jarayon borishi vaqtida 150-180 ^{0}S haroratda ammoniy ftorid gazi chiqa boshlaydi. Harorat 250 - 300 ^{0}S ga ko‘tarilishi bilan gazlarda dioksid kremniyning miqdori ortadi va 180^{0}C da sublimatsiyalanib, “oq cho‘kindi” ko‘rinishida 88-92 % cho‘kadi.

SHixta qizdirishi natijasida quyidagi reaksiyalar borishi mumkin.

$$Fe_2O_3 + 6NH_4F = 2FeF_3 + 6NH_3 + 3H_2O \quad (1)$$

$Fe_2O_3 + 3NH_4F{\cdot}HF = 2FeF_3 + 3NH_3 + 3H_2O$ (2)

$Al_2O_3 + 6NH_4F = 2AlF_3 + 6NH_3 + 3H_2O$ (3)

$Al_2O_3 + 3NH_4F{\cdot}HF = 2AlF_3 + 3NH_3 + 3H_2O$ (4)

$SiO_2 + 6NH_4F = (NH_4)_2\ SiF_6 + 4NH_3 + H_2O$ (5)

$SiO_2 + 3NH_4F{*}HF = (NH_4)_2\ SiF_6 + NH_3 + 2H_2O.$ (6)

Kremniysizlantirilgan kuyindi 6:3 nisbatda NaOH qo‘shiladi va 0,5 soat davomida 150-200℃ gacha qizdiriladi. olingan mahsulot isitilgan suv bilan ishlov beriladi va eritma filtrlanadi. $Al(OH)_3$ eritmaga o‘tadi va Na_2SiO_3 cho‘kmada qoladi. Olingan cho‘kma Na_2SiO_3 550-600℃ kuydiriladi, natijada zararli qo‘shimchalardan tozalangan Al_2O_3 ajratib olinadi. $Al(OH)_3$ tarkibli cho‘kmaga esa, 1:1 nisbatda HCl va H_2SO_4 kislota aralashmasi qo‘shiladi va pH 7 gacha neytrallanadi.

XULOSA

O‘tkazilgan tajribalar natijasiga ko‘ra, Angren ko‘mir koni kaolinini kuydirish davrida SiO_2 ajratib olinganligi sababli boshqa zararli qo‘shimchalardan tozalash ancha engil kechadi. Bundan tashqari olingan Al_2O_3 sofligi bir muncha ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov, S.A., Xoliqulov, D.B., Samadov, A.U., Toshqodirova, R.E., Metallurgiyada xom ashyodan kompleks foydalanish. Toshkent 2022y.

2. Askarova, N. M. (2021). NEKOTORЫE MINERALOGICHESKIE SVOYSTVA TERMICHESKI OBRABOTANNOGO SHLAKA AO «ALMALЫKSKIY GMK». *Universum: texnicheskie nauki*, (4-1 (85)), 63-67.

3. Askarova, N. M., Samadov, A. U. (2020). INNOVATSIONNЫY PODXOD K PODGOTOVKE OTVALNЫX SHLAKOV MEDNOGO PROIZVODSTVA DLYA DALNEYSHEY PERERABOTKI. *Universum: texnicheskie nauki*, (11-5 (80)), 45-47.

4. Турсунов, Б. Д., & Суннатов, Ж. Б. (2017). Совершенствование технологии вторичного дробления безвзрывным методом. *Молодой ученый*, (13), 97-100.

TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITASION MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
e-mail: nozimfayziyev0@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada tarmoqlanuvchi algoritm mavzusini kompyuter imitasion modeli asosida o‘zlashtirish metodikasi haqida fikr yuritilgan. Bu mavzuni o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanib, dars jarayonini tashkil etish va tarmoqlanuvchi algoritmlarni tushuntirish jarayonini kompyuter imitasion modeli yordamida ko‘rsatish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Algoritm, xossalari, diskretlilik, aniqlilik, tushunarlilik, ommaviylik, natijaviylik, natija, analitik, chiziqli, takrorlanuvchi, aralash, multimedia, animasiya, imitasion model.

DEVELOPMENT OF NETWORKING ALGORITHMS ON THE BASIS OF COMPUTER IMITATION MODEL

ABSTRACT

The article discusses the method of mastering the topic of branching algorithms on the basis of computer simulation model. The teaching of this topic involves the organization of the teaching process using multimedia tools and the demonstration of the process of explaining branching algorithms using a computer simulation model.

Keywords: Algorithm, properties, discreteness, accuracy, comprehensibility, publicity, effectiveness, result, analytical, linear, iterative, mixed, multimedia, animation, simulation model.

Masalaning dolzarbligi. Umumta’lim maktablarida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan algoritmlash va tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzuslarini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib multimedia vositalari asosida o‘rganishga qaratilgan. Algoritm tushunchasi va uning xossalari, Algoritm turlari va tasvirlanish usullari, chiziqli algoritmlar, tarmoqlanuvchi algoritmlar, takrorlanuvchi algoritmlar va aralash algoritmlar mavzularini o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan. Bu mavzularni o‘qitishda zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarining multimedia vositalaridan foydalanib, dars jarayonini tashkil etish yaxshi samara beradi.

«Informatika va axborot texnologiyalari» fanida algoritmlar va tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzulari bugungi kunda har bir umumta’lim maktablar o‘quvchilari

uchun muhim hisoblanadi. Shu sababli «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan algoritmlash va tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzuslari hamda ularni multimedia vositalaridan foydalanib o‘qitish metodikasini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Dastlab algoritm turlari va chiziqli algoritm mavzulari ularni multimedia vositalaridan foydalanib o‘qitish metodikasini yaratish masalasiga e’tiborni qaratganmiz. Endi tarmoqlanuvchi algoritm mavzusini o‘rganishda multimedia vositalaridan foydalanib o‘qitish metodikasiga qaraymiz. Ushbu dasturiy vositalarni o‘qitishda odatda an’anaviy metodika asosida darslik yoki o‘quv qo‘llanmadan foydalanilgan holda o‘quv materiallari tushuntiriladi. O‘quv materiallariga asosan o‘quvchilar amaliy darslarda kompyuterda algoritm turlari va tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzularini o‘rganishadi. An’anaviy o‘qitish metodikasida o‘quv materiallari o‘quvchilarga matn yoki tasvir ko‘rinishida taqdim etiladi. Shu bois mazkur dasturiy vositalarni o‘qitishga qancha hajmda soat ajratilganligiga qaramasdan o‘quvchilar murakkabliklarga duch kelishmoqdalar. An’anaviy metodikadan farqli ravishda «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining ishchi dasturda muljallangan soatlarida tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusini o‘rganish jarayonini multimediali ishlanmalar asosida o‘qitish metodikasini keltiramiz. Ushbu metodikada tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusini o‘rganish jarayoni ketma-ket harakatlar orqali uning vazifalarini bajaradigan kompyuter imitasion modeli bilan ifoda etib o‘quvchilarga ko‘rsatiladi va tushuntiriladi.

Hozirgi kunda juda ko‘p algoritmik tillar mavjud bo‘lib, ularni *dasturlash* tillari deb ataymiz. *Algoritmik til* - algoritmlarni bir xil va aniq yozish uchun ishlatiladigan belgilashlar va qoidalar tizimi. Algoritmik til oddiy tilga yaqin bo‘lib, u matematik belgilarni (yuqorida aytilganidek) o‘z ichiga oladi. Qo‘yilgan masalalarni yechish uchun tuzilgan algoritmlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mashinaga kiritib, yechib bo‘lmaydi, shu sababli yozilgan algoritmni birorta algoritmik tilga o‘tkazish zarur.

Har qanday algoritmik til o‘z qo‘llanilish sohasiga ega. Odatda, algoritmning kompyuter tushunadigan tilda yozilishi dastur deb ataladi. Kompyuter tushunadigan tilga dasturlash tili deyiladi. Jahonda minglab dasturlash tillari mavjud va ularning soni yanada ortib bormoqda. Hozirgi kunda Pascal, Delphi, C, C++, Java, Phyton dasturlash tillari keng tarqalgan va o‘rganish uchun qulay.

Yuqorida ko‘rilgan algoritmlarni tasvirlash usullarining asosiy maqsadi qo‘yilgan masalani yechish uchun zarur amallar ketma-ketligining eng qulay holatini aniqlash va inson tomonidan dastur yozilishini yanada osonlashtirishdan

iborat. Aslida dastur ham algoritmning boshqa bir ko‘rinishi bo‘lib, u insonning kompyuter bilan muloqotini qulayroq amalga oshirish uchun mo‘ljallangan [1].

Algoritmlash va tarmoqlanuvchi algoritm mavzuslarini multimedia vositalaridan foydalanib tushuntirildi. Bu jarayon 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tarmoqlaanuvchi algoritmlar mavzusini kompyuter imitasion modeli asosida o‘rgatish jarayonini tasviri.

Shunday hisoblash jarayonlari ham bo‘ladiki, unda qo‘yilgan ayrim mantiqiy shartlarning bajarilishiga ko‘ra jarayonlar bir necha tarmoqqa bo‘linadi hamda ulardan hech bo‘lmaganda bittasi bajariladi. Bunday jarayonlar bajarilishi uchun tarmoqlanuvchi algoritmlar tuziladi.

Agar hisoblash jarayoni qandaydir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo‘yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi. Tarmoqlanuvchi struktura, odatda, qandaydir mantiqiy shartni tekshirish blokini o‘z ichiga oladi. Tekshirish natijasiga ko‘ra, tarmoq deb ataluvchi u yoki bu amallar ketma-ketligi bajariladi. Tarmoqlanuvchi tuzilish shart tekshirish natijasiga (ha yoki yo‘q) qarab ikki yo‘ldan birini tanlash imkoniyatini beradi, ya’ni ko‘rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta’minlaydi [2].

Tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusiga doir masalalardan biri multimedia vositalaridan foydalanib tushuntirildi. Misol. Berilgan A son 0 (nol)dan katta musbat son bo‘lsa, u holda uning kvadratini hisoblash algoritmini tuzing:

Bu jarayon 2-rasm, 3-rasm va 4-rasmlarda keltirilganidek o‘tkazgich tugmasi ustiga sichqoncha tugmasi bosilsa har bir qadam ochiladi.



2-rasm. Tarmoqlanuvchi algoritmga tegishli masala yechishni kompyuter imitasion modeli asosida boshlash jarayonini tasviri.



3-rasm. Tarmoqlanuvchi algoritmga tegishli masala yechishni kompyuter imitasion modeli asosida o‘rgatish jarayonini tasviri.



4-rasm. Tarmoqlanuvchi algoritmga tegishli masala yechishni kompyuter imitasion modeli asosida tugallash jarayonini tasviri.

Xuddi shunday algoritmlarning qolgan turlarilar va ularning elementlari bajaradigan vazifalari birma-bir kompyuter imitasion modeli yordamida yoritib berilgan.

Umumta’lim maktablarida multimediali elektron qo‘llanmalarning ta’lim berishga mo‘ljallangan qismida o‘quv materiallarini taqdim etganda uning o‘quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e’tibor beriladi. Taqdim etilayotgan o‘quv materiallari ta’lim oluvchilar uchun sodda, qulay, ko‘rgazmali va yaxshi o‘zlashtirish uchun izohli ma’lumotlar tavsiya etilgan bo‘lishi, shuningdek, o‘quv materiallarida kerakli ta’riflar, tayanch iboralar, kalit so‘zlarga murojaat qilishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining Algoritm turlari va chiz Tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzularini o‘rgatishda kompyuter imitasion modelidan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularga mustaqil ishlash imkoniyatlarini oshiradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini multimedia ko‘rinishida taqdim etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zamonaviy axborot

texnologiyalari asosida ma'lumotlarni multimedia ko'rinishida taqdim etish, unda obrazli fikrlash, intellektual rivojlanish darajasini yuqoriga ko'tarib qolmasdan, multimediali va an'anaviy o'qitish o'rtasidagi nisbatni o'zgartirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov, N. S. Xaytullayeva Informatika va axborot texnologiyalari 9-sinf darlik - Toshkent: Tasvir, 2020 -112 b
2. Boltayev B., Azamatov A., Asqarov A., Sodiqov M., Azamatova G. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. Toshkent: "Cho'lpon" nomidagi NMIU, 2015. – 160 b.
3. Ғуломов С.С., Абдуллаев А.Х. Виртуалные стенды для имитасии функсий учебных мастерских и лабораторных установок.–Ташкент: МВИССО, 2002. -23 с.
4. M.Aripov va boshkalar, Axborot texnologiyalari, o'quv qo'llanma, Toshkent: Noshir, 2009. -368 b.
5. Aripov M.M., Imomov T. Irmuxamedova R.M., Sagatov M.V., Xaydarov A.T., Yakubov A.X. Informatika. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. 1-qism. - Toshkent: «TDTU». 2002. -320 b.
6. D.M.Amirov va boshkalar, Axborot - kommunikasiya texnologiyalari, Izohli lug'at, Toshkent, 2010. -576 b.
7. Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixi. O'zbekiston, 1995.
8. Bosova L. L., Bosova F. Yu. Informatika, 7—9. M.: BINOM, 2013
9. Кукушкина М. С. Работа в МС Оффисе 2007. Текстовый процессор Ексел 2007. У.: УлГТУ, 2010.

“ODAM VA UNING SALOMATLIGI” FANIDAN QON AYLANISH SISTEMASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA MAVZUSINI KOMPYUTER IMITASION MODELLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Begaliyev Fayzali Umaraliyevich
Toshkent davlat agrar universitet Samarqand filiali Iqtisodiyot,
barqaror qishloq xo‘jaligi va raqamli texnologiyalar kafedra o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada axborot texnologiyalarini umum ta’lim maktablar o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish, dasturiy vositalar asosida multimediali elektron qo‘llanmalar yaratish maqsadida 8-sinf “Odam va uning salamatligi” fanidan qon aylanish sistemasi haqida umumiy tushuncha mavzusiga doir kompyuter imitasion modellari ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, multimedia, matn, grafik, animasiya, raqamlash, odam va uning salamatligi, qon aylanish sistemasi, yurak, miokard, perikard, kompyuter imitasion modeli, dasturiy vositalar.

IMPROVING THE GENERAL CONCEPT OF CIRCULATORY SYSTEM ON THE SUBJECT OF “PERSON AND HIS HEALTH” ON THE BASIS OF COMPUTER IMITATION MODELS

ABSTRACT

In order to expand the use of information technology in the educational process of secondary schools, to create multimedia electronic manuals based on software, 8th grade "Human and his health" developed computer simulation models on the general concept of the circulatory system. output is provided.

Keywords: information technology, multimedia, text, graphics, animation, numbering, human and his health, circulatory system, heart, myocardium, pericardium, computer simulation model, software.

Bugungi kunda axborot-kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanayotgan va ta’lim o‘quv jaryonini samaradorligini oshirishga qaratilgan istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu multimedia texnologiyasidir. Multimedia, adabiyotlarda, matn, grafik, animasiya, raqamlashtirilgan harakatli tasvirlar kabi ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish va taqdim etish imkonini beruvchi apparat va dasturiy ta’minot majmuasidir.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida o'quvchini mustaqil tarzda axborot texnologiyalaridan foydalanishi uning aqliy va shaxsiy rivojlanishidagi mavjud muammolarni yechishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Uning asosida aqliy funksiyalarni faollashtiriladi va motivasiyani oshiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitishni individuallashtirishni ta'minlash vositasi hamdir [3].

Axborot texnologiyalarini umum ta'lim maktablar o'quv jarayonida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish, dasturiy vositalar asosida multimediali elektron qo'llanmalar yaratish maqsadida 8-sinf "Odam va uning salamatligi" fanidan qon aylanish sistemasi haqida umumiy tushuncha mavzusiga doir kompyuter imitasion modellari ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Masalan, Qon aylanish sistemasi organlariga yurak, arteriya, kapillarlar, vena va limfa tomirlari kiradi. Yurak va tomirlar odam organizmida qonning to'xtovsiz harakatlanishini ta'minlaydi.

Yurakning tuzilishi. Yurak qon aylanish sistemasining markaziy organi bo'lib, vazni erkaklarda 220—300 g gacha, ayollarda esa 180—220 g gacha bo'ladi. Yurak ko'krak qafasida to'sh suyagining orqasida, ikkala o'pkaning o'rtasida joylashgan. Uning ko'proq qismi ko'krak bo'shlig'ining chap tomonida turadi.

Yurak devori uch qavatdan: ichki epiteliy qavat — *endokard,* o'rta — *muskul,* ya'ni *miokard* va tashqi — *perikarddan* iborat. Perikard ikki qavat bo'lib, ichki qavati yurak muskuliga yopishib turadi, u *epikard* deb ataladi. Tashqi qavati xalta sifatida yurakni o'rab turadi. Ikkala qavat o'rtasidagi bo'shliqdagi suyuqlik yurakning qisqarish va kengayish harakatlariga ishqalanishni kamaytiradi.

Yurak to'rt kamera: *o'ng* va *chap bo'lmalar, o'ng* va *chap qorinchadan* tashkil topgan. Bo'lmachalarning devori yupqaroq, qorinchalar, ayniqsa, chap qorinchaning devori qalin, uning muskullari kuchli rivojlangan. Chap qorincha yuqori bosim ostida qon tomiriga qon haydab, katta qon aylanish doirasi orqali tananing hamma organ va to'qimalarini qon bilan ta'minlaydi. Yurakda to'rtta *klapan* (qopqoq) bo'lib, chap bo'lma bilan chap qorincha o'rtasida *ikki tavaqali,* o'ng bo'lma bilan o'ng qorincha o'rtasida *uch tavaqali,* chap qorincha bilan aorta qon tomiri o'rtasida hamda o'ng qorincha bilan o'pka arteriyasi o'rtasida bittadan *yarimoysimon klapanlar* joylashgan. Yurak klapanlari shunday tuzilganki, ular qonni faqat bir tomonga, ya'ni bo'lmalardan qorinchalarga, qorinchalardan esa aorta va o'pka arteriyasi tomonga oqishini ta'minlaydi.

Yurakning ishlashi. Yurak nasos singari vena qon tomirlaridagi qonni so'rib, arteriya qon tomirlariga chiqarib beradi. Yurakning bu ishi undagi muskullar ritmik ravishda qisqarib bo'shashganida yurak bo'lmalari va qorinchalarining torayishi va kengayishi natijasida amalga oshadi. Yurak bo'lmalari va qorinchalarining qisqarishi

— sistola, kengayishi — diastola deyiladi. Bo‘lmalar va qorinchalar navbat bilan qisqarib-kengayadi. Yurak bo‘lmalari va qorinchalarining bir martadan qisqarib bo‘shashishi yurak sikli deyiladi. Yurak orqali bir minutda 5 l qon oqib o‘tadi, lekin bu qondan o‘z ehtiyoji uchun foydalanmaydi. Yurak muskullari ikkita maxsus tojsimon arteriya orqali qon bilan ta’minlanadi. Tinch holatida katta odam yuragi bir minutda 70—72 marta qisqaradi va kengayadi. Yurak sikli o‘rtacha 0,8 sek. davom etadi [1].

Bu jarayonlar 1-rasmning a), b) va c) bandlarida kompyuter imitasion modellari asosida keltirilgan.



a) b) c)

1-Rasm. Yurakning ishlashini kompyuter imitasion modellari yordamida o‘rgatish jarayonini tasviri.

Yurakning sistolik va minutlik hajmi. Yurak qorinchalari bir marta qisqarganida 65—70 ml qonni aortaga chiqaradi. Bu yurakning *sistolik hajmi* deb ataladi. Sistolik hajmni bir minutdagi qisqarishlar soniga ko‘paytirish orqali har bir yurak qorinchasining minutlik sistolik hajmini topish mumkin, ya’ni: 70 ml x 70 = 4,9 litr.

Yurak avtomatiyasi. Tinch holatda yurak bir daqiqada 70 marta qisqaradi. Bir kecha-kunduzda yurak 100000 marta qisqarib, 10 tonnaga yaqin qonni qon tomirlariga chiqarib beradi. Yurak tanadan ajratilganda ham ma’lum vaqt davomida o‘z-o‘zidan qisqarib turadi. Yurakning bu xususiyati uning muskullarida joylashgan maxsus hujayralarda muttasil paydo bo‘lib turadigan qo‘zg‘alishlar bilan bog‘liq.

Yurakning o‘z muskullarida paydo bo‘lib turadigan qo‘zg‘alishlar ta’sirida bir me’yorda qisqarib turishi *yurak avtomatiyasi* deyiladi.

Yurak biotoklari. Tirik organizmlarda hujayra sitoplazmasi bilan tashqi muhit o‘rtasida doimo „bioelektrik tok“ deb ataladigan elektrik potensial hosil bo‘ladi. Bu potensial qo‘zg‘alishni nerv va muskul tolalari bo‘ylab uzatadigan elektr signal hisoblanadi. Yurakning ishlayotgan va ishlamayotgan qismlari elektropotensiallari

o‘rtasida farq bo‘ladi. Bu farqni elektrokardiograf yordamida qog‘oz tasmasiga tushirish mumkin. Bu jarayon elektrokardiogramma deyiladi. U yordamida yurak ritmining o‘zgarishi tekshirilib, yurak muskullarining holatiga baho beriladi [1].

Bundan ko‘rinib turibdiki, axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida umumta’lim maktablarida “Odam va uning salamatligi” fanidan qon aylanish sistemasi haqida umumiy tushuncha mavzusiga doir kompyuter imitasion modellari ko‘rinishida taqdim etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni multimedia ko‘rinishida taqdim etish, unda obrazli fikrlash, intelluktual rivojlanish darajasini yuqoriga ko‘tarib qolmasdan, multimediali va an’anaviy o‘qitish o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odam va uning salomatligi — 8-sinf. Umumta’lim maktablari uchun darslik / B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov. —Beshichi nashri. Toshkent. „O‘qituvchi“, NMIU, 2014. 160 b.
2. G‘ulomov S.S., Abdullayev A.X. Virtualnыye stendы dlya imitasii funksiy uchebnых masterskix i laboratornых ustanovok. –Tashkent: MVISSO, 2002. -23 s.
3. M.Aripov va boshkalar, Axborot texnologiyalari, o‘quv qo‘llanma, Toshkent: Noshir, 2009. -368 b.
4. Aripov M.M., Imomov T. Irmuxamedova R.M., Sagatov M.V., Xaydarov A.T., Yakubov A.X. Informatika. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. - Toshkent: «TDTU». 2002. -320 b.
5. D.M.Amirov va boshkalar, Axborot - kommunikasiya texnologiyalari, Izohli lug‘at, Toshkent, 2010. -576 b.
6. Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixi. O‘zbekiston, 1995.

«BOZUǴLAN» DÁSTANINDAǴI FRAZEOLOGIZMLER

Usmanova Aysulu
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, qaraqalpaq filologiyası hám jurnalistika fakulteti, 2-kurs studenti.
usmanovaaysuliw@gmail.com

Ilimiy basshısı: PhD **Gúljaxan Allambergenova**
G-allambergenov@mail.ru

ANNOTACIYA

Maqalada "Bozuǵlan" dástanındaǵı qollanılǵan frazeologizmler, olardıń túrleri hám xizmeti haqqında sóz etilgen.

Tayanısh sózler: Sózlik quram, frazeologizm, struktura-semantikalıq tip, emocionallıq-ekspressivlik, somatizmler.

ABSTRACT

Our article tells about the phrases and their types and importance in the epic "Bozuglon"

Keywords: word structure, phrase, structure-semantic type, emotional-expressiveness, somatisms

Biz qaysı tildi alıp qarasaq ta, onıń sózlik quramında tek jeke sózler ǵana emes, al jeke sózlerdey pútin mánini ańlatıwshı bir neshe sózlerden quralǵan sóz dizbekleri de bar ekenligin, olardıń belgili bir orındı iyelep kelgenligin kóremiz. Bulardan biri, frazeologiyalıq sóz dizbekleri bolıp tabıladı. Til biliminde sózlik quramnıń ayrıqsha bir toparı sıpatında tanılatuǵın frazeologizmler haqqındaǵı mashqala erteden til ilimpazlarınıń dıqqatın ózine tartıp kelmekte. Frazeologiyalıq sóz dizbekleri semantikalıq jaqtan da, emotcionallıq-ekspressivlik ótkirligi jaǵınan da tildiń qaymaǵı, maǵızı sıpatında tanılıwı menen bir qatarda hár qanday milliy tildiń ózgeshe leksika-semantikalıq baylıǵı bolıp ta kózge taslanadı. Frazeologizmler yamasa frazeologiyalıq sóz dizbekleri kúndelikli til arqalı qatnas jaǵdayında pikirdi tolıq, ózine tán mánilik boyawları menen jetkeriwde ayrıqsha xızmet atqaradı. Onda xalıqtıń ásirler boyı payda etken ushqır qıyallarınıń, danalıǵınıń, sóz dóretiwshiliginiń ájayıp úlgileri saqlanǵan.

“Bozuǵlan” dástanı leksikasında da bunday sózler kóplep ushırasadı. Olar óz mánisi, qollanılıw jaǵdayları, mazmunı menen basqa dástanlar tilindegi frazeologiyalıq

birliklerden ajıralıp turadı. Tilimizdegi qollanılıp júrgen frazeologizmler qollanılıwı jaǵınan hár qıylı atamalarǵa baylanıslı sózler menen dizbeklesip keledi. Olar usı tárepine qaray: haywanlarǵa baylanıslı, adam múshelerine baylanıslı, toponimlerge baylanıslı hám taǵı basqa mánidegi sózler menen dizbeklesip qollanıladı. Olardıń ishinde adamnıń dene múshelerinıń atamalarına baylanıslı frazeologizmler belgili orın tutadı. Qaraqalpaq tiliniń leksikasın izertlegen ilimpaz E.Berdimuratov frazeologiyalıq sóz dizbekleri boyınsha aytqan pikirlerinde adamnıń dene múshelerinıń atamalarına baylanıslı frazeologiyalıq sóz dizbeklerine orın berip, ilimpaz olardıń ishinde "kóz", "til", "awız", "júrek", "ayaq" sózlerine baylanıslı frazeologizmlerdi atap ótedi [1] J.Eshbaev tárepinen dúzilgen "Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi"nde de adam múshelerine baylanıslı frazeologiyalıq atamalar somatizmler de úlken topardı qurap kelgen [2]. G.Aynazarova frazeologizmlerdiń quramındaǵı bunday tirek sóz xizmetinde qollanılıwshı sózlerdi úyrene otırıp, onday sózlerdi uytqı sózler dep ataydi. Izertlewshi "Qaraqalpaq tilinde adamnıń dene múshelerinıń atamalarına baylanıslı bir qansha sózler ushırasadı" [3]- dep, olardıń qatarında kóz, bas, tis, til, awız baylanıslı frazeologizmlerdiń mánilerine mısallar menen tallawlar jasaydı. Tiykarınan, kórkem shıǵarma tilinde bunday túrdegi uytqı sózler kóplep ushırasadı.

"Bozuǵlan" dástanı tilindegi frazeologizmlerdiń quramında bunday adam múshelerine baylanıslı sózler kóplep ushırasadı.Usı tárepine qarap olardı tómendegishe toparlarǵa bólip qarasaqta boladı.

1. **"Qol" sózine baylanıslı frazeologizmler:** *Dalbayın qolǵa aladı,* Daǵlarda shawqım saladı. *(216-bet);* Qara shıbınsha kórmeymen, *Qol qawsırıp* kel deymen, *(228-bet).*
2. **"Kóz" sózine baylanıslı frazeologizmler:** Dógerekke *kózler taslap qaradı,* Bedewdiń jalı órildi*.(216-bet);* Seni adam demeymen, Bálki *kózge ilmeymen (228-bet);* Endi jettim degende, *Kózden ǵayıp boladı. (237-bet).*
3. **"Bas" sózine baylanıslı frazeologizmler:** Malıńdı alǵan *basıńdı alar*, jan aǵa, Baqsa jurtqa barıp mákan áyleyik. *(213-bet);* Qırıq qálpege *bas bolıp,* Asan qálpe aldı juwaptı.*(217-bet).*

Bul frazeologizmlerdiń bári de dástan tiline kórkemlik qosıp, onıń tásirli bolıwı ushın xizmet etip tur. Sonıń menen birge, frazeologizmler quramındaǵı sózler hám olardıń ornalasıw tártibi bir sistemanı payda etedi. Onda struktura-semantikalıq tipler ajıralıp turadı. Qaraqalpaq tilinde frazeologizmlerdiń strukturalıq tipleri oǵada kóp. Olardan atawısh frazeologizmlerdiń strukturası S.Naurızbaeva tárepinen 11 tipke bólinip úyreniledi[4]. Bunday tipler dástan tilinde tómendegishe túrde ushırasadı.

1. **atlıq+feyil**: basın alıw, baxtı ashılmaw, aqılı sasıw, qolǵa alıw, kóz taslaw h.t.b

2. **atlıq+atlıq+feyil: kewli** ǵamǵa tolıw, kózinen jas aǵıw h.t.b

Bunnan da basqa frazeologizmlerdiń bir túri bolǵan teńles eki komponentli frazeologizmler de dástan leksikasında ushırasadı.

Mısalı: Ballardıń bararına jeri joq, batarına kóli joq, súyenip isher ası joq, ǵárip kewliniń xoshı joq, aǵayın, qáwmi-qarındas,dosı joq.*(213-bet);* Óli bolsaq bir shuqır, Tiri bolsaq bir tóbe, *(237-bet).*

Mısallarda keltirilgen teńles eki komponentli frazeologizmniń negizgi kórinisi “Baratuǵın jeri joq, batatuǵın kóli joq”, “Tiri bolsaq bir tóbe, ólsek bir shuqır” bolıp esaplanadı. Olardıń ekewi de dástanniń mánisi hám kórkemligine, stiline baylanıslı bolǵan halda ózgerip qollanılǵanın kóriwimizge boladı.

Frazeologizmniń kórkem shıǵarma tilinde tutqan ornı tuwralı X.Qojaxmetova bılay jazadı: “Frazeologizmler-kórkem shıǵarma tilin janlandıratuǵın, astarlap kórkem etip súwretlewdiń tildegi tayar quralı. Bular- xalıq danalıǵınıń úlgileri menen suwǵarılǵan obrazlı oylaw tiliniń úlgisi”[5] - dep durıs anıqlama beredi. Haqıyqatında da, frazeologizmlerdi shıǵarma tilinde qollanıw onıń mazmunınıń jáne de bayıwına járdem beredi.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Berdimuratov.E. Házirgi zaman qaraqalpaq tiliniń leksikologiyası.Nókis, 1968,251-bet.
2. Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилиниң қысқаша фразеологиялық сөзлиги
3. Айназарова Г. Қарақалпақ тилиндеги теңлес еки компонентли фразеологизмлер. Нөкис, 2005
4. Наурызбаева С.Т. Типы именных фразеологических единиц каракалпакского языка и их отражение в каракалпакско-русском словаре Автореф.дисс. …канд.филол.наук. – Москва, 1967
5. Қожахметова Х. Фразеологизмдердиң көркем әдебиетте қолданылыўы. Алматы, 1972

O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANDRAGOGIK YONDASHUVNING YO‘LLARI

Xoliqova Anora Abdisattorovna
A.Avloniy nomidagi ilmiy – tadqiqot instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonini andragogik faoliyatli yondashuv asosida tashkil etish, andragogikaning predmeti – ijtimoiy ta’lim, ya’ni kattalarni ijtimoiy kontekst bilan dialektik birlikda ko‘p qirrali uzluksiz tarbiyalash, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali sinergetika g‘oyalar ustunligiga erishish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: andragogik, yondashuv, norasmiy, direktiv, zamonaviylik, fikrlash, pedagogika, refleksi, texnologiya, sinergetika, jamiyati.

ABSTRACT

This article envisages the organization of the training process on the basis of an andragogic activity approach, the subject of andragogy – social education, ie the continuous education of adults in a dialectical unity with the social context, the dominance of synergetic ideas through the use of innovative technologies.

Keywords: andragogic, approach, informal, directive, modernity, thinking, pedagogy, reflex, technology, synergetics, society.

АННОТАЦИЯ

В данной статье предусматривается организация учебного процесса на основе андрагогически-деятельностного подхода, предмет андрагогики – социальное воспитание, т.е. непрерывное воспитание взрослых в диалектическом единстве с социальным контекстом, доминирование синергетических идей за счет использования инновационные технологии.

Ключевые слова: андрагогический подход, неформальный, директивный, современность, мышление, педагогика, рефлекс, технология, синергетика, общество.

Dunyo miqyosida andragogik ta’limni tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, o‘quvchilarning kasbiy malakasini oshirish jarayonida ularning kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xorijiy tillarni o‘qitishning intensiv usullarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning axborot-

kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ayniqsa, zamonaviy sharoitlarda kasbiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan kattalar ta’limida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Andragogik yondashuv har qanday kasbiy muhitda va ma’lum bir qo‘shimcha kasbiy ta’lim muassasasida tashkil etilgan o‘quv jarayonining ijtimoiylashtiruvchi funksiyasini amalda kuchaytirish mumkin bo‘lgan tamoyillar, usullar va vositalarni ochib berishga imkon beradi.

Andragogikaning predmeti – ijtimoiy ta’lim, ya’ni kattalarni ijtimoiy kontekst bilan dialektik birlikda ko‘p qirrali uzluksiz ta’lim olishi.

Mamlakatimizda yangicha, jahon andozalariga hamohang ta’lim mazmunini hamda malaka oshirish borasidagi yangiliklarni amaliyotga joriy etish pedagoglar ongi, tajribasi, ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini rivojlantirish, milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga ko‘tarishda innovatsiyaning o‘rni haqida davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: “Innovatsiya – bu kelajak degani, Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz”[44] , — degan edi.

Andragogika kattalarning ta’lim subyekti sifatidagi pozitsiyasining xususiyatlarini, uning qadriyatlar tizimini belgilaydi. Agar o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning muhim omillaridan biri umumiy ta’lim bo‘lsa, kattalar uchun roli va kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Voyaga etgan kishi bilimda o‘z hayotining ma’lum bir qismida yuzaga keladigan keng ko‘lamli muammolarni hal qilishning muhim vositasini qanchalik ko‘rsa, shunchalik ta’lim uning muvaffaqiyatli hayotining shartiga aylanadi.

Andragogik yondashuvni amalga oshirishning yana bir muhim jihati kattalar ta’limi kamroq me’yoriy ekanligini tushunish bilan bog‘liq. Bu kattalarning o‘rganish maqsadlari, qadriyatlari va usullarini mustaqil ravishda tanlash huquqini anglatadi. Shu sababli, kattalar ta’limi, rasmiy quyi tuzilmadan tashqari, o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga qaratilgan norasmiy va hayot jarayonida yangi bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq norasmiy ta’limni o‘z ichiga oladi. Belgilangan tuzilmalarning barcha o‘zaro bog‘liqligi bilan rasmiy ta’lim va madaniy faoliyat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

[44]Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B.20.

Kattalar ta'limi sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kattalarning o'z ta'lim faoliyatiga nisbatan pozitsiyasi – bu mustaqil ravishda faol subyektning pozitsiyasi. kasbiy faoliyat jarayonida ishlab chiqilgan ichki motivlar, qadriyatlar va e'tiqodlarga muvofiq qaror qabul qiladi. Bu voyaga etgan odamning o'z-o'zini tarbiyalash amaliyotida ixtirochi bo'lishiga olib keladi, u faqat zarur va muhim deb hisoblagan narsalarni o'rganadi.

Katta yoshdagi o'quvchilarning ta'lim faoliyatiga to'sqinlik qiladigan psixologik to'siqlarni ta'kidlaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Voyaga etgan odamning o'zi ilgari ishlab chiqqan va o'ziga xos stereotiplarga aylangan qadriyatlardagi tub o'zgarishlarga qarshiligi. Shu munosabat bilan, ko'pincha katta yoshli o'quvchilar turli xil psixologik himoya vositalariga murojaat qilishadi, ular oldingi qarashlariga zid bo'lgan yangi ma'lumotlarni qiyinchilik bilan qabul qilishadi. Shakllantiruvchi faoliyatimizda biz o'qituvchining an'anaviy paradigmadan gumanitar paradigmaga o'tishi haqida gapirayotganimiz sababli (yunoncha pradigma, "misol, namuna"), ushbu psixologik qiyinchilik, ayniqsa, o'qituvchining kasbiy hayot yo'llarini o'zlashtirish muammosini hal qilish nuqtayi nazaridan insonparvarlik paradigmasi dolzarb.

2. Voyaga etgan odam o'quvchi rolida partada o'tirganda ongsiz noqulaylik hissi mavjudligi. Bu, ayniqsa, yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan odamlarda kuzatiladi.

3. Voyaga etgan kishi talabalik yillarida ega bo'lgan o'quv ishlari ko'nikmalarini ba'zan yo'qotadi. Ko'pincha kattalar eng keng tarqalgan ta'lim vaziyatlarida yordamga muhtoj. Qiyinchilik kattalar tomonidan tayyorgarlik darajasini adekvat baholash, kognitiv muammolarni hal qilish usullarini tanlash va boshqalar bilan bog'liq[45].

Kattalar uchun andragogik ta'limning quyidagi xarakterli xususiyatlarini aniqlaydi, ular malaka oshirish jarayonida va tegishli, maxsus tashkil etilgan shaxsni rivojlantiruvchi kasbiy muhitni yaratishda ta'minlanishi kerak[46]:

- ta'limning direktiv bo'lmaganligi;
- tadqiqot natijalariga erishish va kasbiy va shaxsiy muammolarni hal qilishga qaratilgan kadrlar tayyorlash;
- muammolarni qo'yish va ularni hal qilish uchun zarur bilimlarni jalb qilish;
- amaliyot bilan bog'lash, olingan o'quv natijalari yordamida uni tekshirish;
- o'quv guruhida o'qitishning mazmuni, shakllari va usullarini shuningdek, pedagogik faoliyatda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni o'zlashtirish natijalari doimiy muhokama qilish;
- ishchi guruhning har bir a'zosining o'rganishini nazorat qilish huquqisiz o'z ta'lim jarayoni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, ushbu tadqiqotda – pedagogik

[45] Vasilkova, T.A. Osnovы andragogiki: uchebnoye posobiye / T.A.Vasilkova. M.:KNORUS, 2009. — 256 s.
[46] Zmeev, S.I. Osnovы andragogiki: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. -M.: Flinta: Nauka, 1999. 152 s.

faoliyatda talabaga yo‘naltirilgan yondashuvni o‘zlashtirish muvaffaqiyati va sifati uchun shaxsiy javobgarlik.

- o‘quv guruhining barcha a’zolari (pedagogik faoliyat subyektlari) ishtirokida ta’lim natijalarini baholash jarayoni;
- o‘quv guruhi a’zolari o‘rtasidagi dialog o‘rganishning andragogik modelining markaziy pozitsiyasidir**.**

Andragogikaning asosiy nazariy qoidalarini hisobga olgan holda, qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili sifatida subyektlarning o‘quv-format sion o‘zaro ta’siri mavjud degan xulosaga kelish kerak. malaka oshirish.

Malaka oshirish muassasasida shaxsni rivojlantiruvchi kasbiy muhitning asosiy xususiyatlari ta’lim-tarbiyaviy o‘zaro ta’sirning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish bilan ta’minlanadi:

- kasbiy pedagogik faoliyatning qiymat-semantik jihatlarini dolzarblashtirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni loyihalash va rivojlantirish;
- o‘qituvchining subyektiv imkoniyatlarini aktuallashtirish;
- pedagogik faoliyatda o‘qituvchining ko‘p subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish;
- kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish;
- o‘qituvchi hayotining ijtimoiy va kasbiy mazmunini o‘z-o‘zini bilish, tahlil qilish va o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonini tashkil etish.

Malaka oshirish muassasasida o‘quv jarayoni doirasida malaka oshirish subyektlarining o‘quv-format sion o‘zaro ta’siri eng muhim bosqichlarni (bosqichlarni) majburiy amalga oshirishni o‘z ichiga olishi kerak:

1) o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi muhim kasbiy muammolarni dolzarblashtirish;

2) konkretlashtirish: muammoning mohiyatini, uning asosiy qonuniyatlarini, o‘qituvchining kasbiy ahamiyatli fazilatlari bilan aloqasini ko‘rib chiqish;

3) muammolilik: o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash, muammoli masalalarni muhokama qilish;

4) faollashtirish: o‘qituvchilarni yuzaga keladigan kasbiy qiyinchiliklarni hal qilish yo‘llari va vositalarini birgalikda qidirishga jalb qilish;

5) amaliylashtirish: o‘rganilayotgan muammoning nazariy masalalarini amaliy tekislikka ko‘chirish, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni rivojlantirish;

6) tavsiya: muammoni o‘z-o‘zini tarbiyalash, konseptual darajada kasbiy xulq-atvorni rivojlantirish, pedagogik faoliyatda talabaga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha tajriba almashish orqali keyingi o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar.

Shunday qilib, malaka oshirish tizimida andragogik yondashuvdan foydalanish barcha bosqichlarda: rejalashtirish, amalga oshirish, baholash va ma'lum bir bosqichda talabalarning, shuningdek, ular va o'qituvchining (o'qituvchining) birgalikdagi faoliyatini majburiy tashkil etishni nazarda tutadi. hajm, tuzatish.

Andragog o'qituvchisining vazifalari murakkab va ko'p qirrali. U bilim tarjimoni emas, balki kattalar ta'limi texnologiyasi sohasidagi mutaxassis, shuningdek, kurs ishtirokchilari uchun guruh ishining tashkilotchisi, maslahatchi va kasbiy masalalar bo'yicha ekspertdir.

Andragogik modelda kurs ishtirokchilari muhim rol o'ynashi kerak, chunki kattalar o'zini o'zi anglash, mustaqillik, o'zini o'zi tasdiqlashga intiladi, u allaqachon ma'lum hayotiy, ijtimoiy va kasbiy tajribaga ega.

Ta'lim muassasasida shaxsni rivojlantiruvchi kasbiy muhitni tashkil etish asosan faol o'qitish shakllari va usullarining moslashuvchan tizimini o'z ichiga oladi. Andragog o'qituvchilari, bir tomondan, o'qituvchilarning so'rovlariga konstruktiv va sezgir javob berishlari va kurs ishtirokchilari guruhining rivojlanish mantig'iga moslashishlari kerak. Boshqa tomondan, o'qituvchi-andragog malaka oshirish subyektlarining o'quv-formatsion o'zaro ta'sirining mantiqiyligini quradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda bunday "guruhga yo'naltirilgan" yo'nalish quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

- shaxsiyatni rivojlantiruvchi kasbiy muhitni tashkil etish, guruhning birlashishi bosqichi, yangi pedagogik bilimlarni o'zlashtirish motivlarini rivojlantirish va o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish jarayonida qadriyat-semantik birlikka erishish;
- kurs tinglovchilari guruhida psixologik xavfsizlik va qulaylik muhitini, insonparvarlik munosabatlarini yaratish, barcha malaka oshirish subyektlarining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligini ta'minlash;
- pedagogik faoliyatni insonparvarlashtirishning ayrim muammolarini tushunish va ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda eng yuqori samaradorlikka erishishda guruhning muvaffaqiyati dinamikasini kuzatish;
- malaka oshirish subyektlarining keyingi ta'lim-tarbiyaviy o'zaro aloqalarini qurishda hisobga olinadigan fikr-mulohazalarni olish tartibini qo'llash;
- faol o'qitishning turli usullaridan foydalanish;
- nafaqat olingan bilimlarni, balki o'qituvchilar tomonidan shaxsiy darajada bilimlarni "o'zlashtirish" faktini ham ochib berish (ijodiy hisobot; loyihani himoya qilish; o'z uslubiy ishlanmalarini taqdim etish va boshqalar); bir guruh talabalar va har bir o'qituvchi tomonidan erishilgan natijalarni jamoaviy tahlil qilish.

Ta'lim-tarbiyaviy o'zaro ta'sirining andragogik modelini amalga oshirish o'qituvchining shaxs sifatida o'zini o'zi tasdiqlashiga yordam beradi; uning ijodiy

salohiyatini rivojlantirish; insonparvarlik paradigmasida kasbiy hayot yo‘llarini o‘zlashtirish, ta’lim va ma’naviy ehtiyojlarni kengaytirish, insonparvarlik qadriyat yo‘nalishlarini mustahkamlash; o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi anglashini uyg‘unlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga murojaati 19.03.2020

2. Mirziyoyev Sh.M. Yuksak ta’riflarga munosib zamin Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Balandina, Ye.A. Andragogicheskaya model povыsheniya kvalifikatsii spetsialistov v sfere professionalnogo obsheniya. Baltiyskaya gosakad. RF. Kaliningrad, 2006. -240 s.

4. Vasilkova, T.A. Osnovы andragogiki: uchebnoye posobiye / T.A.Vasilkova. M.:KNORUS, 2009. — 256 s.

5. Zmeev, S.I. Osnovы andragogiki: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. -M.: Flinta: Nauka, 1999. 152 s.

GEOMETRIYA FANIDAN TAKRORLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH HAQIDA

Tursunov Bayramali Akbarovich
Ph.D., Qarshi Davlat universiteti
bakbarovich@mail.ru

Shodiyev Sadulla Yusupovich
Qarshi Davlat universiteti, katta o‘qituvchi
syushodiyev@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘rta ta’lim maktabning matematikaga ixtisoslashtirilgan 9-11-sinflarida geometriya fanidan takrorlash darslarini yoki to‘garaklarni tashkil etishning bir usuli haqida so‘z boradi. Bunda yechimi qiyin bo‘lgan bitta masalani bir nechta sodda masalalarga bo‘lib yechish o‘rgatiladi, bu asosida o‘quvchilardagi o‘tilgan mavzu yuzasidan bo‘shliqlari va kamchiliklari aniqlanadi, keyingi mashg‘ulotda ularni mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: Aylanaga ichki chizilgan burchak, uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylana, aylana vatari, sinuslar va kosinuslar teoremasi, uchburchak yuzi, keltirish formulalari

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается об одном способе организации уроков повторения или кружков по геометрии в 9-11 классах средней школы, специализирующихся на математике. При этом один трудная задача научат решать с помощью нескольких простых задачах, на основе которых выявляются пробелы и недостатки учащихся по прошедшей теме, укрепляют их в следующем занятии.

Ключевые слова: Вписанный угол, вписанный и описанный треугольник, хорда, теорема синусов и косинусов, площадь треугольника, формулы приведения.

ABSTRACT

This article discusses one way to organize repetition lessons or geometry circles in grades 9-11 of high school specializing in mathematics. At the same time, one difficult task will be taught to solve with the help of several simple tasks, on the basis

of which gaps and shortcomings of students on the past topic are identified, strengthen them in the next lesson.

Key words: inscribed angle, circumscribed and inscribed circles of triangle, chord, law of sines and cosines, area of a triangle, reduction formulae

KIRISH

Ma'lumki, o'rta ta'lim maktabda yoki oliy ta'lim yurtlarida geometriya fani matematikaning o'zlashtirilishi qiyin bo'limlaridan biri hisoblanadi. Geometriyani o'rganish uchun esa so'z yuritiladigan obyekt haqida tasavvur bilan birga abstrakt fikrlash ham kerak bo'ladi.

Maqolada berilgan fikrlar matematikaga ixtisoslashtirilgan 9-11-sinflarda hamda oliy ta'lim yurtlarining matematika yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun geometriya fanidan takrorlash darslarini yoki to'garaklarni tashkil etishning bir usuli haqidadir. Bunda o'qituvchi yechimi qiyin bo'lgan, o'quvchilar yecha olmaydigan masalani o'quvchilarga havola etadi, hamda masala yechimini topishda qanday fikrlar borligini bilish uchun biroz vaqt ajratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlarini kuzatadi. Ularda qaysi mavzular bo'yicha bilim sayozligi va xatoliklar borligini aniqlaydi hamda yon daftarchasiga yozib qo'yadi. Navbatdagi mashg'ulotda qanday masala yordamida o'quvchilardagi bu kamchilikni to'ldirish haqida bosh qotiradi va keyingi masalani tanlash osonroq bo'ladi.

Kuzatuv yakunida berilgan masalani bir nechta sodda masalalarga bo'lib, masalalarni ketma-ketlikda havola etadi. Yechim uchun kerakli ko'rsatma va tavsiyalarni berib boradi, boshlang'ich masala yechimini yakunlaydi.

Hosil qilingan sodda masalalar yechimlari o'quvchilar uchun qiyinlik qilmasligi, masala yechimini darhol, yoki biroz bosh qotirib topishlari mumkin bo'lgan masalalar sirasiga kirishi kerak. Agar biror masala yechimi qiyinlik qilsa uni yana sodda masalalarga bo'linadi va o'quvchilarga havola etiladi. Bunda soddalikdan murakkablikka tomon qadam-baqadam harakat qilinadi.

Bu fikrlarni barchamizga ma'lum bo'lgan, yechimi o'quvchilarga ancha qiyinlik qiladigan, quyidagi masala yordamida yoritamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Masala. Uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylana radiuslari r va R, ular markazlari orasidagi masofa d ga teng bo'lsa, u holda $d^2 = R^2 - 2Rr$ ni isbotlang.

Yuqorida aytilganidek o'qituvchi o'quvchilarning o'zaro fikr almashishlarini kuzatadi, o'zining xulosasini oladi hamda quyidagilarni birin-ketin bajaradi.

O‘qituvchi uchburchak burchaklarini mos holda 2α, 2β, 2γ kabi belgilab, doskaga quyidagi chizmani chizib, 1-sodda masalani beradi.

Quyida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti, dars jarayoni bayon qilingan.



1-masala. Uchburchak $\angle A$ burchagi bissektrisasini o‘tkazamiz. Bissektrisa tashqi chizilgan aylanani D nuqtada kesib o‘tsin. CD va BD vatarlarning tengligini isbotlang.

Bu masala o‘quvchilar uchun qiyinlik qilmadi, u sodda edi. O‘quvchilar bir pasda isbotlashdi.

O‘quvchilar: Bitta vatarga tiralgan aylanadagi burchaklar haqidagi teoremaga asoslanib, CD va BD vatarlar teng α burchakka tiralganligini hisobga olib, bu vatarlar tengligini ko‘rsatamiz. Teng vatarlar teng burchaklarni tortib turadi.

O‘qituvchi: Masala yechimi to‘g‘ri, endi ikkinchi masalaga o‘tamiz.

2-masala. 1-masalaning davomi, $\angle CBD$ va $\angle DCB$ burchaklarni toping.

Bu masala ham o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirmadi, Ular tezdagini masala yechimini topishdi.

$CD = BD$ ekanligidan ΔBDC uchburchak teng yonli, demak bu burchaklar teng: $\angle CBD = \angle DCB$. Ikkinchi tomondan vatarga tiralgan aylanaga ichki chizilgan burchaklar haqidagi teoremaga asosan $\angle DBC$ va $\angle DAC$ burchaklar bitta CD vatarga tiralgan, demak $\angle DAC = \angle DBC = \alpha$. Xuddi shunday $\angle BCD$ va $\angle BAD$ burchaklar bitta BD vatarga tiralgan, demak $\angle BCD = \angle BAD = \alpha$. U holda

$$\angle CBD = \angle DCB = \alpha.$$

“Juda yaxshi” – dedi o‘qituvchi. O‘quvchilar bu masala yechimini ham qiynalmasdan topishdi. Endi keyingi masalaga o‘tamiz.

3-masala. Uchburchakka ichki chizilgan aylana markazini qanday topamiz.



Bu masala ham o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirmadi. Ular avvalgi o‘rganilgan bilimlarni eslashdi va darhol javob berishdi: Uchburchakka ichki chizilgan aylana markazi – uchburchak ichki burchaklari bissektrisalari kesishish nuqtasida bo‘ladi.

O‘qituvchi yuqoridagi chizmaga qo‘shimcha qilib chizmani to‘ldirdi va keyingi masalaga o‘tdi.

4-masala. Endi o‘ylab ko‘ringchi $\angle DCO_1$ burchak nimaga teng?

Bu savolga o‘quvchilar bir varakayiga javob berishdi: “Bu burchak $\alpha + \gamma$ ga teng: $\angle DCO_1 = \alpha + \gamma$”.

“Keyingi savolga ham shunday javob beringchi”, - dedi o‘qituvchi, o‘z o‘quvchilari faolligidan mamnun bo‘lgan holda, va keyingi masalani aytdi:

5-masala. $\angle DO_1C$ burchakni toping.

O‘quvchilar biroz o‘ylanib qolishdi. O‘qituvchi – “Aftidan bu savol biroz qiyinlik qildi shekilli” – deb o‘ylab, o‘quvchilarga yordamchi ma’lumotni aytmoqchi bo‘lgandi, bir o‘quvchi shunday javob berib qoldi: “Uchburchakning tashqi burchagi unga qo‘shni bo‘lmagan qolgan ikki ichki burchaklari yig‘indisiga teng, shunday emasmi?”. Ikkinchi o‘quvchi bunga ajablandi va “Bu Bizga qanday yordam beradi?” dedi. E’tibor beraylik, $\angle DO_1C$ - ΔACO_1 uchburchak $\angle O_1$ burchagining tashqi burchagi, demak u $\angle DO_1C = \alpha + \gamma$ ga teng.

“Ajabo”, dedi ikkinchi o‘quvchi, “demak, ΔCDO_1 – teng yonli ekanda, DC va DO_1 teng bo‘lar ekan”.

“Xuddi shunday, bu oltinchi masala edi, Siz buni aytmasimdan oldin topdingiz” – dedi o‘qituvchi va undan keyingi yettinchi masalani aytdi.

7-masala. Agar ABC uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi R ma’lum bo‘lsa, DO_1 kesma uzunligi nimaga teng bo‘ladi?

O‘quvchilar masalani tezroq yechishlarini istab, o‘qituvchi “sinuslar teoremasini eslang” deb yordam berdi. Ular quyidagicha fikr yuritishdi:

ABC uchburchakka tashqi chizilgan aylana, ADC uchburchakka ham tashqi chizilgan aylana bo‘ladi. ΔDAC ning $\angle A$ burchagi α ga teng. Sinuslar teoremasini qo‘llab, $\frac{DC}{\sin\alpha} = 2R$ ni va $DC = DO_1$ ekanligidan $DO_1 = 2R\sin\alpha$ ni topamiz.

“Barakalla, o‘tilgan mavzularni yaxshi o‘zlashtiribsiz” – deb rag‘batlantirdi o‘qituvchi va masalani davom ettirdi.

Doskada chizilgan chizmaga qo‘shimcha qilib O_2D kesmani o‘tkazdi va – “Bu kesmaning uzunligi nimaga teng?” – deb so‘radi.



O‘quvchilar “O_2D – ADC uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi-ku, u R ga teng” – deb javob berishdi. U holda:

8-masala. “$\angle O_2DO_1$ burchak nimaga tengligini topib ko‘ringchi?” – dedi o‘qituvchi.

O‘quvchilar masalani yecha olishmadi, yechimga borish ancha qiyin edi. Bu biroz murakkabroq masala edi. Buning uchun ozgina fikr yuritish kerak. O‘quvchilarga osonroq bo‘lishi uchun, o‘qituvchi quyidagi yordamchi savollar yordamida masala yechimini osonlashtirdi.

Savol – javob boshlandi:

O‘qituvchi: ABC uchburchakka tashqi chizilgan aylana BDC uchburchakka ham tashqi chizilgan bo‘ladi-mi?

O‘quvchilar: ha, tashqi chizilgan bo‘ladi.

O‘qituvchi: uchburchakka tashqi chizilgan aylana markazini qanday topamiz?

O‘quvchilar: uchburchak tomonlari o‘rtalaridan shu tomonga perpendikulyarlar o‘tkazamiz, ularning kesishish nuqtasi tashqi chizilgan aylana markazi bo‘ladi.

O‘qituvchi: DO_2 kesma BC ga perpendikulyar bo‘ladimi?

O‘quvchilar: BDC uchburchak teng yonli bo‘lgani uchun BC tomonning o‘rta perpendikulyari D nuqtadan o‘tadi, chunki D nuqtadan tushurilgan balandlik, mediana ham bo‘ladi, demak DO_2 kesma BC ga perpendikulyar ekan.

O‘qituvchi: Agar DO_2 kesma BC ga perpendikulyar bo‘lsa, u holda $\angle CDP$ burchak nimaga teng?

O‘quvchilar: $\angle CDP = \frac{\pi}{2} - \alpha$.

O‘qituvchi: $\angle ADC$ burchak nimaga teng?

O‘quvchilar: $\angle ABC$ burchak 2β bo‘lgani uchun, $\angle ADC$ burchak ham 2β bo‘ladi.

O‘qituvchi: demak, biz izlayotgan $\angle x$ burchak …?

O‘quvchilar: $\angle x = 2\beta - \left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right)$.

O‘qituvchi: Shakl almashtirish bajarib sodda holga keltiring!

O‘quvchilar: $\angle x = 2\beta - \left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) = \beta - \left(\frac{\pi}{2} - (\alpha + \beta)\right) = \beta - \gamma$, bunda $\alpha + \beta + \gamma = \frac{\pi}{2}$ ekanligidan foydalanildi.

Shu bilan 8-masala yechildi. Endi eng oxirgi, yakunlovchi masala qoldi.

Boshlang‘ich masala: markazlar orasidagi masofa nimaga teng?

O‘quvchilar: Kosinuslar teoremasidan foydalanamiz:

Kosinuslar teoremasini $\Delta O_1 O_2 D$ uchburchakka qo‘llab

$$d^2 = R^2 + 4R^2 \sin^2 \alpha - 4R^2 \sin \alpha \cos(\beta - \gamma)$$

tenglikni hosil qilamiz. Endi bu tenglikda ozgina shakl almashtirishni bajaraylik:

$$d^2 = R^2 + 4R^2 \sin \alpha \, (\sin \alpha - \cos(\beta - \gamma)) =$$
$$= R^2 + 4R^2 \sin \alpha \left(\cos\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) - \cos(\beta - \gamma)\right) =$$
$$= R^2 + 4R^2 \sin \alpha \, (\cos(\beta + \gamma) - \cos(\beta - \gamma)).$$

Bu tenglikka yig‘indi va ayirmaning kosinusi formulasidan, yoki kosinuslar yig‘indisi va ayirmasi formulasidan foydalanilib, yig‘indidan ko‘paytmaga o‘tamiz:

$$d^2 = R^2 - 8R^2 \sin \alpha \sin \beta \sin \gamma.$$

Ixtiyoriy uchburchak uchun sinuslar teoremasi Sizga ma’lum:

$$\frac{a}{\sin 2\alpha} = \frac{b}{\sin 2\beta} = \frac{c}{\sin 2\gamma} = 2R.$$

Bu munosabatlardan uchburchak tomonlarini topamiz:

$$a = 2R \sin 2\alpha\,, \quad b = 2R \sin 2\beta\,, \quad c = 2R \sin 2\gamma.$$

Endu uchburchak yuzini topishning quyidagi ikki - $S = r\frac{a+b+c}{2}$ va $S = \frac{1}{2}ab \sin 2\gamma$ formulasidan $r\frac{a+b+c}{2} = \frac{1}{2}ab \sin 2\gamma$ tenglikni yozib, a, b, c larning o‘rniga topilgan qiymatlarni qo‘yib, tenglikni soddalashtiring:

$$r = \frac{4R^2 \sin 2\alpha \sin 2\beta \sin 2\gamma}{2R(\sin 2\alpha + \sin 2\beta + \sin 2\gamma)} = \frac{2R \sin 2\alpha \sin 2\beta \sin 2\gamma}{\sin 2\alpha + \sin 2\beta + \sin 2\gamma}.$$

Endi kasrning maxrajiga shakl almashtirish bajaraylik:

$$\sin 2\alpha + \sin 2\beta + \sin 2\gamma = 2 \sin(\alpha + \beta) \cos(\alpha - \beta) + \sin\big(\pi - 2(\alpha + \beta)\big) =$$
$$= 2 \sin(\alpha + \beta) \cos(\alpha - \beta) + \sin 2(\alpha + \beta) =$$
$$= 2 \sin(\alpha + \beta) \cos(\alpha - \beta) + 2 \sin(\alpha + \beta) \cos(\alpha + \beta) =$$
$$= 2 \sin(\alpha + \beta) \, (\cos(\alpha - \beta) + \cos(\alpha + \beta))$$
$$= 4 \sin\left(\frac{\pi}{2} - \gamma\right) \cos \alpha \cos \beta = 4 \cos \gamma \cos \alpha \cos \beta.$$

Bu tenglikni kasrning maxrajiga qo‘yib, suratiga ikkilangan burchakning sinusi formulasidan foydalanib, ifodani soddalashtiring.

Bundan ko‘rinib turibdiki $r = 4R\sin\alpha\sin\beta\sin\gamma$ munosabatni hosil qilish mumkin. Bu tenglikni topilgan markazlar orasidagi masofa formulasiga qo‘ysak $d^2 = R^2 - 2Rr$ tenglik hosil bo‘ladi.

XULOSA

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan masalani bir nechta sodda masalalarga bo‘lib, so‘ngra muloqot tarzida mashg‘ulot olib borish o‘quvchilarda geometrik tushunchalarni rivojlantiradi, shu bilan birga fikrlar xilma-xilligi ularda to‘g‘ri xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Bu esa o‘quvchilarning matematik tafakkurini kengaytirib, kelajakda o‘zi tanlagan sohasida uchraydigan muammolarning eng maqbul yechimini topishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Рожков З.И., Курдеванидзе Г.Д., Панфилов Н.Г. (1987) *Сборник задач математических олимпиад*. М.: Изд-во УДН.

2. Rahimqoriyev A.A., Toxtaxodjayeva M.A. (2019). *Geometriya,* Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinflari uchun darslik. T.: “O‘zbekiston”.

3. B. Xaydarov, E. Sariqov, A. Qo‘chqorov. (2019). *Geometriya*, Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent.

ЎҚИТИШ ВОСИТАЛАРИНИ ЛОЙИҲАЛАШ ВА ҚЎЛЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ҚОНУНИЯТЛАРИ

Нурбобоев Шокир Бойназарович
Самарқанд Давлат университети мустақил тадқиқотчиси
shokirjon1991@email.com

АННОТАЦИЯ

Кўп босқичли узлуксиз олий таълим жараёнини таъминлаш учун ўқитиш воситаларини илмий асосланган лойиҳалаш, яратиш ва қўллашнинг замонавий концепцияларини ёритишдан иборат.

Калит сўзлар: Узлуксиз таълим, концептуал мулоҳазалари, ўқитиш воситалари дидактик тизим.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ЗАКОНЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХ СРЕДСТВ

АННОТАЦИЯ

Освещение современных концепций наукоемкого проектирования, создания и применения средств обучения для обеспечения многоступенчатого непрерывного процесса высшего образования.

Ключевые слова. Концептуальные аспекты непрерывного образования Учебно-методическая система

PEDAGOGICAL LAWS FOR THE FORMATION AND APPLICATION OF EDUCATIONAL AIDS

ABSTARCT

Illumination of modern concepts of science-intensive design, creation and application of teaching aids to ensure a multi-stage continuous process of higher education

Key words. Conceptual aspects of continuous education Educational and methodological system

КИРИШ

Коронавирус пандемияси даврида инсоният ҳаётининг барча соҳаларида мисли кўрилмаган ўзгаришлар рўй бермоқда. Йиллар давомида шаклланган қадриятлар, анъаналар ва тамойилларнинг “бўлиниши” га олиб келди. Хусусан, нуфузли олимлар, халқаро ташкилотлар экспертлари томонидан яқин ва ўрта

муддатли истиқболда ерларнинг ўзлаштирилишига таҳдид солувчи хавфлар бўйича берилган прогноз кўрсаткичлари тасдиқланмаган. Аммо бу аниқ: агар дунё бир бутун сифатида ҳаракат қилмаса, инсон ўта хавфли вазиятнинг қурбонига айланиб бораётганига шубҳа йўқ. Нажотнинг ягона йўли – тўпланган билим, шаклланган кўникма ва хулосаларни ягона мақсад сари йўналтириш, билим ва тажрибани самарали уйғунлаштиришдир.

Билим ва билимнинг шаклланиши эса бевосита таълим тизимидан келиб чиқади. Таълим тизимининг самарадорлиги бевосита ўқитувчининг савиясига, талаба эҳтиёжларига, ўқув адабиётлари мазмунига ва мустақил таълимни шакллантиришга қаратилган инфратузилмага боғлиқ. Бинобарин, илғор кадрлар тайёрлаш, уларнинг меҳнат бозори талаблари асосида рақобатбардошлигини ошириш, ижодий фикрлайдиган мутахассисларни тайёрлаш таълим муассасаларида йўлга қўйилган ўқув жараёни билан чамбарчас боғлиқ.[47]

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Таълим фаолияти нафақат инновацион таълим технологиялари асосида ўқитишга, балки талабани мустақил таълим олишга, таълимга янгича ёндашувга ўргатиш, зарур ва чуқур назарий билимларни олиш, меҳнат бозори талаблари асосида амалий кўникма ва малакаларни шакллантиришга қаратилган. Бу тизим талабанинг касбий ривожланиши ва камолотига ҳамда унинг ҳаёт давомида билимларни эгаллашни таъминлашга ва меҳнат бозорининг замонавий талабларига жавоб бера оладиган инсон капиталини шакллантиришга қаратилган.

Тарихан шундай шаклланганки, назарий муаммолар ўрганилаверган, амалий иш эса муайян даражада ажралган ҳолда олиб борилган. Ўқитиш воситалари илмий ёндашувларни етарлича концептуал асослашсиз, тизимсиз, уларни қўллашнинг аниқ шароитларидан ташқарида яратилган, таълим жараёнининг ташқи ва ички омиллари ҳамда бўғинларининг булар билан алоқасини ҳисобга олмасдан, уларнинг ўзаро алоқасини эътиборга олмасдан лойиҳалаштирилган. Таълим жараёнидаги уларнинг ўрни ва ролини етарли даражада илмий асослашсиз, ўқитишнинг мақсадлари ва мазмунини амалга ошириш қўлланилаётган шакллари ва усулларининг функционал-дидактик имкониятларисиз педагогик жараёнига қандайдир илова бўлиб хизмат қилган, бу эса уларни қўллаш самарадорлигини сезиларли даражада камайтирган.[48]

НАТИЖАЛАР

Узлуксиз таълим жараёнида ўқув воситаларини дидактик лойиҳалаш ва

[47] Бегимқулов У.СҲ. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил етиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. ...дисс. – Т., 2007. – 305 б.

[48] Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. … док.пед.наук. - СПб.: 1995. – 43 с.

модулли қўллаш олий таълимининг қуйидаги дидактик қонуниятларини: шахснинг шаклланиши, олий таълим ва ўзаро алоқалари; педагогик ва амалиёт жараёнларининг ўзаро ҳаракати; касбга йўналтириш интеграцияси, дифференциациянинг бирлиги; профессионал ва олий таълимнинг ўзаро алоқаси; шахс шаклланишидаги ижтимоийлашув ва профессионаллашувининг ўзаро боғлиқлигини [Беляева А.П.] ҳисобга олган ҳолда, шунингдек, ўқитиш жараёни услубий қонуниятларини:олий таълимнинг услубий (ёки технологик)тизимидаги асосий бўғинларнинг ўзаро алоқаси ва ўзаро ҳаракати бирлиги; ўқитиш ва билим олиш жараёнининг бирлиги (билимлар, малака ва кўникмалар шаклланишига психологик-педагогик қонуниятлар ва дидактик тамойилларнинг таъсиридан ўзаро бир-биридан келиб чиқадиган ўқув фаолиятидаги ўқитувчининг ҳамда талабаларнинг ўқитиш ва ўқиш фаолияти бирлиги); ўқитиш воситаларининг функционал имкониятлари ва ўқитувчининг ўқитиш фаолияти ҳамда талабалар ўқув фаолияти ўқитиш мазмуни ва элементлари воситаланиш жараёнидаги намоён бўлиши даражаларининг ўзаро алоқаси, ўқитишни ташкил этиш шаклларини ҳисобга олган ҳолда ўтказилиши лозим.[49]

Биз ишлаб чиққан концепциянинг асосини яхлит педагогик тизим сифатидаги ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва қўллашга модулли ёндашув ташкил этади.

ХУЛОСА

Таълим олиш шароитларида мутахассисликка тайёрлашнинг замонавий тенденциялари, мақсадлари, педагогик қонуниятлари, тамойиллари, ҳамда талабларига асосланган ҳолда ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш дидактик тизимининг қуйидаги ***етакчи, услубий, концептуал мулоҳазалари*** шакллантирилди:

- ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш дидактик тизими башоратловчи, модулли-мақсадли, кўп босқичли, кўп соҳали, очиқ, умумий, дидактик-услубий тизим бўлиб, ундан ўқитиш воситалари модулли илмий асосланган лойиҳалаш ҳамда булар билан олий таълим ихтисосликлари ва касбларининг турли ўқув фанлари, тайёрлаш (таълим) йўналишларини таъминлаш учун фойдаланиш мумкин.
- Дидактик тизим тузилмаси унинг фаолият кўрсатишига таъсир қилувчи ички ва ташқи омиллар ва шароитлар; ўқитиш воситаларини дидактик лойиҳалаш ва модулли қўллаш жараёнларига қўйиладиган ўзига хос тамойиллар ва талаблар; дидактик технологиялар ҳамда унинг воситалари; ўқитиш воситаларини лойиҳалаш, тажриба-конструкторлик ишлаб чиқилиши ва яратилиши; ўқув-тарбия жараёнида

[49] Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении диссиплин педагогическогоссикла: Дис. … канд. пед. наук. – Т., 2002. – 146 с.

уларни модулли қўллаш билан белгиланади.

- Ўқув воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш дидактик тизимининг амал қилиши ва ривожланиши мутахассисларини тайёрлаш (ўқитиш) йўналишларининг дидактик ва услубий қонуниятларига, умумий дидактик ҳамда махсус касбий тамойилларига асосланади.

- Ўқитиш воситаларини лойиҳалаштириш ва модулли қўллаш дидактик-технологик яхлитликдан иборат бўлган, башоратлаш, режалаштириш, ўқитиш воситаларини танлаш, уларнинг мажмуи таркибини бутлаш, оптималлигини баҳолаш, ишлаб чиқиш, яратиш ва таълим жараёнида модулли қўллаш жараёнларининг турли даража ва босқичларини қамраб олувчи инновацион технология асосидаги дидактик педагогик лойиҳалаш босқичларининг мантиқий ўзаро боғлиқлигида амалга оширилади.

- Ўқитиш воситаларининг модулли лойиҳалашнинг дидактик технологияси ва унинг воситалари олий таълим педагогикаси, дидактика ҳамда назарий ва амалиёт таълим услубиётига таянади, буларда ўқитиш воситаларига дидактик функциялар ҳамда ўқув вазифаларига эга бўлган ва таълим тизими объектлари ва жараёнларини таҳлил қилиш ҳамда моделлаштиришга бўлган тизимли, шахсли-фаолиятли, технологик ва алгоритмли ёндашувлар асосида амалга ошириладиган мустақил етакчи педагогик категория сифатида қаралади, буларда ўқитиш воситаси педагогнинг ўқитиш фаолияти бошқа бўғинлари: мақсадлари, мазмуни, шакли, усуллари ва технологиялари ҳамда талабаларнинг ўқув фаолияти билан тизим яратувчи алоқага эга бўлган энг муҳим бўғин сифатида юзага чиқади.

Ўқитиш воситаларини дидактик лойиҳалаш ва модулли қўллашнинг ўзига хос тамойиллари дейилганда бошланғич талаблар ва қоидалар мажмуи тушинилади. Буларга риоя қилинганда зарурий ўқув воситаларини илмий асосланган режалаштириш ва танлаш ҳамда уларнинг мажмуаларини яратиш, кўп босқичли, узлуксиз касбга тайёрлаш жараёнида буларни самарали қўллаш таъминланади.[50]

Ўқитиш воситаларини лойиҳалаштиришнинг ўзига хос тамойиллари жумласига: ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва қўллашнинг дидактик зарурати ва мақсадга мувофиқлиги; лойиҳалашнинг илғор хусусияти; модуллик ва кўп функциявийлик; ўқитиш воситаларида ўқув маълумотининг бирлашуви ва фарқланиши, вариативлик ва муқобиллик; оптималлик; дидактик ва техник лойиҳалашнинг бирлиги киради.[51]

Ўқитиш воситалари мажмуаларини лойиҳалаш дидактик технологиясининг

[50] Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – 115 с.

[51] Исақулова Н.Ж. Узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларга фанлараро екологик тарбия беришнинг назарияси ва амалиёти (Умумий ўрта таълим ва педагогика коллежининг “Бошланғич таълим” йўналиши мисолида). Дис.пед.фан док. – Т.: ЎМКҲТТКМО ва УҚТИ, 2012. –Б. 288

асосий воситалари: ўқитиш воситаларининг атамали тушунчалари ва таснифи; ўқитиш жараёнидаги функционал-дидактик имкониятлар ҳамда ўқитиш воситаларини оқилона қўллаш соҳалари; ўқитиш воситаларининг ўқитиш жараёнида ушбу жараённи билиш, ўрганиш, унинг ривожини башорат қилиш ҳамда ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш шароитларида уларни бошқариш учун ҳисобга олиниши зарур бўлган бошқа тизим яратувчи бўғинлари билан ўзаро алоқасидир.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 41 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 92 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш консепсиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

4. Бегимқулов У.СҲ. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил етиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. ...дисс. – Т., 2007. – 305 б.

5. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. … док.пед.наук. - СПб.: 1995. – 43 с.

6. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогическогоссикла: Дис. … канд. пед. наук. – Т., 2002. – 146 с.

7. Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – 115 с.

8. Исақулова Н.Ж. Узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларга фанлараро екологик тарбия беришнинг назарияси ва амалиёти (Умумий ўрта таълим ва педагогика коллежининг “Бошланғич таълим” йўналиши мисолида). Дис.пед.фан док. – Т.: ЎМКҲТТКМО ва УҚТИ, 2012. –Б. 288

XORAZM VOHASI SHAROITIDA SHIRINMIYA O‘SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ismayilova Intizar
q.x.f.n., dots, Urganch davlat universiteti, Urganch,
malikam3105@gmail.com.,

Xo‘jayozova Dilnura G‘apparganovna,
Urganch davlat universiteti II-bosqich magistranti, Urganch,
d_ xo‘jayozova5586@inbox.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada Xorazm viloyatida yetishtirilayotgan shirinmiya o‘simligining bioekologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: shirinmiya, o‘simlik, ildiz, barg, biologik, ekologik, yetishtirish, og‘irlik, namlik, tuproq.

ABSTRACT

The article describes the bioecological features of the licorice plant grown in Khorezm region.

Key words: licorice, plant, root, leaf, biological, ecological, cultivation, weight, moisture, soil.

Hozirgi kunda tabobatda ko‘p asrlar davomida xalq sinovidan o‘tgan, olimlar tomonidan o‘rganilgan va tekshirib ko‘rilgan 2500 dan ortiq dorivor o‘simliklardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Mamlakatimizda bugungi kunda rasmiy (ilmiy) tibbiyotda dorivor o‘simliklarning faqat 100 ga yaqinidan foydalanilmoqda, xolos. Qolgan 500 tur dorivor o‘simlik o‘z izlanishlarini kutmoqda. Ushbu doirada mamlakatimizda yovvoyi holda o‘sadigan o‘simliklarni yetishtirish, yig‘ish, tayyorlash va qayta ishlashni tizimli ravishda tashkil etishni yanada tartibga solish, yalang‘och qizilmiyani xomashyo sifatida eksport qilishdan manfaatdor bo‘lgan tadbirkorlik subhektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek tadbirkorlik subhektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada erkinlashtirish maqsadida juda katta reja va tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o‘simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 ta turi dorivor

hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda. Tahlillar dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining 2020-yil 1-maydan boshlab dorivor o‘simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini (keyingi o‘rinlarda – dorivor o‘simliklar klasteri) tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashtirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullangan. Bunda, dorivor o‘simliklarndan, qizilmiya o‘simligini (shirinmiya) (*Glycyrrhiza glabra* L.) ko‘chatidan (qalamcha) tipik bo‘z tuproqlar, tekislik yer maydonlariga mos, suvga talabchan, sho‘r yerlarda o‘sadigan (kriptogalofit) o‘simlik sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarining barcha tumanlarida yetishtirish ko‘zda tutilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm vohasi sharoitida shirinmiya o‘simligining bioekologik xususiyatlari o‘rganish.

Qizilmiya, yalang‘och qizilmiya yoki mayin qizilmiya (lot. Glycyrrhíza glábra) - ko‘p yillik o‘t o‘simlik; dukkaklilar (Fabaceae) oilasiga mansub qizilmiya (Glycyrrhiza) turlaridan biri. Qizilmiya dorivor, oziq-ovqat va texnik o'simlik sifatida, ko'pikli vosita sifatida ham keng qo'llaniladi.

Tarqalishi va ekologiyasi. Qizilmiya cho‘l va chala cho‘l daryolarining vodiylari va tekisliklarida, qirg‘oq bo‘yi zonasidagi qumli qirg‘oqlarda, dasht va chala cho‘llarda, o‘tloqlarda, butalar, yo‘llar va sug‘orish kanallari bo‘yida o‘sib, zich chakalakzorlarni hosil qiladi. Qumli va sho'rlangan tuproqlarni afzal ko'radi, shuningdek, qattiq chernozem loy tuproqlarida uchraydi.

Botanik tavsifi. Barglari navbatma-navbat, toq patsimon, uzunligi 5-20 sm, 3-10 jufti oval yoki cho'zinchoq-tuxumsimon, barg chetlari butun, uchlari o‘tkir. Barglari yopishqoq nuqtali bezlari bilan qoplangan. Yon yaproqlar kichik, gullash vaqtiga kelib tushib ketadi. Gullari 8-12 mm diametrli, 5-8 gulli qo'ltiq osti shoxchalarida, uzunligi 3-5 sm. Gulkosa naychasimon tishli, nayga teng yoki undan yuqori. Gultoj bargi oq-binafsha rang, noto‘g‘ri. Mevasi terisimon, to‘g‘ri yoki jigarrang dukkakli, ikki-oltita urug‘li, uzunligi 2-3 sm, eni 4-6 mm, tuksiz yoki bezli tikanlar bilan qoplangan. Urug'lari buyraksimon, yaltiroq, yashil-kulrang yoki jigarrang. Iyundan avgustgacha gullaydi. Mevalar avgust-sentyabr oylarida pishadi. Qizilmiya o‘simligi urug'idan yoki vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladi. Vegetativ ko'payish jarayonida stolonning har bir ildizi oxirida kurtakcha bo‘ladi, undan yosh o'simlik rivojlanadi, yer usti poyalari, tik ildiz va stolon ildizlarining yangi to‘rini

beradi. Shunday qilib, qizilmiya uzoq masofalarga tarqaladi va zich chakalakzorlarni hosil qiladi.

Qizilmiya o‘simligining tuproq muhitiga talablar. Qizilmiya o‘simligi tuproq eritmasida uchraydigan nordon yoki sho‘rga ko‘ra turlicha munosabatda bo‘ladilar. Masalan: qizilmiyaning ba’zi turlari atmosfera tarkibidagi azotni yuqori darajada o‘zlashtiradi, yuqori hosil beradi. Loviya va beda esa bu sharoitda deyarli havodagi azotni o‘zlashtirmaydi, azot etishmovchiligi ro‘y beradi, hosili keskin kamayadi.

Qizilmiya o‘simligining namlikka bo‘lgan talabi. Agar kapilyarlarda namlik yetrali bo‘lmasa boshqa manbadan suv olishga urinadi, ba’zan mayda ildizchalar hosil bo‘ladi, lekin mavjudotlar nobud bo‘ladi. Chunki, fotosintez mahsulotlari mayda ildizlarni o‘sishiga ko‘proq sarf bo‘ladi, bargda karbonsuvlar yetishmasligidan, havo azotini kam fiksatsiyalanishini ro‘y beradi. Tuproqda namlikni vegetatsiya davomida yetishmasligi qizilmiya ildizida tuganaklar sonining 50 – 60% ga kamayib ketishiga olib keladi. Namlik 75% li muxitda esa hosildorlik oshgan.

Xom ashyoni tayyorlash va saqlash. Qizilmiya ildizini (lat. Radix Glycyrrhizae, Radix Liquiritiae) - dorivor xom ashyo sifatida ildiz va ildizpoyalardan foydalaniladi. Xom ashyo tayyorlash yil davomida amalga oshiriladi. Ildizlari qazib olinadi, poyasi kesiladi, chayqatiladi yoki sovuq suvda yuviladi, bo'laklarga bo'linadi va quyoshda yoki havo yaxshi aylanadigan xonalarda quritiladi. Yaxshi quritilgan xom ashyo 10 yilgacha saqlanadi.

Kimyoviy tarkibi. Yer ustki qismida quyidagi moddalar aniqlangan: uglevodlar (2,13% gacha), polisaxaridlar, organik kislotalar (2,5 gacha), efir moyi (0,02), triterpenoidlar (glisirrizin kislotasi, glitsiretin kislota va boshqa steroidlar, β-sitosterin, glitsestron), triterpen saponinlar, kumarinlar (1,9—2,4), taninlar (5,5%), flavonoidlar (izokvertsitrin, qvercetin, kempferol va boshqalar), lipidlar (6,26 %), azotli birikmalar (xolin, betain), vitaminlar (askorbin kislotasi, karotin). Efir moyining tarkibi aldegidlar, ketonlar, spirtli va ularning hosilalari, terpenoidlar, aromatik birikmalar, yuqori alifatik uglevodorodlar, yuqori yog'li kislotalarning efirlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy ahamiyati va qo‘llanilishi. Qizilmiyaning dorivor maqsadlarda qo'llanilishi Xitoy tibbiyotining qadimgi yodgorligi "O'tlar haqida risola" da eslatib o'tilgan. Xitoylik shifokorlar qizilmiya ildizini birinchi darajali dori sifatida tasnifladilar va uni barcha dorivor aralashmalarga kiritishga harakat qilishdi. Tibetda qizilmiya ildizlari "uzoq umr ko'rishga va oltita hissiyotdan yaxshiroq foydalanishga yordam beradi" deb ishonishgan. O'simlikning ildizlari Ossuriya va Shumerda keng qo'llanilgan, u erdan Qadimgi Misr shifokorlari tomonidan qarzga olingan. U sanoatda ko'pikli vosita sifatida, xususan, metallurgiyada ko'pikni flotatsiya qilish uchun va yong'inga qarshi vositalarni to'ldirish uchun aralashmalarning bir qismi sifatida

ishlatiladi. Kavkaz va O'rta Osiyoda jun va kigiz ildizlarning qaynatmasi bilan bo'yalgan. Qizilmiya siyoh va gutalin ishlab chiqarishda, to'qimachilik sanoatida bo'yoqlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Tamaki sanoatida - chaynash, chekish va tamakiga ta'm va lazzat qo'shish; Yaponiyada - nikotinsiz surrogat sigaretalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. U manzarali o'simlik va qumni mustaxkamlovchi sifatida ishlatiladi.

O'simlikning ildizlari va ildizpoyalari oziq-ovqat sanoatida ekstraktlar, siroplar shaklida, alkogolsiz ichimliklar, pivo, kvas, tonik ichimliklarda shakar o‘rnini bosuvchi va ko'piklantiruvchi vosita sifatida shuningdek, tuxum oqini yaxshiroq ko‘pirtirish uchun ishlatiladi. O'simlik qahva, kakao, marinadlar, kompotlar, jele, un mahsulotlari, holva, karamel, zefir va shokolad tayyorlash uchun ishlatiladi; shuningdek, baliqni qayta ishlashda, karam tuzlashda, uzun bargli va yashil choyga qo'shimcha sifatida; Qirg'izistonda - choyning o‘rnini bosuvchi sifatida, Yaponiyada - oziq-ovqat antioksidant qo'shimchasi sifatida, Yaponiya va Misrda - oziq-ovqat va ichimliklarga bakteritsid va fungitsid xususiyatlariga ega bo'lgan qo'shimchalarning tarkibiy qismlari qatorida ishlatiladi.

Ilmiy tibbiyotda qo‘llanilishi. Ildizlari va ildizpoyalari dorivor ahamiyatga ega. Ular yuqori nafas yo'llarining kasalliklarida yumshatuvchi, yallig'lanishga qarshi, diuretik preparatlar tarkibida, giperatsid gastrit, oshqozon yarasi va o'n ikki barmoqli ichak yarasi ("Liqviriton", "Flakarbin"), bronxial astma, neyrodermatit, allergik va kasbiy dermatit, ekzema ("Glisiram"), revmatizm, gemorroy kasalliklari uchun antatsid va qoplovchi vosita sifatida tavsiya etilgan dorilarning tarkibiga kiradi. Qizilmiya kukuni farmatsevtika amaliyotida tabletkalar uchun asos sifatida va dori vositalarining ta'mi va hidini yaxshilash uchun ham qo'llaniladi. Qizilmiya ildizlarida 23% gacha bo'lgan glitsirrizin kislotasi ularga shirin ta'm beradi. Bu diabet bilan og'rigan bemorlarning klinik ovqatlanishida glitsirrizin kislotasini qo'llash imkonini berdi, masalan, saxarin taqiqlangan Yaponiyada. Biroq, glitsirrizin kislotaning kortikoste roidga o'xshash ta'siri uni shakar o'rnini bosuvchi sifatida ishlatishni cheklaydi. Glitsirrizin kislotasi deoksikortikosteron va kortizonga o'xshash ta'sirga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xo‘jaev K. Dorivor Astragalus suversianus L. O‘simligining bioekologiyasi. Ekologiyaning hozirgi zamon muammolari va ularning yechimi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Farg‘ona. 2017. 139-bet
2. Tabiiy birikmalardan qishloq xo`jaligida foydalanish istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Guliston:Universitet, 2018. 335b.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЭКОЛОГИК АТЛАС МАКЕТИ, ТАРКИБИ ВА МАЗМУНИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ХАҚИДА

Кувондиков Рустам Абдурасул ўғли
ЎзМУ Ўзбек-Қозон қўшма таълим дастури ўқитувчиси
rustam4230096@gmail.com

Шоғдаров Дониёр Дилшод ўғли
“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университетининг Қарши ирригация ва агротехналогиялар институти “Умумтехник фанлар” кафедраси ўқитувчиси
doniyorshogdarov1997@gmail.com

Тўхтаев Асадбек Чори ўғли
“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университетининг Қарши ирригация ва агротехналогиялар институти “Геодезия ва геоинформатика” йўналиши талабаси asadbektoxtaev97@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада Қорақалпоғистон Республикаси экологик атласининг макети, таркиби ва мазмуни ҳақида маълумотлар келтирилган бўлиб, экологик атлас карталари рўйхати, масштаби ва мазмунини ишлаб чиқиш масалалари ёритилган. ҚораҚолпоғистон Республикасида экологик муаммоларни ҳамда Оролбўйидаги экологик вазиятнинг ўзгариб бориши ҳамда экологик вазиятнинг кескинлашув ҳолатлари йилдан – йилга ортиб бормоқдадир. Шу боис, ҳозирги вақтда экологик хариталарни ишлаб чиқиш муҳим саналади. Экологик хариталарни ишлаб чиқиш учун аввало, уларнинг таркиби, мазмуни ва легендасини ишлаб чиқиш муҳим саналади. Ушбу мақолада Қорақалпоғистон Республикасининг минтақавий экологик харита легендаларини ишлаб чиқишда замонавий ГАТ (датурлари) технологияларидан фойдаланиб маълумотлар базасини шакллантириш жараёнлари тасвирланган.

Калит сўзлар: Атлас, карта, кесма-карта, макет, космофотосурат масштаб, экология, геоахборот тизимлари, маълумотлар базаси, ландшафт, легенда, ЭкоГАТ, географик таҳлил.

О ИЗГОТОВЛЕНИЕ МАКЕТ, СОСТАВА И СОДЕРЖАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО АТЛАСА РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

АННОТАТЦИЯ

В статье приведены сведения о макете, составе и содержании экологического атласа Республики Каракалпакстан, разработке перечня, масштаб и содержание карт экологического атласа. Экологические проблемы в Республике Каракалпакстана, изменение экологической ситуации в Приаралье и обострение экологической ситуации. Поэтому в настоящее время важным является разработка экологических карт. Для разработки экологических карт важно, прежде всего, разработать их состав, содержание и схему. В данной статье описываются процессы формирования базы данных с использованием современных технологий ГИС (программа) при разработке проектов региональных экологических карт Республики Каракалпакстана.

Ключевые слова. Атлас, карта, карта-врезка, макет, космофоторисунка масштаб, экология, геоинформационные системы, база данных, ландшафт, легенда, карта, “ЭкоГАТ, географический анализ.

ABOUT MAKING LAYOUT, COMPOSITION AND CONTENT OF ECOLOGICAL ATLAS THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

ABSTRACT

The article provides information about the layout, composition and content of the ecological Atlas Of The Republic of Karakalpakstan, covers the issues of the list of ecological atlas cards, mass production and content development. Environmental problems in the Republic of Karakalpakstan, as well as changes in the ecological situation in the Aral Sea region and the aggravation of the environmental situation are increasing year by year. Therefore, at present, the development of ecological Maps is considered important. For the development of ecological maps, it is important first of all to develop their composition, content and Legend. This article describes the processes of database formation using modern GIS (program) technologies in the development of Legends of the regional ecological map of the Republic of Karakalpakstan.

Key words. Ecology, geographic information systems, database, landscape, legend, map, probing, EcoGAT, geographical analysis.

КИРИШ. Ҳозирги кунга келиб, “экологик-картографик тадқиқотларда одамларнинг яшаш шароитига салбий ёки ижобий таъсир этадиган табиий ва

антропоген экологик омилларни акс эттирадиган мавзули карталар алоҳида аҳамият касб этмоқда. Экологик атласлар илмий-маълумотномали қўлланма бўлиб, улардан биринчи навбатда Олий ўқув юртларида ўз ҳудудини, ўрганишда, унинг экологик ҳолати билан танишишда зарурий қўлланма хисобланади. Шунингдек, атласдан экология, география биология фанлари бўйича факультатив курсларда, ҳамда иқтисодиётда, халқ хўжалигининг муҳим тармоқларини ўрганиш ва тадқиқот ишларини олиб боришда фойдаланиш мумкин. Экологик ҳолатни карталаштириш борасида экологик кўрсаткичларни ўзаро боғлиқ ҳолда тизимли тасвирлайдиган махсус атлас карталарини яратиш талаб этилмоқда [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 31 майдаги ПФ-5065-сон “Ерларни муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланиш борасида назоратни кучайтириш, геодезия ва картография фаолиятини такомиллаштириш, давлат кадастрлари юритишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонлари ва 2017 йил 31 майдаги ПҚ-3024-сон “Ўзбекистон Республикаси Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш муҳим амалий аҳамиятга эга [2].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ. Экологик карта ва атласлар яратиш бўйича ЎзР ФА География бўлимида республикамизда ва МДҲ давлатларида биринчилардан бўлиб чоп этилган 1:1000000 масштабли “Ўзбекистон Республикаси экологик картаси” (1992), “Экосан” ташкилоти билан ҳамкорликда А.Рафиқов ва Т.Мирзалиевлар муҳаррирлигида “Ўзбекистон Республикасини табиатни мухофаза қилиш” картаси (2002), “Ўзбекистоннинг экологик атласи”, Х.А.Тойчиев, Э.Ю.Сафаров, Н.И.Сабитова (2007), Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси томонидан чоп этилган “Ўзбекистонда атроф муҳит ҳолатини экологик кўрсаткичлар асосида баҳолаш атласи”, Ф.Ҳ.Ҳикматов ва бошқалар (2008), шунингдек А.Эгамбердиев, В.А.Рафиқов, Ж.Қорабоев, П.Реймов, Ш.М.Шарипов, олиб борган илмий тадқиқотларида ҳудудларнинг экологик ҳолатини юзага келтирувчи экологик омиллар ва индикаторларнинг тарқалишини, экологик вазиятнинг кескинлик даражаларини картографик тасвирлаш методикаси ёритилган. Бу тадқиқотлар экологик картографияни географик жиҳатларининг илмий асосларини такомиллаштириш учун муайян

имкониятларни беради. Бироқ, юқоридаги тадқиқотларда алоҳида водий ва воҳа ҳудудларининг илмий-назарий асослари муайан узвийликда ўрганилмаган, атласлари яратилмаган.

НАТИЖАЛАР. Экологик геоахборот тизимининг мақсади экологик вазиятларнинг пайдо бўлишида замонавий жараёнларни визуал акс эттириш, уларни нормаллаштириш ва олдини олиш бўйича чора тадбирларни ишлаб чиқиш учун уларнинг кескинлигини баҳолаш имконини берувчи турли ахборотларни картографик шаклда ҳудудий ташкил этиш, тўплаш, қайта ишлаш ва тақдим этишдир.

Ушбу мақсадга эришиш жараёнида қуйидаги вазифалар ўз ечимини топган:

1) тасвирланаётган ҳудуднинг экологик ҳолатини илмий тадқиқ этишда картографик методдан фойдаланиш аҳамиятини асослаш;
2) замонавий ГАТ технологиялари янги дастурларидан фойдаланилган ҳолда экологик атласнинг таркиби ва мазмунини ишлаб чиқиш;
3) замонавий ГАТ технологиялари янги дастурларидан фойдаланилган ҳолда экологик атласнинг таркиби ва легендасини ишлаб чиқиш.

МУҲОКАМА. Экологик атласлар илмий-маълумотномали қўлланма бўлиб, биринчи навбатда Олий ўқув юртларда ўз водийси, ўлкасини ўрганиш, унинг экологик ҳолати билан танишиш, муҳофаза қилиш учун мўлжалланган. Шунингдек, мазкур атласдан экология, география биология фанлари бўйича факультатив курсларда, ҳамда иқтисодиётда, халқ хўжалигининг муҳим тармоқларини ўрганиш ва синфдан ташқари ўлкашунослик, экология ишларида фойдаланиш мумкин.

Атласнинг мазмуни табиатни муҳофаза қилиш қўмитаси ва Таълим муассасалари дастури асосида тузилиши лозим. Шунингдек, атласни яратиш ўқув қўлланмалари ва илгари нашр қилинган илмий маълумотномали ва ўқув карталари асосида бўлиши зарур [3;64-б].

Атласлар мажмуали бўлиши керак. Атласнинг мазмуни табиий шароит ва ресурслар, табиатни муҳофазаси, экология, хўжалик, аҳоли, аҳолини касалликка чаланишига сабабчи бўлган омиллар, ўлка ёки водийнинг маъмурий тизими ва тарихи тўғрисида умумий маълумотларни бериши, шунингдек, водийнинг ўзига хос хусусиятлари ва ўз водийсидаги туризм учун сўровнома маълумотларга эга бўлади.

Атлас карталарига қўшимча равишда маълум миқдорда жадваллар, диаграмма, профил, кесмалар берилади. Мақсадга мувофиқ равишда, рангли фотосуратлар берилиши ва улар юқори сифатда тайёрланиши лозим.

Иқтисодий маълумотлар диаграммалари учун йиллар ва даврлар бўйича статистик маълумотлардан фойдаланилади. Айниқса, бунда ўлка ёки водий учун муҳим бўлган маълумотлар кўпроқ характерлидир. Статистик маълумотлардан фақат статистика бошқармалари рухсати билан фойдаланилади. Карталарда миқдорий кўрсаткичлар имконият даражасида фоизларда берилиб, абсолют катталикларда бериш мақсадга мувофиқ эмас.

Атласнинг нашри 10 га яқин рангларда берилиб, формати 35х25 см да, атлас карталари рангли, ўқувчилар учун тушунувчан, қулай бўлиши керак.

Атласнинг ҳажми карталаштирилаётган ҳудуд ва маъумотлар миқдорига боғлиқ. Экологик атлас 52 бетдан иборат бўлиб, атлас таркибига ўқувчиларга тушунарли ва содда бўлиши учун ўқув карталари киритилди.

Мундарижа бошқа атласлар каби 3 ёки 4 бетда келтирилади. Шартли белгилар алоҳида бетда, айрим ҳолларда уларни муқованинг ички томонига жойлаштириш мумкин.

Атлас матни атласни нашр қилувчи ташкилот томонидан қисқа, лекин водий тўғрисида аниқ маълумотлар асосида берилади. Матн муқова атрофида ёки атласнинг бошида берилиши мумкин. Ҳудуд тўғрисидаги маълумотлар ўқувчиларни қизиқтириши ва ўз ўлкасини ўрганишда аҳамият касб этиши керак. Матн қизиқарли, шунингдек, ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашга, ватанни севишга, табиатни асрашга йўналтирилган бўлади, табиий шароит ва ресурсларни хўжалик нуқтаи назардан баҳолашга эътибор берилиши, ҳамда мамлакатимизнинг иқтисодий ривожланишда табиат ва ресурсларнинг ўрни ва аҳамияти ёритилади [3;246-б].

Баъзи карталар учун қисқача матнли тушунчалар керак бўлади, уларни Ўзбекистон географик атласи, Харьков ва Украина областлари атласлари сингари ўша картада ёки унинг тўғрисида бериш мумкин. Матн тузилиб, қайта ишланади, сўнгра атлас муҳарририяти томонидан кўриб чиқилиб, якуний кўринишда муаллиф макетлари билан биргаликда республика Картография бош бошқармасига тавсия қилинади.

Картографик манба. Атласнинг географик асосини тузишда кўпгина картографик манбалардан фойдаланилади: ҳисоботлар, қўшимча манбалар сифатида республика ва водийнинг тематик карталари, географик атласлар, статистик манбалар, илмий адабиёт, тезис ҳамда илмий мақолалар шунингдек, автомобил ва темир йўл, туристик карта ҳамда схемалари кенг қўлланилди.

Атлас карталари учун географик асос олишда зарурий масштабларда асос тайёрланди. Картография фабрикасида эса технолог ёки атлас муҳаррири томонидан атлас карталари учун асос тайёрланади. Энг аввало, асосий карталар учун, сўнгра атлас карталаридаги қўшимча карталар учун намунавий асос тузилади.

Бу атлас махсус карталарнинг хусусиятлари билан белгиланади. Мазмунига кўра турли карталарнинг бирор бир масштабдаги асоси маълум жихатдан фарқ қилади.

Гидрография, аҳоли манзилгоҳлари, чегаралар, темир ва рельссиз йўллар, давонлар, картографик манбалар, шунингдек, картага олинаётган ҳудуднинг маъмурий ва ўқув карталари асосида тузилади.

Экологик карталарда атамалар транскрипцияси аҳоли пунктлари ва маъмурий бўлинишида ўша даврга мос равишда берилди, кўпинча, замонавий, янги номлар қавс ичида кўрсатилади. Экологик атлас қўшни давлатлар табиатини муҳофаза қилиш ва экологик атласлари билан мувофиқ қилинган ҳолда тузилади. Экологик атласни тузишда асосий ҳужжатлар атласнинг умумий дастури ва макет компоновкасидир. Атласнинг аҳамияти тўғрисидаги умумий вазифалардан ташқари унинг мазмуни, тузилиши, компоновкаси, масштаблари, алоҳида карталар мазмунига бўлган талаблар, генерализация бўйича кўрсатмалар ва ишни тайёрлаш технологияси асосий ҳужжатлар қаторига киради. Карталар рўйхати ва макет компановкаси дастури муассаса ёки буюртмачилар томонидан ишлаб чиқилади. Бу маълумотлар муаллифлик нусхаси, илмий ташкилотлар тақризи ва ҳужжатлари билан биргаликда Картография бош бошқармасига юборилади. Атлас лойиҳаси бўйича сўнгги назорат атласни нашр қилиш учун фабрика билан шартнома тузилади [4;160-б].

Масалан: бугунги кунда Қорақалпоғистон Республикасини табиатини мухофаза қилиш бўйича ишлаб чиқарилган тадбирларини кўрсатувчи карталар, шунингдек йирик шаҳарлардаги экологик вазият барча юртимиз равнақини ўйловчи аҳоли учун қизиқарлидир.

Атлас кенг оммага маъқул келиши учун атлас карталарини очиқ жойлари ранг баранг кўргазмали фотосуратлар билан безатилиши мақсадга мувофиқдир.

Карталар рўйҳати атлас номидан, легендасидан, мақсади ва мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилди. Қорақалпоғистон Республикасини экологик атласи учун қуйидаги карталар рўйхатига киритилди:

Қорақалпоғистон Республикаси экологик атласини ГАТ дастурлари ёрдамида макет компоновкасини яратиш мавзусидаги диссертация тадқиқотимизда ҳудуд экологик ҳолати тадқиқ қилинди. Натижада яратилиши

лозим бўлган карталар рўйхати, масштаби, уларнинг мазмуни таҳлил қилиниб, ишлаб чиқилди. (1-жадвал).

1-жадвал

Қорақалпоғистон Республикаси экологик атласини масштаби, таркиби ва мазмуни

№	Карталар номи	Масштаби	Карталарнинг мазмуни
1	Титул вароғи		
2	Авторлар рўйхати		Атлас карталарининг муаллифлари
3	Матн		Ҳудуд экологик шароити ҳақида қисқача тавсиф
4	Шартли белгилар тизими		Атлас карталарида фойдаланилган шартли белгилар
5	Мундарижа		Карталар рўйхати
6	Сиёсий маъмурий картаси	1:1 750 000	Ҳудуднинг сиёсий маъмурий жойлашган ўрни
7	Космофотосурат	1:1 750 000	Космосдан олинган сурат
8	Табиий-географик картаси	1:2 000 000	Ҳудуднинг табиий географик жойлашган ўрни
9	Геологик картаси	1:2 800 000	Ҳудуд геологияси
10	Фойдали қазилма конлари	1:2 800 000	Ҳуддудаги фойдали қазилма бойликлар
11	Геоморфологик карта	1:2 800 000	Худуд геоморфологик тузилиши
12	Ландшафт-экологик картаси	1:2 800 000	Ҳудуд ландашафти ва ундаги экологик ғолат
13	Ўсимликлар картаси	1:2 800 000	Ҳудуддаги ўсимликлар турлари, тарқалиши
14	Хайвонот дунёси картаси	1:2 800 000	Ҳудуддаги хайвонот олами, турлари, тарқалиши
15	Тупроқларнинг шўрлан-ганлик даражаси картаси	1:2 800 000	Ҳудуд тупроқларнинг шўрланганлик даражаси
16	Тупроқ экологияси картаси	1:2 800 000	Ҳудуд тупроқ экологик шароити
17	Иқлим картаси	1:2 800 000	Ҳудуднинг иқлим шароити
18	Гидрологик картаси	1:2 800 000	Ҳудуднинг гидрологик шароити
19	Ерлар мелиорацияси ва ирригация тармоқлари	1:2 800 000	Ҳуддудаги суғориладиган ерлар ва ирригация тармоқлари
20	Гидроэкологик картаси	1:2 800 000	Ҳудуднинг гидроэкологик шароити
21	Геоэкологик картаси	1:2 800 000	Ҳудуднинг геоэкологик шароити
22	Экологик картаси	1:2 800 000	Ҳудуддаги экологик вазият
23	Аҳоли саломатлиги ва умумий касалланиши. Тиббий экологик районлаштириш	1:2 800 000	Ҳудуд Аҳоли саломатлиги ва умумий касалланиши, касаллик турлари. Тиббий экологик районлари
24	Экологик холатни баҳолаш картаси	1:2 800 000	Ҳудуд экологик холатни баҳолаш
25	Экологик кескинлик даражаси	1:2 800 000	Ҳудуддаги экологик холатни кескинлик даражаси
26	Атмосфера ҳавосининг ифлосланиш картаси	1:2 800 000	Ҳудуд атмосфера ҳавосининг ифлосланиш даражаси
27	Атмосфера ҳавосини ифлослантирувчи омиллар картаси	1:2 800 000	Ҳудуд атмосфера ҳавосининг ифлосланиш омиллар
28	Чўллашиш картаси	1:2 800 000	Ҳудуддаги чўллашиш оқибатлари ва сабаблари
29	Орол денгизи динамикаси картаси	1:1 500 000	Орол денгизининг йиллар мобайнидаги ҳолати
30	Нукус шахри плани	1:1 500 000	Марказнинг бош плани

Бажарилиши кўзда тутилган «Қорақалпоғистон Респубдикаси экология атласи»да Оролбўйидаги мавжуд экологик вазият, атроф муҳит муҳофазаси масалаларининг миқдор ва сифат кўрсаткичлари ҳақида тўлиқ маълумотлар келтирилади.

Атлас алоҳида мавзули 25 та карталардан ташкил топган бўлиб, уларнинг ҳар бири махсус кесма (врезка)-карталар, диаграммалар ва жадваллар билан жиҳозланади. Уларда, яъни алоҳида мавзули карталарда Қорақалпоғистоннинг географик ўрни, аҳолиси, табиий шароити, махсус муҳофаза этиладиган ҳудудлар, ҳудуддаги мавжуд экотизимларнинг асосий типлари, чўллашиш шароити, ҳаво муҳитининг ифлосланиши, ландшафт-экологик ҳолати, геоэкологияси, гидроэкологияси, экологик ҳолатнинг инсон фаолиятига таъсири, суғориладиган ерларнинг экологик мелиоратив ҳолати ва бошқалар акс этади. Тадқиқот давомида уларнинг сони ва мавзуига аниқлик киритилиб борилиши мумкин.

Атлас макетини тайёрлашда асосий бирламчи маълумотлар сифатида Қорақалпоғистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш Давлат Қўмитаси, Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги, Қорақалпоғистон, Ўзбекистон ва қўшни давлатлар Миллий Гидрометеорология хизматига қарашли гидрологик станциялар ва постларда амалга оширилган стандарт кузатиш маълумотларидан бирламчи материал сифатида фойдаланиш кўзда тутилади. Ушбу маълумотлар тармоқ муассасалари ҳамда махсус экологик, атроф муҳит муҳофазаси, гидроэкологик, гидрологик кузатиш ҳамда қидирув тадқиқот экспедицияларининг маълумотлари билан тўлдирилади.

ХУЛОСА. Атласда келтириладиган маълумотлар, биринчидан, Қорақалпоғистондаги мавжуд экологик вазиятни баҳолашга имкон берса, иккинчидан, табиий жараёнлар ва ресурсларни самарали бошқариш ва улардан тегишли мақсадларда унумли фойдаланиш имконини беради. Натижада мамлакатимиз халқ хўжалигининг барча тармоқларида катта ижтимоий-иқтисодий самарадорликка эришилади.

Табиий муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва кўпайтиришни таъминлаш учун экологик хариталаш муаммолари бугунги кунда бутун дунё учун жуда муҳимдир. Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, техноген бузуқлик ва табиий муҳитнинг саноат ифлосланишининг ўсиб бораётган ҳодисалари туфайли табиатни муҳофаза қилиш лойиҳаларини ўрганиш ва ривожлантиришга алоҳида тадқиқотчилар ва катта жамоалар сони ортиб бормоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР ВА ИНТЕРНЕТ МАНБАЛАРИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. 2017 йил 7 февраль. http://lex.uz/pages/getpage.
2. Сафаров Э.Ю., Пренов Ш.М. Табиий карталарни лойиҳалаш ва тузиш. Тошкент.: “Университет”, 2011
3. Берлянт А.М. Картография. – М.: Аспект Пресс 2002.
4. Сафаров Э., Мусаев И. Геоахборот тизими ва технологиялар. Т.,ТИМИ, 2008.
5. Стурман В.И. Экологическое картографирование. М.: Аспект Пресс 2003.

INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH DRAYVERI

Hakimova Yulduz Xolboy qizi
TerDU Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) 1-kurs mutaxassisligi magistranti
hakimovay8@gmail.com
Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi, PhD Rejapov X.X.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola investitsiyalar, investitsion muhit holatini yaxshilash, iqtisodiyotimizni rivojlantirishda mahalliy va xorijiy investitsiyalarining o‘rni va holati tahlil qilingan. Hududlarda investitsion muhitni yaxshilash muhimlik holati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, investitsion muhit, jozibadorlik, investorlar huquqi, Investitsiya kodeksi, investitsion ombdusman, moliyalashtirish manbalari, to‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsiyalar, mahalliy investitsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются роль и статус инвестиций, улучшения состояния инвестиционного климатаб отечественных инвестиций в развитии нашей экономики. Подчеркнута важность улучшения инвестиционного климата в регионах.

ABSTRACT

This article analyzes the role and status of investment, improving the investment climate, domestic and foreign investment in the development of our economy. The importance of improving the investment climate in the regions is highlaghted.

KIRISH

2020-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [2] Prezident qarorlari qabul qilinib, 2019-yil 220,7 trln so‘m investitsiya iqtisodiyotimizga kiritilgan bo‘lsa, 2021-yil yakuniga qadar 10 milliard dollardan ortiq investitsiya o‘zlashtirilgan. Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni esa 2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 13 656 tani tashkil etib, mamlakatimizga 50 dan ortiq davlatlar investitsiya kiritmoqda va ularning ichida eng yuqori ko‘rsatkichlar quyidagi davlatlar kesimiga to‘g‘ri keladi: *Rossiya, Xitoy,*

Turkiya, Qozog'iston, Koreya. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi Farmoniga muvofiq, Strategik rivojlanish agentligi tashkil etilib, investitsiya faoliyatining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, xalqaro tajriba asosida iqtisodiy tarmoqlarni isloh qilish va hududlarning investitsiya salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish kabi vazifalar yuklatilgan edi, ular investitsiya faoliyati bilan bog'liq 18 ta muhim tadbirni joriy yilda amalga oshirishni rejalashtirgan. Investorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar birinchidan, mamlakatimizning mahalliy hamda xalqaro ochiqligini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchidan, o'z kapitalini mustaqil kiritmoqchi bo'lgan investorlar nazarida O'zbekiston jozibadorligini yanada oshirmoqda.

Aytish joizki, qilinayotgan ko'plab tadbirlarga qaramasdan, investitsiya sohasida kamchiliklar yetarlicha bo'lib, ba'zi hudud va tarmoqlarda investitsion jozibadorlikni oshirish jarayoni amalga oshirilmaganligi, yashirin iqtisodiyotning mavjudligi tufayli investitsion muhit yuqori darajada yaxshilanmayotganligi, investitsiya muhiti bo'yicha hududlar reytingi joriy qilinmaganligini fikrimiz dalili sifatida keltirishimiz mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya va investitsion muhit doimiy o'rganilayotgan va yangiliklar kiritilayotgan, amaliy qo'llanishni talab qilayotgan iqtisodiy jarayonlardan sanaladi. Buning sababi, hozirgi rivojlanayotgan jarayonlarda har bir soha va tarmoqlar investitsion muhitni talab qilmoqda. Investitsiya jarayoni haqida ba'za yanglish tushunchalar mavjud bo'ladi. *Tashqi qarzlarni xorijiy kapitaldan, xorijiy portfelli investitsiyalarni to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalardan farqlash kerak* [8]. *Tovarlarga sirli aura berish, ommaviy axborot vositalari ko'pincha bozor ishtirokchilarini "investorlar" emas, "spekulyatorlar" deb atashlari natijasida insonlarda investorlar, investitsiya faoliyati haqida to'g'ri va yetarli ma'lumotlar mavjud emas* [6]. Investitsion muhitni yaratishdan oldin bu jarayon haqida ishonchli hamda to'g'ri ma'lumot berib borilishi va buni ommaviy axborot vositalarida ham yoritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Investitsiya haqida kuzatishlar natijasida keltirilgan ko'plab ta'riflar mavjud. *Investitsiyalar-kelajakda kattaroq foydaga ega bo'lish uchun buguncha puldan ajralishdir* [10]. *Ular umuman kapitalning hozirgi qiymatini saqlash va (yoki) bu qiymatning jamg'armalarini ko'paytirish maqsadida kapitalga aylantirish paytida sodir bo'ladi hamda shu sababli, ular bu vaqt oralig'ida iste'mol qilinmaydi va muayyan muddatga aniq-konkret ob'yekt, jarayonlarga biriktiriladi, ularda band qilinadi, bunda ular aniq aniq bo'lmagan xatarlarga duch keladi* [9]. Investitsiyalarni keng jalb qilish uchun investitsion muhit jozibadorligini

oshirish, umuman hudud va tarmoqlarda investitsion muhitni yaratish dolzarb iqtisodiy muammolardan bo‘lib kelmoqda. Mahalliy va xorijiy investorlarning e’tibori albatta dastlab mamlakat, hududdagi investitsion muhitga qaratilishi tabiiydir. Ko‘pchilik xorijiy investorlar o‘z kapitalini kiritishdan oldin Beri indeksidan foydalangan holda mamlakatning investitsion muhitini mezonlar asosida baholashi ularning risk holatini kamaytirishga yordam beradi. *Investitsion muhitda xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish, xorijiy mulkni milliylashtirish, turli masalalar bo‘yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, iqtisodiy siyosatning mukammalligi va boshqalar* [7] jozibadorlikni oshirish ko‘p tizimli jarayon ekanligini bildiradi. Davlat hokimiyatining ta’sirchanligi investitsion muhitni belgilovchi asosiy omillardan biridir. Mamlakatimizda ko‘plab korxonalarda davlat ulushi yuqoriligi tufayli investitsiya muhitini rivojlantirish biroz sekin amalga oshirilmoqda. Bu jarayonni tezlashtirish uchun xususiylashtirish amalga oshirilmoqdaki, xorijiy investorlar davlat ulushi kamroq yoki deyarli bo‘lmagan korxonalarga ko‘proq investitsiya kiritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi investitsion jarayonlar doirasida quyidagi metodologiyalardan foydalanish orqali olib borildi:

- Mamlakat va hududlar investitsion holatini sintez va turli yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish;
- Sohalar va hududlar investitsion holatini kuzatish va tizimli tahlil qilish;
- Kuzatishlar davomida turli xil guruhlash asosida kapital kiritilgan tarmoq, viloyatlarni taqqoslash va grafik usulidan foydalangan holda ifodalash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion muhitni yaxshilash, investorlar huquqini himoya qilish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda va oshirilishi belgilangan. Investitsiya borasida qilinishi kerak bo‘lgan va investitsiya jalb qilinishi muhim hisoblangan soha va yo‘nalishlar “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”da ham mavjudligi investitsiya nafaqat hozirgi kunda, balki kelajakda ham yurtimiz uchun muhim jihat bo‘lishini anglatadi. Unga ko‘ra iqtisodiy strategiyamiz kata hajmdagi investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan bo‘lib, uning o‘sish sur’atlari so‘ngi 10 yilda yalpi ichki mahsulotning kamida 25 foizini tashkil etishiga erishish kerakligi ta’kidlangan. Bundan tashqari investorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish, investitsiyalar bilan bog;liq jarayonlarni tartibga solish maqsadida yagona *Investitsiya kodeksi*ni ishlab chiqish va Biznes – ombdusman bilan yaqindan

ishlaydigan *Investitsiyaviy ombdusman institut*ini tashkil etish, xorijiy sarmoyadorlar uchun investitsiyalar paketining elektron bazasini yaratish borasida topshiriqlar berilishi investorlar uchun yaratilayotgan katta huquqiy imkoniyatlardir. Raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratishda, qishloq xo‘jaligi va oziq – ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiyash va barqaror o‘sishni qo‘llab – quvvatlash uchun, suv xo‘jaligini rivojlantirish borasida, turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategik vazifalardan biri sifatida, mobil va yo‘ldosh aloqa operatorlarining faolligini rag‘batlantirishning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish uchun investitsiyalarni keng jalb qilish kerakligining ta’kidlanishi barcha iqtisodiyot tarmoqlari investorlar uchun ochiq ekanligini anglatadi.

Shuni ta’kidlashimiz kerakki, Respublikamiz Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ulushi kamroq qismni tashkil qilib, 2021-yilda 357 101, 8 mlrd so‘mni tashkil qilgan va bu umumiy xarajatlar uchun ajratilgan mablag‘ning 0, 26% idan iborat bo‘lgan. Shu sababli ham mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish muhim jihat hisoblanadi. Investitsiyalar iqtisodiyotning drayveri ekanligini hisobga olgan holda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” ning 26-maqsadini aynan mamlakat investitsion muhitini yanada yaxshilash va jozibadorligini oshirish etib belgilaganliklari kelgusi besh yil ichida barcha hududlar investitsion muhitini tubdan yaxshilash va mahalliy va xorijiy investorlarni to‘g‘ridan – to‘g‘ri jalb qilish maqsadida yangicha tizimli dasturlarni amalga oshirishni talab qiladi. Shu bilan birga mazkur besh yil davomida 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish belgilab berildi. Bu maqsad investitsiya faoliyatini yaxshilashni hududlar kesimida amalga oshirishni ko‘zlagan bo‘lib, ba’zi davlatlar bilan doimiy investitsion va tashqi savdo aloqalari mavjud viloyatlar bu jarayonni rivojlantirishi hamda hududlarda tadbirkorlarga ko‘maklashish maqsadida turli markazlar faoliyatini shakllantirishi ta’kidlangan. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi bilan biznes doirasini yanada rivojlantirish hamda viloyatda “Investorlarga ko‘mak markazi” ni tashkil etish vazifa sifatida kiritildi.

Strategiyaning mazkur qismida Toshkent shahrida har yili “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”ni o‘tkazib borish belgilangan edi va buning ijrosi sifatida 2022-yil 24-26 mart kunlari Toshkent shahrida “Xalqaro investitsiya forumi” bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbirda 2mingdan ortiq ishtirokchilar- jahonning 56 mamlakatidan yirik investorlar va yuqori martabali mehmonlar qatnashgan bo‘lib, 7,8 mlrd dollarlik aniq shartnomalar va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolangan []. Shu jarayonning o‘zidayoq, qiymati 3,5 mlrd dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha dastlabki

kelishuvlarga erishilganligi investorlar uchun mamlakatimiz investitsion jozibadorligini ko‘rsatib berilganligidan dalolat beradi. Bu Forum doirasida, nafaqat, kelishuvlarga erishish ko‘zlangan edi, mamlakatimiz iqtisodiy tarmoqlarida qilinayotgan va kelgusida qilinishi ko‘zda tutilgan islohotlar, imkoniyatlar hamda imtiyozlar bilan tanishtirish va kelajak uchun ham investorlarni shakllantirish edi va bunga erishildi. Bo‘lib o‘tgan bu forum mamlakatimiz investitsion jozibadorligini oshirish va bu orqali investorlarni jalb qilish borasidagi bir qadam bo‘ldi.

Xorijiy investitsiyalarning Respublikamiz iqtisodiyotiga keng miqyosda jalb etish rivojlanish davrining strategik va joriy vazifalarini hal etish zaruriyati bilan bog‘liq. Ushbu vazifalarni bajarish natijasida o‘tgan yillarda investitsiyalarning o‘sishi jadallashdi. Natijada iqtisodiy o‘sish sur’atlari yaxshilandi va aholining yuqori darajada ish bilan ta’minlanish holatlari yuz berdi. Investitsiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi mexanizm ekanligini yana bir bor isbotladi. Bu jarayonda texnika, texnalogiyalar yangilandi. Yangi ish o‘rinlari yaratilishi, kadrlarning malakasini oshirish borasida qilinayotgan yangiliklarning barchasi investitsion muhit yaxshilanib borayotganligi va investorlar uchun keng yo‘l ochilayotganligidan dalolat beradi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti va asossiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlarining o‘zgarishi[52]

Yillar	Yalpi ichki mahsulot (trln so‘m)	Oldingi yilga nisbatan % da	Asosiy kapitalga investitsiyalar(trln so‘m)	Oldingi yilga nisbatan o‘sish surati % da
2017	249,1	5,3	72,155	119,4
2018	407,5	5,1	12,423	129,9
2019	511,8	5,5	19,593	138,1
2020	580,2	1,6	210,195	95,6
2021	734,6	7,4	244,962	105,2
2022(yanvar-mart)	162,8	5,8	—	126,3
2022 (yil yakuni bo‘yicha prognoz)	840	5,9	—	—

[52] Statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turibdiki, Respublikamizda YaIMning o‘sishi yuqori darajadadir. Bunda yildan yilga investitsiyalar, ayniqsa, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining ortib borayotganligi ham sababdir. Jumladan, 2020-yilning yakunlari bo‘yicha asosiy vositalarga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2019-yilning shu davriga nisbatan 101,5 foizni yoki 6,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu haqda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligida bo‘lib o‘tgan brifingda aytib o‘tildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, investitsiya dasturi doirasida 197 loyiha amalga oshirildi va shuning hisobiga 38 ming ish o‘rni yaratildi. Bundan tashqari, hududiy investitsiya dasturlari doirasida jami 59,1 trln so‘mlik 10 586 loyiha amalga oshirildi va bu 131,5 mingta yangi ish o‘rni tashkil etilishiga imkon berdi. Shuningdek, 2020-yil yakunlariga ko‘ra, eksport hajmi 15,1 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shu bilan birga, 47 turdagi yangi mahsulotlarni eksportga yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi va bir qator mamlakatlarning yangi istiqbolli bozorlariga chiqishga erishildi. Aylanma mablag‘larni to‘ldirish maqsadida eksport qiluvchilarga berilgan kreditlar miqdorining 50 foizigacha bo‘lgan qismini kafolatlash tartibi ham yo‘lga qo‘yildi.

2021-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar $8,6 mlrd ni tashkil etdi, bu 2020-yilda jalb qilinganidan 30% ga ($6,6 mlrd), shuningdek, 2021-yilda kutilayotgan ($7,5 mlrd)dan 14,6% ga ko‘pdir. Davlat investitsiya dasturi doirasida yil davomida umumiy qiymati $5,9 mlrd lik 318 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilib, hududiy dasturlar asosida umumiy qiymati $7,4 mlrd lik yana 15,7 mingta loyiha amalga oshirilgan. Shuningdek, quvvati to‘liq o‘zlashtirilmagan 1,9 ming korxona o‘zida to‘liq ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi. To‘xtab qolishlarning bartaraf etilishi ishlab chiqarish hajmini 4 trln so‘mdan ortiq, eksport hajmini $184 mln ga oshirish imkonini berdi.

Shu jumladan, hududlar miqyosida Surxondaryo viloyatiga 2022 yil yanvar – mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni hajmi yuqori darajada bo‘ldi. **Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2 444,2 mlrd so‘mni (*o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 128,6%*), respublikadagi ulushi 4,9% (*hududlar orasida 11-o‘rin*)ni tashkil qilgan.**

Viloyatda investitsiyalar o‘zlashtirilishida keskin differensiallik saqlanib qolgan. Xususan, kiritilgan investitsiyalarning 54,1 foizi viloyatning 4 ta hududi - Termiz shahri (16,8%), Boysun (16,4%), Denov (11,7%) va Termiz (9,2%) hissasiga to‘g‘ri kelgan. Qumqo‘rg‘on (4,9%), Sherobod (4,7%), Oltinsoy (3,9%), Sho‘rchi (3,8%), Angor(3,6%), Uzun (2,9%), Muzrabot, Qiziriq (2,2%), Bandixon (1,9%) tumanlarida investitsiyalar oqimining pastligi kuzatilgan. Hududlarda amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalar natijasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Bandixon (4 baravar), Uzun (3 baravar), Angor (2,5 baravar), Jarqo‘rg‘on (2,3 baravar) va Denov (2,2 baravar),

Sho‘rchi (2,1%), Oltinsoy (1,9%), Qumqo‘rg‘on (1,6%) tumanlarida keskin o‘sish darajasini qayd etgan. Lekin, birgina Sariosiyo (57%) tumanida investitsiyalar oqimining pasayishi tendensiyasi kuzatilgan. Viloyat bo‘yicha jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 888,7 ming so‘mni (Respublika ko‘rsatkichidan 527,3 ming so‘m kam), o‘sish ko‘rsatkichi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 38,7%ni tashkil qilgan holda respublika hududlari orasida 11-o‘rinni egallagan.

Tuman (shahar)lar kesimida jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha Boysun (3,8 baravar), Termiz (3,2 baravar), Termiz shahri (2,4 baravar), tumanlarining ko‘rsatkichi viloyat ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan. Bandixon (1,5 baravar past), Sherobod (1,6 baravar), Oltinsoy (1,7 baravar), Qumqo‘rg‘on (1,8 baravar), Qiziriq (1,9 baravar), Sho‘rchi (2,1 baravar), Uzun (2,3 baravar), va Muzrabot (2,4 baravar) tumanlari ko‘rsatkichining viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan pastligi qayd qilingan. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha ham tumanlar o‘rtasida keskin tavofutning mavjudligi kuzatilgan. Jumladan, eng yuqori ko‘rsatkich qayd qilingan Boysun tumanida jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiya hajmi Muzrabot tumaniga nisbatan 9 baravar, Uzun tumaniga nisbatan 8,5 baravarga ziyoddir. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida viloyat bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 43,9 foizi chet el investitsiyalari hisobidan, 13,9 foizi – tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari, 37,3 foizi - korxona va aholining o‘z vositalari hisobidan, 4,9 foizi - davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan.



1-rasm. Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning tumanlar kesimidagi holati (ming so‘mda):[53]

1. Angor; 2.Bandixon; 3.Boysun; 4.Denov; 5.Jarqo‘rg‘on; 6.Muzrabot; 7.Oltinsoy; 8.Qiziriq; 9.Qumqo‘rg‘on; 10.Sariosiyo; 11.Sherobod; 12.Sho‘rchi; 13.Shurxondaryo v.; 14.Termiz; 15.Termiz sh.; 16.Uzun.



2-rasm. Surxondaryo viloyatida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari ulushi[54]

2-rasmda ko‘rsatilganidek Surxondaryo viloyatiga kiritilgan investitsiyalar ichida xorijiy investitsiyalarning ulushi yuqori bo‘lib, 44 foizni tashkil qilmoqda. Demak viloyatda so‘ngi oylarda investitsiyon muhit jozibadorligi yaxshilangan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur’atlarda o‘sishini quyidagi omillar belgilab bermoqda: 1) mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi; 2) valyuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o‘zgarishlar; 3) mamlakatning soliq mexanizimini takomillashtirishning aniq yo‘nalishlari belgilanganligi; 4) soliq qonunchiligida xorijiy investitsiyalarning faoliyatini tartibga soluvchi qaror va qonunlarning ishlab chiqilganligi; 5) jahon tovar bozorlaridagi eksportyorlar uchun qulay narx konyukturasining vujudga kelganligi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yil 1- aprel holatiga respublikamizda ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 14 109 tani taskil etib, ulardan 13 656 tasi faoliyat yuritmoqda. Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy capital ishtirokidagi korxonalar soni o‘tgan yilning moz davriga nisbatan 1417 taga oshgan [12].

[53] Surxondaryo viloyati statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
[54] Surxondaryo viloyati statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



3-rasm. Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni[55]

Yuqoridagi rasm 2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra mamlakatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida eng yuqori ulushni Rossiya Federatsiyasi tashkil etib, 2390 taga yetganligini ko‘rsatmoqda. Yanvar-mart oylarida Rossiya Federatsiyasi ishtirokida 107 ta, Turkiya ishtirokida 95ta, Qozog‘iston ishtirokida 46ta, Xitoy ishtirokida esa 45ta xorijiy kapital hissasi mavjud korxonalar ochilganligi investitsiyalar jalb qilish holatimiz yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

2021-yilda hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar Toshkent shahriga eng ko‘p jalb qilingan bo‘lib, 22 835,6 mlrd so‘mni, umumiy jalb qilingan asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalarga nisbatan 21,86% ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur yilda kirtilgan investitsiyalardan 8 milliard 100 million dollari - to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. Ushbu investitsiyalar o‘zlashtirilishi natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirildi. Yangi korxonalarda 273 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilgan hamda ular ishlab chiqargan mahsulot kelajakda 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega (4-rasm). Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini jadallashtirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Investitsiyalar va kreditlar Respublikamiz iqtisodiy faoliyat turlarini ham rivojlantirib kelmoqda.

[55] Statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.



4-rasm. Hududlar kesimida 2021 yil yakunlari bo‘yicha jalb qilingan asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar (mlrd. so‘m)[56]

Investitsiyalar nafaqat hududlar iqtisodiyotini, balki iqtisodiy tarmoq va sohalarni rivojlantirish uchun ham keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda sanoat, qishloq xo‘jaligi, elektr energiya va gaz tarmoqlari, konchilik iqtisodiy tarmoqlarida investitsiya va kreditlar sezilarli darajada ko‘p jalb qilindi. Bunda xorijiy investitsiya va kreditlar yildan yilga ortib bormoqda. Sog‘liqni saqlash sohasida ham investitsiyalarning jalb qilinishi kerakligi pandemiya davrida tibbiyot eng muhim soha ekanligini isbotladi. Tibbiyot sohasini rivojlantirish uchun nafaqat moddiy bazaga, balki ilmiy salohiyatga ham investitsiyalarni kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2021 yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi[57]

[56] Statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.
[57] Statistik ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

№	Iqtisodiy faoliyat turlari	Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so‘m)	Xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi (% da)
1.	Qayta ishlash sanoati	39213,1	37,5
2.	Tog‘- kon sanoati	14872,8	14,2
3.	Elektr, gaz bilan ta’minlash	12622,4	12,1
4.	Qishloq xo‘jaligi	10156,4	9,7
5.	Boshqa faoliyat turlari	8447,6	8,4
6.	Tashish va saqlash	6309,3	6,0
7.	Qurilish	4854,2	4,6
8.	Sog‘liqni saqlash	4332,3	4,1
9.	Axborot va aloqa	2139,2	2,0
10.	Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya	1510,0	1,4

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2021-yilda qayta ishlash sanoati 39 213,1 mlrd so‘m, umumiy jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida 37,5% ni tashkil qilib, yetakchilik qildi. Suv bilan ta’minlash va kanalizatsiya faoliyat turi 1 510,0 mlrd so‘mni tashkil qilib, umumiy mablag‘ning 1,4 % ini tashkil qildi va bu iqtisodiy faoliyat turlarida eng kam ko‘rsatkichni tashkil qilgan. Faoliyat tarmoqlarini tahlil qilish natijasida investitsiya sohasidagi muammolarimizni aniqlash imkoni bo‘lmoqda. Bu muammolarni hal qilish orqali tarmoq va hududlarga investitsiya oqimini jadal jalb qilishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, investitsiya jalb qilingan har qanday soha borki, rivojlanmasdan qolmaydi. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun investitsiya muhitini yaxshilash va jozibadorlikni oshirish, bu orqali soha va hududlarning iqtisodiyotini yuksaltirishimiz mumkin.

Investitsiya sohasida quyidagilarni taklif sifatida keltirish mumkin:

hududlardagi investitsiyalarni jalb qilish mumkin bo‘lgan firma va tadbirkorlik ob’yektlari o‘rganish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish samarali;

xorijiy investorlarning talablari va ularni nimalar jalb qilishi tahlil qilish va hududning investitsion holatini ushbu talablarga mos ravishda yaxshilash bo‘yicha amaliyishlar olib boorish lozim;

hududlarda tadbirkorlik muhitidan biznesmenlik muhitiga o‘tish, bajarilayotgan va bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish va bu orqali investorlar jalb qilish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar yaratish investorlarni jalb qiladi;

sarmoya kiritgan xorijiy investorlarni o‘z mablag‘ini to‘g‘ri yo‘naltirganligiga ishontirish yo‘llari shakllantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2021 O‘RQ – 671 – son qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan yangi tahriri). // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2021 – 2023 yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-4937-son. 28.12.2020y.) Qarori. // www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi (№ O‘RQ-598 25.12.2019) Qonuni. // www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni. www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi.-T. : “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

6. Franf J. Fabbozi, Rolland Fuss, Dieter G. Kaister. The Handbook of Commodity Investing. Copyrighted Materials. Second Edition. John Wiley & Sons, Inc. -1997. P. 966

7. Imomov H.H. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011.- 110 b.

8. Theodore H.Moran, Joseph M.Grieco, Dennis J.Encarnation.Investing in Development: New Roles for Private Capital? New York. Imprint- Routlendge. 2021. P. 208.

9. G‘ozibekov D.G. “Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari”, iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2002 y., 24 b.

10. Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. ИНВЕСТИЦИИ: Пер. с анг. – М.: ИНФРА – М, 2003. – XII, с.1.

11. http:// www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik portali);

12. http:// www.stat.uz (Statistik ma’lumotlar portali);

13. https:// www.surxonstat.uz.

14. https:// www.gazeta.uz.

“SHOHNOMA”NING BARDAVOM AN’ANALARI

Habibullo Jo‘rayev
Filologiya fanlari doktori, professor
Farg‘ona davlat universiteti

Dilnavoz Anvarova
FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi magistranti
dilfuzadadaboyeva1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Firdavsiy ijodidagi o‘lmas g‘oyalar, “Shohnoma” an’analarining o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarida aks etishi, xususan, Alisher Navoiyning tarixga oid asarlaridagi umumbashariy va zamonaviy jihatlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy voqelik, badiiy ijod, tarixiy haqiqat, an’ana, zamonaviylik, badiiy to‘qima, g‘oyaviylik, estetik ta’sir.

THE ENDURING TRADITIONS OF THE SHAHNAMEH

ABSTRACT

The article analyzes the immortal ideas in Firdavsi's work, the reflection of the traditions of "Shohnoma" in the examples of Uzbek classical literature, in particular, the universal and modern aspects of the historical works of Alisher Navoi.

Keywords: Social reality, art, historical truth, tradition, modernity, artistic texture, ideology, aesthetic influence.

НЕПРЕХОДЯЩИЕ ТРАДИЦИИ ШАХНАМЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются бессмертные идеи в творчестве Фирдавси, отражение традиций «Шохнома» на примерах узбекской классической литературы, в частности, универсальные и современные аспекты исторических произведений Алишера Навои.

Ключевые слова: Социальная реальность, искусство, историческая правда, традиция, современность, художественная ткань, идеология, эстетическое воздействие.

Sharq, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida keng tarqalgan va badiiy jihatdan qayta-qayta ishlangan obrazlar tizimi mavjud. Har bir adib u yoki bu obrazga murojaat qilar ekan, ana shu obraz orqali o‘z g‘oyalari, voqelikka munosabati, falsafiy-estetik qarashlarini ifodalashga harakat qilgan. Jumladan, adolat va nohaqlik, ezgulik va yovuzlik, sadoqat va bevafolik, mardlik va xoinlik singari yetakchi mavzular badiiy ifodasida bunday an’anaviy obrazlarning ahamiyati katta bo‘lgan. [4. 2]

Masalan, Zahhok qissasi Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sida keng miqyosda badiiy ishlangan yovuzlik timsoli haqidagi alohida adabiy asardir. “Shohnoma” muallifi zolim Zahhokni mamlakatni xarob qilgan, o‘z nafsi va murodi yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan qattol va beshafqat kimsa sifatida talqin etgan. Qadimgi Eron tarixida zulm va adolatsizlik borasida o‘chmas iz qoldirgan mazkur hukmdor ko‘plab badiiy, tarixiy asarlarda ham o‘z ifodasini topgan.

O‘z hayoti mobaynida nafaqat ulug‘ shoir va mutafakkir, balki ulkan davlat arbobi bo‘lgan Alisher Navoiy ham o‘zining adolatparvarlik maslagi, insonparvarlik g‘oyalaridan kelib chiqib, Zahhok obraziga murojaat qilgan. Chunonchi, shoirning “Tarixi muluki Ajam” asarida insoniyat tarixida mash’um iz qoldirgan mazkur hukmdorga alohida o‘rin ajratilgan. Bu bejiz emas, albatta. Davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan Navoiy xalq uchun har qanday zulm ofat keltirishi, mamlakatni xarobalikka yetaklashi, taraqqiyotni barbod qilishini chuqur anglagan. “Ilkimdin kelgancha zulm tig‘in ushotib, mazlumlar yarasig‘a marham qo‘ydim”, deydi shoir bir o‘rinda. Ana shu printsipni hayotiy shioriga aylantirgan Alisher Navoiy badiiy-lirik asarlarida ham zulm va adolatsizlikka qarshi o‘z qarashlarini bayon etgan. Jumladan, “Vaqfiya” asarida quyidagi mashhur ruboiysini keltiradi:

To hirsu havas xirmani barbod o‘lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas,
To zulmu sitam jonig‘a bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas,, mamlakat obod o‘lmas.. [2. 24]

Ana shunday insonparvarlik pozitsiyasida turib, Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Zahhok haqidagi ma’lumotlarga o‘rin ajratar ekan, unga Eron tarixida mash’um iz qoldirgan hukmdor sifatida baho beradi. Muallif mazkur asarning tarixiy xarakterda ekanligini nazarda tutib, u haqdagi ma’lumotlarni quyidagi faktlar va hayotiy detallar bilan boyitadi. “Zahhok binn Mardos chun Jamshid qatlidin so‘ng Pors taxtin oldi, zulmu sitam og‘oz qildi. Tengri taolo Hud alayhissalomni yibordi. Aning da’vatin Shaddod qabul qilmadi. Tengri taolo ani va qavmini ranjul aqim bila halok qildi va Shaddod o‘g‘li Mazid podshoh bo‘ldi. Va Ibrohim alayhissalom aning

zamonida erdi. Va Yusuf alayhissalom ham anda mutavallid bo‘ldi (tug‘ildi) va Hud alayhissalom dinig‘a kirdi”.(4)

“Shohnoma”da temirchi Kova haqidagi tarixiy ma’lumotlar yuksak badiiy ifodasini topgan. Zero, zulm va zo‘ravonlik avjiga chiqqan bir pallada xalq orasidan mard va jasur yetakchilar maydonga chiqishi tarixdan ma’lum. Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida ham temirchi Kova boshchiligidagi xalq qo‘zg‘oloni va uning ixcham tarixiy-badiiy tafsiloti beriladi. Bu, albatta, asarning ilmiy-tarixiy qimmatini oshirish bilan birga, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida “Shohnoma” an’analari bevosita davom etganligidan dalolatdir.

Ammo Abulqosim Firdavsiy ham, Alisher Navoiy ham o‘z davri ilm-fani darajasi, saviyasidan yuqori ko‘tarila olmasligi tabiiy edi. Masalan, Zahhokning yelkalaridan ikkita ilon o‘sib chiqishi, ular har kuni ikkita yosh yigitning miyasi bilan oziqlanishi mifologik tushunchalar hamda afsonaviy tasavvurlar asosida berilgan. Chunonchi, Zahhokning ming yil saltanatni boshqarganligini ham shunday hol deb hisoblash mumkin. Ammo biz uchun mualliflarning g‘oyaviy–badiiy niyatlari, falsafiy-estetik maslaklari muhimdir. Har ikki muallif zulm qanchalik tantana qilmasin, bir kun kelib intihosiga yetishi, zolim esa albatta jazoga mustahiq ekanligini ta’kidlaydilar. Zero hukmdorlar o‘tkinchi, xalq esa boqiydir. Shuning uchun ham Zahhokdek dahshatli toj egasi Kova singari oddiy xalq vakili bo‘lgan temirchining sa’y harakati bilan yo‘qlikka mahkum bo‘ladi.

Firdavsiydan ijodiy ilhomlansa-da, Alisher Navoiy o‘z davri tushuncha va saviyasidan birmuncha yuqoriga ko‘tarila olgan, tarixiy fakt va ma’lumotlarga real qarashga intilganligi ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Masalan, u Zahhokning yelkalarida maraz (yara) paydo bo‘lganligini, unga yangi qatl etilgan kishilar miyasi malham bo‘lishini aytgachgina, rivoyatlarda keltirilgan ilonlar haqidagi tafsilotlarni qistirib o‘tadi. Zahhok zulmini yanada ta’kidlash ma’nosida agar qatl etish uchun gunohkor kishi topilmasa odamlar orasidan chek (qur’a) tashlatib, qurbon tanlashini bayon etadi. Bu esa muayyan g‘oyaning badiiy ifodasida an’analar doirasidan yuqori ko‘tarilish edi, deyish mumkin.

Shu o‘rinda Firdavsiyning ham, Alisher Navoiyning ham o‘tmishga oid voqea-hodisalar tasvirida har bir davr uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan muhim xususiyatlar mavjudligini ta’kidlash lozim. E’tibor berilsa, Zahhokning yelkalarida o‘sib chiqqan ilonlar qurbon qilingan insonlarning yuragi yoki boshqa biror a’zosi bilan emas, aynan miyasi bilan oziqlanadi. Bugungi kunda ham vayronkor g‘oyalar bilan qurollangan turli yot mafkuraviy oqimlar, ayniqsa, yoshlarning miyasini zaharlashga, ongini bulg‘ashga intilayotganligini esga olsak, har ikki ulug‘ so‘z san’atkorlarining ijodida zamonaviylik ham mujassamligi ko‘zga tashlanadi.

Alisher Navoiy asaridagi tarixiy ma'lumotlardan keyin keltirilgan she'r, Sharq adabiyoti namunalariga xos bo'lgan "qissadan hissa" vazifasini o'taydi. Unda yomonlik jazosiz qolmasligi, har bir narsa-hodisaning chek-chegarasi, o'lchovi borligi badiiy ifodalanadi:

Falak to erur zulm qilmoqqa xos,
Emas zolimu odil andin xalos.
Qilib qatl Zahhokni to'ymadi,
Faridunni dag'i quruq qo'ymadi. [3. 188]

Mumtoz adabiyotdagi an'anaga binoan behad zulmdan so'ng adolat g'alaba qilmog'i, zolim shoh o'rniga albatta odil hukmdor taxtga o'tirishi kerak. Shuning uchun ham yuqorida hikoya qilingan Zahhokning qatliga sabab bo'lgan Faridun vayron qilingan yurtni obod qilib, osoyishtalik o'rnatadi. Navoiy bu haqda shunday yozadi: "Faridun yaxshi axloqlik olim va odil podshoh erdi. Olam ahlin adolat bila xushhol qilib, Zahhok javridin topqon zahmlarig'a adl bila marham qo'ydi va qolg'on ummolqakim, odiylar erdilar, daf' qildi va Kova ohangarni ulug' tarbiyat qilib, tayammun uchun aning yig'ochqa bog'lab alam (bayroq) qilg'on saxtiyonini murassa' qildikim, darafshi Koviyoni ani derlar. Va olamning aksar bilodin oldi".

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy Firdavsiy an'analarining davomchisigina emas, balki o'z davrining peshqadam davlat va jamoat arbobi sifatida adolat, tinchlik, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini tarixga oid asarlariga ham singdiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi Istiqlol sharoitida Sharq mumtoz adabiyotining nodir namunalaridan bo'lgan "Shohnoma"ning bardavom an'analarini, umumbashariy g'oyalarini tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bu an'analarning, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiy merosiga mansub asarlar misolida atroflicha tahlilga tortilishi, badiiy jihatlari kengqamrovli tadqiq etilishi o'zbek shohnomashunosligi genezisini ilmiy-nazariy jihatdan tekshirilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Firdavsiy. "Shohnoma". T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" nashriyoti. 2018
2. Alisher Navoiy. Vaqfiya. – T.: "Fan". 1991.
3. Alisher Navoiy. Asarlar. XV jildlik. 14-jild. – T.: "Fan". 1967
4. Ma'naviyat sarchashmasi. "Sirli olam" oynomasi. 1994. 4-son.

MAHALLIY BUDJETLAR BARQAROR DAROMADLARINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi

Termiz davlat universiteti, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 1-kurs magistranti

e-mail: abdunazarovashahnoz@gmail.com

Ilmiy rahbar: TerDU, kat. o'qit. PhD Rejapov X.X

ANNOTATSIYA

Maqolada mahalliy moliya tizimi hamda mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash yo'llari, hududdagi moliya bo'g'inlari orqali hudud budjetini profitsitga chiqarishni takomillashtirish, qo'shimcha yaratilgan resurslardan oqilona foydalanish hamda hudud iqtisodiyoti o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatish yo'llari o'rganilgan, xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat moliyasi, mahalliy moliya tizimi va uning quyi bo'g'inlari, o'rta muddatli davr, qo'shimcha mablag', mahalliy soliq va yig'imlar.

LOCAL BUDGETS SUSTAINABLE REVENUE DIRECTIONS

ABSTRACT

The article discusses ways to ensure the stability of the local financial system and local budgets, increase the regional budget surplus due to the financial ties of the region, rational use of additional resources and positive impact on the growth rate of the region's economy. Presentations are studied, conclusions and recommendations are given.

Keywords: Finance of the country, the local financial system and its subdivisions, the medium term, additional funding, local taxes and levies.

МЕСТНЫЕ БЮДЖЕТЫ НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ДОХОДА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются пути обеспечения устойчивости местной финансовой системы и местных бюджетов, повышения профицита регионального бюджета за счет финансовых связей региона, рационального

использования дополнительных ресурсов и положительного влияния на темпы роста экономики региона. изучаются презентации, даются выводы и рекомендации.

Ключевые слова: Государственной финансы, местная финансовая система и ее подчиненные, среднесрочный период, дополнительные денежные средства, местные налоги и сборы.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, davlatning boshqa sohalari kabi moliya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan moliya tizimi va uning quyi bo‘g‘inlarini yanada takomillashtirish va uning barqarorligini samarali ta’minlashdan iborat bo‘lib bormoqda. Xalqaro tajriba tahlillariga ko‘ra, mamlakatimizda ushbu yo‘nalishdagi muammolardan biri- bu davlat moliyasi va uning hududiy bo‘g‘inlarini ya’ni davlat budjet tizimini yanada takomillashtirishdan iborat. Mamlakat va hududlarning barqaror iqtisodiy o‘sishi uchun, mahalliy moliya va uning quyi bo‘g‘inlarini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish, tarkibiy o‘zgarishlarning o‘rta muddatli dasturlarni izchil amalga oshirish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlarining yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash va ularni rag‘batlantirish orqali erishish mumkin. Mamlakatimizning turli hududlari bo‘ylab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi hamda iqtisodiyotni yangilash sharoitida mahalliy budjetlarning faoliyatini samarali tashkil etish va mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini yanada oshirish davlat moliyasini isloh etishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda mahalliy budjetlar boshqaruv tizimini isloh qilish va optimallashtirish masalalari budjet qonunchiligini takomillashtirish oldida turgan muhim vazifadir. [1]

Hududlarning kompleks rivojlanishi, uning iqtisodiy salohiyati, xorijiy investitsiyalari va innovatsion texnologiyalarini jalb qila olish qobiliyati ko‘p jihatdan hududlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalalari “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi dasturda [2] o‘zi fodasini topgan. Ta’kidlash joizki, hududlarni kompleks rivojlantirishda mahalliy budjetlarning o‘rni yuqori bo‘lib, ko‘plab hududiy loyihalarning amalga oshirilishi, aholiga o‘z vaqtida sifatli ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasi mahalliy budjetlarning mustaqilligi va daromadlarning barqarorligiga bog‘liq hisoblanadi. Mahalliy budjetlar tizimi butun mamlakat miqyosida keng ko‘lamli ijtimoiy tadbirlarni amalga oshiruvchi davlatning moliyaviy dastagi hisoblanadi. Mahalliy budjetlar orqali hududlarning daromadlari tarmoqlararo, hududlararo hamda ijtimoiy qatlamlararo qayta

taqsimlanadi. Mazkur taqsimotning oqilona tashkil etilishi, samarali faoliyati qat'iy budjet intizomiga rioya etilishiga bog'liqdir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasida quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: "Bu yildan boshlab, soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirildi" [3]. Shu o'rinda shuni qo'shimcha qilish kerakki, mahalliy budjetlar tarkibida budjet dotatsiyasi va subvensiyalari ulushini kamaytirishda mamlakatimiz hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha ekanligini ularning moliyaviy ta'minlanish ko'rsatkichlarida ko'rishimiz mumkin. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahalliy moliya tizimi hamda mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash va budjet siyosatini to'g'ri tashkil etish nechog'li zarurligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Diyorimizda tub islohotlar yanada chuqurlashayotgan hozirgi vaqtda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya va budjet sohasida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish davr talabidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mahalliy budjetlar barqaror daromadlarini oshirish hamda moliyani tizmini boshqarish va samarali tashkil etish kabi jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar Kara.A.Milonzi, Ketrin.F va K.Mihaly, J.Miller, Robert.D va J.Peterson, S.Konsoli, R.R.Diego and Michaele Saisana [4] ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin. Hamdo'stlik davlatlaridan И.Х.Озеров, Е.Качанова, Н.Ю.Исаковой va В.В.Ковалева [5] kabi olimlar mahalliy moliya tizimidagi holatlarni ishlarida keng yoritib berganlar.

O'zimizdan ushbu mavzuga oid ilmiy tadqiqot namunalarini Tohir Malikov, Sherzod Jalilov, Xotamjon Kobulov, Sherali Sultonov Malikov.T.S va Haydarov.N.H, Shernayev A.A, Qalandarov Z.I. Raxmonov.D.A va L.O'.Mingishov, Qosimova.G.A, Vahobov.A.V va Qosimova.G.A, Vahobov.A.V va Malikov.T.S, [6] Allayarov S. R., Zaynitdinov S. M. [3] kabi olimlarimizning nashr etgan ilmiy adabiyotlari, ilmiy ishlari va himoya qilgan dissertatsiyalarida ko'rishimiz mumkin.

Fuqarolarning muayyan talablarini, xususan, ijtimoiy-moddiy rag'batlantirishga bo'lgan talablarini qondirish mahalliy moliyaning amal qilish xususiyatiga xos bo'lib, bu mahalliy moliyaning hudud moliya resurslarini taqsimlashdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Keyingi paytlarda hokimiyat quyi bo'g'inlari vakolatlarining yanada kengayib borishi, bu eng avvalo, moliya sohasida, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda ma'suliyatning nomarkazlashib borishida kuzatilmoqda. Mazkur tendensiya davlat byudjeti daromadlarini sarflash samarasini oshirish, aholi manfaatlarini to'laroq hisobga olish, jamoat demokratik institutlarini mustahkamlash

masalalari bilan izohlanadi. Mahalliy moliya hududiy ishlab chiqarishni ta'minlash va mahalliy hududlarda yashovchi aholining talablarini qondirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarning yechimini topishga qaratilganligidir. Bugungi kunda nafaqat moliya tizimini balki mahalliy moliya bo'g'inlarini samarali tashkil etishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya bo'ginlarining barqarorligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda islohotlar izchillik bilan amalga oshirilib bormoqda.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va budjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budjet tizimining shaffofligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, Davlat budjetini o'rta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etishda mamlakatimizda bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda.

- soliq-budjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli budjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budjetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan budjet" tizimini joriy etish;
- makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va budjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;
- budjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;
- fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;
- budjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;
- budjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;
- budjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Shunga muvofiq ravishda hududlar miqyosida daromadlarning soliq bazasi va xarajatlarning umumiy miqdori ham farq qiladi. Ayni chog'da, mamlakatning o'z budjetini shakllantirish huquqiga ega har bir ma'muriy hududi, daromadlar bazasi hajmidan qat'iy nazar, o'sha hududda yashovchi aholini davlat tomonidan kafolatlangan muayyan ijtimoiy-madaniy xizmatlar bilan ta'minlashi shart. Respublika, viloyat, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlis Senati kengashining 2022-yil 8 apreldagi QQ-331-4-son qarorida quyidagi asosiy vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan:

1. Barcha tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarining kamida **30%** jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi;
2. Joriy yil uchun belgilangan aylanma kassa mablag‘larining miqdorini to‘ldirish kerakligi belgilangan;
3. Barcha tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun 10 kun muddatga “E-qaror” elektron tizimiga joylashtirish belgilangan.[8]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotining erkinlashuvi va keng qamrovli iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi sharoitida mahalliy byudjet mablag‘larining shakllanishi va ularning maqsadli sarflanishi yuzasidan kelib chiqadigan muammolarning yechimlarini takomillashtirish hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalardan samarali foydalanish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, bizning fikrimiz asosida mahalliy budjet daromadlarini oshirish, budjet mustaqilligiga erishish va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim topish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

Birinchidan, mahalliy budjet doirasida mahalliy soliq va yig‘imlarni to‘liq shaklda va ushbu ko‘rsatkichlarni keyingi yillarda ham o‘zgarishsiz qoldirish, ya’ni yuqori budjet belgilagan shartlar asosida o‘zaro taqsimlamaslik. Amalda yirik soliq tushumlarining tuman mahalliy budjetidagi ulushi yuqori budjetdan belgilanadi. Bunda mahalliy budjetga keyingi yillardagi tushumlarni belgilash imkoni bo‘lmaydi qoladi. Chunki bu ko‘rsatkich vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Masalan, tumanda ishlab chiqarish korxonalari va ishlab chiqarish hajmi ko‘payib, ular to‘lagan soliqlar salmog‘i ham ortsa, kelasi yilda ajratma soliq bazasi kengaygani hisobiga kamaytiriladi. Bunday vaziyatda tuman iqtisodiy o‘sishga erisholmaydi. Bu holatning yaqqol misoli, 2020-yilgi pandemiya sharoitini hisobga olgan holda davlat budjet-soliq siyosatining bir bo‘lagi bo‘lgan davlat budjetining pasaygani hammamizga ma’lum. Pandemiya davrida vujudga kelgan o‘zgarishlar- aholining salomatligini saqlash, koronavirus balosidan saqlash, aholining kambag‘al qismini moddiy ta’minot bilan ta’minlash va shu kabi asosiy masalalarga davlat budjetining kata qismi qaratildi. 2020-yilning 9 oyi uchun davlat budjeti daromadlari 94,5 trln so‘mni tashkil qildi. Bu o‘tgan 2019-yilning shu davriga nisbatan 13,5 trln so‘mga yoki 14,8% ga ozgarganini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda 2020-yilning 9 oyida davlat budjetiga soliqlar tushumining darajasi 19,3% ni tashkil etdi.

Davlat budjetida anchagina yo‘qotishlar kuzatildi. Buning asosiy sababi pandemiya tufayli iqtisodiy faollikning keskin tushib ketishi hisoblanadi.

Ikkinchidan, ma’lum bir soliq to‘lovchining muayyan solig‘ini emas, balki barcha soliqlarini tuman ixtiyorida qoldirish. Amalda ishlab chiqarish korxonasi to‘lagan soliqlarning ayrimlari tuman mahalliy budjetiga, ayrimlari yuqori budjetga tushadi. Bu kelgusida tumanning iqtisodiy ahvolini yaxshilab, mahalliy byudjetga tushumlarni ko‘paytirishga qaratilgan chora tadbirlarni belgilash, shuningdek, moliyaviy yechimini kutayotgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun zamin yaratadi.

Uchinchidan, soliqlar va yig‘imlar tushumini tuman, shahar va respublika o‘rtasida taqsimlaganda soliq turiga emas, soliq to‘lovchisiga qarab bo‘lish. Amalda bir korxona tomonidan to‘lanadigan soliq to‘lovi tushumi tuman, shahar (viloyat) va respublika o‘rtasida taqsimlanadi. Bu ishlar tuman soliq inspektsiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Oqibatda barcha soliq to‘lovlari to‘liq to‘lanishini nazoratga olishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Agar umum tartibdagi yirik soliq to‘lovchilar respublika budjetiga to‘liq qamrab olinsa, foydadan xoli bo‘lmasdi. Chunki ularning yuridik manzillari bir joyda, ishlab chiqarish korxonalari esa turli hududlarda bo‘ladi.

To‘rtinchidan, har yilgi mahalliy budjet parametrlarini tumandagi real ehtiyojdan kelib chiqib, samarali yo‘nalishlarga tuman xalq deputatlari tomonidan tasdiqlash. Ya’ni “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida ish tutish darkor. Bugungi kunda “yuqoridan-pastga” tamoyili ustunlik qilmoqdada. Amalda mahalliy budjet parametrlarini tasdiqlash asnosi yuqori byudjetdan mahalliy budjet daromadlarini belgilashda soliqlar va yig‘imlarning umumiy ulushi va xarajatlarning sohalar kesimidagi reja ko‘rsatkichlari aniq belgilab beriladi va tasdiqlangan bu ma’lumotlar tuman xalq deputatlari kengashi tomonidan mahalliy budjet parametrlarini tasdiqlashda o‘z holaticha ko‘chiriladi, xolos. Aslida-chi?.. Tumandagi real holatni hokim, deputatlar va mutasaddi rahbarlar yaxshi bilishadi. Shundan kelib chiqib, mahalliy budjet parametrlarining daromad va xarajat yo‘nalishlarini ularning o‘zlari belgilashsa, yillar osha ko‘pchilikni qiynab kelayotgan muammolar barham topardi.



1-rasm. Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet ko‘rsatkichlari. [8]

Yuqoridagilarga qo‘shimcha tarzda quyidagi Surxondaryo viloyati mahalliy budjet ko‘rsatkichlar dinamikasini keltirib o‘tamiz. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2019-yildagi budjet daromadi 1844,7 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2020–yilga kelib 1605,7 mlrd so‘mni tashkil etgan , daromad ko‘rsatkichi 12,9 % ga pasayganini ko‘rishimiz mumkin. 2021-yilga kelib esa 1993,2 mlrd so‘mni tashkil qilgan. 2021-yildagi mahalliy budjet daromad ko‘rsatkichi 2020-yilga nisbatan 24,1% oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkich oldingi 2 yilga nisbatan mahalliy budjet daromadi oshganini ko‘rsatmoqda. 2022-yil uchun berilgan pragnoz 2466,9 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda. Bu esa mahalliy budjet daromadining sezilarli darajada oshganini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari rejasi, uning ijrosi hamda budjetlararo munosabatlar bugungi kunda hududlarimizda mavjud muammolarning bosh sababi desak, xato bo‘lmaydi. Mahalliy budjetlarning iqtisodiy faoliyat yuritishlari o‘z daromad manbalari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ular o‘z hududlarida turli yo‘nalishdagi vazifalarni bajarishlari uchun yetarli miqdorda moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lishlari zarur. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yagona iqtisodiy hududni yaratish, yagona eng kam ijtimoiy xizmat standartlarini moliyaviy ta’minlash, fuqarolarga teng ijtimoiy himoya va ijtimoiy huquqlar kafolatlanishini, ya’ni mamlakatning barcha hududlarida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratilishini ta’minlash budjetlararo

munosabatlarning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Agar biz mahalliy budjet profitsitini hududlar kesimi bo‘yicha ta’minlasak yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolar yechimini topamiz hamda iqtisodiyotimiz o‘sishiga katta hissa qo‘shish imkoniga ega bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аллаяров С.Р., Кандахарова Ш. Н. ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ //СТОЛИЦА НАУКИ. – 2021. – Т. 3. – С. 4.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (№ PF-4947-son 07.02.2017 y) farmoni // www.lex.uz
3. Allayarov S.R., Zaynitdinov S.M. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularning tasnifi //Science and Education. – 2021. – T. 2.– №. 11. – S. 1156-1169.
4. Kara.A.Milonzi Local Government Finance 10.08.2018, Ketrin.F and K.Mihaly Municipial Finances, J.Miller Financial management for local government 2011., Robert.d and J.Peterson The Oxford handbook of state and Local government Finance 2012., S.Konsoli, R.R.Diego and Michaele Saisana Data Science for Economics and Finance 11.06.2021
5. И.Х.Озеров Основы финансовой науки 2008 , Е.Качанова Местные финансы 2012 России, Н.Ю.Исаковой Финансы Учебник. 2019, В.В.Ковалева Финансы 2007
6. Malikov.T.S va Haydarov.N.H Moliya. O‘quv qo‘llanma T: “Iqtisod-Moliya” 2022, Raxmonov.D.A va L.O‘.Mingishov Moliya. O‘quv qo‘llanma Toshkent, JIDU. 2014 93-100 b, Qosimova.G.A. Mahalliy budjetni tuzish va ijrosini ta’minlash T: Fan va texnologiya 2007. 280b, Vahobov.A.V va Qosimova.G.A Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma “Iqtisod-Moliya” 2008, Vahobov.A.V va Malikov.T.S Moliya: umumnazariy masalalar T: “Iqtisod-Moliya” 2008. 316b
7. 2020-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2020-yil 24-avgust, 506-son
8. Muallif tomonidan to‘plangan ma’lumotlar. Manbasi: https://openbudget.uz/

MARKAZIY OSIYODA MIGRATSIYA SIYOSATI VA IJTIMOIY, IQTISODIY VA SIYOSIY BEQARORLIK SHAROITIDA YUQORI MALAKALI ISHCHI KUCHINI O‘ZBEKISTONGA JALB ETISH CHORA TADBIRLARI

Xamidov Elyor Tursunali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
hamidovelyor@gmail.com

Hasanova Ruhsora Rasuljon qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
hasanovaruksik2002@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlarining iqtisodiyoti kun sayin rivojlanib bormoqda va iqtidorli texnologiya xodimlari va yuqori malakali ishchilar uchun kurash rivojlangan mamlakatlarda immigratsiya siyosatining asosiy tayanchiga aylanmoqda. Texnika - bu mamlakatlar iste’dodlar uchun raqobatlashadigan navbatdagi chegara, shuning uchun so‘nggi besh yil ichida ba’zi davlatlar bu sohada juda faol harakatga kirishdilar.

Kalit so‘zlar: Migratsiya, ishchi kuchi, Xalqaro mehnat tashkiloti, yuqori malakali ishchi kuchi, IT mutaxassislari, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Barqaror rivojlanish ko‘rsatkichi.

THE MIGRATION POLICY IN CENTRAL ASIA AND THE METHODS OF INVOLVING HIGH-SKILLED MIGRATION INTO THE UZBEKISTAN IN CONTEX OF ECONOMICAL, SOCIAL AND POLITICAL INSTABILITY

ABSTRACT

At present, the economies of the world are developing day by day, and the struggle for talented technology workers and highly skilled migrants is becoming the mainstay of immigration policy in developed countries. Technology is the next frontier where countries compete for talent, so over the last four or five years, some countries have become very active in the field.

Key words: Migration, labour, International Labor Organization, Highly Qualified Workforce, IT Specialists, Eurasian Economic Union, Sustainable Development Index

ПРИВЛЕЧЕНИЕ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННОЙ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В КОНТЕКСТЕ МИГРАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И ПОЛИТИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В настоящее время экономика мира развивается день ото дня, и борьба за талантливых работников техники и высококвалифицированных рабочих становится стержнем иммиграционной политики развитых стран. Технология — это следующий рубеж, на котором страны соревнуются за таланты, поэтому за последние четыре или пять лет некоторые из них стали очень активными в этой области.

Ключевые слова: Миграция, рабочая сила, Международная организация труда, высококвалифицированная рабочая сила, ИТ-специалисты, Евразийский экономический союз, Индекс устойчивого развития.

KIRISH

Yuqori malakali ishchi kuchini tanlab olish siyosati ko‘plab mamlakatlarda, xususan, Avstraliya, Kanada va Yangi Zelandiyada va kamroq darajada Qo‘shma Shtatlarda uzoq va an’anaviy tarixga ega. Biroq, Yevropaning ko‘pgina mamlakatlari yoki chet eldan yollanib ishlaydigan (malakali bo‘lmagan) ishchilarni yollashga e’tibor qaratgan yoki o‘nlab yillar davomida immigratsiya siyosatini umuman amalga oshirmagan. Yevropaning iste’dodlar uchun tanlovda mag‘lub bo‘lishi va natijada uning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish istiqbollari pasayib ketishi mumkinligi haqidagi xavotirlarning kuchayishi, mintaqaga kelayotgan chet ellik ishchilarning malakasini oshirishning aniq maqsadini belgilash siyosatini amalga oshirishga olib keldi.

Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) BMTning migratsiya bo‘yicha yetakchi agentligi va migratsiya sohasidagi yetakchi hukumatlararo tashkilotlar bo‘lib, uning asosiy manfaatdor tomonlari migrantlar va a’zo davlatlar bilan insonparvar, xavfsiz va tartibli migratsiyani targ‘ib qilishda yaqindan hamkorlik qiladi. U buni hukumatlar va muhojirlarga migratsiyaning afzalliklari va imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish hamda uning muammolarini kamaytirish maqsadida yaxlit nuqtai nazardan, shu jumladan rivojlanish bilan bog‘liq holda xizmatlar va maslahatlar taqdim etish orqali amalga oshiradi. 1951-yilda tashkil etilgan XMT hozirda 170 dan ortiq a’zo davlatlarga, 400 dan ortiq dala joylarida vakolatxonalariga va 14 000 dan ortiq xodimlariga ega. Janubi-Sharqiy Yevropa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida XMT 19 ta missiyaga ega. Markaziy Osiyoda XMT 7 ta ofisi va 70 dan ortiq xodimlariga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Markaziy Osiyo (CA) harakatchanlikka tayanadigan mintaqa bo‘lib qolmoqda, millionlab odamlar yaxshi ish va yashash imkoniyatlarini qidirmoqda. Migratsiya farovonlik, innovatsiyalar va barqaror rivojlanishning inkor etib bo‘lmaydigan manbai sifatida e’tirof etilib, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu bilan birga, ushbu harakatchanlik kelib chiqish, tranzit va boradigan mamlakatlar va migrantlarning o‘zlari uchun qiyinchilik va xavflarni keltirib chiqaradi. BMT migratsiya agentligi sifatida XMT mintaqadagi a’zo davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston bilan yaxshi migratsiya boshqaruvining ijobiy ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun hamkorlik qiladi.

Migratsiya Markaziy Osiyo uchun muhim masala. Markaziy Osiyoning iqtisodiy faol aholisining 10% dan 16% gacha bo‘lgan qismi o‘z mamlakatidan tashqarida, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘istonda yashaydi. Shuning uchun migratsiyaning siyosiy ahamiyatini kamaytirib bo‘lmaydi, u migratsiyani tegishli mavzu va siyosiy ta’sir vositasiga aylantiradi. “Markaziy Osiyo-Rossiya Federatsiyasi” migratsiya koridori dunyodagi eng muhim mehnat migratsiya yo‘laklaridan biri bo‘lib, 2020-yilda Markaziy Osiyodan 6,6 million xalqaro muhojirni qabul qildi. Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishiga eng zaif mintaqalardan biri bo‘lib, isish darajasi global o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lishi prognozlarga ko‘ra issiqlikning haddan tashqari ko‘payishiga olib keladi. Migratsiya - turli shakllarda iqlim ta’siri va atrof-muhit degradatsiyasi bilan shakllanadi va shunday bo‘ladi. Shu bilan birga, qulay sharoitlar mavjud bo‘lganda, migratsiya iqlim o‘zgarishiga moslashishni qo‘llab-quvvatlashi va iqlimga chidamlilikni oshirishi mumkin. Ushbu harakatchanlik bilan bog‘liq muammolar milliy chegaralardan tashqariga chiqadi va mintaqaviy miqyosda hal qilinishi kerak. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlaridagi ichki migratsiya, xususan, qishloqdan shaharga ko‘chish (urbanizatsiyaga) tobora kuchayib bormoqda. Katta shaharlarda davlat xizmatlariga (masalan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik va h.k.) talab ortib bormoqda. Masalan, Qirg‘izistonda ichki migrantlar aholining 18 foizini tashkil qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ichki migratsiya muhim rivojlanish omili bo‘lishi mumkin.

2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibida e’tirof etilgan va XMTning migratsiya va barqaror rivojlanish bo‘yicha institutsional yondashuvida qayd etilganidek, inson harakatchanligi barqaror rivojlanish bilan uzviy bog‘liqdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish guruhi a’zosi sifatida XMTning 2030 yilgi rejasi bo‘yicha o‘z faoliyati va vakolatlarini bayon etish, a’zo davlatlarni undagi majburiyatlarga erishishda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobot berish va mintaqaviy muhokamalarga hissa qo‘shish va migratsiyani barqaror rivojlantirish bo‘yicha aniq mas’uliyatga ega.

XMT gender va bolalarga nisbatan sezgir bo‘lgan odamlarga yo‘naltirilgan yondashuvga amal qiladi. Tashkilot hukumatlar va hamkorlarni migrantlar va ularning oilalariga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berishga harakat qilgan holda, migratsiya maqomidan qat’i nazar, migratsiya siklining barcha bosqichlarida inson huquqlarini himoya qilishda qo‘llab-quvvatlash majburiyatini oladi. XMT nogironlar eng marginal guruhlardan biri ekanligini tushunadi. Bundan tashqari, insonning jinsi va yoshi migratsiya tajribasining har bir bosqichini shakllantiradi.

Migratsiya barcha Markaziy Osiyo hukumatlari uchun demografik o‘zgarishlar, keng ko‘lamli tartibsiz migratsiya, malakalardagi bo‘shliqlar, iqlim ta’siri, xavf-xatarlar, siyosiy va o‘zgaruvchan donor landshaft kabi muammolarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy rivojlanish omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, XMT uchun alohida imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- Hukumatlar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi migratsiya muhimligini tan oladi. Markaziy Osiyoda XMT xalqaro migratsiya bo‘yicha hamkorlikni yaxshilash va GCMni ilgari surish bo‘yicha jamoaviy majburiyat uchun barcha tegishli manfaatdor tomonlarni birlashtirgan holda UNNMni aks ettirish uchun mamlakat platformalarini yaratdi. GKM Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistondan yordam oldi. GCMning asoslari Birlashgan Millatlar Tashkilotining migratsiya bo‘yicha qo‘shma harakatini GCMni amalga oshirish bo‘yicha aniq asosga yo‘naltirish imkoniyatini beradi va davlatlar uchun global miqyosda o‘z sa’y-harakatlarini namoyish qilish imkoniyatini beradi. BMTning migratsiya bo‘yicha yetakchi agentligi sifatida XMT uchun GCM Markaziy Osiyo davlatlariga uni amalga oshirishda ham, ixtiyoriy tahlillarni ishlab chiqishda ham yordam ko‘rsatadigan kirish joylaridan biri hisoblanadi.

- Mintaqaviy imkoniyatlarga Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (EAEU10), Xitoyning “Bir kamar va yo‘l” tashabbusi (BRI), va Yangi Yevropa Ittifoqining (YEI) Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasi kiradi. O‘zbekiston va Tojikistonga yagona mehnat bozorida mehnat migratsiyasi va migratsiya jarayonlarini tartibga solish uchun qulay muhit yaratish, tartibsizliklarni kamaytirish va mehnat bozori va mehnat migratsiyasidan maksimal foyda olish maqsadida YeOIIga a’zo bo‘lishi taklif qilingan. Markaziy Osiyo BRIning muhim quruqlik yo‘nalishi bo‘lib, u mintaqaga sarmoya kiritadi va olib keladi. Shunday qilib, BRI loyihalari bilan bog‘liq migratsiyani samarali boshqarish uchun XMT viza siyosatidagi islohotlar, malakalarni tan olish, ketishdan oldin yo‘naltirish va mehnat muhojirlarining integratsiyasi kabi sohalarga aralashuv zarurligini ta’kidlaydi. 2019-yilda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasi mintaqaning yanada barqaror, farovon va bog‘langan

iqtisodiy va siyosiy makon sifatida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, asosiy e’tiborni iqlim harakati, yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosiga qarshi kurashga qaratadi. Migratsiya nuqtai nazaridan, Yevropa Ittifoqining yangi strategiyasi Markaziy Osiyoda migratsiya va harakatchanlikni kengroq boshqarish, jumladan, qayta qabul qilish va reintegratsiya, tartibsiz migratsiyaning asosiy sabablari, qonuniy kanallar, odam savdosi, xalqaro himoya, milliy migratsiya siyosatini ishlab chiqishga qaratilgan va migratsiyani boshqarish bo‘yicha mintaqaviy va ko‘p tomonlama hamkorlikni amalga oshirishdir.

- Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotida pul o‘tkazmalarining YaIMga yuqori nisbati ko‘pincha zaiflik sifatida belgilansa-da, bu kelajakdagi iqtisodiy o‘sish, iqlim o‘zgarishlarini yumshatish va (agar pul o‘tkazmalari barqaror rivojlanish uchun individual, jamoa va milliy harakatlarga sarmoya kiritilishi mumkin bo‘lsa) barqaror rivojlanishni oshrish uchun imkoniyatdir. XMT muhojirlarning oilalari va ularning jamoalari uchun barqaror turmush tarzi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida pul o‘tkazmalari bo‘yicha imkoniyatlarni shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish bo‘yicha siyosatni ishlab chiqish va dasturlarni ishlab chiqishda davlatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yaxshi pozitsiyaga ega.

- Markaziy Osiyoda xususiy sektorni barpo etish, axborot almashinuvi, loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va salohiyatni oshirish kabi tadbirlar bo‘yicha xususiy sektor ishtirokchilari bilan hamkorlik qilish, xususan, kadrlarni axloqiy jihatdan rag‘batlantirish, korporativ ijtimoiy mas’uliyat va huquqlarni himoya ustuvor vazifadir.

Malakali muhojirlar va iqtidorli talabalar butun dunyoda talabga ega va davlatlarda immigratsiya oqimi tobora bahsli masalaga aylansa ham, ularni jalb qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarini kuchaytirmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan e’lon qilingan xalqaro migratsiya bo‘yicha yangi hisobotda IT mutaxassislari va start-up loyihachilari uchun yangi viza yo‘llarini joriy qilayotgan mamlakatlar soni ortib borayotganini ko‘rsatadi. Ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar har doim ham yuqori malakali migratsiyaga bo‘lgan munosabatini umumiy migratsiyaga nisbatan o‘z nuqtai nazaridan ajrata olmaydi va shu sababli ko‘plab davlatlar o‘z diqqat e’tiborini xorijlik talabalarga qaratmoqda.

Texnikaga xos immigratsiya yo‘llaridan tashqari, ko‘plab mamlakatlar, shu jumladan Avstriya va Kanada, boshqa yuqori malakali ish dasturlari uchun talablarni

yumshatdi. Startaplarni jalb qilmoqchi bo‘lgan mamlakatlar uchun muammo immigratsiya qoidalarini boshqa siyosat bilan moslashtirishdir. Talabalarda bo‘lgani kabi, kengroq ijtimoiy dinamika muhojirlar mamlakatda kutib olinadimi, deb o‘ylashlariga ta’sir qiladi.

Hozirgi siyosiy va ijtimoiy beqarorlik sharoitida markaziy osiyo davlatlariga migratsiya oqimi yanada kuchaydi. Bu albatta Rossiya Federatsiyasi va Ukaraina o‘rtasida davom etayotgan majoro natijasidir. Ukrainada urush boshlangach, Rossiyadan ko‘plab bizneslar chiqib keta boshladi. Vaziyat shunchalikka bordiki, Rossiyada faoliyat yuritayotgan onlayn korxonalar ham g‘arblik mijozlaridan quruq qolishi ehtimoli paydo bo‘ldi. Bunday vaqtda tezda yaqinroqdagi boshqa mamlakatga ketish talab qilinardi. O‘zbekistonga ham Rossiya va Belarusdagi minglab IT-mutaxassislari ko‘chib kela boshladi.

O‘zbekiston rossiyaliklar boradigan mashhur davlatlar sirasiga kirmaydi. Ammo mamlakatda IT-kompaniyalari uchun joriy qilingan imtiyozlar, nisbatan arzon aviachiptalar sabab O‘zbekiston bu sohadagi mutaxassislar uchun yangi emigratsiya habiga aylandi. Mahalliy IT-park direktori o‘rinbosari Bahodir Ayupovning aytishicha, 2022 yil fevral oyi oxiridan buyon mamlakatga Rossiya va Belarusdan 5-6 ming atrofida odam kelgan.

Bu migrantlarning ko‘pchiligi uzoq qolishni istamaydi. O‘zbekiston ularni ushlab qolish uchun nimalar qilmoqda?

14 aprel kuni prezident Shavkat Mirziyoev mamlakatni hududiy IT-markazga aylantirish, hududiy IT-parklarga kamida dunyo darajasidagi 30 ta IT-kompaniyalarni jalb qilish kerakligini aytdi. Forbes O‘zbekiston nega rossiyalik IT-mutaxassislari uchun mashhur yo‘nalishga aylangani, nega ular mamlakatda ko‘p ushlanib qolmoqchi emasligi va hukumat ularni ushlab qolish uchun nimalar qilayotganini tahlil qildi.

Rossiya Ukrainaga bostirib kirgach, EPAM nomli IT-kompaniya Rossiya va Belarusdan minglab ishchilarini O‘zbekistonga olib o‘tishga majbur bo‘ldi. IT sohasidagi boshqa korxonalar kabi EPAM ham 2019 yilda tashkil etilgan mahalliy IT-parklarga yordam so‘rab murojaat qiladi. Bu korxonalar Rossiya yoki Belarusda faoliyatini davom ettiradigan bo‘lsa, g‘arblik mijozlaridan ayrilishdan qo‘rqqani uchun O‘zbekistonga kelgan. Mehmonlar uchun IT-park maxsus TashRush dasturini ishlab chiqadi. Unga ko‘ra kelayotgan mehmonlar Toshkent aeroportida kutib olinadi, ularga mahalliy sim-kartalar beriladi, mehmonxonagacha kuzatib qo‘yiladi, diqqatga sazovor joylarga olib boriladi, ishlash uchun ruxsatnoma olish, sug‘urta va bank hisoblari ochishga yordam beriladi. Hatto IT-park mehmonlarning butun jamoasini olib kelish uchun charter reys tashkil qilgan holatlar ham bo‘lgan. Forbes bilan suhbatlashgan EPAM xodimlaridan birining aytishicha, u mart oyi boshida Minskdan Toshkentga kelgan. Uni aeroportda kutib olib, mehmonxonadayoq vaqtinchalik yashash uchun

ro‘yxatdan o‘tkazishgan. Toshkentdagi IT-rahbariyati aynan qaysi kompaniyalar o‘z xodimlarini olib kelayotganiga aniqlik kiritmagan, lekin anig‘i shuki, fevral oyi oxiridan buyon 2000 nafardan ortiq mutaxassislar yuqorida aytilgan TashRush dasturidan foydalangan. IT-parkka tashrif buyuruvchilar soni esa ikki baravarga ko‘paygan. Ayni paytda IT-parkda 584 nafar rezident ro‘yxatga olingan bo‘lib, yana 200 dan ortiq a’zolik arizasi berilgan. Ularning aksari Rossiya fuqarolari. Mahalliy IT-parkda ro‘yxatdan o‘tish uchun mamlakat hududida yuridik shaxs maqomida belgilangan 18 ta faoliyat turidan biri bilan shug‘ullanishi va bu borada biznes reja taqdim etishi lozim. «Broniboy» yetkazib berish ilovasi asoschisi Aleksandr Radionovning aytishicha, yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish jarayoni maksimal osonlashtirilgan. Tadbirkorlardan shunchaki PINFL-raqam olib uni xorijga chiqish pasporti yoki vaqtincha yashash ruxsatnomasi bilan har qanday davlat xizmatlari agentligi binosida ro‘yxatdan o‘tkazish so‘raladi. Keyin 25 dollar to‘lov qilib, bir kun ichida yuridik shaxs ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

IT-parkda korxona ofisi bo‘lmay turib ham ro‘yxatdan o‘tish mumkin. Avvalo korxonaning daromad manbalari e’tiborga olinadi. Har bir sotilgan tovardan olinadigan xizmat haqi evaziga pul topadigan onlayn do‘kon vakillari IT-park rezidenti bo‘lolmaydi. Ular ishlab chiqargan mahsuloti va platformasi uchun pul olayotgan bo‘lishi kerak. IT-park rezidentlari har oy daromadining 1 foizini komissiya tariqasida to‘laydi va evaziga ko‘plab imtiyozlarga ega bo‘ladi. A’zo kompaniyalar esa deyarli soliq to‘lamaydi. Daromad solig‘i 12 foizdan 7,5 foizga, dividend solig‘i 10 foizdan 5 foizga tushirilgan. Rezident xorijliklarni ishlash uchun ruxsatnomasiz qabul qilishi mumkin. Ular uchun bojxona to‘lovlari bekor qilingan, IT-parkda imtiyoz asosida ofis ijaraga olish mumkin. Yillik maoshi 30 ming dollardan kam bo‘lmagan xodimlar esa 3 yillik viza olishi mumkin bo‘ladi. Bunday rezidentlarga barcha o‘zbekistonliklarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam ko‘rsatiladi, yashash uchun ruxsatnoma 90 kun ichida qiyinchiliksiz yangilab beriladi.

XULOSA

Aksariyat Yevropa davlatlari chet ellik ishchilarning immigratsiyasini bir xil deb hisoblaydi. Aholining qarishi natijasida milliy ishchi kuchining kamayishini sekinlashtirishning muhim vositalari va strategiya va siyosatlarni ishlab chiqadilar. Ish beruvchilarning ma’lum turdagi malakalarga bo‘lgan ortib borayotgan talabiga javob berish qisqa yoki uzoq muddatli tanqislikdir. Ushbu maqolada umumiy ko‘rinishni berishga qaratilgan turli milliy va yuqori malakali migratsiyani (HSM) solishtiring so‘nggi paytlarda Markaziy Osiyo bo‘ylab amalga oshirilgan siyosiy tashabbuslarga yigirma yil davomida, ayniqsa, global moliyadan keyingi so‘nggi yillarga e’tibori yoritildi. Yevropaning immigratsiya siyosati yuqori malakali va past malakalilar

o‘rtasidagi keskin farq bilan tobora ko‘proq xarakterlanadi. So‘nggi yigirma yil ichida ko‘pchilik Yevropa mamlakatlari akademiklar, tibbiyot xodimlari, muhandislar va umuman olganda, yuqori daromadlilar kabi malakali va yuqori malakali migrantlarni jalb qilish siyosatini amalga oshirdi. Bu siyosat endilikda markaziy osiyo davlatlariga jadal sura’atlarda ko‘chib o‘tmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. IOM, 2020 “Impact of the Covid-19 pandemic on the situation on migrants and remittances in Central Asia”.
2. Ministry of Interior of the Russian Federation, Selected indicators of the migration situation in the Russian Federation for January - December 2020 with istribution by countries and regions https://xn--b1aew.xn-p1ai/Deljatelnost/statistics/ migracionnaya/item/22689602/.
3. Impact of Migration on Economicand Social DevelopmentA Review of Evidenceand Emerging Issue.DilipRatha, Sanket Mohapatra, linaSchejaPoverty Reduction and Economic Management NetworkFebruary 2011.
4. Abdih, Y., R. Chami, M. Gapen, & A. Mati. 2009. ―Fiscal Sustainability in RemittanceDependentEconomies.‖ IMF Working Paper WP/09/190, International Monetary Fund.
5. Adams, R. H. 1991. ―The Effects of International Remittances on Poverty, Inequality,and Development in Rural Egypt.‖ Research Report 86, International Food PolicyResearch Institute.
6. https://kun.uz/50524691

INTERNETDA SO‘ZLARSIZ MULOQOT

Abdishukurova Orzigul Chori Qizi

Termiz davlat universiteti 1-kurs magistratura talabasi

dreamf880@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada internet orqali muloqot jarayonida foydalanuvchilar tomonidan qo‘llaniladigan belgilar, ular uchun qo‘llaniladigan atamalar, ularning kelib chiqish tarixi o‘rganib chiqilgan. Ushbu belgilar qanday ma’no ifodalashi hamda qaysi holatlarda ko‘proq qo‘llanilishi tahlil qilingan. Tahlil natijalari internetdagi muloqot jarayonidan olingan misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: emoticons, emoji, smaylik, stiker, emotsiya.

ABSTRACT

This article examines the characters used by users in the process of communicating over the Internet, the terms used for them, their history of origin. An analysis of what these symbols mean and in what situations they are most commonly used. The results of the analysis are illustrated using examples from the online communication process.

Key words: emoticons, emoji, emoticons, stickers, emotion.

KIRISH

Bugungi axborotlashgan va texnologiyalardan keng foydalaniladigan zamonda internet kirib bormagan soha deyarli qolmadi. Bu esa internet lingvistikasiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Internetdan foydalanish ommalashgunga qadar uzoq masofalarga ma’lumot yetkazish yoki aloqa qilish uzoq vaqt va mablag‘ talab qilar edi. Internetning dunyo bo‘yicha ommalashuvi va uning har bir sohaga kirib borishi uning uchun o‘ziga xos so‘zlashuv tilining yaratilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida insonlarning bir-biri bilan muloqot jarayonini kuchaytirdi. Bu tilda so‘zlashish faqatgina so‘zlardan foydalanishni emas balki so‘zsiz, ya’ni imo-ishoralar vositasida foydalanishni ham nazarda tutadi. Bu vositalarga qisqartma so‘zlar, his-tuyg‘uni ifodalovchi belgi va rasmlar kiradi. Bu belgilar vositasida fikrni ixcham ifodalash, muloqot jarayonidagi his-tuyg‘ularni aniq tasvirlash mumkin. Internet foydalanuvchilari tomonidan bu belgilar “emoticons”, “smaylik” yoki “emoji” deb

ataladi. Lekin barcha internet foydalanuvchilari ham bu belgilarni to‘g‘ri qo‘llash yoki to‘g‘ri ma’noda tushinish ko‘nikmasiga ega emas. Ayniqsa bu belgilardan foydalanish turli xil yoshdagi foydalanuvchilar o‘rtasidagi suhbat jarayonida turlicha tushiniladi. Quyida esa ushbu belgilarning kelib chiqishi va ma’nolarini ochib berishga harakat qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Ushbu maqolada internetda qo‘llaniladigan belgilarning semantik xususiyatlarini ochib berishda distributsiya, kuzatish va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Biz “smaylik” deb ataydigan belgilar va ular uchun berilgan ushbu nom, “Wikipedia” lug‘atiga tayanadigan bo‘lsak, 1950-yillarda butun dunyo bo‘ylab aloqa vositasi sifatida qo‘llanila boshlaydi. Bu nom ko‘zni anglatuvchi ikki nuqta va og‘iz uchun qo‘llanadigan bir chiziqqa ega bo‘lgan :) ushbu tasvir uchun ishlatiladi. Keyinchalik bu belgilar yuzni ifodalovchi aylanaga joylashtiriladi, hamda sariq rangli fondan foydalaniladi va ba’zan “smiley face” deb ataladi. Ingliz tilidan olingan bu so‘z o‘zbek tilida “kulib turgan yuz” tarjimasini beradi. Ushbu so‘z bilan bir qatorda “emoticon”, “emoji” va “stiker” so‘zlari ham keng qo‘llaniladi. Barchasi belgilarning umumiy nomi bo‘lsada, albatta bu so‘zlar orasida farq mavjud. “Emoticons” deb ataluvchi belgilar Devid Kristalning fikriga ko‘ra “ onlayn muloqotda fikr va munosabat bildirish uchun muhim bo‘lgan yuz ifodalari va tana imo-ishoralari mavjud emasligi sababli, muloqot jarayonidagi bo‘shliqni to‘ldirish uchun kulgichlar va tabassumni ifodalovchi belgilar kiritilgan”. “Emoticon” so‘zi 1980-yillarda ishlatila boshlangan bo‘lib, inglizcha “emotion” va “icon” so‘zlarining qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan tabassum yoki qovog‘ini uyish kabi klaviatura belgilarining turli kombinatsiyasi orqali shakllangan va yozuvchining his-tuyg‘ularini yoki ohangini yetkazish uchun ishlatiladigan yuz ifodalaridir. “Emoji” so‘zi esa yapon tilidagi “e-rasm” va “moji-harf; xulq-atvor” so‘zlarinig 1990-yillarda qo‘shib ishlatilishidan paydo bo‘lgan va internetda foydalaniladigan qo‘l harakatlari, ob-havo, hayvonlar tasviri, kiyimlar, gullar tasvirlarini anglatuvchi tushunchadir. “Smaylik” so‘zi aslida ingliz tilidagi “smile-kulmoq” so‘zi bo‘lib, kulgu, xursandchilik, hayajon va hattoki hafagarchilik hamda tushkunlikni ifodalovchi belgilar jamlanmasi uchun ham ishlatiladigan atama hisoblanadi. O‘zbek tilida bu so‘zning muqobili sifatida ba’zan “kulgichlar” so‘zi ishlatiladi, ammo bu so‘z yuqoridagi atamaning to‘liq ma’nosini ochib berolmaganligi sababli ham rus tilida qo‘llaniladigan “smaylik” tushunchasi o‘zbek tilida ham keng qo‘llaniladi. Smayliklar 1982-yil 19-sentabrda amerikalik olimlar o‘rtasida kechgan bahs jarayonida Skott Falman tomonidan o‘ylab topilgan. Uning fikriga ko‘ra bahs jarayonida muhokama qilinayotgan g‘oyalar ahmoqona edi. Bu g‘oyalarni so‘z bilan ifodalash olimlar orasida munozaraga sabab bo‘lmasligi uchun

guruh boshqaruvchisi hazillarni belgilar vositasida ifodalash usulini o‘ylab topadi. Shundan so‘ng smayliklar ommalashadi.

NATIJALAR

Quyida misollar yordamida smayliklar va ular ifodalaydigan ma’nolarni ko‘rib chiqamiz:

Xursandchilik/tabrik

1) A: Men bugun imtihondan a’lo baho bilan *o‘tdim!*

B:Tabriklaymiz!

Zerikish

2) A: Kino qanday ekan?

B:

O‘ylab ko‘rish

3) A:Ertaga sayrga chiqishga nima deysan?

B:

sistemno-statisticheskogo issledovaniya uzbekskix tekstov” nomli kitobida lingvistik modellar, modellashtirish va uning umumiy tamoyillari haqida fikr yuritilib, o‘zbekcha matnlarning kvantativ modellari keltirilganligini qayd etib o‘tgan.[72] Nilufar Abduraxmonova tomonidan “Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta’minoti (sodda gaplar misolida)” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan (2018) dissertatsiyasida o‘zbek tilining lingvistik modellari, sintaktik strukturalar orqali tarjima qilish, qolaversa, transfer usuli qardosh bo‘lmagan tillar uchun mos ekanligi ilmiy jihatdan o‘rganilgan.[73]

Yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotlarga qaramasdan o‘zbek tilining avtomatik tarjima dasturi mavjud emas. Bir tildagi matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish uchun “Google Translation” dasturidan keng foydalaniladi. Bu dastur bir qancha qulayliklarga ega bo‘lish bilan birga, tarjimada xatoliklar ham uchraydi. Bu, ayniqsa, ilmiy va rasmiy matnlar tarjimasida ko‘p kuzatiladi. Misol tariqasida Philipp Koehnning **“A Beam Search Decoder for Phrase-Based Statistical Machine Translation Models”** maqolasidan parcha tarjima qilib ko‘rdik va dastur bizga quyidagi natijani berdi:



[72] Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018). // Мухамедов С.А., Пиотровский Г.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно – статистического исследования узбекских текстов. –Т.: Фан, 1986; Махмудов М.А., Пиотровская А.А., Садыков Т. Система машинного анализа и синтеза тюркской словоформы // Переработка текста методами инженерной лингвистики. –Минск, 1982.

[73] Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

Recombining Hypotheses — Recombining hypothesis is **a risk-free way** to reduce the search space. Two hypotheses can be recombined if they agree in (i) the foreign words covered so far, (ii) the last two English words generated, and (iii) the end of the last foreign phrase covered. If there are two paths that lead to two hypotheses that agree in these properties, we keep only **the cheaper hypothesis**, e.g., the one with the least cost so far. The other hypothesis cannot be part of the path to the best translation, and we can **safely discard** it. We do keep a record of the **additional arc** for **lattice generation**.

*Gipotezalarni qayta birlashtirish - Gipotezani qayta birlashtirish qidiruv maydonini qisqartirishning **xavf-xatarsiz** usulidir. Ikkita gipoteza, agar ular (i) hozirgacha yoritilgan xorijiy so'zlar, (ii) yaratilgan so'nggi ikkita inglizcha so'z va (iii) oxirgi chet el iborasining oxirida mos kelsa, qayta birlashtirilishi mumkin. Agar ushbu xususiyatlarga mos keladigan ikkita farazga olib keladigan ikkita yo'l mavjud bo'lsa, biz faqat **arzonroq gipotezani**, masalan, hozirgacha eng **kam xarajatli gipotezani** saqlab qolamiz. Boshqa faraz eng yaxshi tarjima yo'lining bir qismi bo'lishi mumkin emas, va biz uni **xavfsiz tashlab yuborishimiz** mumkin. Biz **panjara hosil qilish uchun** qo'shimcha **yoyni** qayd qilamiz.*

Tarjima natijasida ko'rinib turibdiki, ayrim so'zlar va terminlar matn ma'nosiga va gap mazmuniga to'g'ri kelmaydigan holda tarjima qilinyapti. Bu esa kontekstdagi ma'noning anglashilmasligiga olib keladi. Buning asosiy sabablaridan biri "Google Translate" dasturida o'zbek tili ma'lumotlar bazasining to'liq emasligidadir.

Philipp Koehn tavsiflab bergan statistik mashina tarjimasi modellarini va "Google Translate" ni analiz qilgan holda O'zbek tilshunosligida ilk bor korpusga asoslangan mashina tarjimasi texnologiyasini joriy etmoqchimiz. Buning uchun bizga katta hajmdagi korpus kerak bo'ladi. Buning uchun Nilufar Abduraxmonova rahbarligida yaratilgan https://uzbekcorpus.uz/ dan foydalanish maqsadga muvofiq deb topdik. Bizning asosiy maqsadimiz terminologik parallel korpuslar asosida ilmiy va rasmiy matnlarni tarjima qiladigan avtomatik mashina tarjima dasturini yaratishdir.

Matnlarni terminologik, struktur, morfologik, sintaktik tomondan to'g'ri tarjima qiladigan avtomat tarjima dasturi texnologiyasini yaratish uchun katta hajmdagi korpus bilan bir qatorda quyidagilar kerak bo'ladi:

1. Parallel korpus
2. Morfo analizator
3. Sintaktik analizator
4. Tarjima lug'atlar

Tarjima dasturi to'g'ri ishlashi uchun matnlarni o'xshashlik jihatidan ehtimollilik modellarini yaratib chiqishimiz zarur bo'ladi. Modellashtirishning quyidagi turlari mavjud:

- So‘z asosida modellashtirish, ya’ni so‘z segmentlari bo‘yicha muqobil variantlarni yaratish;
- So‘z birikmalari yoki frazalar bo‘yicha muqobillashtirish;
- Gaplarni o‘zaro muqobillashtirish.

Avvalo, yaratilayotgan mashina tarjimasi uchun taxminan nechta gap modeli kerak bo‘lishini aniqlab olish lozim. O‘zbek tilshunosligida gap modellari bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, xususan, Nilufar Abduraxmonova aynan tarjima dastur uchun ingliz va o‘zbek tillaridagi gap modellarini tadqiq etish maqsadida mashina tarjimasi nazariyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va “Mashina tarjimasining linvistik ta’minoti” nomli monografiyasining to‘rtinchi bobini aynan mashina tarjimasi tizimida gap modellarini yaratish nazariyasiga bag‘ishlagan.[74] Monografiyada 50 dan ortiq o‘zbek-ingliz tillaridagi gap modellari keltirilgan bo‘lib, ular ingliz tilidagi ot kesimli sodda gap va fe’l kesimli sodda gap modellari, shuningdek, inglizcha matnlardagi ega va kesim moslashuvining o‘zbek tilidagi modellari hisoblanadi. Tadqiqot ishida kesimi o‘timisiz fe’ldan iborat bo‘lgan asosiy gap modellarining 10 ta, kesimi yordamchi fe’l bilan hosil bo‘lgan asosiy gap modellarining 14 ta, kesimi o‘timli fe’l bo‘lgan asosiy gap modellarining 13ta, *to be* yordamchi fe’li ishtirok etadigan gap shakllarining 20 dan ortiq turi ko‘rsatib berilgan. Mashina tarjimasi to‘g‘ri ishlashi uchun qo‘shma gap modellari ham kerak bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma gap modellarini avtomatik tarjima uchun ishlab chiqish oldimizda turgan vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mashina tarjimasi uchun matn so‘zlarni mazmuniy birliklarga ajratib chiqish muhim bosqich sananladi. Biz WordFast texnologiyasida sigmentatsiya jarayonini amalga oshiramiz. Bunda tadqiqot obyektimiz o‘zbek va ingliz tillaridagi avtorefetlar bo‘ladi.

O‘zbek-ingliz tillaridagi ilmiy va rasmiy matnlarni to‘g‘ri tarjima qila oladigan mashina tarjimasi texnologiyasini yaratish o‘zbek olimlar, umuman, ilimiy tadqiqot ishini olib boruvchilar uchun keng imkoniyat yaratadi. Yuqoridagilarni hisobga olib, “Google Translate” tarjima dasturining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilgan holda o‘z tadqiqot ishimizda ilmiy terminlar va ilmiy matnlar bazasini kengaytirib, ilmiy parallel matnlarni to‘ldirish hisobiga boyitib o‘zbek tilshunosligida ilk bor mashin atrjimasi texnologiyasini yaratishni maqsad qildik.

[74] Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., Razakhova B.: Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In: Abstract of the VIInternational Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology -Al-Khorezmiy 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018)

2. Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

3. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7.

4. Abdurakhmonova N, Tuliyev U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68.

5. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL). 2019;6(1-2019):131-7.

6. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.

7. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.

8. A. Ismailov, M. M. A. Jalil, Z. Abdullah and N. H. A. Rahim, "A comparative study of stemming algorithms for use withthe Uzbek language," 2016 " 3rd International Conference on Computer and Information Sciences (ICCOINS), 2016, pp. 7-12, doi: 10.1109/ICCOINS.2016.7783180.

9. Philipp Koehn. A Beam Search Decoder for Phrase-Based Statistical Machine Translation Models. Machine Translation: From Real Users to Research 6th Conference of the Association for Machine Translation in the Americas, AMTA 2004. Washington, DC, USA, September/October 2004

10. Jalil, Masita & Ismailov, Alisher & Abd Rahim, Noor Hafhizah & Abdullah, Zailani. (2017). The Development of the Uzbek Stemming Algorithm. Advanced Science Letters. 23. 4171-4174. 10.1166/asl.2017.8332

NEMIS FAYLASUFI WOLFGANG GYOTE HIKMATLARINING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASI. (NARGIZA TOSHPO‘LATOVA TALQINIDA)

Nargizaxon Mamarizayevna Toshpo‘latova
O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi Farg‘ona Viloyati Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasining “Pedagogning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish” fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk nemis faylasufi Volfgang Gyotening ijodiy faoliyati hamda uning “Hikmatlar” ining Nargiza Toshpo‘latova tomonidan o‘zbekcha tarjimasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yil, ulug‘, adabiyot, asar, til

ИЗРЕЧЕНИЯ НЕМЕЦКОГО ФИЛОСОФ ВОЛФГАНГ ГЁТЕ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье ведётся речь творческий произведение о великий немецкий философа Волфганг Гёте. Автор перевод Наргиза Ташпулатова.

Ключевые слова: Год, великий, литература, произведение, язык.

DIE GEDANKEN VON DEUTSCHE PHILOSOPHER WOLFGANG GOETHE ÜBERSETZUNG UZBEKISCHE SPRACHE

ANNOTATION

In dieser Artikl aussagen Tätigkeiten über deutsche Philosopher Wolfgang Goethe und übersetzung seine Gedanken von Nargiza Toshpulatova.

Schlüssel words: Jahr, grosse, Literatur, das Work.Sprache.

UZBEK TRANSLATION OF THE WORKS OF THE GERMAN PHILOSOPHER WOLFGANG GOETHE

ABSTRACT

In this article says about philosopfer Wolfgang Goethe who, he was born in State Germany and translation his phrase, from Nargiza Tashpulatova.

Key words: Year, great, literature, work,language

KIRISH

Buyuk nemis faylasufi va shori Iogann Volfgang Gyote 1749-yil 28-aprel kuni Germaniyaning Frankfurt an dem Mayn shahrida tug‘ilgan. Uning bolaligi baxtli o‘tgan. U o‘z otasi va ko‘plab o‘qituvchilardan saboq olgan. U lotin, grek, frantsuz, italyan, ingliz tillarini hamda matematika, geometriyani o‘rgangan. Gyote 16 yosh bo‘lganda Frankfurtni tark etdi. U Leypzig shahrida huquqshunoslikni o‘qishni boshladi.Leypzigdagi vaqtida Gyote dastlabki asarini yozishni boshladi.U nihoyat Strassburgga borishga qaror qildi.

U yerda u o‘zining o‘qishini davom ettirdi. 22 yoshida Gyote Frankfurtda huquqshunos kasbini egalladi. 1775-yilda u yana Vaymar shahriga qaytib keldi. 44 yoshida u buyuk shoirlik faoliyati bilan ulkan muvaffaqiyatga erishdi.U she’r hamda teatr pyesalari, ballada va romanlar yozdi. Ular quyidagilar: “Yosh Verterning iztiroblari”, ”Faust“, “Sharq va G’arb Devoni”. Mutafakkirning hamma asarlari dunyoga mashhur bo‘ldi. Gyote nafaqat shoir, va davlat arbobi, balki tabiatshunos hamda faylasufdir. 1779-yildan vafotiga qadar Vaymar shahrida yashadi.Fridrih Shillerning tavsiyasi hamda iltimosi bilan Gyote „Faust“ asarini oxiriga yetkazdi. Gyote 1832 -yil Vaymarda vafot etgan.

TARJIMA TAHLILI

Quyida faylasuf hikmatlarining Nargiza Toshpo‘latova talqinida tarjimasi bayon etilgan.

1. Hayotda ish hayot haqida boradi.Ushbu fikrni xuddi shundy mazmunda ta'riflasa bo‘ladi.
2. Shaxmat o‘yinida piyoda mag‘lub bo‘lishi mumkin.Ammo partiya boshlaydi va g‘olib bo‘lishi mumkin.
3. Agarda kamalak o‘rnida uzoq ushlab turilsa,uni ko‘rishga qarab turishadi.
4. Agarda insonlar o‘zlarining dushmanlarining kamchiliklarini hisob kitob qilishsa, bundan,birgina hech narsa chiqmaydi.
5. Men doimo mening raqiblarimni xizmatlarini tan oldim.
6. Agarda sening yuraging va aqling xavotirda behalovat bo‘lsa, senga yana nima kerak.
7. Kimki sevish va xato qilishdan to‘xtasa, u o‘zini tiriklayin ko‘mishi mumkin
8.Ikki bahslashayotganning aqllisi aybdordir.
9. Buyuk inson ham –insondir.
10. Xatolar ham muhimdir,hali bizlar yoshmiz, hech bo‘lmasa, uni biz qarigunimizga qadar, tashib yurmasligimiz kerak.
11. Kim ko‘p o‘ylasa, har doim ham yaxshi qaror topolmaydi.
12. Kimki xavf haqida o‘ylasa, ammo unga o‘sha dushmandir.

13. Insonning o‘ziga xosliklari bu ko‘zgudir. Qaysiki u insonning chizgisini tasvirlaydi.
14. Har bir inson dunyoni o‘zida ko‘radi; va har biri o‘zicha haqdir. Shuning uchun uning ko‘plab fikrlari mavjud.
15. Umid hattoki qabr ortida ham yashaydi.
16.Faqatgina nimani sevishni o‘rgatish kerak.
17. Har doim ham qahramon bo‘lish muhim emas, ammo doimo inson bo‘lib qolish muhimdir.
18. Istak bildirish yetarli emas, bajarish kerak.
19. Faqat bilim olish yetarli emas, unga ilova ham topish kerak.
20. Hech kim bilmaydiki o‘zida qanday kuchlari borligini,hali uni qo‘llamay turib.
21. Ayollarga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lgin. Ular qovurg‘adan yaratailgan.Agarda to‘g‘rilamoqchi bo‘lsang uni sindirib qo‘yasan.
22. To‘xtagin, Sen maftunkorsan.!
23. Yozuv-qiyinchilikni sevishni bayram qilib nishonlashdir.
24. Jasorat- bu hammasi, shon sharafdan tashqari.
25. Vaqtni yo‘qotish mushkuldir. Shuning uchun hamki uni kimki ko‘proq bilsa.
26. Tabiat yagona kitobdir. O‘zining har bir sahifasida chuqur mundarijalar , xotimalar qolib ketadi.
27. Insonlarga so‘z faqatgina eslatish uchunginadir. Insonlar fikrlaydilar hamda ko‘proq biladilar.
28. Samimiy ishni chin dildan amalga oshirgin.
29. Maslahat berish ishda bo‘lishi mumkin,qaysiki o‘zi ham ishtirok etadigan bo‘lsa.
30. Sirli,narsalar hali beri ajoyib deb aytilmaydi.
31. Iqtidorlar jimlikda tasvirlanadi.
32. O‘sha qaysiki biz o‘qiyotgan, bizning to‘gri o‘qituvchimiz deb ataladi.
33. O‘sha ya’ni million o‘quvchiga o‘qishni bera olmasa, bitta ham qatorni yozmasligi kerak.
34. Qo‘rqoq faqat havfni jo‘natadiki, qachonki u o‘zining havfsizligiga ishonsa.
35. Aqlli odamlar eng zo‘r qomusdirlar.
36. Dunyo butunlay oldinga siljiganda yoshlar boshidan boshlash uchun keladilar.
37. Hayotdagi maqsad bu -hayotning o‘zi.
38. Tez- tez gapirishadi raqamlar dunyoni boshqaradi deb. Shubhasiz,raqamlar dunyoni qanday boshqarilishini ham ko‘rsatib beradi.
39. Inson ishonishi shart, tushunmaganni tushunishi mumkin.
40. Inson haqiqiy hayotda yashaydi, agar birovlarning baxti bilan baxtli bo‘lsa.
41. Inson aqlli hamda to‘g‘riso‘z bo‘lishi kerak, hattoki u tog‘ri yo‘lga erishgan bo‘lsa ham.

42. Insonni buyukliklarning hammasi shakllantiradi.
43. Mukammal inson bo‘lish uchun, boshqalarning ham mukammalligini tan olgin!.
44. Agarda inson bilan shunday munosabatda bo‘lsang, u yaxshi bo‘lib qoladi, ammo unga insondek munosabatda bo‘lsang u yanada yaxshiroq bo‘lib qolishi mumkin.
45. Yangi haqiqat uchun hech qanday havf yo‘q, eski hayajonlanishdan ko‘ra.
46. Aytadilarki, haqiqat 2 ta qarama-qarshi fikrlar o‘rtasida yotadi. To‘g‘ri emas. Ular o‘rtalarida muammo yotadi.
47. Kim birinchi o‘rinda o‘tirsa, ba’zida birinchi rolni o‘ynaydi.
48. Negadir, inson baxtini o‘zi tashkillaydi,u bilan birga uning azoblanishining manbasi ham bo‘lishi mumkinmi ?
49. Bizlar ko‘nikib ham qoldik,insonlar o‘zlari tushunmagan narsaning ustidan kulishadi.
50. Botirlik o‘zida aqllilikni namoyon etadi.

XULOSA

Wolfgang Gyote mashhur ”Sharq va G‘arb devoni” ni yozish uchun sharqning qo‘lyozmalarini o‘rganib,ko‘p marta o‘qib chiqqan.Darhaqiqat, shu o‘rinda u o‘sha tilni ham bilgan. Uning hikmatli so‘zlari: **Kim chet tilini bilmasa o‘zligini bilmaydi.** Gyotening faoliyati nemis adabiyoti uchun ham, jahon adabiyoti uchun ham qimmatlidir, chunki u doim hayotning kurashlaridan himoyalanishni tasvirlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Doktor Faust.
2. Italiyaga sayohat.
3. Vilgelm Maysterning o‘qish davrlari .
4. Internet manbasi**:** https:ru.wikiquote.Org.windex.php.

TILSHUNOSLIKDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT

Abduraximova Mohigul Ravshanjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi magistranti
e-mail: abduraximovamohigul98@gmail.com

Muminov Sidiqjon Mirsobirovich
Farg‘ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
e-mail: siddiqjon.mominov.@bk.ru

ANNOTATSIYA

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta’riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi. Qisqa qilib aytganda, muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni hisoblanadi. Bu «muloqot» tushunchasining eng to‘liq va aniq ta’rifidir. Ushbu maqolada biz muloqotning verbal va noverbal turi hamda ularning xususiyatlari va vazifalari haqida to‘xtaldik.

Kalit so‘zlar: muloqot, nutq, verbal va noverbal muloqot, mimika, imo-ishora va pantomimika.

ABSTRACT

There are different definitions of "communication". Communication is defined as the interaction of two or more people in the exchange of information that has a cognitive or affective-evaluative character. In short, communication is a complex process of establishing and developing relationships that arise from the need for collaborative activities between people and the exchange of information, the development of a single path of interaction, and the perception and understanding of the other person. is a comprehensive process. This is the most complete and accurate definition of "communication". In this article, we have discussed about the verbal and nonverbal types of communication and their features and functions.

Keywords: communication, speech, verbal and nonverbal communication, facial expressions, gestures and pantomime.

Muloqot turli-tuman vazifalarni bajaradi. Turli mualliflar muloqotning turli vazifalarini ajratib ko‘rsatadilar. G.M. Andreyeva “kommunikativ, interaktiv va perseptiv vazifasi”ni sanab o‘tadi. M.I.Enikeyev “axborotli-kommunikativ, boshqaruv-kommunikativ, perseptiv-samarali va affektiv-ekspressiv (emotsional o‘zini ifodalash)” vazifalarini ko‘rsatadi. A.A. Brudniy:"instrumental, sindikatli, translyatsiya, o‘zini ifodalash vazifalarini ajratadi. Instrumental – bu muloqotning harakatni bajarish uchun muhim axborotni etkazishdan iborat bo‘lgan asosiy ishchi vazifasidir. Bu vazifaga yaqin bo‘lgan, lekin unga o‘xshash bo‘lmagan vazifa, birlashtirish – sindikativ vazifa. Ko‘pchilik muloqot aktlarining bevosita maqsadlari katta va kichik guruhlardagi odamlar o‘rtasidagi umumiylikni aniqlash va mustahkamlashdan iborat. Sindikativ vazifa bilan o‘zini ifodalash vazifasi bir-biriga yaqindir. O‘zini ifodalash o‘z mohiyatiga ko‘ra, hamfikrlikka, aloqaga qaratilgan. Alohida o‘rinni ijodiy faoliyatdagi o‘zini ifodalash egallaydi, u faoliyat mahsuli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u, odamlar o‘rtasidagi muloqot predmetiga aylanadi. Va nihoyat, muloqotning translyatsion – faoliyatning aniq usullari, baholash mezonlari va dasturlarni etkazish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa ta’lim olish asosida yotadi: muloqot orqali shaxsning ta’lim olishi amalga oshadi".[1] L.A.Karpenko maqsadga ko‘ra muloqotning sakkiz xil vazifasini belgilaydi: "aloqaviy – xabarlarni qabul qilish va etkazish, hamda o‘zaro aloqada bo‘lishga ikkala tomonning shayligi holati sifatida aloqa o‘rnatish; axborotli – xabarlar, fikrlar, maqsadlar, echimlar va boshqalar almashinuvi; chorlovchi – muloqot bo‘yicha sherikni u yoki bu harakatlarni bajarishga yo‘naltiruvchi faolligini rag‘batlantirish; boshqaruvchi – hamkorlik faoliyatini tashkil etishda haraktlarni o‘zaro yo‘naltirish va muvofiqlashtirish; anglash vazifasi – etkazilgan ma’lumotning mohiyatini mutanosib holda idrok qilish va tushunishgina emas, balki, sheriklarning ham o‘zaro bir-birlarini tushunishlari (istaklari, mayllari, kechinmalari, holatlari va h.k.larni); amotiv – sherikda zarur hissiyotli kechinmalarni uyg‘otish («hislar almashinuvi»), shuningdek, uning yordamida shaxsiy kechinma va holatlarni o‘zgartirish; munosabatlarni o‘rnatish – individ mavjudligi kutilayotgan jamiyatdagi rolli, darajali, ish bo‘yicha, shaxslararo va boshqa aloqalari tizimlarida o‘z o‘rnini anglash va qayd etish; ta’sir o‘tkazish – sherikning holati, hulq-atvori, shaxsiy-mazmunli hosilalari, shuningdek, istaklari, mayllari, fikrlari, echimlari, tasavvurlari, ehtiyojlari, harakatlari, faolligi va boshqalarni o‘zgartirish".[2] B.F.Lomov muloqotning quyidagi vazifalarini taklif etadi: axborotni qabul qilish-yetkazish jarayonlarini o‘z ichiga olgan axborot-kommunikativ; hamkorlik faoliyatini amalga oshirishda harakatlarni o‘zaro tuzatish bilan bog‘liq boshqaruvchi-kommunikativ, inson hissiyotlari sohasiga tegishli bo‘lgan va o‘z emotsional holatini o‘zgartirishdagi ehtiyojlarga javob beruvchi affektiv-kommunikativ vazifalar.

Odamlar o‘rtasidagi muloqotning eng muhim turlari verbal va noverbal muloqotdir. Noverbal muloqot til, tovush nutqining qo‘llanilishiga asoslanmagan bo‘lib, bu mimika, imo-ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar vositasidagi muloqot. Bu boshqa odamdan qabul qilinadigan taktil, ko‘rish, eshitish, hid bilish, hamda, boshqa sezgi va tasavvurlar. Odam muloqotining noverbal shakl va vositalarning ko‘pchiligi tug‘ma bo‘lib, faqat o‘ziga o‘xshashlar bilan emas, balki, boshqa tirik jonzotlar bilan ham hissiyot va xulq-atvor darajalarida hamfikrlikka erishish orqali o‘zaro ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

Verbal muloqot faqat insonga xos bo‘lib, zarur shart sifatida tilni o‘zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o‘zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o‘zaro ta’sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Buyuk shoir Sa’diyning so‘zlarini yodda tutish lozim: «aqling bormi yoki yo‘q, buyukmisan yo kichik, biz bilmaymiz, sen bir so‘z atmaguningcha».[3] Verbal (nutq) muloqot tarkibiga: so‘zlar, iboralar ma’nosi va mohiyati kiradi. Asosiy o‘rinni so‘zning qo‘llanilish aniqligi, uning ifodalanishi va hammabopligi, tovushlar, so‘zlar talaffuzi, ohang ifodasi va mohiyati egallaydi. Nutqdagi tovush hodisalari: nutq jadalligi, tovush balandligi modulyasiyasi, tovush toni, nutq vazni, tovush sifati, ohangi, aniqligidan iborat. Tovush sifatining ifodalanishi: o‘ziga xos maxsus tovushlar: kulgu, hiqillash, yig‘i, pichirlash, xo‘rsinishlar va boshqalar; ajratuvchi tovushlar – bu yo‘tal; ahamiyatsiz tovushlar – tanaffuslar, shuningdek, nazalizatsiya tovushlari – «xm, xm», «e-e-e», «o-o-o» va boshqalar.

Tadqiqotlarga ko‘ra, odam kommunikatsiyasining har kungi aktida so‘zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo‘lmagan o‘zaro ta’sir – 53%ni tashkil etadi. Publitsiy aytganidek: «ovoz orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali suhbatlashamiz».[4]

Muloqotning amalga oshish jarayoni ma’lum davrlarga ega. Eng mas’uliyatli davr tayyorgarlik davri – muloqotni rejalashtirish, o‘zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishish. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, o‘zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o‘rnatilishi bilan yakunlanadi. So‘ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi. Keyingi bosqich – motivatsion yondashuv. Uning maqsadi – suhbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So‘ngra diqqatni mustahkamlash bosqichi boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolar bo‘lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi. Va nihoyat, natijalarni qayd etish bosqichi boshlanadi. Agar mavzular ko‘rib chiqilgan bo‘lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar,

yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba’zida ular ko‘p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Kundalik muloqotda odamlar ko‘proq quyidagi fanlar o‘rganadigan muloqotning noverbal vositalaridan foydalanadilar: kinestetika (inson hissiyotlarining tashqi ifodalanishi), mimika (yuz mushaklarining harakati), imo-ishoralar (tana alohida qismlarining ishoratli harakatlari), pantomimika (butun tana: gavda holati, qomat, egilish, yurish harakatlari), takesika (muloqot vaziyatidagi yaqinlashishlar: qo‘l siqish, o‘pishish, tegib ketish, siypalash, itarib yuborish va h.k.), proksemika (odamlarning muloqot vaqtida fazoda joylashishi, inson aloqalarida quyidagi masofalar sohalarini ajratadilar: yaqinlik sohasi (15-45 sm), shaxsiy yoki xususiy soha (45-120 sm), ijtimoiy soha (120-400 sm), ommaviy soha (400 smdan ortiq)).

Mimika, nigoh, imo-ishoralar – noverbal muloqotning ko‘proq ma’lumot olish mumkin bo‘lgan vositalari. Peshona, qoshlar, og‘iz, ko‘zlar, burun, iyak – bu yuz qismlari insonning asosiy hissiyotlari: hijron, g‘azab, shodlik, ajablanish, qo‘rqinch, nafrat, baxt, qiziqish, qayg‘u va boshqalarni ifodalaydilar.

Shunday qilib, tilshunoslikda muloqotning verbal va noverbal turi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
2. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
3. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
4. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.

ISTIQBOLLI KUZGI BUG‘DOY NAVLARINING HOSILDORLIGIGA SUG‘ORISH REJIMINING TA’SIRI

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
UrDU Biologiya kafedrasi dosenti
e-mail: yulduz.abdulaziz@gmail.com

Raximov Shuxrat Shoxzam o‘g‘li
UrDU Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: shuxrat2394@gmail.com

Yo‘ldasheva Shaxnoza Xasanboy qizi
UrDU Biologiya kafedrasi magistranti
e-mail: boss189151469@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm viloyati o‘tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doyning Asr navida sug‘orish tartibi va meyorining kuzgi bug‘doyning o‘sish va rivojlanish jarayonlariga ta’siri natijalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘orish tartibi, sug‘orish meyori, ekish meyori, unuvchanlik, hosildorlik, o‘tloqi tuproqlar, cheklangan dala nam sig‘imi.

ABSTRACT

The article examines the results of the influence of the order and norms of irrigation of the Asr variety of winter wheat on the growth and development of winter wheat in the conditions of alluvial soils of the meadows of the Khorezm region.

Key words: irrigation regime, irrigation rate, sowing rate, fertility, productivity, pasture soils, limited moisture capacity of the field.

Kuzgi bug‘doy – asosiy oziq-ovqat ekinlaridan biri bo‘lib, aholining don mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim o‘rin tutadi. Kuzgi bug‘doydan muntazam ravishda yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda sug‘orishni to‘g‘ri tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Kuzgi bug‘doy don ekinlari orasida namlikka talabchanligi nisbatan yuqori o‘simlik hisoblanadi. Kuzgi bug‘doyni maqbul sug‘orish rejimi va muddatida namlikka talabini qondirish orqali, yuqori hosil olish hozirgi kunning muhim vazifasilaridan biri hisoblanadi.

Kuzgi bug‘doy navlarini mintaqaning tuproq – iqlim sharoitini hisobga olgan holda to‘g‘ri tanlab joylashtirish, sug‘orishni to‘g‘ri tashkil qilish, don hosilini oshirish imkonini beradi.

Tajribamizni kuzgi yumshoq bug‘doyning Asr va Zimnitsa navlarida olib borildi. Zimnitsa navi nazorat nav sifatida tanlab olindi.

Tajribamizda Asr va Zimnitsa navlarining o‘sish rivojlanishi va hosildorligiga suv berish tartibining va miqdorining ta’sirini o‘rganilib, bir biriga taqqoslandi.

Ilmiy ish tajribasi Urganch davlat universiteti tajriba yer maydonida olib borildi. Tajribda kuzgi bug‘doyning Asr va Zimnitsa navlarining urug‘lari 2-oktabrda ekildi. Ekish meyori gektariga 4 mln unuvchan urug‘ hisobida. Sug‘orish tartibi CHDNSga nisbatan 70-70-60, 70-70-70 % qilib belgilab olindi. Tajribada 2 ta variantda va har bir variantning o‘zida 3 ta takrorlanishda ish olib borildi. O‘suv davri davomida tuproq namligi va yog‘ingarchiliklar hisobga olingan holda sug‘orish ishlari o‘tkazildi.

Tajriba davomida kuzgi bug‘doy urug‘larining unib chiqishi taxlil qilinda va quyidagicha natijalar qayd qilindi. (1-diagramma)

Kuzgi bug‘doy maysalarining unib chiqish dinamikasi

1- diagramma



Ushbu grafikdan ko‘rinib turganidek kuzgi yumshoq bug‘doyning Asr navining urug‘larining unib chiqishi o‘rganilganda tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % hisobida olib borilgan birinchi variantda unib chiqqan o‘simliklar soni 342 tani tashkil qilishi qayd etildi.

Zimnitsa navida CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % hisobida olib borilgan birinchi variantda unib chiqqan o‘simliklar soni 339 tani tashkil qilishi qayd etildi.

Tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70 % hisobida olib borilgan ikkinchi variantda Asr navida unib chiqqan o‘simliklar soni 351 tani qayd qilishi kuzatildi.

Tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70 % hisobida olib borilgan variantda Zimnitsa unib chiqqan o‘simliklar soni 348 tani qayd qilishi kuzatildi.

Kuzgi bug‘doyning unib chiqishi o‘rganilganda Asr va Zimnitsa navlarining o‘rtasida katta farq kuzatilmadi.

Kuzgi bug‘doy navlari ekilgandan keyin maysalar unib chiqib kech kuzgacha yani sovuq tushgunga qadar tuplanib ulguradi va o‘simliklar shu fazada qishlaydi.

Tuplanish fazasi o‘simliklarni qishlashi uchun qulay davr sanaladi, ular bu davrda sovuqqa chidamli bo‘ladi. Kuzgi bug‘doy kech muddatlarda ekilganda urug‘lar yoki urug‘larning unishi uchun yetarli miqdorda namlik bilan taminlanmasa sovuq tushguncha qadar yaxshi tuplanmasligi mumkin.

Bu davrlarda o‘simliklar sovuqqa chidamsiz bo‘ladi. Buning natijasida qishgi sharoitlarda kuzgi bug‘doy navlarining nobud bo‘lish extimoli ortadi va hosildorlikning kamayishiga olib keladi.

Tajriba davomida kuzgi bug‘doyning qishdan chiqqan o‘simliklar soni ham aniqlandi. (1-jadval)

1-jadval

Kuzgi bug‘doyning unib chiqishi va ko‘chat qalinligi

Nav	Tuproq namligi CHDNS ga nisbatan % hisobda	1 m^2 dagi soni dona hisobida		Nobud bo‘lgan o‘simliklar %
		Unib chiqqan o‘simliklar soni	Qishdan chiqqan o‘simliklar soni	
Asr	70-70-60	385,6	321,5	16,6
	70-70-70	388,2	326,7	15,8
Zimnitsa	70-70-60	382,9	322,3	15,8
	70-70-70	388,4	327,1	15,7

Tajriba natijalaridan ko‘rinib turganidek kuzg‘i bug‘doy Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60 % olib borilganda 1m^2 dagi o‘simliklar soni 385,6 tani tashkil qilgan. Qishdan chiqqan o‘simliklar soni esa 321,5 tani tashkil qildi. Shunga mos ravishda nobud bo‘lgan o‘simliklar 16,6 % tashkil etishi aniqlandi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60 % olib borilganda 1m ^{2} dagi o‘simliklar soni 382,9 tani tashkil qilgan. Qishdan chiqqan o‘simliklar soni esa 322,3 tani tashkil qildi. Nobud bo‘lgan o‘simliklar 15,8 % tashkil etishi aniqlandi.

Tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70 % olib borilganda Asr navida o‘rtacha 1m ^{2} dagi o‘simliklar soni 388,2 tani tashkil qilgan. Qishdan chiqqan

o‘simliklar soni esa 326,7 tani tashkil qildi. Shunga mos ravishda nobud bo‘lgan o‘simliklar 15,8 % tashkil etishi aniqlandi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70 % olib borilganda 1m ^{2} dagi o‘simliklar soni 388,4 tani tashkil qilgan. Qishdan chiqqan o‘simliklar soni esa 327,1 tani tashkil qildi. Nobud bo‘lgan o‘simliklar 15,7 % tashkil etishi aniqlandi.

Quyidagi jadvalda kuzgi bug‘doyning Asr va Zimnitsa navlarining boshoq uzunligi o‘rganildi va taxlil qilindi. (2-diagramma)

Kuzgi bug‘doyning boshoq uzunligi (sm)

2-diagramma



Boshoq uzunligi Asr navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % hisobida olib borilgan birinchi takrorda 8,4 sm, ikkinchi takrorda 8,4 sm, uchinchi takrorda 8,5 sm ekanligi aniqlandi. Takrorlar bo‘yicha o‘rtacha boshoq uzunligi 8,4 sm teng bo‘lishi ma’lum bo‘ldi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70 % hisobida olib borilgan variantida boshoq uzunligi birinchi takrorda 8,9 sm, ikkinchi takrorda 8,8 sm, uchinchi takrorda 8,8 sm ekanligi aniqlandi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70 % olib borilganda uchta takrorda o‘rtacha boshoq uzunligi 8,8 sm teng bo‘lishi ma’lum bo‘ldi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % olib borilgan variantlar taqqoslanganda boshoq uzunligi shunga muofiq ravishda 8,4 sm dan 8,8 sm oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % hisobida olib borilganda boshoq uzunligi birinchi takrorda 8,5 sm, ikkinchi takrorda 8,6 sm, uchinchi takrorda 8,5 sm ekanligi aniqlandi. Zimnitsa

navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % olib borilganda uchta takrorda o‘rtacha boshoq uzunligi 8,5 sm teng bo‘lishi aniqlandi.

Zimnitsa navining tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70 % hisobida olib borilgan variantida boshoq uzunligi birinchi takrorda 8,8 sm, ikkinchi takrorda 8,7 sm, uchinchi takrorda 8,7 sm ekanligi aniqlandi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-70 % olib borilganda uchta takrorda o‘rtacha boshoq uzunligi 8,7 sm teng bo‘lishi ma’lum bo‘ldi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % hisobida olib borilgan variantlar taqqoslanganda boshoq uzunligi shunga muofiq ravishda 8,5 sm dan 8,7 sm oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi.

Tadqiqotimiz davomida o‘rganilgan kuzgi bug‘doy navlarida boshoq taxlil qilinganda asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu – bitta boshoqdagi donlar sonidir. Ilmiy tadqiqot ishimizda boshoqdagi donlar sonini aniqlash uchun hisobli o‘simliklardagi boshoqlar yig‘ib olindi, qo‘l kuchi yordamida yanchildi, elaklarda elab tozalandi, so‘ngra donalab sanash orqali bitta boshoqdagi don soni aniqlandi.

Ushbu jadvalda kuzgi bug‘doyning Asr va Zimnitsa navlarining bitta boshoqdagi don soni aniqlandi. Bitta boshoqdagi don soni navlar va shunga mos ravishda variantlar bo‘yicha bir biriga taqqoslandi. (3-diagramma)

3-diagramma



Kuzgi bug‘doyning Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda boshoqdagi don soni birinchi takrorda 38,7 dona, ikkinchi takrorda 38,5 dona, uchunchi takrorda 39,1 donani tashkil etdi. Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda takrorlar bo‘yicha boshoqdagi don soni o‘rtacha 38,7 donani tashkil etdi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda boshoqdagi don soni birinchi takrorda 42,5 dona, ikkinchi takrorda 42,7 dona, uchunchi takrorda 43,1 donani tashkil etdi. Asr navida tuproq namligi CHDNS

nisbatan 70-70-70% olib borilganda takrorlar bo‘yicha boshoqdagi don soni o‘rtacha 42,7 donani tashkil etdi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % olib borilgan variantlar taqqoslanganda boshoqdagi don soni shunga muofiq ravishda 38,7 donadan 42,7 dona oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda boshoqdagi don soni birinchi takrorda 38,3 dona, ikkinchi takrorda 38,1 dona, uchunchi takrorda 38,4 donani tashkil etdi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda takrorlar bo‘yicha boshoqdagi don soni o‘rtacha 38,2 donani tashkil etdi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda boshoqdagi don soni birinchi takrorda 41,8 dona, ikkinchi takrorda 41,3 dona, uchunchi takrorda 41,5 donani tashkil etdi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda takrorlar bo‘yicha boshoqdagi don soni o‘rtacha 41,5 donani tashkil etdi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % olib borilgan variantlar taqqoslanganda boshoqdagi don soni shunga muofiq ravishda 38,2 donadan 41,5 dona oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi.

Kuzgi bug‘doyning Asr va Zimnitsa navlarining bitta boshoqdagi don vazniga navlar va shunga mos ravishda variantlar bo‘yicha bir biriga taqqoslandi. (4-diagramma)

4-diagramma



Kuzgi bug‘doyning Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda bitta boshoqdagi don vazni birinchi takrorda 1,47 gr, ikkinchi takrorda 1,46 gr, uchunchi takrorda 1,51 gr ni tashkil etdi. Asr navida tuproq namligi CHDNS

nisbatan 70-70-60% olib borilganda takrorlar bo‘yicha bitta boshoqdagi don vazni o‘rtacha 1,48 gr ni tashkil etdi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda bitta boshoqdagi don vazni birinchi takrorda 1,65 gr, ikkinchi takrorda 1,67 gr, uchunchi takrorda 1,71 gr ni tashkil etdi. Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda takrorlar bo‘yicha bitta boshoqdagi don vazni o‘rtacha 1,68 gr ni tashkil etdi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % olib borilgan variantlar taqqoslanganda bitta boshoqdagi don vazni muofiq ravishda 1,48 gr dan 1,68 gr oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi.

Kuzgi bug‘doyning Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda bitta boshoqdagi don vazni birinchi takrorda 1,42 gr, ikkinchi takrorda 1,44 gr, uchunchi takrorda 1,46 gr ni tashkil etdi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda takrorlar bo‘yicha bitta boshoqdagi don vazni o‘rtacha 1,44 gr ni tashkil etdi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda bitta boshoqdagi don vazni birinchi takrorda 1,63 gr, ikkinchi takrorda 1,61 gr, uchunchi takrorda 1,62 gr ni tashkil etdi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda takrorlar bo‘yicha bitta boshoqdagi don vazni o‘rtacha 1,62 gr ni tashkil etdi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % olib borilgan variantlar taqqoslanganda bitta boshoqdagi don vazni muofiq ravishda 1,44 gr dan 1,62 gr oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi.

Kuzgi bug‘doyning Asr va Zimnitsa navlarining 1000 dona don vazni navlar va shunga mos ravishda variantlar bo‘yicha bir biriga taqqoslandi. (5-diagramma)

5-diagramma



Kuzgi bug‘doyning Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda 1000 dona don vazni birinchi takrorda 37,7 gr, ikkinchi takrorda 38,1 gr, uchunchi takrorda 38,7 gr ni tashkil etdi. Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda takrorlar bo‘yicha 1000 dona don vazni o‘rtacha 38,2 gr ni tashkil etdi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda 1000 dona don vazni birinchi takrorda 39,2 gr, ikkinchi takrorda 39,7 gr, uchinchi takrorda 40,1 gr ni tashkil etdi. Asr navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda takrorlar bo‘yicha 1000 dona don vazni o‘rtacha 39,6 gr ni tashkil etdi.

Asr navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % olib borilgan variantlar taqqoslanganda 1000 dona don vazni muofiq ravishda 38,2 gr dan 39,6 gr oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi.

Kuzgi bug‘doyning Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda 1000 dona don vazni birinchi takrorda 37,1 gr, ikkinchi takrorda 37,3 gr, uchunchi takrorda 37,6 gr ni tashkil etdi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-60% olib borilganda takrorlar bo‘yicha 1000 dona don vazni o‘rtacha 37,3 gr ni tashkil etdi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda 1000 dona don vazni birinchi takrorda 38,8 gr, ikkinchi takrorda 39,2 gr, uchunchi takrorda 39,6 gr ni tashkil etdi. Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS nisbatan 70-70-70% olib borilganda takrorlar bo‘yicha 1000 dona don vazni o‘rtacha 39,2 gr ni tashkil etdi.

Zimnitsa navida tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-70-60 % va 70-70-70 % olib borilgan variantlar taqqoslanganda 1000 dona don vazni muofiq ravishda 37,3 gr dan 39,6 gr oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi.

Tadqiqotimiz natijalaridan xulosa qilishimiz mumkinki, namlikni yetarli taminlash orqali don vaznining ortishiga va hosildorlikning oshishiga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari; Nurmatov Sh., Mirzajonov Q., Avliyoqulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshaev SH., Niyozaliev B., Xoliqov B va b.; Shamsiyev A tahriri ostida.,Toshkent:O‘zPITI,2007., 132-139 b.

2. Комилов Б.С., Ибрагимов Н.М., Ражабов Т.Я. Суғоришнинг кузги буғдой ҳосилдорлигига таъсири.//Фермер хўжаликларида пахтачилик ва ғаллачиликни ривожлантиришнинг илмий асослари: Халқаро илмий-амалий конференция маърузалари асосидаги мақолалар тўплами. – Тошкент, 2006

3. Eshmirzayev K.E., Yusupov X.Y. Don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish. Toshkent. «Mehnat». 1995. 66-b.
4. Сиддиқов Р. Суғориладиган майдонларда ғалла етиштириш // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Toshkent, 2003. – №11. – В. 20-21.
5. Sug‘oriladigan yerlarda kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar – Andijon: 2003

QASHQADARYO VILOYATI AGRAR SOHASINI RIVOJLANISHI VA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI TAHLILI

Norqobilov Muzaffar Ravshan o‘g‘li
Qarshi muhandislik–iqtisodiyot instituti 5A230102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) 2 kurs magistranti
e-mail: shoxujaeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati agrar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi ulushi va mahsulot hajmi ko‘payishi bo‘yicha tahlillar qilingan va natijada olingan ma’lumotlar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: agrar sektor, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari, barqaror rivojlanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

ANNOTATION

This article analyzes the share of farmers, dehkans and personal subsidiary farms operating in the agricultural sector of Kashkadarya region in the production of agricultural products and the increase in production, and on the basis of the obtained data developed recommendations

Keywords: agricultural sector, farmers, dehkan farms and personal subsidiary plots, sustainable development, diversification of production, government support

KIRISH

Jahonda aholi soni oshishi bilan birga oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hajmi hamda jahon bozorlarida xaridorgir bo‘lgan mahsulotlar eksporti ko‘lamini oshirish singari dolzarb muammolarni hal etishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘rni ortib bormoqda. Zero, BMT ma’lumotlariga ko‘ra, “2050 yilga borib jahon aholisi soni 9,2 mlrd. kishiga yetishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni 70 foizga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda”[75]. Agrar sektorning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun samarali o‘zaro hisob-kitob mexanizmlarini ishlab chiqish va bu mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlash

[75]Позаботимся о будущем сельского хозяйства. – www.bayer.ru

ko‘lamini kengaytirish, agrar sohani rivojlantirishda uning iqtisodiy samaradorligini oshirish borasidagi ilmiy tendentsiyalar hisoblanadi.

METODLAR

Tadqiqot jarayonida qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishida tabiiy omillar ta’sirining yuqoriligi bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligini agrotexnik, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun investitsiyalar ajratish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari, suv xo‘jaligi ob’ektlari faoliyatining muntazamligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining texnika ta’minotini kuchaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, hosildorligi past yerlarda paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo‘jaliklarni qo‘llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi yo‘nalishlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qishloq xo‘jaligini strategik rivojlantirish doirasida o‘tkazilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, so‘nggi yillarda sohada yuqori sur’atlarga erishildi.

Yuqori sur’atlarda o‘sib borayotgan mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida, oziq-ovqat ekinlari maydonlarining kengaytirilishi hisobiga g‘o‘za ekin maydonlari qisqartirildi. Ozuqa ekinlari maydonlarining qisqartirilishi, chorva mollari va parrandalarni mustahkam ozuqa bazasi bilan ta’minlash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan takroriy, oraliq, qator oralig‘i ekinlarini ekish hisobidan qoplanayotganligi bilan izohlanadi.

